

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

SOTSIOLOGIYA



CH0000036336


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT
DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

Sotsiologiya

(Uslubiy qo'llanma)

Bakalavriat barcha yo'nalishlari bo'yicha



Toshkent-2015

ANNOTATSIYA

Ushbu uslubiy qo'llanma to'plamining mualliflari Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining «Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» kafedrasida sotsiologiya fanining katta o'qituvchisi bo'lib, universitetning barcha fakultetlarida sotsiologiya fanidan ma'ruzalar o'qiydi.

Sotsiologiyani o'rganishga kirishilar ekan, avvalo uning alohida fan ekanligi to'rtinchi ma'lumotlarni ya'ni predmetini, ob'yektini, vazifasilarini va boshqa fanlar bilan munosabatini, sotsiologik bilimlarning asosiy elementlarini va tizimini aniqlash, hamda uning taraqqiy etish yo'llarini istiqbolini belgilash muhim vazifalardan biridir. Ma'ruzalar bayonida muhim tayanch ibora va tushunchalarning qisqacha asosiy mazmunlari yoritiladi.

Uslubiy qo'llanma tuzish bo'yicha ishchi guruh a'zolari:

«Demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti» kafedrasida

Katta o'qituvchi X.Kadirova

Taqrizchilar:

Noshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti T. Sultonov

Nizomiy nomidagi TDPU, F.f.n. prof. Q.Mo'minov

Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy kengashining 2010 yil 27 maydagi 11-sonli qaroriga asosan to'lg'azilgan va qayta nashrga tavsiya etilgan

Nizomiy nomidagi TDPU

Kirish.

Sotsiologiya mustaqil fan sifatida baralla namoyon qilgan hamda xalqaro miqyosida keng tan olingan hozirgi zamonda, uning shaxs va jamiyat rivojlanishiga oid eng dolzarb muammolarni echishdagi roli tobora ortib bormoqda. Shu boisdan insorparvarlik salohiyati bepoyon bo'lgan mazkur fanni o'rganish, shu fanga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish, sotsiologik nazariy-metodologik va konkret-amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Sotsiologiya rivojining bir yarim asrdan ziyod tarixi, sotsiologik institutlar, markazlar, oliy o'quv yurtlarida, shu jumladan bizning mamlakatimizda ham maxsus sotsiologiya kafedralarining tuzilishi va ular faoliyati mazkur yosh fanning ma'lum yutuqlariga olib keldi.

Sotsiologiya fanini o'rganish jamiyatning yaxlit va bir butunligi bilan bir qatorda uning ziddiyatlarini ham tushunishga yordam beradi. Sotsiologiya shaxs, kollektiv va jamiyat o'zaro munosabatlarining qonun va qonuniyatlarini ochib beradi, shakllanayotgan yosh avlod dunyoqarashini beqiyos darajada kengaytiradi va ularning jamiyatdagi o'z o'mini anglashiga ko'maklashadi.

Hozirgi davrning keskin o'zgargan sotsial-siyosiy shart-sharoitlari oliy darajadagi mutaxassislikka, da'vogar shaxslarga qo'yiladigan talablarni yuksak darajaga ko'taradi. Yosh mutaxassislar o'zlarining kasb mahoratlarini muntazam, sistemali ravishda oshira borib, zamon qo'ygan muammo va echimlarni tez va ijodiy hal qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari lozim. Bunday imkoniyatni ularga yaratib beruvchi fanlardan biri sotsiologiya fanidir.

Sotsiologiya kursi shaxsning fuqarolik va professional jihatlarini, uning intellekti va ijodiy qobiliyatlarini, yalpi umuminsoniy madaniyatini shakllantirishga ko'maklashadi.

Ayniqsa, sotsiologiyani o'rganish bo'lajak o'qituvchi kadrlar uchun juda muhimdir. Chunki har bir psixologiya-pedagogikaga oid masala sotsial rivojlanishning o'ziga xosligi bilan chambarchas bog'liq. Sotsiologiyani pedagogik oliy o'quv yurtlarida o'qitilishining dolzarbligi yana shu narsa bilan bog'liqki, xalq ta'limi rivojlanishi, ravnaqi sotsial taraqqiyotning muhim dalilidir. Mazkur

ma'ruzalar to'plamida barcha ijtimoiy muammolarni muallimning tarbiyaviy-ma'rifiy faoliyati orqali tushuntirishga harakat qilinadi.

Sotsiologiya o'quv kursining maqsadi - shaxsga sotsiologik yondoshishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, shaxs sotsiallasuvi faktorlarini va uning sotsial hatti-harakatining asosiy qonuniyatlarini tushuntirish, talabalarga sotsiologik tahlil usullarini ularning profesional faoliyatida tadbiq qilish qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Sotsiologiya muammolarini ko'rib chiqishdagi umum metodologik yondoshish, birinchidan, kursning yalpi mazmuni va tuzilishida jamiyat rivojining o'ta muhim qonuniyatlarini aks ettirish zaruratidan, ikkinchidan, ijtimoiy hodisalarni tushuntirishda muqobil variantlarni tavsiya etish ehtiyojidan, uchinchidan, o'ta dolzarb va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tahlil qilish zarurligidan, to'rtinchidan, turli-tuman munosabatlar, aloqalar, faoliyatlar majmuasiga ega inson sotsiologik tadqiqotning markazida ekanligidan kelib chiqadi.

I-MAVZU

1-Mavzu. Sotsiologiya fan sifatida

1.Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar.Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Farobiy, Ibn Xoldun va boshqalar)

2.Sotsiologiya fanining fan sifatida vujudga kelishi tarixi

3.Sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti qonun,kategoriyalari, metod va metodologiyalari, fanning funksiyalari.

Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

1.Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar.Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Forobiy, Ibn Xaldun va boshqalar)

Jahon sotsiologiya fanining namoyondalaridan biri Robert King Merton (1910 yilda tug'ilgan) shunday degan edi: «Sotsiologiya – bu o'ta qadimiy predmetni o'rganish to'g'risidagi juda yoshfan». Bundan-da aniq ta'rifni topolmaysiz. Biz hozir jamiyat deb ataydigan ta'rifga insonlar qadim zamonlardayoq qiziqishgan. 2500 yil mobaynida mutafakkirlar jamiyatni tahlil qilishgan va unga ta'rif berishgan, biroq yig'gan bilimlarini sotsiologiya deb atashmagan. Jamiyat tuzilishi haqidagi dastlabki va ancha to'liq tasavvumi antik davr faylasuflari berishgan. Sotsiologiyani fan sifatida tasavvur etish uchun eng avvalo, uning vujudga kelishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ijtimoiy hayotning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan ta'limotlar, qarashlar eramizdan avvalgi IV asrdayoq yunon faylasuflari asarlarida yoritilgan.

Suqrot (er.av 470–399). Uhaqda Aflotuning «Suqrotni alqab» asari mavjud, uni faqat shu asar orqali bilish mumkin. Sababi, Suqrot yozgan asarlar bizgacha yetib kelmagan. U omma orasida ijtimoiy fikrlari bilan dong'i ketgan, obro' topgan mutafakkir hisoblanadi. Suqrot «Husndorlar o'z husnlariga dog' tushirmaslik uchun, xunuklar esa o'z xunukligini aql-zakovatini tarbiyalash bilan bezamoq uchun tez-tez ko'zguga qarab tursinlar», deydi. U xotiniga «Biz yashamoq uchun yeymiz, boylar esa ovqat yemoq uchun yashaydilar» degandi. Suqrotning ijtimoiy qarashlarini yana quyidagi fikrlardan bilsa bo'ladi: "Har qanday yomonlikning ildizi nodonlikda», «Haqiqatni o'zingdan izla». «Haqiqatga bahs orqali erishish mumkin».

Aflotun(er.av427347).Uning falsafiy qarashlari «Bazm», «Fedon» nomli dialoglarida, siyosiy qarashlari esa «Davlat»,«Qonunlar» nomli asarlarida bayon etilgan.Tarixiy manbalarda keltirilishicha, alloma o'zidan keyin 35 dan ortiq dialog tarzda yozilgan asarlar qoldirgan. Dialogda "insoh farovonligi"sharti sifatida quyidagilar keltiriladi:

- 1)g'oyalarning abadiy tabiyatda ishtirok etishi;
- 2) g'oyalarni haqiqatga aylantirish;
- 3) ongning mavjudligi bilimga ega bo'shliq;

4)ba'zi sof hissiy lazzat turlaridan, masalan,kuyning sof ohanglari yoki rasmdagi gullarning lazzatidan bahramand boshliq.

Uning "g'oyalar" to'g'risidagi asosiy fikri shulardan iborat.¹

Aflotun fikricha, olamda «g'oyalar dunyosi» birlamchi bo'lib, moddiy dunyo esa uning mahsuli, soyasidir². «G'oyalar dunyosi» zamon va makonga bog'liq bo'lmay, u mangu harakatsiz va o'zgarmas, haqiqiy dunyodir. «G'oyalar dunyosi»da eng oliy g'oya-yaxshilik va baxt g'oyasi – Xudodir. Boshqa g'oyalarning hammasi u bilan bog'liq.

3.Arastu(er.av.384–322) Uning «Metafizika» (yoki «Birinci falsafa»), «Fizika»,«Jon to'g'risida»,«Analitika» «Kategoriyalar», «Siyosat to'g'risida», «Ritorika», «Etika» kabiasarlari bilan sotsiologik an'analar rivojiga katta hissa qo'shdi. Uning ta'limoticha, jamiyatning qul va qul egalari ga bo'linishi, quldorlarning hukmronligi va qullarning qulligi tabiiy holatdir.Axloqiy fazilatlar faqat erkin kishilarga, qul egalari ga xosdir. U xalqni 2 yo'l bilan: qo'rquv urug'ini sochib hamda mehr-muhabbat qozonib boshqarish mumkin deydi. Platon va Aristoteldan keyin T.Gobbs, J.Lokk, J.Mil, G.Leybnits,T. Kampanella, B.Paskal', Sh.Montesk'e, J.J.Russo, F.Gizo, B.Konstan, M. Veber va boshqalar jamiyat va davlatni boshqarishdagi parlamentarizm muammolariga o'z munosabatlarini bildirganlar³. Yangi davmning mashhur mutafakkiri «J.Lokk o'z davridayoq fuqarolik jamiyatining xavfsizligi va uni muhofaza qilish institutlari genezisi haqida fikr yuritar ekan, xalq qonun chiqaruvchi hokimiyat senat, parlament deb yoki boshqa nomda atash mumkin bo'lgan mushtarak organ qo'liga berilmaguncha na xavfsizlikka,na xotirjamlikka ega bo'lmagan,na fuqarolik jamiyatida yashayapman deb hisetaolmagan»⁴ deb yozgan edi.

Sharqmutafakkirlariningsotsiologikqarashlari

1.Muhammad ibn Muso Xorazmiy (783-850) -Markaziy Osiyoning jahonga mashhur olimlaridan biri. U qomusiy olim sifatida dunyoga taniladi. Ko'proq Bog'dodda yashagan. Xalifa Ma'mun rahnamoligida Sharqning fanlar akademiyasi– Baytul-hikma» («Donishmandlaruyi»)da ishladi. U bu yerda juda ko'plab matematik, astronomik kuzatishlar olib bordi. Xorazmiy“ Ilmlar kalitlari” asarida ilmlarni 2qismga: 1)an'anaviy arab ilmlari va 2) ajam (arab bo'lmagan) ilmlarga ajratgan. Xorazmiy algebra fanining asoschisidir. «Algebra» so'ziuning tomonidan kashf etilgan, tenglamalarni yechish metodi esa «aljabr» bilan bog'liqdır. I.A.Karimov o'z asarida allomaga quyidagicha ta'rif beradi “**Muhammad Muso Xorazmiyning o'nlik sanoq sistemasini, algoritim va algebra tushunchalarini dunyoda birinchi bo'lib ilim-fan sohasiga joriy etgani va shu asosda aniq fanlar rivoji uchun o'z vaqtida mustahkam asos yaratgani umuminsoniy taraqqiyot rivojida qanday katta ahamiyatga ega bo'lganligini barchamiz yahshi bilamiz**”⁵

2.Abu Nasr Forobiy (873–950). U o'zining ko'plab ijtimoiy fikrlari bilan sotsiologik bilimlar rivojiga katta hissa qo'shdi.Uning «Fozil shahar aholisi qarashlari

¹Yo'ldoshev S., Usmonov M. "Qadimgi va o'rtaasr G'arbiy Yevropa falsafasi". "Sharq" nashriyoti.T.2003.-50-b.

²Bekmurodov M., Sultonov T. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matni.2000. - 23-b.

³Bobobekov A. Yuqori palata va parlamentarizm rivoj topishning asosiy yo'nalishlari. «Qonun himoyasida». 2004. 2-son. 22-bet.

⁴ A'liev B., Mullajonova M. Sotsiologiya.Darslik. T.: 201 - 19-b.

⁵Karimov I.A.Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch Ikkinchi nashri T.: «Ma'naviyat »,2010 - 41-b.

haqida kitob», "Ijtimoiy ahloqiy risolalar", "Falsafiy risolalar" kabi asarlarida olijanob jamiyat, adolatli tuzum, odil hukmdorlar haqidagi fikr –mulohazalarba yoritilgan.U o'zi yashagan davrning ijtimoiy tuzumini,uning ziddiyatlari va bu ziddiyatlarning kelib chiqishidagi muammolarni nazariy

Jihatdan tahlil qilishga uringan. Forobiy sotsiologiyaga doir quyidagi o'g'itlarni yozib qoldirgan:

1)Turli masalalar xususida fikr yuritish, ularning tarkibi, farqi, ehtimoli va mutloq mulohazalarni tiniq, puxta tahlil etish.

2)Keskin va mutlaq (ya'ni e'tirozga o'r'in qoldirmaydigan) mulohaza xususida fikr yuritish.

3)Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va bo'lmagan farqli mulohazalar xususida fikrlash, ularning qanday holatlarda qarama-qarshi kuchga aylanib qolishini o'rganish.

4)Bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlar, mulohazalarning qanday ko'rinishlarga ega ekanligini qayd etish.

5)Haqiqiy mezon asosida har bir mulohazaning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini tekshirish va ularning qandaya hvoldaligini o'ylab ko'rish.

6)O'zgaruvchan, o'zgarmas va o'zgaruvchi mulohozalarning o'zgarish ma'no va sabablarini bilib olish.

7)Ma'lum bo'lgan umumiy fikrdan kelib chiqmaydigan mulohaza ko'rinishlari xususida fikrga ega bo'lish.

8)Fikr–qarashlar ta'rifi, ularning nimalar asosida turishi,tarkib topganligini, ehtimolli va mutlaq fikr–qarashlar haqida ilmiy tasavvurlarga ega bo'lish lozim.

Demak,har qanday sotsiolog:

a) ijtimoiy fikr;b) har bir individ fikrini tahlil va sintezdan o'tkazishi kerak.

Forobiy fikricha, davlat-ijtimoiy tuzumni boshqaruvchi tashkilot, uni muvaffaqiyatli boshqarish esa ko'p jihatdan davlat boshlig'i, hokimning fazilatlariga bog'liq. «Fozillar shahrining birinchi boshlig'i-shu shahar aholisiga imomlik qiluvchi oqil kishi bo'lib,u tabiatan 12 xislat, fazilatni o'zida birlashtirgan bo'lishi zarur»,deydi. Bular:

1)hokimning to'rt muchchasi sog'-salomat bo'lib,o'ziga yuklangan vazifalarni oson bajarishil ozim;

2)nozok farosatli, xotirasi yaxshi, zehnli, fikrini ravshan tushuntira oladigan, bilim, ma'rifatga havasli bo'lishi;

3)taom yeyishda,ichimlikda, ayollarga yaqinlik qilishda ochofat bo'lmasligi, o'zini tiya oladigan bo'lishi va haqiqatni sevadigan, yolg'on va yolg'onchilarni yomon ko'radigan, oliyhimmat bo'lishi, oliy ishlarga intilish izarur;

4) mol-dunyo ketidan quvmaydigan;

5)tabiatan adolatparvar, istibdod va jabr-zulmni yomon ko'ruvchi, sabotli, jur'atli, jasur bo'lish, qo'rqqoqlik va hadiksirashlarga yo'l qo'ymaslik kabi xislatlardir.

Forobiy o'z zamonasining qomusiy olimlaridan biri bo'lib, ilk bor to'liq ilmlar tasnifini yaratdi. Uning «Kitob fiixsoal-ulum va at-ta'rifi» («Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi») yoki qisqacha nomi«Ixsoal-ulum» («Ilmlar tasnifi»)

3.Abu Rayhon Beruniy (973-1048). Beruniy Markaziy Osiyodagina emas, balki umuman Sharqda, jaxon fani va madaniyati tarixida ham eng ulug' va buyuk

mutafakkirlardan biri hisoblanadi. U o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar», «Minerologiya», «Hindiston» kabiasarlarida ijtimoiy hayot masalalarini yoritgan «Minerologiya» asarining muqaddimasida inson va uning ijtimoiy ahvoli, yerdagi burchi, olijanoblighi, jamiyat hayoti, ijtimoiy adolat to'g'risidagi qimmatli fikrlarni bayon etgan.

“Amerikalik fan tarixchisi Sarton XI asrni “Beruniyasri” deb ta'riflaydi. Beruniy ilmiy masalalarda ham tarixiy voqea – hodisalarga, o'z zamondoshlariga baho berishda ham o'ta xolislik va haqqomiylik bilan fikr yuntgan”⁶.

Beruniy tom ma'noda o'z davri etnosotsiologi ham edi. «Qadimgi xalqlardan qolgan tarixiy yodgorliklar» asarida turli xalqlar :forslar, yunonlar, yahudiylar, xristian-molikiylar va xristian-nasturiylar, majusiylar, sobitlar, budparast arablar, musulmon arablar, turklar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar yozib qoldirgan. «Hindiston» kitobida esa hind jamiyatining ichki tuzilishi, bu yerdagi xalqlarning urf-odatlarini, yil, oy va tarixiy sanalari, oilaviy munosabatlar, marosimlar, nikoh masalalari to'g'risida ishonchli fikrlar keltirgan.

Beruniy tabiat, unda cheksiz ravishda ro'y berib turadigan tabiiy hodisalar, jarayonlar xususida muhim ilmiy – falsafiy g'oyalarni ilgari suradi va isbotlab berdi. Olamda bo'lib turadigan o'zgarishlar, ya'ni tuzilish va buzilishlarning, paydo bo'lish va yo'qolishlarning o'ziga xos sabablari borligi haqida tabiiy – ilmiy va sotsiologik mulohazalarini o'rta tashlaydi.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov 1998 yili tarixchi olimlar bilan uchrashuvda shunday degan edi: «Abu Rayhon Beruniy bobomizning bundan o'n asr burun aytgan fikrlarini eslatib o'tmoqchiman: «Ilm – fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruratidan paydoh o'ladi»⁷.

4.Ibn Sino (980-1037) – U yg'onish davri madaniyatining yirik mutafakkirlaridan biri. U 400 dan ortiq asar muallifi edi. Uning yozgan asarlari ilmfanning barcha sohalariga talluqlidir. Shundan 242 tasi bizga etib kelgan. Alloma asarlaridan 80 tasi falsafa, ilohiyot, tasavvuf, 43 tasi tabobat, 19 tasi mantiq, 26 ta siesaruxshunoslikka bag'ishlangan. U Sharqda «Shayxur-raisi» – «Olimlar boshlig'i» deb nom olgan. «Kitob ash shifo» («Davolash kitobi»), «Donishnoma», «Najoat», «Kitob ul insof» («Adolat kitobi»), «Kitobal-qonun fit tib» («Tib qonunlari kitobi») va boshqa asarlari bor. Ibn Sino o'zining bir nechta falsafiy risolalarida insonlar o'rtasidagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy munosabatlarni atroflicha yoritib bergan. Mutafakkirning “Solomon va Ibsol”, “Yusuf qissasi” kabi asarlari bunga misol bo'la oladi. I. A. Karimov o'z asarida allomaga quyidagisha ta'rif beradi: **“Ibn Sinoning butun faoliyati dunyo taraqqiyotini insonparvarlik ruxida, ya'ni, ma'naviy negizda rivojlantirishga ulkan ta'sir otkazdi, deb aytishga barcha asoslar bor”**⁸

5.Ibn Xoldun (Ibn Xoldun Abdurahmon Abu Zayd (1332-1406)) arab tarixchisi va mutafakkiri. U o'zining asarlarida «Sotsiologiya» (arab ilmal-ijtimoiy) faniga oid dadil fikrlarni o'rta tashlagan va Sharqda haqli ravishda shu fan asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning «Kitobul-Ibar» (1370) asarining muqaddima

⁶Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Ikkinchi nashri. T.: «Ma'naviyat», 2010 - 42-b.

⁷Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999-150-b.

⁸Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Ikkinchi nashri. T.: «Ma'naviyat», 2010 - 43-b.

qismida tarixiy sotsiologik nazariyasi bayon etilgan. U insoniyat ijtimoiy fikri tarixida birinchi bo'lib, jamiyat, uning ichki rivojlanish qonuniyatlari va taraqqiyot an'analari haqidagi fanni yaratdi. Sharqning yetuk sotsiologi bo'lgan Ibn Xoldun «Muqaddima» (1381) asarining «Kirish» qismidagi dastlabki bo'limni «Kishilarning umumiy ijtimoiy hayoti to'g'risida» deb nomlagan. Ibn Xoldun sotsiologik ta'limotining asosiy mohiyati quyidagilardan iborat:

1) «Insoniyat jamiyati vujudga kelishining mohiyati sabablari, mavjudligi va mazmunli hayot kechirishning asosiy shart-sharoitlari, avvalo ularning (insonlarning) o'zaro munosabatlaridan iborat bo'ladi.

2) Tabiiy fizik–jo'g'rofiy muhitning hayotga ta'siri jismoniy qiyofa va kishilarning ruhiyatida ko'rinib, bu jarayonda ikki-tabiiy jo'g'rofik va ijtimoiy muhitbir – biri bilan bevosita munosabat va ta'sirda bo'ladi.

3) Tabiiylikdan yuqori bo'lgan kuchning jamiyat hayotiga ta'siri va bu ta'sirdan qutilish imkoniyatlari.

4) Insoniyat jamiyati kishilarning ana shu birikmasi birlashmasining natijasidir».

5) Bunday insoniyat uyushmalarini boshliqlar boshqaradi va uning tanlanishi Alloh tomonidan emas, balki insonning hayot vositalariga bo'lgan intilish va tabiiy ehtiyojlari tufayli sodir bo'ladi.

Ibn Xoldundagi bu qarashning yunon faylasuflari Arastu va boshqalarning «inson siyosiy mavjudotdir» degan g'oyasidan farqi ham shundadir.

6) Insonning ijtimoiy mavjudligini uning faqat ma'naviy tabiatidan emas, balki tabiiy ehtiyojlaridan keltirib chiqaradi.

Kishilar mavjud ekan, ularning ehtiyoj va intilishlari o'rtasida farq bo'lishi tabiiy va ayrim aholi guruhlari hamda shaxslar o'rtasida kelishmovchilik, qarama-qarashliklar sodir bo'ladi. Bu esa tartib o'rnatish va tashkil qilishishlarini o'rtaga qo'yadiki, buni «hokimiyat» amalga oshiradi. Bu g'oya ham Ibn Xoldun qarashlarining muhim xulosalaridandir.

Ibn Xoldun mulkni va mulkiy munosabatlarni tartibga soluvchi va himoya qiluvchi kuch esa davlatdir, deb yozadi.

Noroziliklarning bosh sababchisi hukmron sinf vakillarining adolatsizlik va zo'ravonlikka asoslangan siyosati natijasidir. Uning nazarida shoh 2 toifaga: adolatli va adolatsiz shohgab o'linadi. Yaxshi hukmdor shunday hukmdorki, uning siyosati kuchini xalqi zo'r-ba zo'r sezadi va u o'z fuqarolari bilan yumshoq, adolatli muomalada bo'ladi. Chunki o'z siyosatini adolata sosiga qurgan shohning fuqarolari kuchli va erkin bo'ladi, buning oqibatida ular qudratli yaratuvchi kuchga aylanadilar.

Shu bois mutafakkir shohlarga maslahat berib, xalq erkinligini haddan ortiq bo'g'maslikka va erkinlik berishga chaqiradi: «Agar tarbiya kuch ishlatish, qo'rqitish yo'li bilan bo'lar ekan, u xoh o'quvchi, xoh qul, xoh xizmatkor bo'lsin, ularga qo'rqinch tahdid qilib turadi, natijada fuqaro ruxining o'sishiga xalaqit beradi, harakatchanlikni so'ndiradi va uning o'miga yalqovlik, aldash, yolg'onchilikni kuchaytiradi. Bu sifatlar aynan shu zo'ravonlik ta'sirida sodir bo'ladi.

Qadim zamonlardan buyon jamiyatning mavjudligi va rivojlanishi to'g'risidagi bilimlar Sharq va G'arb mutafakkirlari umum falsafiy g'oyalarining asosiy bo'limi sifatida qaralgan. Jamiyat rivoji, siyosat, ahloq, fan, din va san'at muammolari

to'g'risidagi ilmiy qarashlar qadimgi Xindiston, Xitoy, Yunon faylasuflari, o'rta Osiyova Yevropa mutafakkirlari tomonidan aytib o'tilgan.

“Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkiri desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoiri desak, shoirlarning sultonidir”⁹
Ulug' ajdodlarimiz xotirasiga barpo etilayotgan yodgorliklar qatorida **Bel'giyada Ibn Sinoga, Litvada Mirzo Ulug'bekka, Moskva, Tokiova Boku shaharlarida Alisher Navoiybo bomizga, Misr poytaxti Qohira shahrida esa Ahmad Farg'oniy** xotirasiga haykallar o'rnatilgan.

1.2. Sotsiologiya fanining fan sifatidavujudga kelishi tarixi

Sotsiologiya (lotincha societas –jamiyat va yunoncha Logos – ta'limot) – so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, jamiyat haqidagi fan ma'nosini anglatadi. Aniqroq qilib aytganda, u yaxlit tizim sifatidagi jamiyat, alohida institutlar, ijtimoiy guruhlar, jamiyat tuzilmalari va ularda yuz beradigan ijtimoiy jarayonlarni o'rganuvchi fan. «Sotsiologiya» haqidagi tushuncha birinchi marotaba XIX asming 30 - yillarida fransuz faylasufi Ogyust Kont tomonidan ilmiy iste'molga kiritilgan. **Uning tushunishicha sotsiologiya jamiyatga talluqli bo'lgan hamma narsalarni o'z ichiga olgan jamiyatshunoslik bilan bir qatorda turgan.**Sotsiologiya – insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning tarkibiy qismidir. U XVIII asrda kishilik jamiyati va uning qonuniyatlarini o'rganuvchi mustaqil fan sifatida tarix falsafasida shakllandi. Ijtimoiy hayotning murakkablashuvi va ilmiy bilimlarning tabaqalanishi sotsiologiyaning falsafadan ajralib, mustaqil fanga aylanishini muqarrar qilib qo'ydi.

Sotsiologiya XIX asr boshlaridan boshlab o'ziga xos ilmiy metodlar asosida falsafadan ajralib chiqish imkoniga ega bo'ldi. Shunga ko'ra sotsial sistemaning taraqqiyoti va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlari haqidagi mustaqil fan sifatida XIX asr 30-yillarida ilmiy muomalaga «Sotsiologiya» atamasi kiritilgandan so'ng shakllandi. Jamiyat haqidagi «pozitiv fan» (haqiqiy fan) yaratishga urinish XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi.

Sotsiologiyaning asoschisi fransuz mutafakkiri **O.Kont sotsiologiyani jamiyat haqidagi tajribaga asoslangan fan deb hisoblaydi.**Uning vatandoshi **E. Dyurkgeym sotsiologiyaning predmetini sotsial dalillar haqidagi fan deb ataydi.**

Marksizmda sotsiologiyaning predmeti ijtimoiy tizim sifatida jamiyat va uning tuzilm av iyelementlarini tashkil etgan shaxslar, ijtimoiy birliklar, ijtimoiy institutlarni ilmiy asosda o'rganish hisoblanadi.

Kont kuchli davlat tarafdori, xususiy mulk himoyachisi edi, sinfiy totuvlikni keng targ'ib etdi. Ogyust Kont qashshoklikda vafot etdi. (1798-1857)Kontning asosiy asarlari:

- 6 jildlik “Pozitiv falsafa kursi” (1830-1842y);
- “Pozitiv falsafa ruxi to'grisida muloxazalar” (1844);
- “Pozitiv katexizis” (1851);
- Pozitiv siyosat sistemasi yoki insoniyat uchun dinni qaror toptiruvchi risola”

(4 jildli 1851-1854 yil);

⁹Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch.Ikkinchi nashri.T.: «Ma'naviyat»,2010 - 47-48.b

Uning vafotidan keyin "Ogyust Kont vasiyatları" (4 jildli) e'lon qilingan. Hozirgi kundagi adabiyotlarda sotsiologiyaga quyidagicha ta'rif berilgan:

XVII–XVIII asrlarda sotsiologiya fanining shakllanishida hal qiluvchi rolni o'ynagan «jamiyat», «madaniyat», «sivilizatsiya», «sinflar», «struktura», «funksiya» va boshqa atamalar ilk bor paydo bo'ladi.

«Sotsiologiya» atamasi faqat XIX asr boshida – 1838 va 1840 - yillar oralig'ida paydo bo'ldi. Uni fransuz olimi Ogyust Kont (1798–1857) yaratdi. Birinchidan, uni eng kuchli va samarali falsafiy yo'nalishlardan biri, ya'ni pozitivizmning asoschisi sanashadi. Ikkinchidan, u qudratli empirik fan – sotsiologiyani otasi hisoblanadi. O.Kont unga nom berdi, uning predmeti va metodlarini belgiladi. XIX asrda jamiyat to'g'risidagi tajribali, empirik fanning vujudga kelishi tasodif emas, balki muayyan gnoseologik va ijtimoiy – iqtisodiy shart-sharoitlarga ega edi. O.Kont yangi fanni yaratarkan, taxminan quyidagicha fikr yuritgan: «jamiyatni uning turli – tuman namoyon bo'lish jihatlarida anglash uchun falsafaning o'zi yetarli emas. Jamiyatni boshqa masalalar bilan bir qatorda emas, balki maxsus tarzda faqatunga e'tibor bergan holda o'rganadigan maxsus fan kerak. Jamiyat to'g'risidagi yangi fan mustaqil bilim sifatida shakllanishi uchun u bilishning falsafiy metodini rad etishi va o'zining metodini o'ylab topishi kerak. Ammo hozircha uning o'z metodlari yo'q ekan, sotsiologiya tabiatshunoslikdan kuzatish, eksperiment va solishtirma tahlil kabi usullarni o'zlashtirishi lozim». Fanga sotsiologiya nomini bergan O.Kont o'z ijodida taraqqiyot, siyosiy va iqtisodiy erkinlik ideallarga tayangan holda, u fan va ma'rifat yordamida barcha ijtimoiy muammolarni hal etish mumkinligiga umid qiladi. Nosog'lom jamiyatni qanday davolash mumkin, degan savolga O.Kont shunday javob beradi: «tabiatshunoslik fani qanday bo'lsa, jamiyat haqida ham xuddi shunday aniq va ob'yektiv fanni yaratish kerak». Sotsiologik g'oya jadal rivojlanayotgan Yevropa jamiyatidagi inqirozga javob bo'ldi. Yangi tafakkurning maqsadi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ochiq-oydin qilishi mumkin bo'lgan intellektual vositalarni rivojlantirishdan iborat edi.

O.Kontning vatandoshi **Emil Dyurkgeymni amaliy sotsiologiyani kashfiyotchisi deyishadi.** U hozirgacha qo'llanib kelinayotgan funksional tahlil metodologiyasini yaratgan, o'z joniga qasd qilish muammosini chuqur tahlil qilgan. Uning bu ishlari bugungi kunda ham sotsiologik tadqiqot qanday bo'lishi kerakligiga mukammal misol bo'lib xizmat qilmoqda. E. Dyurkgeym ayni paytda ham o'zining dolzarblik qiymatini yo'qotmagan anomiya nazariyasi asosini yaratgan. Uning ijtimoiy mehnat taqsimoti, mexanik va organik hamjihatlik, ijtimoiy fakt mohiyati, kollektiv ong va qadriyatlar, din evolyutsiyasi haqidagi ta'limoti jahon sotsiologiyasining oltin fondiga kirgan.

Nafaqat Fransiya, balki Germaniya ham jahonni buyuk sotsiologlari – Maks Veber, Georg Zimmel, Ferdinand Tenny bilan lol qoldirgan. Masalan, bugungi kunda Veberning 30 dan ziyod jildani borat asarlar to'plami nashr etilgan. Karl Marks (1818–1881) ijtimoiy nizo nazariyasi, jamiyat tuzilmasi va rivoji haqidagi ta'limot, ijtimoiy sinflar kontsepsiyasining asoschisi hisoblanadi. U umuman ijtimoiy faylasuflar orasidagi eng yirik shaxsdir. K.Marks bilan bir qatorda nemis mutafakkiri Maks Veberni (1864–1920) ham ko'rsatib o'tish zarur. Uni ikkilanmasdan sotsiologiyani Leonardo da Vinchi deyish mumkin. Uning asosiy nazariyalari

bugun sotsiologiya fanining poydevorini tashkil etadi: ijtimoiy harakat va motivatsiya, mehnatning ijtimoiy taqsimoti, begonalashuv, kasbga moyillik haqidagi nazariyalar. U din sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya va mehnat sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi asoslarini, byurokratiya nazariyasini, ijtimoiy stratifikatsiya va statusli guruhlar kontseptsiyasini, siyosatshunoslik va xokimiyat instituti asoslarini, jamiyatning ijtimoiy tarixi va ratsionalizatsiya haqidagi ta'limotni, kapitalizm evolyutsiyasi va mulkchilik instituti to'g'risidagi ta'limotni ishlab chiqdi. M. Veberning yutug'larini shu qadar ulkanki, ularni sanab tugatib bo'lmaydi. Ideal tiplarning kiritilishiuning metodologiya sohasidagi eng asosiy yutug'laridan biri hisoblanadi.

M. Veber, F. Tennis (1855–1936) va G. Zimmelning (1858–1918) sharofati bilan nemis sotsiologiya maktabi Birinchi jahon urushiga qadar jahon sotsiologiyasida ustunlik qildi. Angliyada jahon sotsiologiyasi faniga ijtimoiy evolyutsiya haqidagi nazariyani yaratgan va kishilik jamiyatiga tirik organizm sifatida qaragan Gerbert Spenser (1820–1903) ulkan hissa qo'shgan. F. Tennis o'zining «Jamoa va jamiyat» (1887) deb nomlanuvchi bosh asarida keyinchalik klassik tipologiyaga aylangan ijtimoiylik tipologiyasini, ya'ni bevosita shaxsiy va qarindoshchilik munosabatlari hukmron bo'lgan jamoa va formal institutlar ustuvor bo'lgan jamiyatni taklif qiladi.

Birinchi bosqichda (XIX asr oxiri – XX asr boshi) uchta mamlakat: Fransiya, Germaniya, Angliya jahon sotsiologiya fanining markazi hisoblangan. Albatta, boshqa mamlakatlarda ham milliy sotsiologiyaning rivoji uchun ko'p ish qilgan ajoyib mutafakkirlar bo'lgan. Rossiyada ular qatoriga N. Kareev, N. Mixaylovskiy, M. Kovalevskiy, V. Xvostovlarni qo'shish mumkin. Biroq ular jahon sotsiologiyasi rivojiga sezilarli ta'sirk o'rsata olmadilar. Pitirim Sorokin (1889–1968) bundan mustasno. Uni sotsiologik muammoni qamrashida universalligi, jahon sotsiologiyasiga qo'shgan nazariy va metodologik ahamiyati jihatidan M. Veber bilan tenglashtirish mumkin. Rossiyada tug'ilib, AQSHda vafot etgan aynan shu mutafakkir sotsiologiyaning dong'ini yoydi.

XX asrning 20-yillaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etayotgan keyingi bosqichda jahon sotsiologiyasi markazi AQSHga ko'chadi va bu yerda sotsiologiya faniga davlatdan ancha ko'mak va ko'pchilik universitetlarning katta yordami tegadi. Doktorlik darajasini beruvchi dunyodagi birinchi sotsiologiya fakulteti 1892 yili Chikago universitetida paydo bo'ladi. 1910 yilga kelib, Amerika universitetlari va kollejlarning aksariyati talabgorlarga sotsiologiya kurslarini taklif qila boshlaydi.

Emil Dyurkgeym (1858–1917) O.Kontning pozitivizm metodologiyasini chuqurlashtirdi, ko'p hollarda esa uni qayta yo'naltirdi. Dyurkgeym ijtimoiy faktlarga tayanishni va ularning statistik o'rganishni taklif qiladi: u bir ijtimoiy faktlarni (o'z joniga qasd qilish) boshqa ijtimoiy faktlar (integratsiya) yordamida tushuntiradi. Dyurkgeym zamonaviy sotsiologiyaning yangi metodologiyasini beradi. Uning metodologik pozitsiyasiga ikkita xususiyat xos: naturalizm – jamiyat qonunlarini tabiat qonunlariga o'xshashligi asosida tushunish hamda sotsiologizm – ijtimoiy voqelikning o'ziga xosligi va avtonomligini, uning individlardan ustunligini tasdiqlash. Dyurkgeymning ilmiyi jodida, butun frantsuz maktabidagidek singari, ijtimoiy hamjihatlik muammosi markazi hisoblanadi. Unga ko'ra insonlar jamiyatining rivoji ikki fazadan o'tadi: mexanik hamjihatlik (sanoatlashishdan

ilgarigi yoki an'anaviy jamiyat) va organik hamjihatlik (sanoatlashishdan ilgarigi, so'ngra esa sanoatlashgan jamiyat).

Sotsiologiya tabiatiga aynan yangicha nazari tufayli Amerika tez orada ilmiy sotsiologiyani yaratish borasida Evropadan o'zib ketadi. Ammo sotsiologlari ko'p bo'lishiga qaramasdan, Amerika dunyoga faqat bitta haqiqiy milliy oqimni—simvolik interakSIONIZ moqimimi va faqat bitta buyuk sotsiologni-Tolkott Parsonsni (1902–1979)bera oldi.Albert Eynshteyn fizikada amalga oshirishga intilgan nazariyasini T.Parsons sotsiologiyada ham xuddi shunday amalga oshirishga, ya'ni jamiyatning barcha darajalarini va ijtimoiy materiya harakatining barcha shakllarini tushuntirib bera oladigan keng qamrovli sotsiologik nazariyani yaratishga urindi.U kishilik voqeligining xilma-xil ko'rinishlarini qamrab oluvchi mavhum tushunchalarning ulkan deduktivtizimini yaratishga muvaffaq bo'ldi. AQSH mana shu xususiy sotsiologik nazariyalar borasida ancha muvaffaqiyat qozondi.Amerika dunyoga buyuk olimlarningeng ko'p sonli guruhini taqdim etdi:E. Shilz, P. Lazarsfeld,R. Merton, P. Blau, Ch. Kuli, J.Mid, R.Park, I.Gofman, J.Aleksander, D.Bell, T.Veblen, A.Gouldner, R.Mills, D.Rismen, U.Samner, A.Smoll, A.Toffler,J.Xomans. Ular zamonaviy sotsiologiyaning ilmiy mazmunini belgilab berishdi.Agar Yevropada sotsiologik g'oya falsafa bilan chambarchas bog'liq xolda rivojlangan bo'lsa, Amerika sotsiologlari orasida sotsial psixologiya keng tarqaldi. Ikkala madaniyat vakillari ham jamiyat evolyutsiyasi va faoliyatini tushuntirishga harakat qilishdi va buni turlicha usulda bajarishdi: yevropaliklar ko'proq global tarixiy sxemalarga suyanishsa,amerikaliklar konkret modellar va amaliy ishlanmalarga tayanishdi.

Amerikaliklar falsafiy sub stantsiya o'miga xulq-atvor va harakatga urg'u berishdi. Ularni idrok ichida yashiringan va aniq o'lchab bo'lmaydigan narsa qiziqitirmasdi, aksincha sirtida,ya'ni ochiq xulq-atvorda namoyon bo'ladigan narsa o'ziga tortardi.Shu tarzda XX asrning birinchi yarmida barcha ijtimoiy fanlarni (iqtisodiyot, ruxshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik) o'ziga bo'ysundirgan bixeviorizm (ingliz tilidan behavior-xulq-atvor) vujudga keladi. Endi ularga xulq-atvorga asoslangan, yoki bixevioral fanlar yorlig'i birlashtiriladi.Shu nom bilan,to'g'rirog'i xulq-atvorga asoslangan (XX asr boshida Yevropada bo'lganidek falsafaga asoslanmagan) sotsiologiya hozirgi kunlarga yetib keldi.

1.3.Sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti, qonun vakategoriyalari, metod va metodologiyalari, fanningfunksiyalari.

Zamonaviy sotsiologiyaning predmeti va ob'yekti.Fan predmeti—fundamental tushunchalarning mantiqiy o'zaro bog'langan va qarama-qarshi bo'lmagan tizimi xisoblanib, mazkur fanning tadqiqot usullariga yo'naltirilgan ob'yektiv reallik qismini ifodalaydi. Fan predmeti deb ataladigan tushunchalari ohida faqlarni muntazam, takrorlanadigan hodisalar bo'yicha tartibga soladi va tashkil etadi. Sotsiologni tanholigi yoki noyobligi emas,qonuniyligi yoki tipikligi qiziqitiradi.

Sotsiologiya bu ijtimoiy tizimlar, ularning vazifalari, ijtimoiy tizim va jamoalarning (dunyo, jamiyat, institut, guruh, tashkilot, oila, shaxs) harakatlanish va rivojlanish (faoliyati va o'zaro ta'siri) qonuniyatlari (qonuniyatlar, tendentsiyalar), haqidagi fandir. Sotsiologiya tabiiy va texnik fanlar bilan ko'pgina umumiylikka ega. Mazkur o'zaro munosabatlarning sababi shundaki, sotsiologik bilishnin gob'yekti

jamiyat hisoblanadi. Biroq «jamiyat» tushunchasini sotsiologiyaning predmeti sifatida dastlabki aniqlash uchun belgilash yetarli emas. Jamiyat barcha gumanitar fanlar tadqiqotining ob'ekti hisoblanadi. Tadqiq yetuvchining faoliyati yo'naltirilgan barcha narsalar bilish ob'ekti hisoblanadi. Bunga muvofiq ravishda sotsiologiya ob'ekti deganda jamiyatning yaxlit sotsial voqeligi tushuniladi, unda ob'yektiv ijtimoiy hodisalarni ajratishimiz mumkin (ya'ni ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy tashkilotlar, ijtimoiy jamoalar, ijtimoiy jarayonlar, ijtimoiy institutlar, ijtimoiy sub'yektlar).

Sotsiologiya predmetlariga shaxs, ijtimoiy guruhlar, jamoa va butun jamiyat faoliyati va rivojlanishi qonun va qonuniyatlari, shuningdek, jamiyatning ijtimoiy hayoti (sotsial sub'yektlarning ijtimoiy mavqelar, rollar, ijtimoiylashuv muammolari bo'yicha o'zaro ta'siri) kiradi. Zamonaviy sotsiologiya predmeti –uzoq vaqt davom etgan tarixiy rivojlanish natijasi bo'lib, ko'plab olimlar avlodlarining mehnatlari mahsulidir, ulardan har biri yangi bilim tamoyillarini qo'shib borgan, yuzaga kelgan vaziyatni ko'rib chiqqan, tanqid qilgan, bahs-munozara olib borgan, yangilik kiritgan, tekshirgan va shu yo'l bilan bugun sotsiologiya predmeti sohasiga kiritilganlarni barchasini elakdan o'tkazgan. Sotsiologiya predmetining bosh sababchisi ikkita tushuncha hisoblanadi –«status» va «rol». Birinchisi jamiyatning statistik, ikkinchisi esa dinamik tasvirini ochib beradi. Insonning guruhdagi yoki jamiyatdagi o'rni, holati status (mavqe) deb ataladi. To'ldirilmagan mavqelarning majmui bizga jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini beradi. Ijtimoiy mavqelar ijtimoiy munosabatlar bilan, shaxsiy mavqelar esa shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq. Sotsiologiya uchun insonlar qanday shaxsiy munosabatlarga kirishishlari emas, balki ular orasidan qandaydir asosiyroq bo'lgan harashlar, ya'ni sotsial munosabatlar muhimdir.

Jamiyat haqidagi fanlar umumiy tizimida sotsiologiya fani xususiyatini yuqorida zikr etilgandek tushuntirish, hozirgi zamon sotsiologiyasining predmetini shunday ta'riflashning imkonini beradi: Sotsiologiya jamiyatni murakkab ijtimoiy organizm sifatida o'rganadi. Sotsiologiya jamiyatni mavjud tarkibiy tuzilmalari mohiyati, ularning harakat tendentsiyalari va taraqqiyot qonuniyatlarini sotsial tashkil etilgan tizimda tadqiq etadi. Shuningdek, sotsiologiya asosiy e'tiborni jamiyatni xar-xil ijtimoiy va hududiy tuzum bosqichlarida vujudga keladigan keng ma'nodagi insonlar aro munosabatlari va jamoatchilik fikrini o'rganishga qaratuvchi fandir. Sotsiologiyafani jamiyatning turli sohalari iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy–axloqiy va boshqa tarmoqlarida tadqiqotlar o'tkazadi. Mamlakatimizda sotsiologiyaning roli ortib bormoqda, bu fanga umumiy qiziqish kuchaymoqda. Buni tushunish mumkin, chunki O'zbekistonda hozir yangi ijtimoiy–siyosiy va ma'naviy iqlimshakllandi. Ijtimoiy hayotning barcha jabxalarida o'zgarishlar kuzatilmoqda, sotsial tarkibda o'zgarishlar qayd qilinmoqda, yangi ijtimoiy institutlar va munosabatlar paydo bo'lmoqda. Vatanimizda sotsiologiya hech qanday to'siqsiz rivojlanish va mustaqil ijtimoiy fan sifatida o'zini anglash imkoniyati tug'ildi. Jamiyatimizda kuzatilayotgan ijtimoiy o'zgarishlar va jarayonlar sotsiologiya fanining diqqat markazida turibdi. Sotsiologik fikrlashning eng muhim jihati jamiyat hayotida inson shaxsini tushunishdan iboratdir. Shaxsga bo'lgan sotsiologik nuqtai nazarning o'ziga hosligi shundan iboratki, bu fan unga ijtimoiy voqeilikni

o'zgartiruvchi faol mavjudot sifatida qaraydi. Ijtimoiy institutlar ko'p jihatdan inson ahloqini ifodalaydi, ammo ayni shu vaqtning o'zida ular inson faoliyatining ifodasi va individlarning o'zaro ijtimoiy ta'siri xosilasidir. Jamiyat to'g'risidagi hozirgi bilimlarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ular sotsiologik fikrlashning kuchli ta'siri ostidadir. Jamiyatimizda kuzatilayotgan murakkab jarayonlarni sotsiologik tahlilsiz to'g'ri tushunish mumkin emas. Mamlakatimizda sotsiologiyaning keyingi rivojlanishi va takomillashtirilishi jamiyatni chuqur o'rganish va anglash, jamiyat oldida turgan o'tish davrining murakkab muammolarini ancha samaraliroq echishga imkon beradi.

G'arb sotsiologiyasi klassiklarining ishlarida sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti muammosi. Sotsiologiyaning turli yo'nalishlarida fanning ob'yekti va predmeti muammosini echish yo'lidagi g'oyaviy-nazariy izlanishlar.

Sotsiologiya - yaxlit ijtimoiy tuzum sifatida jamiyat haqidagi va uning ayrim tarkibiy elementlari (shaxslar, ijtimoiy birliklar, institutlar) orqali bu tuzumning amal qilishi va rivojlanishini o'rganuvchi fanidir. Sotsiologiya ob'ekti jamiyat hisoblansada, lekin sotsiologiya predmetining dastlabki bosqichi sifatida jamiyat tushunchasini ajratib ko'rsatish etarli emas.

Sotsiologiyaning ilmiy maqomini asoslashning mohiyati uning ob'yekti va predmeti o'rtasidagi farqdan kelib chiqadi.

Ob'yektni bilish – tadqiqot ob'yekti nimaga yo'naltirilganligi va ob'yektiv voqelik sifatida unga nima qarama-qarshi turganligini anglatadi.

Har qanday hodisa, jarayon yoki ob'yektiv voqelikning o'zaro munosabati turli fanlarning (fizika, ximiya, biologiya, psixologiya, iqtisodiyot, sotsiologiya va hokazolar) ob'yekti bo'lishi mumkin.

Predmet ob'yekt kabi ob'yektiv voqelikning bir qismi yoki uning elementlari yig'indisi bo'lib, umumiy yoki o'ziga xos xususiyatlarga ega. Har bir fan o'z navbatida predmeti nuqtai nazaridan farq qiladi.

Ijtimoiy xususiyatlarga ega bo'lgan kishilararo aloqalar, o'zaro bog'liqliklar majmuasi - sotsiologiya fanining ob'yekti vazifasini o'taydi.

Ob'yekt va predmet hamma vaqt bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Chunki, ob'yekt mohiyatni to'g'ri tushunish, ilmiy tadqiqot yo'nalishini xolis belgilay olish imkonini beradi.

Demak, sotsiologiyaning ob'yekti jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalaridir.

Sotsiologiya jamiyat haqidagi umumiy fan bo'libgina qolmay, balki maxsus sohalararo fan hamdir. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'z ob'yektiga ega. Uning o'ziga xos sohasi sotsial reallik bo'lib, u inson va jamiyat munosabatining ijtimoiy-madaniy muayyanligidir. Shu boisdan ham jamiyatdagi ijtimoiy aloqalar, ijtimoiy hamkorliklar, ijtimoiy munosabatlar va ularning o'zaro tashkil etilish usullari sotsiologiyaning ob'yekti bo'ladi. Insonlar o'zaro aloqalarga, hamkorlik munosabatlariga kirishishlari orqaligina muayyan ijtimoiy xususiyatlarni namoyon etish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

Sotsiologiya ijtimoiy muhitni tadqiq etganda umumiy illiy tushuncha va kategoriyalardan kelib chiqadi. Xususan, ob'yektiv va sub'yektiv, erkinlik va

zaruriyat, borliq va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib sotsiologik ob'yekt mohiyatni talqin etadi.

Sotsiologiya sotsial ob'yektni sotsial sub'yektlar orqali (shaxs, guruh, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) tahlil qiladi.

Sotsiologiya turli sotsial sohalarini tadqiq etish asosida ularning o'ziga xos ijtimoiy rivojlanish tendentsiyalarini aniqlaydi. Muayyan sotsial guruhlar tahlili va tasnifi orqali u jamiyat va inson to'g'risidagi umumiy qarashlar, qonunlar va tendentsiyalarini yaratadi, rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi.

Sotsiologiya o'z ob'yekti doirasida sotsial hayotning turli, alohida tomonlari bilan ham shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keladi. Jumladan, huquq sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi, iqtisodiyot sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya kabilar. Sotsiologiya bu sohalarda inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi o'rni, rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiya o'zining maxsus ob'yekti asosida yakka shaxs faoliyatining, konkret namoyon bo'lishining empirik darajasini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

O.Kont fikricha, ob'yekt va predmet qarama-qarshiliklardan iborat. Sotsiologiya ijtimoiy hayot jarayonlarini 3 bosqichda o'rganadi:

1. Aniq- empirik.

2. Xususiy (maxsus).

3. Umumiy.

Shunga muvofiq ravishda sotsiologiya empirik, maxsus va umum- sotsiologik tadqiqot jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Sotsial degan tushuncha sotsial aloqalar hamda munosabatlar va ularni tashkil etish usullari, sotsiologiya bilish ob'yektining o'ziga xosligini ochib bersa, sotsial qonuniyatlar esa sotsiologiya fani predmetini aniqlash uchun boshlang'ich nuqta hisoblanadi.

O'zbekiston sharoitiga moslab ,zamonabiy sotsiologiyada biz quyidagi o'rganish ob'yektlarini ajratamiz:

1. Ijtimoiy bosqich: (jamiyat, ijtimoiy qatlam, ijtimoiy guruh, mahalla, oila, shaxs)

2. Milliy boshich: (millat, elat, etnik guruh, avlod, milliy oila, individ)

3. Tarmoqlar bosqichi (iqtisodiyot, siyosat, madaniyat, fan, ta'lim, ma'naviyat va ma'rifat, ekologiya va boshqalar)

4. Xududuy bosqich: (*mintaqa, mamlakat, viloyat, shahar, tuman, qishloq, mahalla*).

Sotsiologiyaning predmeti:

Inson hayot tarizining konkret jihatlarini, odamlarning fe'l-atvori jamiyatdagi o'rni va intilishlaridan, turli hayotiy vaziyatlardagi takroriy harakatlaridan iborat. Vaholanki, oilada, ko'chada, transportda, do'konda, ishxonada, o'quv auditoriyasida, xullas barcha vaziyatlarda inson xulqining takrorlanuvchan ko'rinishlarini kuzatishimiz

mumkin. (Masalan, odam do'konga kirganida, sotuvchidan qanday muomala kutishni biladi).¹⁰

Sotsiologiyaning predmeti:

Agar fanning ob'yekti uning nimani o'rganish kerak degan savolga javob bersa, predmet esa o'sha ob'yektning qaysi jihatlarini o'rganadi? degan savolga javob beradi. Quyida sotsiologiyaga doir bir qancha ta'riflarni keltirib o'tamiz.

Sotsiologiya – insonlarning sotsial jamoalar va sotsial jarayonlarda tutgan o'rni, ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan fandir.

Sotsiologiya – ayni vaqtda jamiyat va shaxsning iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy hayotdagi faoliyati va ijtimoiy mazmunini o'rganadigan fan hamdir.

Sotsiologiya – jamiyat tuzilishi, uning elementlari va ularning yashash sharoitlarini va shu tuzumda sodir bo'layotgan ijtimoiy jarayonlarni o'rganadigan fandir.

Sotsiologiya – shaxsga ijtimoiy hayot qonuniyatlari orqali ijtimoiy muhitga ko'nikma hosil qilishga (adaptatsiya) ko'maklashadigan, shular bilan bir qatorda insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos, eng qulay variantini topishda va uni amalga oshirishda jismoniy, emotsional-psixologik va ma'naviy imkoniyatlarni ishga solishga yordam beradigan fandir. «Chunki hayot bor ekan, inson bor ekan, har qaysi toifa o'zining manfaatlarini qandaydir yo'llar bilan amalga oshirishga harakat qiladi, bu hayotni qanday tashkil qilish lozim, inson, oila qanday sharoitda tinch va baxtli yashashi mumkin,- degan masalalar atrofida fikr yuritadi, kerak bo'lsa, qonuniy yo'llar bilan o'z maqsadlariga erishishga intiladi». ¹¹

O'z navbatida sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng qulay variantlarni, ijtimoiy-madaniy modellarni topishdan iboratdir. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishga qaratilgan qonuniyatlardir.

Sotsiologiyaning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o'zaro binkuvchi va harakat qiluvchi tuzilma va mexanizmlar mohiyatini aniqlashdan hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini belgilashdan ham iboratdir.

Bugungi kunda sotsiologiya predmetining mazmun doirasida:¹²

1. **Falsafiy germenevtika** – yangicha tus berilayotgan naturalizmdan foydalanib, ularni yangicha talqin qilish (tendensiyasi).

2. **Gumanistik oqimni rivojlantirish** (tendensiyasi) tobora zalvorliroq mavqe kasb eta boshladi.

Shunday qilib, sotsiologiya aniq ijtimoiy tizimlar amal qilishining sotsial qonun va qonuniyatlari haqidagi, ushbu qonun va qonuniyatlarning shaxslar, ijtimoiy guruhlar, birliklar, sinflar, xalqlar faoliyatida namoyon bo'lishi va ta'sir ko'rsatishi mexanizmi haqidagi fandir.

Sotsiologiyaning mavqei, roli va o'zining nazariy va amaliy asoslanishida sotsial degan tushuncha asosiy hisoblanadi. «Sotsial» tushunchasi birinchi marta Karl Marks tomonidan qo'llanilgan. U odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabati, hayot

¹⁰ Bekmurodov M., Aliqoriev N. Umumiy sotsiologiya. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: 2002. - 11-b.

¹¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz-jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. T. «O'zbekiston», 2005. 12-13b.

¹² Aliev B., Raiqov G., Sultonov T. Sotsiologiya. O'qiyv qo'llanma. T.: 2006. - 7-b.

tarzi, sharoitlari va dalillarini hamda insonning jamiyatda tutgan roli, holatini tahlil etganida «Sotsial» munosabatlar tushunchasini qo'llagan.

Ma'lumki, sotsial u yoki bu xususiyatning va sotsial munosabatlarning o'ziga xos yig'indisidir. Har qanday sotsial munosabatlar tizimi (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) odamlarning bir-biriga va jamiyatga bo'lgan munosabatiga talluqli hisoblanadi. **Sotsial degan tushunchaning o'ziga xosligini xarakterlovchi quyidagi asosiy jihatlarni ajratib ko'rsatish mumkin.**

Birinchidan, bu xususiyat turli guruh, individlar uchun talluqli va ular tomonidan sotsial munosabatlarning u yoki bu xususiyatini integratsiyalash natijasi hisoblanadi.

Ikkinchidan, hozirgi sotsial munosabatlar (iqtisodiy, siyosiy va boshqa) bilan bog'langan individlarning va ularning guruhlar o'rtasidagi turli munosabatlarning mazmuni va xarakterini anglatadi.

Uchinchidan, sotsial jihat turli individ va guruhlarining bir-biriga, jamiyatda tutgan o'miga, ijtimoiy hayot, voqelik va jarayonlarga munosabatida namoyon bo'ladi.

To'rtinchidan, individlar o'rtasidagi aloqa va o'zaro ta'siming namoyon bo'lishi birgalikdagi faoliyat natijasi demakdir.

Sotsiologiya ijtimoiy hayotni u yoki bu formada va sohada o'rganar ekan, u avvalo sotsial voqelik haqidagi bilimlarni shakllantirish, sotsial rivojlanish jarayonlarini tasvirlash, tushuntirish, sotsiologiyaning asosiy metodologiyasini va sotsiologik tadqiqot metodlarini ishlab chiqish kabi ilmiy muammolarni hal etadi.

Sotsiologiyaning funksiyalari

Gnoseologik - (nazariy bilish) jamiyat to'g'risidagi yangi konsepsiyalar, sotsiologik bilimlarni olish imkonini beradi

Boshqarish - bevosita boshqarmaydi balki boshqaruvning yangi usullarini taklif etadi. Muammolarni hal etish yo'llarini ko'rsatib beradi

Axborot yetkazish - mutaxassislargagina emas balki jamiyat uchun ham

Tashviqot qilish - hamma sohada

Tashkillashtirish - birlashtirish, yo'naltirish siyosatda, ishlab chiqarishda, dam olishda

Bashorat - asosan siyosatda OAVlarda va boshqa sohalarda

Dunyoqarashlik funksiyasini

Metodologik funksiyasi

Ijtimoiy funksiyasi

Aksiologik(qadriyat) funksiyasi

Mafkuraviy funksiyani

Insonparvarlik funksiyasi

Sotsiologiyaning jamiyat hayoti bilan xilma-xil aloqasi, uning ijtimoiy vazifasi birinchi navbatda u bajarayotgan funksiyalar bilan aniqlanadi. Har qanday fanlar kabi sotsiologiyaning eng asosiy funksiyalaridan biri nazariya va amaliyotning birligidir.

Sotsiologik tadqiqotlarning ko'pchilik qismi amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilgan. Sotsiologiyaning amaliy yo'naltirilganligi shunda namoyon bo'ladiki, u ijtimoiy jarayonlarning rivojlanishi haqidagi ilmiy asoslangan ma'lumotni ishlab

chiqishga qodir. Shu holatda sotsiologiyaning **oldindan aytib berish funksiyasi** namoyon bo'ladi.

Jamiyat hayotida sotsiologik tadqiqotlardan ijtimoiy hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rejalashtirishda foydalanish katta ahamiyatga ega. Sotsial rejalashtirish ijtimoiy tizimqanday bo'lishidan qat'iy nazar hamma mamlakatlarda rivojlangan.

Sotsiologiya mafkuraviy funktsiyani ham bajaradi.

U birinchidan, tabiiy-tarixiy jarayonlarni anglash, jamiyat taraqqiyotining yaqin oradagi maqsadlarini va istiqbollarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Ikkinchidan, ilmiy va mafkuraviy munozarani boshqa qarashlar tizimi orqali olib borish.

Uchinchidan, aholi o'rtasida ilmiy va milliy mafkurani tarqatish.

To'rtinchidan, malakali mutaxassislarni tayyorlash va ular tomonidan ilmiy mafkurani har tomonlama o'zlashtirish. Sotsiologiya odamlar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga, uyg'un hissiyotlarni ijtimoiy munosabatlarga xizmat qildirib yaxshilashga ham yordam berishi mumkin.

Shu tufayli sotsiologiya **insonparvarlik funksiyasini** ham bajaradi.

Sotsiologiyaning metodlari

Metod deganda keng ma'noda u yoki bu masalani yechishda qo'llaniladigan usullar, qoidalar tushuniladi. Metodlar har qanday ilmiy bilishning muhim tashkiliy qismi hisoblanadi. Har qanday olim, hoh u huquqshunos, hoh sotsiolog yoki iqtisodchi bo'lsin, o'z oldiga ma'lum bir ilmiy muammoni qo'ya turib, uni u yoki bu metodlar yordamida hal qiladi.

U yoki bu fanda qo'llaniladigan metodlar yig'indisi shu fanning metodologiyasini tashkil etadi. Metodologiya qo'yilgan muammolarni yechish usullarini tanlash, ilmiy yechimning yo'nalishini va yetaplarini aniqlab beradi.

Sotsiologik metodlar deganda sotsiologik bilimni asoslab berish va ko'rish usuli, sotsial sistemalarni empirik va nazariy o'rganishning usul va amallari tushuniladi.

Sotsiologik nazariyalarni tashkil etishda, sotsiologik tadqiqotlar metodologiyasini tuzishda falsafa muhim o'rin egallaydi. Sotsiologning falsafiy dunyoqarashi uning sotsiologik konsepsiyasining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologiya fan sifatida umumilmiy metodlardan ham, o'zi uchun xarakterli bo'lgan metodlardan foydalanadi.

Sotsiologiyada qo'llaniladigan umumilmiy metodlarga matematik, induktiv, deduktiv, analitik, sintetik, tarixiy, modellashirish va boshqa metodlar kiradi.

Ehtimoliy jarayonlarni o'rganadigan fanlar qo'llaydigan metodlar sotsiologiyada ham qo'llaniladi: statistika va ehtimollar nazariyasi metodlari. Ularga **faktorli** (sotsial ob'yektlarning belgilari o'rtasidagi o'zaro aloqadorliklarini o'lchash va ularga asoslanib belgilar klassifikatsiyasini o'lchash), **latent** (respondentlarning ayrim savollarga bergan javoblaridan kelib chiqib, ularni ma'lum bir yashirin, ya'ni latent belgilariga ko'ra ajratish), **korrelyatsion analiz** (sotsial ob'yektlar belgilari o'rtasidagi statistik aloqalarni o'rganish) va shuningdek, **shkalalar qurish va analiz qilish**, ya'ni savol-javob, kuzatish yoki hujjatlarni analiz qilishda yig'iladigan sotsial

ma'lumotlarni baholashda foydalaniladigan instrumentlarning o'lchamli qismlarini ko'rish va analiz qilish protsedurası kiradi.

Sotsiologik tadqiqot bosqichlariga (stadiya) ko'ra esa muammolar, maqsadlar, vazifalar shakllanishi metodlari, ma'lumotlarni yig'ish metodlari (savol-javob, kuzatish, hujjatlarni o'rganish), ma'lumotni qayta ishlash metodlari (gruppalash, taqsimlash), ma'lumotni analiz qilish metodlariga (umumlashtirish, sifatli analiz, tipologizatsiya) bo'linadi.

Shunday qilib, sotsiologiya metodi tadqiq etilayotgan sotsial muammoga, ko'rilgan nazariyaga va umumiy metodologik yo'nalishga asoslanadi. Sotsiologik tadqiqotning unumdorligi sotsiologning sotsial voqea-hodisa va jarayonlar to'g'ri, yetarli ma'lumotlar olishda, ularni analiz qilish va umumlashtirishda qanday metodlardan foydalanganligi va vazifani qay darajada bajara olganligiga bog'liq.

Darajasiga ko'ra sotsiologiya metodlari ikkiga bo'linadi: nazariy va amaliy (empirik)

Sotsiologiya fanining murakkab vazifalarini **nazariy hal etishga xizmat qiladigan o'ziga xos metodlari** ham mavjud bo'lib, ularni quyidagicha tasniflash mumkin.

-Qiyoslash va taqqoslash

-Nazariy metod (fikrlash, abstraktlashdan konkretlik sari o'tish)

-Induktiv va deduktiv metod

-Izohlash metod

-Prognozlash metod (ijtimoiy to'qnashuvlar oldi olinadi)

-Integratsiya, umumlashtirish metod

Sotsiologiyaning **empirik-amaliy metodlarini** quyidagicha tasniflash mumkin.

-Eksperiment metod

-Kuzatish metod

-Hujjatlarni o'rganish metod

-So'rov metod

-Empirik-sotsiologik metod

-Statistik metod

-Integratsiya, umumlashtirish metod

-Umum mantiqiy metod (analiz, sintiz)

Sotsiologiyaning metodologiyalari:

1. **Funksional metodologiya** (jamiyatdagi hodisalarning ahamiyatini aniqlashga intiladi).

2. **Fenomenologik metodologiya** (jamiyat a'zolarining mavqeini aniqlashga harakat).

3. **Tasniflash metodologiyasi** (bu qo'llanishiga ko'ra klassifikatsiya, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirishlarni o'z ichiga oladi). Shuningdek, sotsiologiya fani muayyan ijtimoiy munosabatlarni tadqiq etish asnosida umumiy, maxsus hamda empirik metodologiya tamoyillariga tayanib ish tutadi.

Sotsiologiya ob'yektini turlicha tushunish natijasida metodologiyaning 3 asosiy turi shakllangan:

1. **Tushuntiruvchi** (umumiy qonuniyatlarni, ob'yekt xususiyatini xislatini belgilaydi, aloqa, munosabat o'rnatishni nazarda tutadi) metodologiya.

2. **Ta'riflovchi** (ya'ni tavsiflash, klassifikatsiyalash, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirish) metodologiya

3. **Tushunuvchi** (ya'ni, inson faoliyatini o'rganishda tabiiy hamda ijtimoiy fanlar qonuniyatlaridan uyg'unlashtirib foydalanishni taqozo etuvchi) metodologiya.¹³

Sotsial qonunlar va odamlarning sotsial faoliyati

Qonun deganda, odatda aniq vaziyatda umumiy, zaruriy va takrorlanishga xos bo'lgan jiddiy aloqa yoki munosabatlar tushuniladi.

Sotsial qonuniyat – sotsial voqelik va jarayonlarning jiddiy zaruriy aloqasini aks ettiradi.

Sotsial qonunlar sotsial munosabatlarni ham aks ettiradi. Bular xalqlar, millatlar, sinflar, sotsial-kasbkorlik guruhlari, shahar va qishloq, shuningdek, jamiyat va oila, jamiyat bilan shaxs o'rtasidagi munosabatlardir. Sotsial qonunlarni odamlar o'z hayotiy faoliyatlari uchun zaruriy bo'lgan sharoit ta'siri ostida qo'llaydilar.

Tabiat qonunlari kabi sotsial qonunlar voqealarning tabiiy harakati davomida paydo bo'ladi. Ular ko'pchilik individlarning ijtimoiy vaziyatda va ob'yektiv aloqalarda maqsadga muvofiq ta'sir ko'rsatishi natijasi hisoblanadi, kishilar o'z faoliyati davomida moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratishda qatnashadilar. Mahsulotni ayirboshlaydilar, taqsimlaydilar va iste'mol qiladilar, bolalarni dunyoga keltiradilar va tarbiyalaydilar, ularning irodasi va ongi bilan bog'liq bo'lmagan holda qonuniy voqealar zanjiri yuzaga keladi.

Sotsial qonun va qonuniyatlarni tadqiq etish, demak sotsial soha turli elementlari o'rtasidagi zaruriy aloqalarni o'rnatishdir.

Sotsiologik qonunlar sotsial sistemaning turli bosqichlarida namoyon bo'luvchi turli xil sotsial birliklar, tashkilotlar va institutlarga birlashgan odamlar o'rtasidagi mavjud o'ziga xos, muhim takrorlanib turuvchi aloqalardir.

Sotsiologik qonunlarni aniqlashda sotsial birliklar, tashkilotlar institutlardan tashkil topgan sotsial sistemaning o'ziga xosligini tasavvur qilishdan kelib chiqish kerak, bu komponentlarning yoki sotsial munosabatlarning o'zaro hatti-xarakatini o'rganish sotsiologik qonunning o'ziga xosligini belgilashda asos bo'ladi.

Sotsial sistemaning komponentlari o'rtasida, sotsial munosabatlarga kirishayotgan odamlar o'rtasida ularning sotsial sohadagi hayotiy faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiqadigan faoliyatlarining doimiy almashinib turishi ro'y beradi. Bu faoliyat odamlarning mavqeini, ularning jamiyat hayotidagi rolini o'zgartirishga, ularning ehtiyojlari va qiziqishlarini qondirishga qaratilgan bo'ladi.

Sotsial soha o'z kelib chiqishi, funksionalashuvi va rivojlanishida ma'lum bir qonunlarga bo'ysunadi. Bu qonunlarni butun bir jamiyat doirasida amal qiluvchi qonunlardan ajrata olish zarur. Aynan sotsial sohaga xizmat qilishga qaratilgan qonunlar sotsiologik qonunlar deyiladi.

Shunday qilib, sotsiologik qonunlar – sotsial sistemaning turli bosqichlarida namoyon bo'luvchi turli xil sotsial birliklar, tashkilotlar va institutlarga birlashgan

¹³Bekmurodov M., Sultonov T. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matini. T.: 2000. - 14-b.

odamlar o'rtasidagi mavjud o'ziga xos, muhim, takrorlanib turuvchi aloqlardir. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida uchraydigan har qanday aloqalarni ham sotsiologik qonun sifatida qarash mumkin emas, balki faqatgina sotsial sistema ichida yuzaga keladigan aloqalarni sotsial qonunlar sifatida qarash mumkin.

Sotsiologik qonunlar sistemalilik xususiyatiga ega, ya'ni ular faqatgina birgalikda sotsial sistemani bir butunlik sifatida tushuntirib beradi.

Sotsiologik qonunlar ikkiga bo'linadi: umumiy vaxususiy qonunlar.

1. Umumiy sotsiologik qonunlar:

a) barcha sotsial sistemalarning rivojlanishi davomida amal qiladi.

b) sotsial tizimlarning sotsial muhitda amal qiluvchi boshqa qonunlarining mohiyatini aniqlab berib, fundamental asoslarini aks ettiradi.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligini ifodalovchisi umumsotsiologik qonunlar.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish, iqtisodiy munosabatlarga nisbatan faol roli ham muhim sotsial qonuniyatdir. Masalan, sotsial birliklarda odamlar munosabatlarning yaxlitlanishi, jamoada shunga mos muhitning yaratilishi ishlab chiqarish rivojiga, umumiy holda jamiyatga ham bevosita ta'sir qiladi.

Ehtiyoj va qiziqishlarning sotsial shartlanganligi ham umum- sotsiologik qonuniyatga kiradi.

Shaxs shakllanishi sotsial mohiyatini ham umumsotsiologik qonunlar orqali o'rganiladi.

Umumiy qonunlar hamma ijtimoiy tizimlarda amal qiladi. Masalan, qiymat qonuni va tovar pul munosabatlari qonuni o'ziga xos qonunlarning amal qilishi bitta yoki bir nechta sotsial tizimlar bilan cheklangan (masalan, bir jamiyat turidan ikkinchisiga o'tish). Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish usullariga tobeligi umumsotsiologik qonundur. Insonlarning jamiyatdagi o'mi, ijtimoiy hayotdagi roli, ularning ehtiyoj va qiziqishlarining qondirilishi oxir-oqibat ishlab chiqarish munosabat bilan aniqlanadi. Inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishiga olib keluvchi mulkchilik munosabatlari ustun bo'lgan jamiyatlarda asosiy ishlab chiqarish vositalari egalari hukmron o'rin egallab, ishlab chiqarishda qatnashmay turib o'z ehtiyojlarini qondiradi va jamiyatni boshqaradi, ishlab chiqarish vositalariga yegalik qilmaydiganlar esa ular tomondan eziladi, boshqaruvdan yiroqlashadi, kam mehnat haqi oladi, o'z qobiliyatlarini realizatsiya qilishga yetarli imkoniyati bo'lmaydi va hokazo.

Mulkchilik munosabatlari insonni inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishini keltirib chiqarmaydigan jamiyatda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shuningdek, sotsial sohada ham, odamlar bir xil o'rin egallaydilar (hukmronlik qiluvchilar va mazlumlarni bo'lmaydi) ijtimoiy-siyosiy hayotda qatnashishda bir xil imkoniyatga ega bo'ladilar, ehtiyoj va qiziqishlarining qondirilishi esa har birining o'zi qo'shgan hissasiga bog'liq bo'ladi.

Sotsial munosabatlarning ishlab chiqarish – iqtisodiy munosabatlarga nisbatan aktiv roli ham muhim qonuniyat bo'lib keladi. Masalan, sotsial birliklarda odamlar munosabatlarning yaxshilanishi, kollektivdagi shunga mos muhit ishlab chiqarish rivojlanishga, umumiy holda jamiyatga ham bevosita ta'sir qiladi.

Ehtiyoj va qiziqishlarning sotsial shartlanganligi ham umumsotsiologik qonundir.¹⁴ Ehtiyojlar barcha shart-sharoitlar yig'indisi, avvalom bor ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasiga va ishlab chiqarish munosabatlari xarakteriga, u yoki bu sotsial birliklarning (sinflar, millatlar va b.) qiziqishlari va ideallarga bog'liq holda ham kelib chiqadi, ya'ni moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning turli sohalaridagi aktiv faoliyat, boshqa odamlar bilan muloqot, shaxsning shakllanishi jarayoni shunga mos ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ehtiyoj va qiziqishlar shartlanganligining o'ziga xosligi ishlab chiqarishning, turli sotsial sistemalarga mansub insonlar moddiy-texnik bazasining bir xil rivojlanish darajasi sharoitida ham turli xil, ba'zan qarama-qarshi ehtiyojlar va qiziqishlarning yuzaga kelishida namoyon bo'ladi.

Shaxs shakllanishida sotsial muhitning muhim roli – yana bir umumsotsiologik qonundir. Insonning boshqa insonlar, kollektivlar, birliklar bilan aloqasi va o'zaro hayoti shart-sharoitlari uning atrofida doimiy, uning jamiyatdagi o'rini, faoliyatini, xulq-atvorini, hayot tarzini belgilab beruvchi faktorlar kompleksini vujudga keltiradi. Sotsial muhitning holati, uning boyligi yoki nochorligi shaxsning bilimi, malakasi, fikrlari, kayfiyatini, demakki, uning u yoki bu hatti-xarakatini asoslashda sabab bo'lib keladi. Oxir-oqibat sotsial muhit sharoitlarining ma'lum ta'siri ostida, faoliyat va muloqot jarayonida shaxsning hayotga ma'lum bir munosabati, qadriyat va maqsadlari, ahloq-odob qoidalari haqidagi tasavvurlar, ma'naviyati, madaniyati, ongi shakllanadi.

2. Xususiy (maxsus) qonunlar. Sotsial tizimning alohida tuzilish sohalarida amal qiladi. Masalan, sotsial birliklar o'ziga xos hayot va faoliyat tarziga ega: sinfiy, milliy, oilaviy-kundalik va boshqalar.

Sotsial rivojlanish qonunlari ob'yektiv bo'lib inson ongi, irodasiga bog'liq bo'lmagan holda amal qiladi. Lekin ijtimoiy hayotda hech narsa insonsiz amal qilmaydi. Shuning uchun sotsial qonunlar inson faoliyati qonunlaridir, ularning xatti-harakatlari esa - omma va insonlarning, sotsial sub'yektlarning determinatsion mexanizmidir.

Bundan, agarda ijtimoiy jarayonlar insonlarning ongli amaliy faolisiz amalga oshmas ekan, unda sotsial qonunlarning ob'yektivligi haqida so'z borishi mumkinmi?,-degan savol kelib chiqadi. Albatta, sotsial sistemaning butun bir hayoti o'z oldiga ma'lum bir maqsadlarni qo'yuvchi va ularga erishuvchi ongli mavjudotlar – insonlarning faoliyatidir.

Ularning faoliyatlari bo'ysunadigan qonunlar, ular nimani va qanday bajarayotganligiga, munosabatlari bo'ysunadigan qonunlar esa qanday munosabatlarga kirishilayotganligiga bog'liq holda kelib chiqadi.

Jamiyatni yangilash, demokratik huquqiy davlat qurish, sotsial yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tishda davlat bosh islohotchi bo'lib keladi. Ob'yektiv qonunlardan maqsadli foydalanish, boshqarish mexanizmlarini ongli ravishda ko'rish asosida, ommaga tayangan holda faoliyatini amalga oshirsagina davlat bu vazifani muvaffaqiyatli bajarish mumkin.

¹⁴ Aliev B., Raiqov G., Sultonov T. Sotsiologiya. O'qyv qo'llanma. T.: 2006.-12-b.

Bu jihatdan qaraganda **sotsiologiyaning umumiy qonuniyatlari: ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalarda** amal qiladi.

Qonunlarni ularning namoyon bo'lishiga qarab dinamikaga(jo'shqin)oid va statikaga (turg'un) oid deb ajratib o'rganish mumkin.

Dinamikaga oid qonunlar ijtimoiy o'zgarishlarning omillari va formalari, yo'nalishlarini belgilaydi hamda aniq vaziyatda voqealarning davomiyligini anglatadi.

Statikaga doir qonunlar dinamik qonunlardan farq qilib, ijtimoiy voqelik bog'lanishini qat'iy belgilamasdan, faqat o'zgarishlarning yo'nalishini aks ettiradi.

Sotsiologik tadqiqot amaliyotida guruhlariga bo'lish katta ahamiyatga ega bo'lib, uning yordamida sotsiologik qonunlar aloqa formalariga qarab ajratiladi.

Sotsial qonunlar umumiylik darajasi nuqtai nazaridan farq qiladi. Sotsial sohani yaxlit holda rivojlantirishni xarakterlovchi qonunlar mavjud. Bu qonunlar sotsial sohaning alohida bo'laklarining rivojlanishini belgilaydi (masalan, sinflar, guruhlar, millatlar). **Sotsial qonunlarning beshta kategoriyasini ajratib ko'rsatish mumkin.**¹⁵

Birinchi, o'zgarmas xarakter kasb etuvchi yoki unga bog'liq bo'lgan qonunlar. Bu qonunga binoan «A»voqelik mavjud bo'lsa u holda, albatta «B» voqelik ham bo'lishi shart.

Ikkinchi, rivojlanish tendensiyasini aks ettiruvchi qonunlar. Unda ijtimoiy ob'yektning tuzilish dinamikasi bir turdagi o'zaro munosabatlardan ikkinchisiga o'tishi bilan bog'liq.

Uchinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi funksiyaga oid bog'langanlikni qaror toptiruvchi qonunlar. Bu qonunlar u yoki bu ijtimoiy tizimning barqaror holatda saqlab turilishini ta'minlaydi.

To'rtinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi sababiy bog'lanishni aks ettiruvchi qonunlar. Masalan, sotsial integratsiyaning eng muhim va zaruriy sharti bu ijtimoiy va shaxsiy manfaatlarni oqilonabirga qo'shib olib borish hisoblanadi.

Beshinchi, sotsial voqelik o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish mumkinligini anglatuvchi qonunlar. Sotsial qonunlar odamlar aniq faoliyati davomida ro'yobga chiqariladi.

Sotsiologiya fanining kategoriyalari,ilmiy atamalari.

Bular:

- ijtimoiy munosabatlar
- stratalar
- jamoalar
- madaniyat
- tendensiya
- jamoatchilik fikri
- shaxs va boshqalar

Bu ilmiy atamalardan tashqari **sotsiologiya fanining o'ziga xos fan mohiyatini ochib beruvchi kategoriyalaridan ham keng foydalaniladi.**

¹⁵Aliiev B., Mullajonova M. Sotsiologiya. Darslik. T.: 2011. 11-b.

Bular:
Anketa
Intervyu
Kuzatish
Eksperiment
Xujjat
Test
Sotsiologik tadqiqot va boshqalar

1.4.Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.

Sotsiologiya fani birinchi guruhga bog'liq bo'lgan, bevosita siyosatning o'zini o'rganuvchi fanlar: 1) Siyosat falsafasi, 2) Siyosiy institutlar to'g'risidagi ta'limot. 3)Xalqaro siyosat nazariyasi,4)Siyosiy tarix kabi fanlar bilan uzviy aloqada faoliyat yuritadi. Shuningdek, Sotsiologiya fani ikkinchi guruhdagi siyosatga yondosh fanlar bilan ham bevosita bog'liq. Ular: 1) Siyosiy sotsiologiya. 2) Siyosiy psixologiya. 3) Siyosiy antropologiya. 4) Siyosiy geografiya. 5)Siyosiy astrologiya fanlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Masalan, **Siyosiy sotsiologiya**-siyosatva jamiyat, ijtimoiy tuzum va institutlar, jarayonlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik to'g'risidagi fan bo'lib,u bevosita sotsiologiya bilan jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini birgalikda tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Sotsiologiya va siyosatshunoslik: Sotsiologiya fani siyosatshunoslik fani bilan uzviy aloqada bo'ladi. Sotsiologiya siyosatshunoslik uchun jamiyatda mavjud bo'lgan guruhlar o'rtasidagi munosabatlarga doir ko'plab ma'lumotlarni tayorlaydi va ynga yetkazib beradi. Sotsiologiya o'zining 2 yo'nalishi orqali siyosatshunoslik fani bilan yanada bog'lanadi:

a)Sotsiologiya va siyosat

b)Sotsiologiya va siyosat munosabat

Siyosiy sotsiologiya tushunchasi bizga ijtimoiy siyosatni, ijtimoiy hayotning siyosiy oqimini, ichki siyosatining ijtimoiy yo'nalganligini anglatadi. Sotsiologiya sistemasida siyosat sotsiologiyasi, davlat sotsiologiyasi, hokimiyat sotsiologiyasi, siyosiy munosabatlar sotsiologiyasi kabi yirik predmetlarning alohida predmeti sifatida mavjudligi bejiz emas.

Sotsiologiya va siyosatshunoslik fani ham siyosatning ijtimoiy muhitga qiladigan ta'sirini o'rganadi. Ammo siyosatshunoslik fanidan sotsiologiyaning farqi siyosiy sotsiologiya jamiyat a'zolarining ijtimoiy hayotida yuz beradigan o'zgarishlarga qanday munosabatda bo'lishini hamda mehnat jamoalari, aholi turli qatlamlarining fikr mulohazalarini umumlashtirish asosida xulosalar qiladi.Siyosiy sotsiologiyada qilingan xulosalar asosida amaliy ko'rsakichlarga, matematik hisob – kitoblarga asoslanadi

Ijtimoiy va gumanitar fanlar tizimida sotsiologiya alohida o'rinni egallaydi.Bu bir nechta holatlar bilan belgilanadi:

1. U jamiyat haqidagi, uning hodisalari va jarayonlari haqidagi fan hisoblanadi.

2. U o'z ichiga umumiy sotsiologik nazariyalarni yoki hamma ijtimoiy-gumanitar fanlarning nazariya va metodologiyasi hisoblangan jamiyat nazariyasini oladi.

3. U jamiyat va inson hayotiy faoliyatining turli tomonlarini o'rganuvchi ijtimoiy-gumanitar va sotsial sohani o'z ichiga oladi. Ya'ni, sotsiologiya - hayotning u yoki bu sohasini tadqiq etuvchi qonuniyatlardir.

4. Inson va uning faoliyati, texnik va uslubiy jihatdan o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, gumanitar va ijtimoiy fanlar tomonidan zaruriy jihatdan o'rganiladi va hisobga olinadi.

Falsafa, iqtisodiyot, tarix, siyosatshunoslik, psixologiya fanlari sotsiologiyaning shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisod fanlari bilan bog'liqligi: Iqtisod fanlari bilan sotsiologiyaning dialektik aloqadorligi moddiy ne'matlarni ishlab shiqarish, taqsimot, ayriboshlash iste'mol jarayonlarini o'rganishda ko'rinadi. Ayniqsa hozirda bozor munosabatlariga o'tish, mehnatga yangicha munosabat shakllanishi jarayonida uning ahamiyati juda katta. Iqtisodiyot sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi, kabi sotsiologiyaning maxsus sohalari iqtisodiyotga bog'liq masalalarni o'rganadi va muammolarni hal qilishga xizmat qiladi. Shu jihatdan sotsiologiya iqtisod fanlari bilan, ularni o'rganish ob'yekti bilan uzviy bog'liq. Iqtisodiy nazariyaning ilmiy g'oyalari yuqorida tilga olingan sotsiologiya sohalari metodologik asos bo'lib xizmat qilsa, o'z navbatida shu sohalarida olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari iqtisod fanlarining rivojlanishiga, iqtisodiyot muammolarini hal etishga xizmat qiladi.

Sotsiologiya fani rivojlanishi **umumiy va ijtimoiy psixologiya** fanlari bilan ham yaqin hamkorlikda bo'lishni taqozo etadi. Zero, u yoki bu jamoadagi mehnat unumdorligini o'rganishni maqsad qilib sotsiologik tadqiqot o'tkazilayotganda shu jamoa tarkibidagi individlarning hatti-harakatlari motivlarini aniqlash, ularning temperamentlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ilmiy xulosa qilishda, odamlar bilan jamoada muomala qilishni tashkil etish va ijtimoiy xulqni boshqarishda, albatta, ijtimoiy psixologiya qonuniyatlarini chetlab o'tish mumkin emas.

Sotsiologiya fanining **huquqshunoslik va iqtisod** ilmi qonuniyatlarini chetlab, ilmiy faoliyat yoritishi ham maqsadga muvofiq emas. XIX asrda faoliyat yuritgan sotsiologiya ilmi asoschilarining deyarli barchasi ijtimoiy fanlarni chuqur o'zlashtirish va qator falsafiy-gumanitar asarlar yaratish asosidayangi tug'lajak sotsiologiya fani sarhadlarini belgilab berganlar.

Sotsiologiya va huquqshunoslik: Huquqiy fanlar sotsial va siyosiy qarorlarning huquqiy mexanizmini ishlab chiqish va uni amalga osirishni o'rganadi. Sotsial jamiyatdagi siyosiy hokimiyat, shaxslar ijtimoiy norma va munosabatlar hechqachon umum majburiy xarakter kasb eta olmaydi.

Sotsiologiya fani ayniqsa statistika fani bilan mustahkam, ham yaqin aloqada rivojlanadi. Bu ikki fanning o'zaro aloqalari shu qadar yaqinki, sotsiologiyaning rivojlanishini statistik yondashuvlarsiz tasavvur qilish qiyin. Har bir sotsiolog muayyan mavzuda sotsiologik tadqiqot o'tkazishni maqsad qilib qo'yar ekan, u albatta, shu sohadagi predmetning konkret holati va ahvolini, real voqelik manzarasini statistika manbalaridagina topa oladi. Keng ko'lamdagi konkret sotsiologik

tadqiqotlarning statistik idoralar xodimlari bilsn hamkorlikda o'tkazilishi ijobiy samaralar beradi.

Keyingi yillarda sotsiologiya fanida konkret sotsiologik tadqiqotlar amaliy natijalarining hayotga faolroq va ko'proq tadbiq etila borishi uning ahloq, estetika, meditsina va pedagogika, rejalashtirish nazariyasi va boshqaruv singari fanlar bilan aloqasini yanada mustahkamlamoqda.

Sotsiologiya va jurnalistika: Jurnalistikani sotsiologiyasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uning vazifasi kishlar turmushini yaxshilashga yordam bera oladigan haqiqiy axborotni aholi o'rtasida tarqatishdir. Jurnalistlarda sotsiologik tafakkur, voqelikni sotsiologiya metodlari o'rganish ko'nikmalarining mavjudligi ularning professional va siyosiy madaniyatidan guvohlik beruvchi yetuklik zarur belgisidir.

Sotsiologiya faning rivojlanishi uchun antropologik yo'nalish juda muhim ahamiyatga ega, chunki u turli tuman ijtimoiy hayotning kaleydoskopini ko'rish imkonini beradi. Ularni o'z hayotimiz bilan solishtirar ekanmiz, xulqimizning o'ziga xos noyob xususiyatlari to'g'risida ko'proq narsa bilib olamiz¹⁶.

Sotsiologiya va tarix: Sotsiologiya va tarix fanlari jamiyat hayotini izchil tarzda o'rganadi. O'tmish tariximizni yaratishda buyuk tarixchi mutafakkirlar sotsiologiya usullaridan keng foydalanganlar. Chunonchi, tarixiy ma'lumotlarni, manbalarni to'plash, ularning haqqoniyligini aniqlash, tarixiy voqealar guvohlarining xotiralaridan keng foydalanilgan. Masalanat- Termiziy, Imomal-Buxoriy kabi xadissahunoslar, Abu Rayhon Beruniy, Sharofiddin Ali Yazdiy, Xondamir kabi buyuk mutafakkirlar, o'zlarining tarixiga oid qimmatli asarlarini yaratishda sotsiologiya usullaridan unumli foydalanganlar.

Sotsiologiya fani falsafadan ajralib, mustaqil fan sifatida taraqqiy etayotgan bo'lsada, ularning aloqasi uzviydir. Falsafa sotsiologiyaning nazariy-metodologik asosini tashkil etadi. **Sotsiologiyaning falsafa bilan uzviy aloqasi** shunda ko'rinadiki, umumsotsiologik nazariyalar va amaliy sotsiologik tadqiqotlar ma'lum metodologik asosga tayanadilar. Shunday asosni esa falsafa fani yaratadi. Sotsiologiya falsafaga nisbatan mustaqillikni shunga asoslanib e'lon qiladiki, u o'z oldiga ijtimoiy muammolarni, voqelikni ilmiy anglash usuli asosida hal etish vazifasini qo'yadi.

Tabiiy fanlar bilan bog'liqligi: Asrimizning keying bosqichida jamiyat bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarining keskinlashuvi— sotsiologiyaning tabiatshunoslik fanlari bilan aloqadorligini kuchaytirdi. Insonning tabiatga, tabiiy muhitga ta'siri ortib bormoqda. Ekologik, demografik vaziyatning keskinlashuvi sotsiologiya fanini bevosita ushbu muammolarni hal etishga jalb qiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasini matematikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Matematika usullarisiz sotsiologiya mavhum qarash bo'lib qoladi. Ayniqsa uning empiric darajadagi konkret sotsiologik tadqiqot o'tkazishdagi o'rni katta.

Umuman sotsiologiya tabiiy fanlar bilan ham uzviy bog'lanib ketgan. Sotsiologiyada raqamlar yordamida turli ijtimoiy munosabatlar tadqiq qilinadi, o'lchanadi va uning natijalari ommaviy axborot vositalari orqali habar qilinadi. Sotsiologiya faning rivojlanishi uchun antropologik yo'nalish juda muhim

¹⁶ Giddings E. Sotsiologiya. — Toshkent, 2002. — 42-b.

ahamiyatga ega, chunki u turli tuman ijtimoiy hayotning kaleydoskopini ko'rish imkonini beradi. Ulami o'z hayotimiz bilan solishtirar ekanmiz, xulqimizning o'ziga xos noyob xususiyatlari to'g'risida ko'proq narsa bilib olamiz.

Sotsiologiyani asosiy muammo va vazifalari.

Sotsiologiyani asosiy muammolari uning predmeti sohasidan kelib chiqadi. Turli sotsiologik maktablar va sotsiologik bilimni tashkil etuvchi aniq sistemalarning nazariy yo'nalishlarida kamchiliklarni hisobga olish zarur:

1. Predmet va ob'yektni tenglashtirish;

2. "Sotsial" tushunchasini aniq ta'riflab bera olmaslik;

3. Sotsiologiyani markaziy muammosi – sotsial tizimlarni o'rganishga bog'liq masalalar kompleksidir. Bu birinchi navbatda quyidagilarni tadqiq qilishdan iborat:

- sotsial tizimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi;

- sotsial tizimlar komponentlarining tuzilishi (sotsial birliklar va guruhlar, sotsial tashkilotlar, sotsial institutlar);

- sotsial sistemalarning (ular komponentlarining o'zaro aloqa va o'zaro hatti harakati usullari) strukturasi va sotsial bir butunlikning barqarorligini saqlab qolish va tartibga keltirishdagi roli;

- sotsial tizimlarning, ularning strukturalari va komponentlarini qayta ishlab chiqarishning mexanizmi va shart-sharoitlari¹⁷;

Sotsiologiya tomonidan sotsial tizimning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish uning jamiyat strukturasi tashkil etuvchi komponentlar, u yoki bu sotsial birliklarni, sotsial tashkilotlarni, sotsial institutlarni keltirib chiqarish mexanizmi, shuningdek, sotsial sohadagi sotsial munosabatlar bilan o'zaro aloqada tadqiq etishni talab qiladi.

Bundan kelib chiqib, sotsiologiyani vazifasi sotsial tizimlarning har bir komponentining o'ziga xosligini, ular bajaradigan ma'lum bir vazifalarni o'rganishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi davrda, bozor munosabatlariga o'tishda, sotsial tizim strukturasi tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu sotsiologdan tadqiqotga ilmiy, ijobiy yondashishni talab qiladi, chunki hozirgi o'tish davrida yuzaga kelayotgan sotsial muammolar yangicha va ilgari ancha farq qiladi. Masalan, ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, ishbiarmonlik faoliyatini tashkil etish bilan bir qatorda yangi sotsial guruhlar (masalan, o'rta mulkdorlar sinfi) vujudga kelmoqdaki, ular jamiyatda sotsial-sinfy munosabatlarga yangicha kasb etmoqda. Jamiyatning sotsial-sinfy differensiyasi kriteriyalari haqidagi eski tasavvurlar bu sharoitda yetarli bo'lmay qolmoqda, sotsial guruhlar klassifikatsiyasining yangi asoslarini topish, ularning jamiyatdagi o'rnini va ijtimoiy hayotdagi rolini aniqlash zarur bo'lib qoladi.

Sotsiologlar uchun faktlar va sotsial vaziyatlarni ularning konkret namoyon bo'lishida o'rganish vazifasi muhim ahamiyatga ega. Odamlarning sotsial birliklarning sotsial faktlar sifatidagi faoliyati, ularning ma'lum bir sotsial vaziyatda namoyon bo'lishini o'rganish muhim va aktualdir.

¹⁷Xan S., Xan V. Sotsiologiya. Toshkent. «Adolat». 1999.- 13-16- b.

Sotsiologiyaning asosiy muammolaridan biri – shaxsning sotsial tizimdagi oʻrni, qanday va qay tarzda u yoki bu shaxs jamiyatning hayotiy faoliyatida qatnashishi, bunda u qanday asos va stimullarga asoslanishi haqidagi masalalarni oʻrganishdir. Shaxsning ijtimoiylashuvidagi shart-sharoitlarni oʻrganish ham muhimdir. Turli sotsial birliklarning tabiati, xususiyati, ehtiyoji va qiziqishlarining namoyon boʻlishini tadqiq qilish vazifasi oʻzi bilan sotsial munosabatlarni oʻrganish bilan bogʻliq bir qator vazifalarni keltirib chiqaradi.

Huquqiy demokratik davlat qurish yoʻlidan borayotgan jamiyat oldida kollektivizm, sotsial adolat, shuningdek, barcha millatlarning, sotsial guruhlarining umumiy kelishuvi yoʻlidagi hamkorliklari, uning barcha aʼzolarining sotsial tengligini taʼminlash, ularning jamiyatdagi oʻrnini yaxshilash, jamiyatni yangilashda va progressida inson faktoridan maksimal darajada foydalanish masalalari bilan bogʻliq muammolarni yechish vazifasi turadi. Sotsiologiya fanining vazifasi shu barcha sotsial birliklar, sotsial tashkilotlar va sotsial institutlar doirasida oʻzaro harakat qiluvchi odamlar, sotsial guruhlarining sotsial oʻrni va sotsial qiyofasidagi oʻzgarishlar bilan qonuniy aloqalarini oʻrganishda namoyon boʻladi.

Jamiyat hayotida shunday davrlar boʻladiki, oʻz umrini yashab boʻlgan eski tuzum qonun-qoidalarini yangicha asosda oʻzgartirish, barcha sohalarda keng koʻlamli islohotlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak boʻlsa, hayot-mamot masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi.

Chunki har qanday islohotning pirovard natijasi avvalo uning zaruratini aholining keng qatlamlari qay darajada tushunishi va qoʻllab-quvvatlashi, bu oʻzgarishlarning inson hayotiga, uning farovonligini oshirishga koʻrsatadigan amaliy taʼsiri bilan oʻlchanadi. Ana shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, odamlarga islohotlarning maʼno-mohiyatini aniq ravshan tushuntirib berish, shu asosda jamiyat aʼzolarida ishonch uygʻotish, ularni bunyodkorlik sari safarbar etish muhim ahamiyatga ega.

Sotsiologiya milliy mafkurani shakllantirish, yaratish jarayonida alohida oʻrin tutadi. Eskirib qolgan dunyoqarash, eskicha moddiy va maʼnaviy munosabatlar oʻz oʻrnini yangisiga osonlikcha boʻshatib bermaydi. Buning uchun maʼlum vaqt kerak. Sotsiologiya shu vaqt davomida maʼnaviyatda roʻy berayotgan oʻzgarishlarni aniqlashga va ilmiy asosga ega boʻlgan tadbirlar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, milliy davlatimiz ijtimoiy tizimdagi mavjud sistemalar tarkibiy-funksional holatini sotsiologik tadqiqotlar orqali aniqlash va oʻrganish muammosi ham hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biridir. Ularning ichida milliy tuzilish va turli millatlarning oʻzaro ahil yashashini taʼminlovchi omillarni kuchaytirish yoʻllarini aniqlash; oila, yoshlar bilan bogʻliq boʻlgan mavjud muammolarni jiddiy tahlil qilib, real tadbirlar ishlab chiqish va hayotga tadbqiq qilish; hozirda faoliyat koʻrsatayotgan mavjud salbiy xarakterdagi turli guruhlar: giyohvandlar, ishsizlar, bekorchi sayoqlar, oʻzgalar hisobiga kun kechiradigan boshqa tuzilmalarning millatimizga, mamlakat siyosiy vaziyatiga, iqtisodiyotiga, maʼnaviyatiga va kishilarning ijtimoiy turmush tarziga yetkazayotgan katta zarariga va bu guruhlar faoliyatiga chek qoʻyish muammolarni oʻrganish muhimdir.

Turli ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlarni faqat bostirish, zo'ravonlik yo'li bilan hal etib bo'lmaydi. Buni tarix takror va takror isbotlab bergan. Sotsiologiyaning vazifasi esa bu jihatdan ilmiy tahlil asosida davlatni, ijtimoiy munosabatlarni boshqarishga har tomonlama ko'maklashishdir.

Sotsiologiyaning jamiyat taraqqiyotidagi ikki muhim funksiyasini ajratib ko'rsatish zarur:

1. Bilish funksiyasi;

2. Amaliy funksiya;

1. O'zining bilish funksiyasi orqali jamiyat taraqqiyotining ob'yektiv qonunlarini, konkret hayotiy jarayonlarni ilmiy asosda o'rganadi. Mavjud ijtimoiy voqelikdagi jarayonlarni o'rganish bilan jamiyat hayotining kelgusidagi rivojlanish oldindan payqash, tahlil qilish uchun xizmat qilish vazifasini bajaradi. Ijtimoiy bilish ilmiy sotsiologik nazariya va uslubiyotni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

2. O'zining empirik bilish darajasi va usullari bilan sotsiologiya amaliy funksiyaga ham ega. Amaliy funksiya bilish funksiyasi bilan uzviy bog'liqdir. Ijtimoiy taraqqiyot qonuniyatlarini, tendensiyalarini sotsiologik tadqiqot orqali amaliy jihatdan o'rganish jamiyatni ilmiy boshqarish va rejalashtirish, prognoz berish uchun asos bo'ladi. Shuning uchun har bir viloyat va shaharlarda sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, ulardan olingan ilmiy natijalarni respublika miqyosida markazlashgan ilmiy laboratoriyalarda umumlashtirish – davlat ahamiyatiga molik masaladir.


Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida bunday ilmiy xulosalar amaliy ahamiyatga ega bo'lib, mustaqil O'zbekiston taraqqiyotini ilmiy asosda boshqarishni ta'minlaydi. Yangi iqtisodiy munosabatlar tarkib topishi va rivojlanishi bilan sotsiologiyaning amaliy funksiyasining ahamiyati ham ortib boradi.

Ayniqsa, hozirgi iqtisodiy qiyinchiliklar davrida mehnatni tashkil qilish, ishsizlikni bartaraf etish, aholi moddiy turmush darajasini ko'tarish kabi dolzarb muammolarni hal etib borishda sotsiologiyaning amaliy vazifasi yaqqol ko'rinishda.

Fanning ob'yektiv rivojlanishi ko'p jihatdan mavjud siyosiy tuzum, rejimga bog'liq bo'ladi. Amaliy va nazariy sotsiologiya esa o'z navbatida jamiyatni ilmiy-rejali boshqarishda davlatga juda katta yordam berish imkoniyatiga ega. Buning uchun: fan sifatida sotsiologiyaning nazariy va amaliy tomonlarini rivojlantirish; shu sohaning malakali mutaxassislarini tayyorlashga e'tibor berish; viloyatlarda, oliy o'quv yurtlarida sotsiologik ilmiy laboratoriyalar tashkil qilish; ularni davlat tomonidan moddiy jihatdan rag'batlantirish; zamonaviy kompyuter va hisoblash texnikasi bilan ta'minlash zarur.

Tayanch iboralar


Struktural - funktsionalizm ta'limoti, tarkibiy - funktsional tahlil, empirik bilish, pozitiv oqim, obstraktsiya, ontologiya, institutsional sotsiologiya, fundamental sotsiologiya, fenomenologiya, sotsiometriya, pozitiv usul, empirik ma'lumotlar sotsial statika, sotsial dinamika, pozitivizm, sotsial realizm, sotsial dalillar, sotsial voqelik, klassik va noklassik sotsiologiya, etnosotsiologiya




Sotsiologiya fanida quyidagi metodologik masalalarga ham jiddiy e'tibor beriladi.



Antik dunyo sotsiologiyasi davrlari





Sotsiologiyaning ob'ektini turlicha tushunish natijasida metodologichning 3 asosiy turi shakllanadi



2.Mavzu Sotsiologiya strukturasi.

REJA

- 1.Sotsiologiyada struktura tushunchasi va uning ahamiyati.
2. Sotsioliyaningstrukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari.
3. Fundamental sotsiologiya. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya

Struktura bu fandagi asosiy elementlar ularning joylashishi, munosabati va tartibidir.Strukturabevositafanningrivojlanishdarajasi va uning elementlariga bog'liqdir. Fanning rivojlanib borishi davrida uning elementlari bir tizimga ushlanib, bu sistema orqali esa bilimlarni tashkil qilish vositaligitayinlanadi. Buning natijasida esanazariy, metodologik, metodik va boshqaelementlaro'rganilayotganvoqelikni (reallikni) yaxlit ko'rinishda aks ettiradilar. Fan bir tizim sifatida, qachonki umumiy asoslar, kategoriya va tushunchalarni ishlab chiqqandagina va bilishning har hil darajalari va shakllari orasida mantiqiybog'lanish bo'lsagina yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda fanning turli hil rivojlanish yunalishlari bilimning shakllangan tizimi bilan muvofiqlashadi. Agarda sotsiologiya haqida gapiradiganbo'lsak, u hali yetuk birlashgan ilmiy tizimi sifatida shakllangani yo'q. Yosh va rivojlanayotgan fan sifatida sotsiologiya har-hil ilmiy tizimlarningto'plami sifatida ko'zga tashlanyapdi.

Sotsiologiyaning strukturasi har xil tahlil qilish mumkin. Ayniqsa, bu strukturani aniqlash nazariy sotsiologiya, metodologiya va empirik tadqiqotni ajratib olishlik bilan ko'pincha yuzaga keladi.

Lekin bu sotsiologiyaningkomponentlarinijratibolish umumiyroq ma'noga ega, natijada esa fanning murakkab va har hil ko'rinishga ega bo'lgan strukturasi mazmuni kashf etilmaydi. Shuning uchun to'laroq va har tomonlama hususiyatga ega bo'lish bilangina sotsiologiya strukturasi ko'rsatib berish lozim. **Sotsiologiya strukturasi fundamental va amaliy yo'nalishlarni, nazarni va empirik tadqiqotlarni, mahsus va tarmoq sohalarni ajratib ko'rsatish darkor**¹⁸. Ular bir-birlari bilan juda murakkab o'zaro dialektik aloqadordirlar. Ayrim hollarda bir-birlariga qo'shilib ketadilar, boshqa holatlarda esa bir-birlarini inkor qiladilar. Tadqiqotimiz ilmiy, teran bo'lishligi uchun sotsiologiya strukturasi bu elementlarini alohida tahlil qilib chiqshga harakat qilamiz.

Fundamental sotsiologiya boshqa elementlardan o'zining hal qilayotgan muammolarining darajasi ko'lamini, va ahamiyati bilan farq qiladi. Fundamental sotsiologiya mohiyatli muammolar, abstraksiyaning (mavhumlik) oliy darajasi bilan shug'ullanib, sotsialolamning taraqqiyoti va borligi uchun zarur bo'lgan umumiy qonun va qonuniyatlari izlash bilan faoliyat ko'rsatadi. Fundamental sotsiologiya minglab maktablar va yo'nalishlarga egadirki, ular sotsiologiya fanining asosini ijodiy izlash bilan banddir. Fanning asosini ijodiy ishlashning uchta asosiy aspektini ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchisi, ontologik, ya'ni sotsial voqelikni mohiyati masalalarini yanada aniqroq aytadigan bo'lsak sotsiologiya ob'ektini, uning faoliyat ko'rsatish shakllarini tahlil qilib o'rganadi. Ma'lumki, sotsial dunyo murakkab ko'p qatlamlik, dinamik va o'zgaruvchanlik hususiyatiga egadir. Ontologiya borliq haqidagi ta'limot sifatida falsafada vujudga keladi va ushbu fanning bosh mavzusi

¹⁸ M.Bekmurodov, T. Sultonov va boshqalar Sotsiologiya asoslari «Ma'ruzalar matini». T.2000. y.47 -b.

hisoblanadi Sotsiologiyada esa ontologiya masalalari ikkinchi jahon urushidan keyin, yanada keng ko'lamda esa oxirgi o'n yillikda ko'tarildi Chunki bu vaqtda «pozitivistik» krizis degan jarayon keng quloqchilik yozgan edi Bu krizis jarayonining asosiy mohiyati shundan iborat edi, statistikaga asoslangan sotsiologiya natijalaridan ranjish, ya'ni traditsion ilmiy metodlar kutilgan ilmiy natijalar bermay qo'ydi.

Nafaqat bilishning shakl va metodlarini qayta ko'rib chiqish ehtiyoji paydo bo'ldi va yana sotsiologiyaning ob'yektini mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini ham qayta ishlash zaruriyati tug'ildi. Ontologik muammo masalalarini sotsiologiyadagi barcha nazariy yo'nalish vakillari o'zlaricha hal qilishga harakat qilganlar.

Ayniqsa, sotsiologik muammoga ekzistensial va fenomenologik maktablar chuqur e'tibor bilai qaraydilar. Lekin realistik yo'nalish vakillari ham bu muammoga kengroq e'tibor beradilar.

Fundamental sotsiologiya nafaqat nazariy asoslarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, binobarin bilishning umumsotsiologik fundamental prinsiplarini ham keng ma'noda ishlab chiqadi. Sotsiologik bilishning mohiyati vazifalari, bilimlarning obyektivligi, u yoki bu prinsip va yondoshishlarni qo'llash ham fundamental sotsiologiya muammolari majmuasiga taluqlidir.

Har hil nazariyalar negizida «sistemalilik», «funktional yondoshish», «sababiyat», «tushunuvchi» yo'nalish deb ataladigan fundamental prinsiplar ishlab chiqildi. Sotsial reallik mohiyatining masalalarini yo'q qilish bilan birgalikda, taraqqiyot qonunlari va insonning sotsial dunyodagi o'zini muammolari yechimini topish sababli ma'lum bir sotsiologik metodlar shakllanadi.

Sotsiologiyaning rivojlanishi davrida o'rganilayotgan muammolar, tadqiqot yo'nalishlari o'zgardi, lekin asosiy, fundamental xarakterga ega bo'lgan fan uchun juda muhim ahamiyatga doir umumiy prinsiplar: sotsiologiyaning ob'yekti va predmeti, sotsial reallikning mohiyati, uning rivojlanish qonunlari, sotsial olamdagi insonning ahamiyati va o'zini, uning ongi va tafakkuri kabilar o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi¹⁹ — bu sotsial olamning to'liq tasvirini yaratashdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlashdir. Ilk bor fundamental nazariyalar tabiiy fanlar taraqqiyotiga tayangan, ayniqsa biologiya va fizikaga. Sotsiologiya fanining asoschilari huddi shu fanlarning eksperimental va empirik negizga o'hshagan negiz asosida yangi sotsial fanni yaratmoqchi bo'ldilar. XIX asrning ikkinchi yarmidagi yo'nalishlar —pozitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlanuvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun o'zkuch-g'ayratlarini birlashtiradilar.

Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, umumilmiy metod va yo'nalishlarini qo'llaydilar. Ammo XX asrning boshlarida sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqib boshlaydi.

¹⁹ S.Nosirxo'jaev, T., Sultonov T., S.Tursunova, M.Mullajanova. Sotsiologiya. Darslik. —T.: TDPU, 2009. 78-b.

Sotsial voqelikning pozitivistik ruhidagi ko'rinishi o'ziga struktur-funksional, empirik ko'rinishlari bu yunalishlar sotsiologiyani o'z asosini, mustaqilligini izlashga katta ta'sir ko'rsatdi. Animo empirizm nafaqat fundamental nazariya ahamiyatini, balki nazariyani o'zini ham butkul inkor qila boshladi. Buning natijasida esa sotsiologiya o'zining yahtiligidini yo'qota boshlab, ijtimoiy hayotning har hil yo'nalishlarini alohida-alohida tahlil qiladigan fanga aylana boshladi. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sotsiologiya o'zining umumnazariy muammolariga qaytishni boshladi, shuningdek metodologik tadqiqotlarning ahamiyati osha boshladi. Bu jarayonlar esa sotsiologlarni filosofiyaga qayta murojat qilishga majbur qildi. Buning natijasida esa ekzestensial, fenomenologik yo'nalishlar paydo bo'ldilar. Ular esa sotsiologiyani o'zining asosini, yangi metanazariyasini yaratishga harakat qila boshladilar. Hozirda bu tendensiya kuchayyapti.

80-yillarning «Katta nazariyasi»ning yangi to'liqlarining effekti sifatida falsafa va sotsiologiyani yangi munosabatlar deb tushunish mumkin. Nafaqat sotsiologiya falsafaning ta'siri ostidadir, balki falsafaning o'zi ham sotsiologiyani aktiv ta'siri doirasidir.

Fundamental sotsiologiya rivojining ikkinchi muhim tushunchasi bu sotsial jarayonlarning markaziy omili sifatida sub'yektga murojaat qilish bilan belgilanadi.

Shunday qilib, fundamental sotsiologiya bu nazariyadir, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriyasi va metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shuning uchun fundamental tadqiqotlarning roli beqiyosdir, funksiyalari esa hilmalardir. Quyidagi funksiyalarni ajratib ko'rsatish mumkin: dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik va hokazolar.

Dunyoqarash funksiyasi bevosita borliq va ong, insonning mohiyati kabi dolzarb muammolari bilan bog'liqdir. Chunki bu muammolar sotsiologiya fanining predmeti va ob'yekt yadrosini tashkil etadi. Bu muammolarni hal qilish jarayonida sotsiologiya filosofiya bilan juda faol o'zaro muloqot va dialektik aloqada bo'ladi va sotsial olam haqida ilmiy tasavvur yaratadilar. Umumsotsiologik nazariya negizida sotsiologiyani umumiy metodologiyasi ishlab chiqiladi. Integratsiyalashtiruvchi funksiya fundamental nazariyani barcha bilimlar bilan boshlaydi. Fundamental sotsiologiyani yahtit yondoshuvi yangi muammolarni hal qilish, ijtimoiy hayotning hali yahshi o'rganilmagan tomonlarini chuqur ilmiy tahlil qilishga yordam beradi.

Sotsiologiya fani tizimida amaliy tadqiqotlar paydo bo'ldi va rivojlanayapti. **Amaliy sotsiologiya tadqiqotlar fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi.** Amaliy sotsiologiyani hususiyati shundan iboratki, u orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni natijalarini qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi. Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shakllandi va rivojlandi.

Empirik va amaliy tadqiqotlarni tenglashtirishning yana bir sababi shundaki, empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib chiqadigan vosita hisoblangan. Binobarin bu masalaga bunday yondoshish uning mohiyatini to'g'ri tushunishga halaqit beradi. Empirik tadqiqotlar jonli faoliyatni bevosita shakllanishini o'rgansa ham, u o'zgartiruvchanlik faoliyati emasdir. Empirik tadqiqotlarning vazifasi bu kuzatish,

eksperiment, hujjatlarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik ma'lumotlar yig'ishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular amaliy tadqiqotlarni ijtimoiy hayotni turli sohalar faoliyatini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyanomalarga aylantiradi. Boshqaruv sistemasini elementi sifatida amaliy tadqiqotlar fanning ijtimoiy funksiyalarini bajara borib, uning natija va yutuqlarini amaliy faoliyatga aylantiradi, o'zining amaliy yo'nalishiga qarab ayrim hollarda amaliy tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar bilan qarama-qarshilik munosabatida bo'ladi.

Ilmiy ob'yektivlik o'rganiladigan ob'yektning xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda foydaliylik bilimlar kimning manfaatlarini uchunligini nazarda tutilishi bilan belgilanadi. Sotsiologik tadqiqotlar umumiy ijtimoiy-madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sotsial faoliyatning bir turi hisoblanadi. Buning natijasida esa tadqiqot natijalaridan iqtisodiy, siyosiy manfaatlar uchun foydalanadi.

Ilmiylik va foydaliylik bir-birlari bilan ziddiyatli munosabatlarga kirishmasliklari uchun M. Veberning fikricha haqiqat uchun intilish kerak, ya'ni boshqacha qilib aytadigan bo'lsak ilmiy bilimlardan to'g'ri foydalanish uchun iqtisodiy, sotsial-siyosiy va ma'naviy tuzilishlarning ma'lum tizimi mavjud bo'lishi zarur.

Shunday qilib, amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy va metodologik bilimlarni ham shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya ilmiy bo'limning amaliy effektivligi masalalarini hal qila turib fundamental tadqiqotlarni rivojiga stimuly berish uchun yangi muammolarni o'rtaga qo'yadi. Amaliy tadqiqotlar ilmiy faoliyatning alohida bir turi sifatida faqatgina nazariy va metodologik muammolarni hal qilmasdan protsedura va metodik muammolarni ham yechishga intiladi.

Metodologiya va metodikaning muhim muammolaridan konseptualizatsiya, formalizatsiya va operatsionalizatsiyalarning tutgan o'rinlari juda aktualdir. Chunki bu muammolar sotsial qurilish va sotsial injenerlikning muammolarini hal etishda ilmiy bilishning realizatsiya qilishning o'ziga hosligi bilan bevosita bog'liqlarlar.

Sotsial injenerlik amaliy tadqiqotlarning negizida shakllangan faoliyatining ma'lum bir yo'nalish sifatida shakllandi. Sotsial injenerlik—bu sotsial strukturani (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy) maqsadga yunaltirilgan, tubdan uzgartirishlik bilan uni optimal va effektiv shaklga keltirishdir. Amaliy sotsiologiyaning sotsial injenerlikdan tashqari yana sotsial texnologiya qismi ham muhim ahamiyatga egadir. U maqsadga erishishni ta'mulaydigan metodlar vositalarining majmuasidir. Amaliy sotsiologiya taraqqiyotini belgilab beradigan bu omil ijtimoiy-siyosiy holatdir, chunki sotsial amaliyotning muammolarini belgilab, hal qilib berish bu sotsial buyurtmadir, har hil konkret-tarixiy sharoitlarda har turli xil muammolar oldingi uringa chiqishi mumkin. Ilk bor ishlab chiqarishni tashkil etish, shaxsning ijtimoiylashuvi, og'ishma hulk-atvor, urbanizatsiya va jamiyatni stabilashtirish muammolarini echish uchun sotsial buyurtmalar berilgan.

Amaliy tadqiqotlar tarmoq, yunalishlarini shakllantiradi. Bu yunalishlarning orasida og'ishli xulq-atvor sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar ko'proq taraqqiy etgan. Inson ilimi muammosini o'rganadigan—mikrasotsiologiya, sotsialdiagnostikalar tarmoq yo'nalishlari orasida eng yangilari hisoblanadi

Sotsiologik tadqiqot ham nazariy, ham empirik bulishi mumkin. Ulami chegaralanishi shartli ravishdadir, chunki har qanday fundamental sotsiologiya nazariydir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jipslashgan o'zaro aloqalik bilan o'tkaziladi. Lekin xususiyatni ajratish va aniqlash zaruriyatidir. Agarda har qanday fundamental sotsiologiya nazariy hisoblansa, har qanday nazariya fundamental sotsiologiya hisoblanmaydi. Fundamental sotsiologiya distsiplinar muammolarga fan poydevorining asosini o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, o'z navbatida nazariy sotsiologiyani o'rganish ob'yekti sifatida ham umumiy, ham xususiy jarayonlar, jamiyat hayotinning ayrim sohalari va faoliyatining biror bir tomoni bo'lishi mumkin. Nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. «Nazariylashtirishni — deb aytadi taniqli amerikalik sotsiolog Dj. Terner,—shunday vositalarga talluqli deb xisoblash mumkinki, u orqali fan deb ataladigan tafakkur faoliyati o'zining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda, shakllanayotgan voqealarni shunday klassifikatsiyalash (tasniflash) va tashkil qilishlikni buning natijasida ulami istiqbolda ko'ra bilishlik; o'tgan voqealarni sabablarini tushuntirish va kelajakda bo'ladigan voqealarni oldindan ko'ra bilish; voqealarni nima uchun va qanday bo'lib o'tishini «tushunishni intuitiv ravishda taklif qilish».

Nazariya—bu kategoriya, tushunchalar, holatlar va prinsiplarning konseptual birligi bo'lib, u xodisalarni xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi²⁰. Nazariyalarda markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi. Nazariyani yaratish vositasi bu mavxumlashtirishlikdir. Chunki u konkret holatlar va xodisalarni tashkil qilishda chegaralardan sakrab o'tishga yo'l beradi.

Sotsiologiyada nazariyani turli darajasini ajratib ko'rsatish mumkin: umumsotsiologik nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal qiladi. Masalan, jamiyatni rivojlanish davrlari va strukturasi, uni faoliyat qonunlari va boshqalar.

Maxsus nazariyalar sotsiologiya ob'yektni muhim tomonlarini o'rganadi. Sotsial struktura nazariyasining, institutlar nazariyasi maxsus soxalar sifatida shakllandi **Maxsus nazariya yoki o'rta daraja nazariyasi tushunchasini fanga R. Merton joriy etgan.**

O'rta daraja nazariyasi sotsial tizimlarning umumiy nazariyasini sotsial hattixarakatning tashkil etilishning umumiylikiga maxsus kuzatilayotgan turlari bilan bog'lashi kerak. Bu nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, lekin ular ko'pincha faktlar bilan bog'liqdirlar va bitirish tadqiqotlar asosida shakllanadilar. Shuningdek, xususiy nazariyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin va ular sotsial

²⁰ N.Aliqoriev "Umumiy sotsiologiya" A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-2002 23-b.

jarayonlar quyidagi empirik ma'lumotlar bilan ko'prok bog'langanlar. Bunday nazariyalar deb quyidagilarni aytmiz: referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va boshqalar.

Bu nazariyalar inson fe'l-atvorining mustahkam mexanizmlarini har xil sharoit va holatlarda ko'rinishni aniqlashga harakat qiladilar. Nafaqat axloqli nazariyalar balki faoliyatning turli hil turlari nazariyalari: mehnat munosabatlari, qadriyatli moslashni shakllantirish, tashkil qilish va boshqarish.

Empirik tadqiqotlar sotsiologiyaning muhim komponenti hisoblanadi. **Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan edi, lekin faqatgina XX asrning birinchi choragidan AQShda ommaviy ravishda o'rin oladi.**

Empirik tadqiqotlar tajribali bilishni anglatadi. Ular sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar, muammolarni bevosita o'rganishni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblaydilar.

Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob'yekti—bu ijtimoiy hayotning mikrojarayonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlaridir. Empirik tadqiqotlarni sotsiologiya fanning muhim bir bo'lagi sifatida empirizm konsepsiyasi bilan solishtirish mumkin emas, chunki empirizm konsepsiya sifatida nazariy sotsiologik bilimlarni to'liq inkor etadi. Empirizm hissiy idrokni bevositaligini fanning asosi deb hisoblaydi.

Empirik tadqiqotlarning vazifasi sezgilar maydoniga bilimlarni olib chiqishi emas, aksincha bu bilimlarni rivojlantirish, empirik faktlar yig'ish, real jarayonlarni tadqiqot qilishligi bilan muammolarni ko'ndalang qo'yish va hal qilishlikdir. Empirik tadqiqotlar huddi boshqa fanlar qo'llayotgan kabi bilimning ma'lum bir vositasi, davri va darajasidir. Empirik sotsiologiyaning ob'yektida mikrojarayonlar bo'lsa, predmet sifatida takomillanishning turli muammolari munosabatlar uyg'unlashuvi, faoliyatning sarmahsulligi, shaxsning sotsial xususiyatlari turli xil institut va tashkilotlar namoyon bo'lishlari mumkin. Empirik sotsiologiyaning ob'yekti va predmetining xususiyati maxsus metodologiya va metodni ishlab chiqishni talab qiladi. Buni anglash esa birdan yuz bermadi. Dastlab empirik metodni ishlab chiqish aniqrog'i sotsial jabhalar uchun tabiiy fanlarning metodlarini qayta ishlab chiqish g'oyasi yetarlidir degan fikrlar vujudga keldi va bu qayta ishlangan uslublar bilan empirik tadqiqotlarni muvaffaqiyatli o'tkazish mumkin degan xulosa paydo bo'ldi. Ammo tez orada ma'lum bo'ldiki, empirik tadqiqotlarni o'tkazish chog'ida ko'plab metodologik xarakterga ega bo'lgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilimning empirik ma'lumotlar bilan o'zaro munosabatlari, so'rov, kuzatish va o'tkazilayotgan ma'lumotlarni tashkil qilish jarayonida sub'yektiv omilning roli kabilar paydo bo'ldi. Sotsiologiyada bilimning sub'yektiv aspekti masalasi metodologik muammolarning eng markaziyalaridan hisoblanadi. Empirik sotsiologiyaning tadqiqotida empirik metodlar: so'rov, kuzatish, hujjatlarni o'rganish va eksperiment usullari shakllanib joriy etildi. Bu metodlarning har birini xususiyati jarayonning tomonlarini huddi shu metod bilan tahlil qilishlik bilan belgilanadi. Masalan, eng ommabop metod — so'rov metodi asosan insonlarning sub'yektiv dunyosini: qarashlari, munosabat bildirishlar, juda tez rivojlanishlik va o'zgaruvchanliklarga yo'naltirilgandir. Bundan tashqari, sotsiolog tomonidan olingan ma'lumotlarga uning munosabat bildirishi, tahlil qilishi, tushunishi bilan tus beriladi.

Shu tufayli esa empirik tadqiqotlar metodologiyasi shunday prinsip va yo'nalishlar ishlab chiqilishi kerakki, u orqali empirik ma'lumotlarining ob'ektivligi va haqqoniyligi ta'minlansin, sotsiolog va respondent o'zaro harakatlarining murakkab aspektlari to'liq majmuasini nazarda tutadigan tadqiqot vositalari, mantiqiy masalalari va davri muammolari hal qilsin.

Shunday qilib, empirik sotsiologiya bu bilimning yirik bir sohasidir-u o'zining tarkibida empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar tizimini va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash sistemasini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli empirik tadqiqotlar odatda har hil mutahassislikning tadqiqotchilari: psixologlar, metodologlar, matematiklar jamoasining o'zaro hamkorligi ostida o'tkaziladi.

Empirik tadqiqotlar asosan statistik ma'lumotlarga tayangan holda o'tkaziladi. Rivojlangan mamlakatlarda informatsion ta'minot empirik tadqiqotning muhim manbasi hisoblanadi.

Empirik tadqiqotlarning rivojlanishi uchun asosiy muammo — bu texnik vositalar ta'minoti bilan bog'liqdir, chunki tadqiqotlar natijalari qayta ishlanishi zarur. Shuningdek, so'rov va kuzatish uchun ham ma'lum texnik vositalar talab qilinadiki, shuning uchun empirik tadqiqotlar anchagina qimmat tadbir hisoblanadi.

Sotsiologiyaning rivojlanish jarayonida sekin-asta maxsus va tarmoq yo'nalishlar vujudga kela boshladi.

Maxsus va tarmoq yo'nalishlarning o'zi nima ma'noga ega?

Maxsus deb institutsional sotsiologiyani, shaxs sotsiologiyasini guruhi jamiyat, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasini e'tirof etamiz. Bundan tashqari yana shakllanib bo'lgan, deb taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat, sotsial struktura va boshqalarni ajratib ko'rsatish mumkin. Institutsonal sotsiologiya o'zaro harakatning mustahkam shakllarini tadqiq qiladi. Taraqqiyot sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining manbasi shakli, yo'nalishlari va uning tarkibiy qismlarini o'rganadi. Sotsial harakat nazariyasi esa insonning sotsial faoliyati sabablari, turlari va ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Sotsiologiyadagi maxsus yo'nalishlar, sotsial reallikni, sotsiologiyaning ob'ekti sifatida qabul qilishda, nazariy mushohada qilishlik va bir ob'ektning asosiy elementlarini aniqlash asosida vujudga keladi. Ayrinchi nazariyalar sotsiologiya asoschilari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, ammo tadqiqot yo'nalishi sifatida XX asrning birinchi yarmida, neopozitivizm negizida yaratiladi. Maxsus yo'nalishlar sotsiologiya fanining yuz yillik taraqqiyot yo'li maxsulidir. Yuqorida qayd etilganidek, maxsus yo'nalishlar neopozitivizm negizida shakllandi, lekin o'zining kelgusi rivojini boshqa nazariy yo'nalishlar tufayli topdi.

Nima uchun bularni bir maxsus yo'nalishlar deb ataymiz, vaholanki sotsial institutlar, shaxs va guruhlar, sotsial munosabatlar va jarayonlar boshqa fanlar tomonidan ham o'rganiladi. Gap shundaki, sotsiologiya hodisalarini ya'ni ijtimoiy struktura element sifatida tadqiq qiladi, binobarin xuddi shu vaqtda boshqa ijtimoiy fanlar institutlarni, munosabatlarni va guruhlarini o'zlarining predmetidan kelib chiqib, o'z sohalari doirasida o'rganadilar, masalan, siyosatshunoslik siyosatda, psixologiya sevgi-emotsional sohada, yuridik fanlar huquq sohasida va hokazo. Ushbu fanlardan o'laroq sotsiologiyaning vazifasi — bu sotsial munosabatlar, sotsial

institutlar, sotsial harakatlarning umumiy nazariyasini yaratishdir. O'z navbatida bu masalalarni o'rganish uchun sotsiologiya boshqa fanlarning tadqiqotlariga ham tayanishi kerak. Jamiyat taraqqiyotiga ta'liqli ushbu muammolarni yechish masalasi ko'ndalang qo'yilar ekan, sotsiologiya tomonidan boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologik ahamiyatga ega bo'lgan nazariya yaratiladi.

Haqiqatdan ham ijtimoiy hodisalarning qaysi biri o'rganilmagan, ular institutsional, sotsial munosabatlar va harakatlar shakllari, shaxs, guruh xarakteri va tafakkur tarzi nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Maxsus yo'nalishlar fanning markaziy qismini tashkil qiladi, chunki u o'zini tadqiqotning boshqa barcha yo'nalishlar: fundamental, tarmog'i empirik yo'nalishlarni mujassamlashtirgan bo'ladi.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada yana tarmoq yo'nalishlari quyidagilar: shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, deviant hulq-atvor sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyalari shakllangan. Keng rivojlangan ushbu yo'nalishlar ijtimoiy hayotni ma'lum bir tomonlari, har xil tizimchalar, tafakkurning ma'lum bir elementini o'rganish natijasida vujudga keldilar. Eng rivojlangan yo'nalishlar bu—deviant hulq-atvor sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri-sotsiologiyasi. Bu yo'nalishlar **XIX asr oxiri, XX asr boshlarida vujudga keldi. Masalan, deviant hulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi E. Dyurkgeym hisoblanadi.** Ilk bor u deviant hulq-atvorning turi bo'lmish o'z-o'zini o'ldirish muammosini tahlil qildi, bunda o'z-o'zini o'ldirishni psixologik patologiya emas, balki sotsial hodisa deb e'tirof etdi. Lekin ko'pgina tarmoq yo'nalishlar XX asming birinchi choragida, Amerikada empirik tadqiqotlar negizida shakllana boshlandi. Bu vaqtda jamoatchilik fikri, sanoat sotsiologiyalarining markazlari vujudga kela boshladi. Tarmoq yo'nalishlar empirik tadqiqotlarning keng qamrovli amaliyot negizida shakllandi va ular sotsiologiyaning boshqa yo'nalishlari bilan ham uzviy bog'liqdir.

Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun bazis bo'lib xizmat qiladi, chunki olingan ma'lumotlar asosida tashkilotlarning, korxonalarning va muassasalarning faoliyati takomillashadi. Tarmoq yo'nalishlari ijtimoiy hayotining turli tomonlarini tadqiq qila borib, xususiylar va maxsus nazariyalarni rivojiga yordam beradi va shuningdek fundamental sotsiologiya rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tarmoq yo'nalishlari asosida ayirboshlash nazariyasi, referent guruhi nazariyasi, yetakchilik (lider) nazariyasi va boshqa nazariyalar yaratildi. Tarmoq yo'nalishlar rivoji fundamental sotsiologiya oldiga jamiyatning yahlit strukturasida turli xil ijtimoiy tizimchalarning roli va o'zini va ularni o'zaro harakat turlari, taraqqiyoti asoslarining masalalarini qo'yadi.

Tarmoq sotsiologiyasining maqsadi ayrim ijtimoiy strukturaning: moddiylik, ma'naviylik, mehnatning sermaxsulligi nazariyasini yaratish, ishlab chiqarish, oilaviy munosabatlar va boshqalarning faoliyat ko'rsatish va rivojlanish qonunlarining to'liq tasvirini yaratishdan iborat. Tarmoq sotsiologiyasi xuddi sotsiologiyaga o'xshab sotsial buyurtma bilan bog'liqdir, lekin juda ham bevosita emas. Shuning uchun u nisbatan mustahkamdir. Tarmoq sotsiologiyasining taraqqiyoti jamiyatning turli xil tizimlari rivoji, ularning tarixiy sharoitlari turli davrlaridagi ahamiyatining kuchayishi, yangi strukturalarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Sotsiologiya fani tarkibiy jihatdan 3 ta katta qismga ajratib o'rganiladi²¹

I. Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo'ljallangan yo'nalish

II. Maxsus(Xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'nalishi.

III. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar.

I.Umumsotsiologik nazariyalarni bevosita tadqiq etishga mo'ljallangan yo'nalish:

1) Uminsoniy tamoyillar birlamchiliga amal qiladi.

2) Jamiyat taraqqiyotini tadrijiy o'rganadi

3) Ijtimoiy munosabatlar mahsuli va sub'yekti shaxs masalasini oldinga suradi.

4) Jamiyat hayotining ijtimoiy munosabatlarini o'rganadi ,ijtimoiy uyushmalar faoliyati, qonuniyatlariga tayanadi.

5) Ijtimoiy muammolarni tadqiq etadi, xalqaro nizolar va boshqalarni o'rganadi.

II.Maxsus (Xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'nalishi:

1) Ijtimoiy ong shakllari sotsiologiyasi (dunyoqarash, ilm-fan, sa'nat, madaniyat, ahloq, huquq, psixologiya, din va boshqalar).

2) Hayotiy faoliyat shakllari sotsiologiyasi (mehnat, turmush tarzi, xordiq, ijtimoiy -siyosiy faoliyatlar).

3) Aholi va xalqaro sotsiologiyasi (demografiya, etnografiya, migra tsiya).

4) Ijtimoiy tadqiqot (jamiyat va jamoat nazarda tutilmoqda) Ijtimoiy o'zgarishlar, Ijtimoiy tuzimlar sotsiologiyasi.

5) Ijtimoiy institutlar (oila,yetimxonalar,qariyalar uylari va hokazolar) sotsiologiyasi.

6) Ijtimoiy guruhlar sotsiologiyasi (qurolli kuchlar, yoshlar, pensionerlar, ayollar va hokazolar).

7) Ommaviy axborot sotsiologiyasi (matbuot, radio, televideniya) shuningdek, jamoatchilik fikri sotsiologiyasi.

8) Siyosat sotsiologiyasi(davlat, xalqaro munosabatlar, milliy harakatlar va h.k)

9) Joy va muhit sotsiologiyasi (regionlar, shaharlar, qishloqlar, ekologiya va h.k).

10) Shaxsni shakllantirish sotsiologiyasi (ta'lim-tarbiya, adabiyot, sa'nat, sport va h.k).

11) Kasblar sotsiologiyasi (injenerlik, agronomlik, meditsina va h.k).

12) Qiziqishlar sotsiologiyasi (klub havaskorlik to'garaklari va h.k).

Sotsiologiya fani sohaviy tasnif etilganda turli yo'nalishlar mohiyatiga ega bo'lgan ilmiy tarmoqlarga bo'linadi.

²¹ M.Bekmurodov,T. Sultonov va boshqalar. Sotsiologiya asoslari «Ma'ruzalar matini».T.2000.45 -b.

Birinchi bosqichdagi ilmiy tarmoqlar qatoriga umumnazariy, umummetodologik va sotsiologik fanlarni kiritish mumkin. Ular jumlasiga akademik, matematik, tarixiy, amaliy va mintaqaviy sotsiologiya sohaları kiradi.

Ikkinchi bosqichdagi zamonaviy sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatorida shaxs sotsiologiyasi, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, demografik, ekologik hamda institutsional sohaları ko'rsatish mumkin.

Uchunchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar turli xil sohaviy hamda ilmiy sotsiologik yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Ular quyidagilar: ta'lim, madaniyat, fan, din, san'at va boshqa sotsiologik yo'nalishlar.

To'rtinchi bosqichdagi sotsiologik ilmiy tarmoqlar qatoriga regional va jamoaviy xususiyatga ega bo'lgan yo'nalishlarni kiritish mumkin. Ular quyidagilar: yoshlar, oila, shahar va qishloq sotsiologiyasi.

Hozirgi zamon sotsiologik tarmoqlar tizimida jamoatchilik fikri sotsiologiyasi muhim o'rin tutadi va katta ahamiyatga egadir. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi ijtimoiy hayotdagi barcha sohalar va umum nazariy, metodologik va xususiy sotsiologik maktablar bilan bevosita bog'liqlikda ish tutadi.

Shunday qilib, murakkab umumiy va xususiy sotsiologik fanlardan iborat bo'lgan zamonaviy sotsiologiya tizimi ko'plab ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan keng aloqalarni taqozo etadi. Bu aloqalar ham umummetodologik bosqichda ham mahsus xususiy fanlar va ilmiy yo'nalishlar bo'yicha olib boriladi, bu esa uning zamonaviy ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimidagi o'rni aniqlab beradi.

Sotsiologiya ijtimoiy-gumanitar fanlari ierarxiyasida eng yuqori bosqichni egallaydi. Falsafa va tarix bilan birgalikda, u ijtimoiy fanlar tizimining umummetodologik negizini shakllantiradi.

Sotsiologiya "Milliy istiqlol mafkurasining milliy, umuminsoniy, falsafiy, diniy, huquqiy, siyosiy, ijtimoiy-iqsodiy, ma'naviy-psixologik asoslarini, urf-odatlar, an'analar va intellektual qadriyatlar mafkurasini shakllantirish va boyitishdagi o'rni va ta'siriga bag'ishlangan tadqiqot ishlarini muntazam olib borish" 22maqsadlariga xizmat qiladi.

III. Bevosita empirik sotsiologik tadqiqotlar

Tadqiqot natijasida olingan empirik manbalar, bu hazariy bilimlar asosini boyitib, ijtimoiy muammolarni amaliy hal etish taysiya-takliflarni ilgari suradi. Shu boisdan ham sotsiologiya u yoki bu ijtimoiy muammoga murojat etar ekan, anashu empirik manbani atroflicha o'rganib chiqadi.

2.2 Sotsioliyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari.

Jamiyat fanlarining rivojlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyati ortib borishida uchta muhim **bosqich farq qiladi:**²³

1. Fanlar jamiyat ishlab chiqarishiga oid amaliy-ijtimoiy talabalar va ehtiyojlarga javob berish asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu bosqichda astronomiya, geometriya, matematika va mehanika kabi fanlar sust rivojlanadi. VII-

²² Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: O'zbekiston 2000-7-b.

²³ Aliev B., Mullajonova M. va boshqalar, Sotsiologiya Darslik. T. 2011.- 65-b.

XII asrlarda arab Sharqi va O'rta Osiyoda fanlar eng taraqqiy etgan o'lkalardan biriga aylandi.

2. XIV asr oxiri va XV asrlarda O'rta Osiyo temuriylar imperiyasi davrida hamda XVII asr oxirlariga kelib Yevropada kapitalizمنى tez rivojlanishi bilan boshlanadi.

3. Uchunchi bosqich XX asr boshlaridan boshlandi. Bu davrda fan ishlab chiqarish kuchiga aylana bordi. Fan- texnika inqilobi sodir bo'lishiga olib keldi. XX asr oxiriga kelib esa fanlarda an'anaviy (klassik) tafakkur uslubi o'miga no'anaviy davr boshlandi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "Fan- jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vositadir"²⁴.

Fanlar predmetiga ko'ra:

1) tabiatshunoslik (tabiatni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish qonunlarini o'rganadi).

2) jamiyatshunoslik (ijtimoiy munosabatlarni, inson mavqei, iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganadi).

3) texnika fanlar (inson tomonidan ixtiro qilingan mashina, mexanizmlar, ular tuzilishi, qurilishi, faoliyati qonunlarini o'rganadi)ga bo'linadi.

Fanlar yana 2 turga bo'linadi.

1. **Fundamental fanlar** (tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuri taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi fandır).

2. **Amaliy fanlar** (ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, erishilgan har bir natijasi ishlab chiqarishga bevosita tadbiiq etilib boradigan fanlardir).

1. **Fundamental fanlar** amaliy fanlardan oldinroq harakatda bo'lib, ularga nazariy imkon yaratadi. Amaliy va fundamental fanlar borliqning turli sohalari qonuniyatlarini ishlab chiqarishga joriy etib, ijtimoiy- amaliy masalarni hal qilishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi FA olimlari ko'proq fundamental fanlar sohasida ilmiy izlanishlar olib borsalar, amaliy tadqiqot fanlari bilan esa ko'proq respublika oliy o'quv yurti ilmiy potentsialiga ega bo'lgan professor-o'qituvchi olimlar shug'ullanadilar.²⁵ Respublikadagi iqtidorli olimlarning katta qismi oliy o'quv yurtlarida ishlaydilar. Oliy maktab ilmiy bo'limlarida respublika ilmiy potentsialining 60 foizidan ko'prog'ini tashkil etadi. Ular xalq xo'jaligiga mutaxassislar tayyorlash bilan birga ilmiy tadqiqot ishlari ham olib borishadi.

"Bizning fundamental fanlar bilan shug'ulanadigan 40 ga yaqin ilmiy-tadqiqot muassasalarimiz bor", degan edi Prezidentimiz Islom Karimov. 1995 yil 3 aprelda Vazirlar Maxkamasi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Nizomi to'g'risida"gi qarorini tasdiqladi. Bu Nizomga muvofiq 2000 yillargacha O'zFA haqiqiy a'ziligiga yoshi 65 dan oshmagan muxbir a'zolaridan va fan doktorlaridan saylandi. O'zFA muxbir a'ziligiga esa 60 yoshdan oshmagan fan doktorlari saylandi. Haqiqiy a'zolar va muxbir a'zolari 70 yoshga to'lganda, O'zFA haqiqiy a'zosini saylash uchun qo'shimcha o'rinlar ochildi. O'zbekiston FAning 118 a'zosi bor (2006). Akademiya muassasalarida 5300 ga yaqini ilmiy xodim, 360 fan doktoriva

²⁴ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: «O'zbekiston», 1999, 150-b.

²⁵ Aliev B., Mullajonov Ma va boshqalar, Sotsiologiya Darslik. T. :2011.-60-b.

860 fan nomzodi ishlaydi (O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, – T.12. 2006.-387-391-b).

2007 yilda O'zbekistonda 63 ta oliy o'quv yurti, shu jumladan 17 universitet, FA, IIA, QXA, MA, 120 dan ziyod ilmiy-tadqiqot institutlari faoliyat ko'rsatmoqda. Respublikaning ilmiy tadqiqot majmui akademiya, oliy ta'lim va boshqa tarmoqlardagi 350 dan ortiq muassasani, jumladan, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy o'quv yurtlaridagi ilmiy tadqiqot bo'linmalari, loyha konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari va tajriba korxonalari, axborot – hisoblash markazlarini o'z ichiga oladi. Hozirgi kunda 34 mingdan ortiq ilmiy xodim fanning turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatmoqda, ulardan 2,4 ming kishi fan doktori va 8,4 ming kishi fan nomzodidir (2006).

O'zbekiston o'zining milliy Fanlar akademiyasiga ega bo'lib, uning tarkibida ulkan ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lgan 43 ta akademik institut muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqda. Tabiiy va aniq fanlarning yadro fizikasi, issiqlik fizikasi, astrofizika, geliomaterialshunoslik, biologiya, mikrobiologiya, kimyo va tabiiy birikmalar kimyosi, seysmologiya yo'nalishlarida va boshqa ko'plab sohalarida istiqbolli tadqiqotlar olib borilmoqda²⁶.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday fanning xarakterli belgilari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- fan xalqqa xizmat qiladi, keng xalq ommasi ishtrokida rivojlanadi;
- fanga davlat rahbarlik qiladi;
- fan ilmiy metodologiya: falsafa bilan qurollangan bo'ladi;
- fan olimlari o'zaro yordam, jamoa rejasi asosida ishlashadi.

Sotsiologiya strukturasi va fanlar klassifikatsiyasining ikki yo'nalishi bor:

- a) fundamental yo'nalish;
- b) amaliy yo'nalish.

Tadqiqot sohasida esa:

- 1) nazariy tadqiqot.
- 2) empirik tadqiqotlarga bo'linadi.

Tuzilish sohasi bo'yicha:

- 1) Maxsus fanlar sohasi.
- 2) Tarmoq sohalari mavjud.

Bu sohalar bir-birlari bilan juda murakkab, o'zaro dialektik aloqadadirlar. Ayrim hollarda bir-biriga qo'shilib ketadi, ba'zida bir-birlarini inkor qiladi.

Fundamental sotsiologiya boshqa elementlaridan o'zi hal qilayotgan muammolar darajasi, ko'lami, ahamiyati bilan farq qiladi. Fundamental sotsiologiya abstraksiyaning (mavhumlik) oliy darajasi muammolari bilan shug'ullanib, sotsial olimning taraqqiyoti va borlig'i uchun zarur bo'lgan umumiy qonun va qonuniyatlarini izlash bilan faoliyat ko'rsatadi.

Fundamental sotsiologiya ko'plab maktab va yo'nalishga ega.

Fanning negizini ijodiy yaratishning 3 ta asosiy aspekti mavjud:

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi – bu sotsial olamning to'liq tasvirini yaratishdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai hamda shakllarini aniqlashdir. Yoki fundamental sotsiologiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

²⁶ Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. – T.: "O'zbekiston". 2007. – 27-6.

Fan-texnika taraqqiyotining muhim qismi bo'lgan fundamental fan ilmiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat.

Fan bilan ishlab chiqarish o'rtasida uzviy aloqa bog'lash, fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanishini ta'minlash, fundamental g'oyalar tajribaga, ishlab chiqarishga qaratilishi lozim.

Fan inson omilini chuqur tadqiq qilib, fan-texnika taraqqiyotini gumanizatsiyalash va ekologiyazatsiyalash muammolarini o'rganish.

Fan tarmoqlari: akademiya, tarmoq va oliy o'quv yurtlari bo'limlaridan qulay foydalanish.

Ilmiy kadrlar tayyorlash, fandagi yoshlar g'ayrat-shijoat iste'dodlaridan samarali foydalanish.

Jamiyat sotsial-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishini prognoz qilib oldindan aytib berish, ilmiy kuchlar va moddiy resurslardan o'rinli foydalanish.

Fundamental sotsiologik tadqiqotlarning xalq ho'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan ilmiy-texnik muammolarini hal etish, kompleks yechimlar beradigan, ishlab chiqarish korxonalarini hamda iqtisodiyotning butun tarmoqlarini har tomonlama takomillashtirishni ta'minlash asosida yirik texnologiyalar natijalariga ega bo'lish va kuchaytirishdan iborat.

Mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov "Agar fanni ulkanbir daraxt deb tasavvur qilsak fundamental tadqiqotlar uning ildizini tashkil etadi. Zero, ildiz qanchalik baquvvat, chuqur ketgan bo'lsa, daraxt shunchalik barq urib yashnaydi, ko'rkam hosil beradi", degan edi

Sub'yektga murojat qilish – fundamental sotsiologiya rivojining ikkinchi muhim tushunchasidir. Fundamental sotsiologiya bu metonazariyadir, u fanning tuzilishi, mazmuni, kategoriyasi va metodlarini o'rganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shu boisdan ham fundamental tadqiqot roli beqiyosdir.

Uning quyidagi funksiyalari bor:

- a) dunyoqarash funksiyasi;
- b) metodologik funksiyasi;
- v) integratsiyalashtiruvchi funksiyasi;
- g) evristik funksiyasi va boshqa funksiyalari mavjud.

2. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi. Uning xususiyati shundaki, amaliy sotsiologiya orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi. Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shakllanadi va rivojlanadi.

Empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib chiqadigan vosita hisoblanadi. Empiriktadqiqotlar o'zgartiruvchanlik xususiyatiga ega emas, uning vazifasi: kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish, so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik ma'lumotlar yig'ishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda, ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular amaliy tadqiqotlarni ijtimoiy hayotning turli sohalarini faoliyatini takomillashtirish uchun tavsiyanomalarga aylantiradi.

Shunday qilib, amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy metodologik bilimlarni ham shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya ilmiy bilimning amaliy effektivligi masalasini hal qilgan muammolarni o'rtaga qo'yadi.

Amaliy tadqiqotlar tarmoq yo'nalishini shakllantiradi (xulq-atvor sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya va h.q.)

Sotsiologik tadqiqotlar 1) nazariy hamda 2) empirik bo'lishi mumkin. Chunki har qanday fundamental sotsiologiya nazariyadir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jipslashgan holda va o'zaro aloqada o'tkaziladi. Lekin har qanday fundamental sotsiologiya nazariy hisoblansa, har qanday nazariya fundamental sotsiologiya hisoblanadi.

Nazariya – bu kategoriya, tushunchalar, holatlar va prinsiplarning kontseptual birligi bo'lib, u hodisalarning xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Nazariyada markaziy o'rinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari to'planadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi.

Sotsiologiya maxsus yo'nalishlar sotsial realikni sotsiologiya ob'yekti sifatida qabul qilishda nazariy mushohada qilishlik va bir ob'yektning asosiy elementlarini aniqlash asosida vujudga keladi, maxsus yo'nalishlar fanning markaziy qismini tashkil qiladi, chunki u o'zida tadqiqotning boshqa barcha yo'nalishlari: tarmoq, empirik yo'nalishlarini mujassamlashtirgan bo'ladi.

Tarmoq yo'nalishlari: shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi va h.q. Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun bazis bo'lib xizmat qiladi, chunki olingan ma'lumotlar asosida tashkilot, korxona, muassasa faoliyati takomillashadi. Tarmoq yo'nalishi rivoji fundamental sotsiologiya oldida jamiyat yaxlit tuzilishda turli xil ijtimoiy tizimlar roli, o'rni, o'zaro harakat turlari, taraqqiyot asoslari masalalarini qo'yadi.

O'rta asrlar davrida fundamental va amaliy fanlar bilan buyuk allomalarimiz bevosita shug'ullanishgan va quyidagi akademiya maktablarini barpo etishgan:

1) «Ma'mun akademiyasi» Abul Abbos ibn Ma'mun tomonidan X asr oxiri XI asr boshlarida tashkil topdi, Ibn Miskoviy, Abu Nasr Ibn Iroq kabi buyuk allomalar ta'lim olgan.

2) Samarqandda Ulug'bek astronomiyasi maktabi XV asrda tashkil topgan.

3) Xorazm Ma'mun akademiyasini qayta tashkil etish to'g'risida 1997 yil 11 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilinib qayta tiklandi. 2006 yil noyabrda Prezident Islom Karimov Xiva shahrida Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda «Ilmu ma'rifat ziyosi hech qachon so'nmaydi» mavzuida nutq so'zladi.

Xorazim Ma'mun akademiyasi faoliyatini oladigan bo'lsak, bu mo'tabar ilmiy maskanda Sharq va G'arb o'lkalaridan kelgan, turli millat va dinga mansub bo'lgan olimlar faoliyat ko'satgan bo'lsa-da uning negizini Abu Hasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sino, Mahmud Xo'jandiy, Ahmad ibn Muhammad Xorazimiy va Ahmad ibn Hamidiy Naysaburiy kabi mana shu bizning mintaqamizda tug'ilib, kamol topgan allomalar tashkil yetgani barchamizga g'urur va ifxor bag'ishlaydi²⁷

²⁷ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Ikkinchi nashri. T.: «Ma'naviyat», 2010. - 161-b.

1995 yilning aprel oyida tashkil topgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasida 1996 yilning may oyida tashkil etilgan Bank-moliya Akademiyasi hokimiyat va boshqaruv organlari xodimlarini, iqtisodiy tuzilmalar mutaxassislarini sifat jihatdan yangi darajada tayyorlash, qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish bo'yicha bosh muassasalardir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilish Akademiyasidagi jarayon kadrlarni siyosiy, madaniy, ma'naviy hamda kasb jihatdan tayyorlash majmuini o'z ichiga oladi. Akademik ta'lim tinglovchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, keng aql-zakovat, chuqur bilim va mulohaza, tashabbus, muammolarni hal etishga ijodiy yondashuv asosida hozirgi zamon tafakkurini shakllantirishga qaratilgan.

1995 yil 3 oktabrda Prezidentimiz Islom Karimov Davlat va jamiyat qurilish akademiyasining ochilishi marosimida so'zlagan nutqida ta'kidlaganidek, «Akademiya-bu oddiy o'quv yurti, kadrlar, hattoki, rahbar kadrlar tayyorlaydigan bilim dargohigina emas. U yangi tafakkur shakllanadigan, o'zimiz to'plagan va boshqa mamlakatlarda to'plangan ilg'or tajribalar o'rganiladigan, tahlil qilinadigan va tahsil beriladigan markaz bo'lib qolishi kerak» (Asarlar: T.4.-42-b.).

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov 1995 yil 2 noyabr kuni Respublika bir guruh olimlari – mamlakat fanlar akademiyasi vakillari bilan uchrashuvda “Fan ravnaqisiz buyuk davlat qurib bo'lmaydi” xususidagi nutqida “Ayniqsa fundamental fanlarga alohida e'tibor berish kerak. Chunki fundamental fanlar taraqqiyot asosidir”, degan edi. Mustaqillikning 21 yili davomida davlatimiz asosan respublika uchun ustuvor ilmiy-texnik yo'nalishlari bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlab kelmoqda. Buning uchun Fan va texnologiyalar markazida o'tkazilayotgan tanlovlar natijalariga ko'ra grantlarni amalga oshirish uchun yetarli mablag' ajratilmoqda. Iqtidorli yoshlarga nafaqat respublikada, balki rivojlangan xorijiy mamlakatlarda barcha sohalar bo'yicha o'z bilimi va tajribalarini oshirib borishlari uchun yetarli shart-sharoit yaratib berilgan.

Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 21 iyuldagi «Fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi 337-son» va 2002 yil 4 martdagi «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risidagi» 77-son Qarorlariga muvofiq Fan va texnologiyalar markaziga har yili ilmiy tadqiqot institutlari hamda oliy o'quv yurtlarining yosh olimlarini malaka oshirish hamda ilmiy stajirovkaga o'tish uchun rivojlangan xorijiy davlatlarning ilmiy markazlariga va oliy o'quv yurtlariga yuborish vazifasi yuklatilgan.

O'zbekiston olimlari fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsiya ishlari sohasidagi 25 davlat ilmiy-texnika dasturi bo'yicha ishlar olib bormoqdalar.

2.3. Mikrosotsiologiya va makrosotsiologiya

Shaxsiy o'zaro ta'sir vaziyatidagi kundalik xulq-atvorni tadqiq etish, odatda mikrosotsiologiya, deb yuritilgan. Makrosotsiologiya - bu yirik miqyosli firma, ijtimoiy tizimlar va umumiy qonuniyliklarning tarkib kabi ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishdir. Makrosotsiologiya, shuningdek uzoq muddatli o'zgarishlar jarayonlarini - aytaylik, sanoatlashtirishning rivojlanishini tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi. Bir qarashda mikro va makro tahlil bir-biridan ancha uzoqqa o'xshaydi. Amalda esa ular bir-birlari bilan uzviy bog'langan.

Makrotahlil kundalik hayotning institusional fonini tushunish uchun juda muhim. Odamlar o'zlarining kundalik hayotini qurish usullari keng institusional asoslarga favqulotda bog'liq; bu narsa kunlar madaniyatiga o'xshash madaniyatni g'arbdagi zamonaviy shahar hayoti bilan solishtirib ko'rsila ravshan bo'ladi. Hozirgi jamiyatlarda odamlar begonalar bilan doimiy muloqatga kirishadi. (Begona) so'zi o'zining eski manosini yo'qotdi, u avval (chetdan kelgan) (yot odam) manosini bildirar edi. Shaharlarda yashaydigan hozirgi jamiyat odamlari har kuni minglab shaxsan tanimaydigan odamlarni uchratadilar. Bunday vaziyatda fokuslashgan va fokuslashmagan o'zaro tasir kesishib o'tadi. Shaharlik odam uzluksiz tarzda o'zi avval hech uchratmagan odamlar bilan o'zaro tasirga kirishishini boshlashi va yakunlashi kerak. (Fokuslashgan o'zaro ta'sir - bu individlar tomonidan ko'p odam to'plangan joylarda va bevosita muloqatga kirishmay turib, bir-birining borligini anglash. Fokuslashgan o'zaro tasiri alohida to'nashuvlar, yoki ikki va undan ortiq indvidlardan har biri boshqalar nima qilayotgani yoki deya yotganiga bevosita e'tibor qaratishi yuz beradigan joydagi o'zaro ta'sir epizodlariga b'lish mumkin)

Mikrotadqiqotlarda, o'z navbatida, keng institutsional shakillarni izohlashga ko'mak bermoqda. Shaxsiy o'zaro ta'sir miqyoslaridan qat'iy nazar, barcha ijtimoiy tashkilot shakillarining asosi hisoblanadi. Firma faoliyatining ko'p qismi shaxsiy o'zaro ta'sir atamalaridan bayon qilinishi mumkin. Masalan, biz kengashdagi direktorlarning, idoradagi xizmatchilarning, sexdagi ishlarining o'zaro ta'sirini tahlil qilishimiz mumkin. Faqatgina shu ma'lumotidan foydalanib korporatsiyadagi manzarani to'raligicha ifodalash mumkin emas, chunki uning tuzumlari o'rtasidagi aloqalar bevosita shaxsiy o'zaro ta'sir doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunga qaramasdan kundalik o'zaro ta'sirni o'rganish mazkur tashkilot ishini tushunishga jiddiy hissa qo'shishi mumkin²⁸

Makrosotsiologiya - katta ko'lamdagi guruhlar, tashkilotlar yoki ijtimoiy tizimlarni o'rganish.


Mikrosotsiologiya - inson xulq-atvorini yuzma-yuz o'zaro ta'sir kontekstida o'rganish.

Tayanch iboralar


Ma'mun akademiyasi, fundamental sotsiologiya, nazariy sotsiologiya, amaliy sotsiologiya, **nazariya**, maxsus va tarmoq yo'nalishlari.

²⁸ Giddings E. Sotsiologiya. - Toshkent, 2002. - 138, 837, 838-b.

Sotsiologiya strukturasi.
Sotsiologiya fan (tarkibiy jihatdahi
3 ta kata qisimga ajratib o'rganiladi.



II. Maxsus (xususiy) sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'nalish



III. Bitvosita empiric sotsiologik nazariyalar asosiga quriluvchi tadqiqot yo'nalish.

Tadqiqot natijasida olingan empirik manbalar, bu
hazariy bilimlar asosini boyitib, ijtimoiy muammolarni
amaliy hal etish taysiya-takliflarni ilgari suradi. Shu boisdan
ham sotsiologiya u yoki bu ijtimoiy muammoga murojat etar
ekan, anashu empirik manbani atroflicha o'rganib chqadi

Jamiyat fanlarning rivojlanishi va ularning ijtimoiy ahamiyati ortib borishida uchta muhim bosqich farq qiladi.

1. Fanlar jamiyat ishlab chiqarishga oid amaliy-ijtimoiy talabalar va ehtiyojlarga javob berish asosida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Bu bosqichda astronomiya, geometriya, matematika va mehanika kabi fanlar sust rivojlanadi. VII-XII asrlarda arab Sharqi va O'rta Osiyoda fanlar eng taraqqiy etgan o'lkalardan biriga aylandi.

2. XIV asr oxiri va XV asrlarda O'rta Osiyo temuriylar imperiyasi davrida hamda XVII asr oxirlariga kelib Evropada kapitalizmning tez rivojlanishi bilan

3. Uchunchi bosqich XX asr boshlaridan boshlandi. Bu davrda fan ishlab chiqarish kuchiga aylana bordi. Fan-texnika inqilobi sodir bo'lishiga olib keldi. XX asr oxiriga kelib esa fanlarda an'anaviy (klassik) tafakkur uslubi o'miga noan'anaviy davr boshlandi.

Prezidentimiz Islom Karimov ta'бири bilan aytganda, "Fan- jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvchi kuch, vositadir".

Fanlar predmetiga ko'ra:

1) Tabiatshunoslik (tabiatni bilish, o'zlashtirish, o'zgartirish qonunlarini o'rganadi).

2) Jamiyatshunoslik (ijtimoiy munosabatlarni, inson mavqey, iqtisodiy va ma'naviy hayotini o'rganadi).

3) Texnika fanlar (inson tomonidan ixtiro qilingan mashina, mexanizmlar, ular tuzilishi, qurilishi, faoliyati qonunlarini o'rganadi)ga bo'linadi.

Fanlar yana 2 turga bo'linadi.

1. Fundamental fanlar (tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuri taraqqiyotning umumiy qonuniyatlarini nazariy jihatdan o'rganuvchi fandır).

2. Amaliy fanlar (ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, erishilgan har bir natijasi ishlab chiqarishga bevosita tadbiq etilib boradigan fanlardir).

Fundamental fanlar-

-amaliy fanlardan oldinroq harakatda bo'lib, ularga nazariy imkon yaratadi. Amaliy va fundamental fanlar borliqning turli sohalari qonuniyatlarini ishlab chiqarishga joriy etib, ijtimoiy- amaliy masalarni hal qilishga harakat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi FA olimlari ko'proq fundamental fanlar sohasida ilmiy izlanishlar olib borsalar, amaliy tadqiqot fanlari bilan esa ko'proq respublika oliy o'quv yurti ilmiy potentsialiga ega bo'lgan professor-o'qituvchi olimlar shug'ullanadilar. Respublikadagi iqtidorli olimlarning katta qismi oliy o'quv yurtlarida ishlaydilar.

"Bizning fundamental fanlar bilan shug'ulanadigan 40 ga yaqin ilmiy-tadqiqot muassasalarimiz bor", degan edi Prezidentimiz Islom Karimov. 1995 yil 3 aprelda Vazirlar Maxkamasi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Nizomi to'g'risida"gi qarorini tasdiqladi.

Har qanday fanning xarakterli belgilari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

-fan xalqqa xizmat qiladi, keng xalq ommasi ishtrokida rivojlanadi

- fan olimlari o'zaro yordam, jamoa rejasi asosida ishlashadi.

Sotsiologiya strukturasida fanlar klassifikatsiyasining ikki yo'nalish bor:

- a) fundamental yo'nalish;
- b) amaliy yo'nalish.

- fanga davlat rahbarlik qiladi;

Tadqiqot sohasida esa

- 1) nazariy tadqiqot.
- 2) empirik tadqiqotlarga

Tuzilish sohasi bo'yicha:

- 1) Maxsus fanlar sohasi.
- 2) Tarmoq sohalari mavjud

- fan ilmiy metodologiya: falsafa bilan qurollangan bo'ladi;

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi – bu sotsial olamning to'liq tasvirini yaratishdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai hamda shakillarini aniqlashdir.

Yoki fundamental sotsiologiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

Fan-texnika taraqqiyotining muhim qismi bo'lgan fundamental fan ilmiy rivojlanishini ta'minlashdan iborat

Fan bilan ishlab chiqarish o'rtasida uzviy aloqa bog'lash, fanning ishlab chiqarish kuchiga aylanishini ta'minlash, fundamental g'oyalar tajribaga, ishlab chiqarishga qaratilishi lozim.

Fan inson omilini chuqur tadqiq qilib, fan-texnika taraqqiyotini gumanizatsiyalash va ekologiyazatsiyalash muammolarini o'rganish.

Fan tarmoqlari: akademiya, tarmoq va oliy o'quv yurtlari bo'limlaridan qulay foydalanish.

Ilmiy kadrlar tayyorlash, fandagi yoshlar g'ayrat-shijoat iste'dodlaridan samarali foydalanish.

Jamiyat sotsial-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy rivojlanishni prognoz qilib oldindan aytib berish, ilmiy kuchlar va moddiy resurslardan o'rinni foydalanish.

Fundamental tadqiqot quyidagi funksiyalari bor:

a) dunyoqarash funksiyasi;

b) metodologik funksiyasi;

v) integratsiyalashtiruvchi funksiyasi;

g) evristik funksiyasi

2. Amaliy sotsiologik tadqiqotlar fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi.

Uning xususiyati shundaki, amaliy sotsiologiya orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi.

Empirik tadqiqotlar o'zgartiruvchanlik xususiyatga ega emas, uning vazifasi: kuzatish, eksperiment, hujjatlarni o'rganish, so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik ma'lumotlar yig'ishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda, ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shakillandi va rivojlandi.

Amaliy tadqiqotlar tarmoq yo'nalishini shakllantiradi (xulq-atvor sotsiologiyasi, industrial sotsiologiya va h.q.)

Tarmoq yo'nalishlari: shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi va h.q. Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun bazis bo'lib xizmat qiladi, chunki olingan ma'lumotlar asosida tashkilot, korxona, muassasa faoliyati takomillashadi. Tarmoq yo'nalishi rivoji fundamental sotsiologiya oldida jamiyat yaxlit tuzilishda turli xil ijtimoiy tizimlar roli, o'rni, o'zaro harakat turlari, taraqqiyot asoslari masalalarini qo'yadi.

O'rta asrlar davrida fundamental va amaliy fanlar bilan buyuk allomalarimiz bevosita shug'ullanishgan va quyidagi akademiya maktablarini barpo etishgan:

1) «Ma'mun akademiyasi» Abul Abbas ibn Ma'mun tomonidan X asr oxiri XI asr boshlarida tashkil topdi, Ibn Miskoviy, Abu Nasr Ibn Iroq kabi buyuk allomalar ta'lim olgan.

2) Samarqandda Ulug'bek astronomiyasi maktabi XV asrda tashkil topgan.

3) Xorazm Ma'mun akademiyasini qayta tashkil etish to'g'risida 1997 yil 11 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni qabul qilinib qayta tiklandi. 2006 yil noyabrda Prezident Islom Karimov Xiva shahrida Ma'mun akademiyasining 1000 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda «Ilmu ma'rifat ziyosi hech qachon so'namaydi» mavzuida nutq so'zladi.

Mikrosotsiologiya va makrosotsiologiya

Makrosotsiologiya - katta ko'lamdagi guruhlar, tashkilotlar yoki ijtimoiy tizimlarni o'rganish.

Mikrosotsiologiya - inson xulq-atvori ni yuzma-yuz o'zaro ta'sir kontekstida o'rganish.

Mikrosotsiologiya

Shaxsiy o'zaro ta'sir vaziyatidagi kundalik xulq-atvorni tadqiq etish, odatda mikrosotsiologiya, deb yuritilgan.

Makrosotsiologiya - bu yirik miqyosli firma, ijtimoiy tizimlar va umumiqisodiy tarkib kabi ijtimoiy tizimlarni tahlil qilishdir.

Makrosotsiologiya, shuningdek uzoq muddatli o'zgarishlar jarayonlarini - aytaylik, sanoatlashtirishning rivojlanishini tahlil qilishni ham o'z ichiga oladi.

Bir qarashda mikro—va makro tahlil bir—biridan ancha uzoqqa o'xshaydi.

Amalda esa ular bir—birlari bilan uzviy bog'langan.

Makrosotsiologiya

Makrotahlil kundalik hayotning institusional fonini tushunish uchun juda muhim.

Odamlar o'zlarining kundalik hayotini qurish usullari keng institusional asoslarga favqulotdda bog'liq.

Hozirgi jamiyatlarda odamlar begonalar bilan doimiy muloqatga kirishadi. (Begona) so'zi o'zining eski manosini yo'qotdi, u avval (chetdan kelgan) (yot odam) manosini bildirar edi.

3 – MAVZU. Jamiyat va ijtimoiy tizim tushunchalari.

- 3.1. Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi hamda sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari
- 3.2. Jamiyatning(yo'nalishlari) mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishini
- 3.3. Hozirgi kun jamiyatining ko'rinishlari va jamiyatning uzilishi

3.1. Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi hamda sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari

Jamiyat (society)-bu sotsiologiyadagi eng muhim tushunchalardan biri. Jamiyat-muayyan hududda istiqomat qiluvchi, yagona siyosiy hokimiyatga itoat qiladigan va o'zlarini boshqa qo'shni guruhlardan farqlaydigan odamlar guruhi²⁹.

Jamiyat – kishilar hayotiy faoliyatining tarixiy rivojlanish shakli bo'lib, o'z tuzilishi jihatidan murakkab tizimni tashkil qiladi. Bizning hozirda yashab turgan jamiyatimiz sotsial tizimining muayyan konkret shakli sifatida, uning funktsional va rivojlanish qonuniyatini, har bir bo'lakchalarning o'ziga xos tomonlarini, o'zaro munosabatlarini ilmiy jihatdan o'rganib, to'g'ri boshqarish muhim ahamiyatga egadir.

Chunki o'z vaqtida keyingi oqibati o'ylanmagan, oldindan sotsiologik asosda tahlil qilinmagan va oldi olinmagan nuqsonlar jamiyat taraqqiyotida salbiy asoratlarga qoldiradi.

Sotsiologiya tarixda **jamiyat** ~ o'z ijtimoiy ehtiyojlarini qondiruvchi kishilar birligi sifatida tushunilgan. Shu bilan birga, jamiyat ayrim ijtimoiy birligi emas, balki ijtimoiy munosabatlar majmuasi hamdir.

Sotsiologiya jamiyat to'g'risidagi ta'limot bo'lib, ijtimoiy tizimlar rivojlanishi va funktsional qonuniyatlar, harakatlantiruvchi kuchlarni o'rganuvchi fan hamdir. U turli ijtimoiy hodisalar, jamiyat va tabiat o'rtasidagi aloqadorlikni, shuningdek, shaxs kishilarning ijtimoiy xulqi, uning elementlari va rivojlanish qonuniyatlarini o'rganadi.

Jamiyat – bu kishilar birgalikdagi faoliyatining tashkiliy shakllari turli darajalaridan iboratdir. Bu faoliyat doirasida turli-tuman jamiyat va uning a'zolari, ularga mansub bo'lgan birliklarning har biri uchun umumiy bo'lgan ehtiyojlari qondiriladi. Aniqroq qilib aytganda, **jamiyat** – bu o'z-o'zicha yetarililik bo'lib, o'z a'zolari turmush sharoiti uchun barcha zarur jarayonlarni yo'lga qo'yadi, amalga oshiradi. Bu «o'z-o'zicha yetarililik»ni jamiyat bilan uning bir qismi bo'lgan siyosiy partiya nisbatini aniqlash misolida yaqqol ko'rish mumkin. Masalan, Xitoy Xalq Respublikasidagi hukmron partiyaning a'zolari soni allaqachon 100 million kishidan oshib ketgan. Lekin bu partiya jamiyat ichida mavjud. Umumiy soni mingdan ham ko'p bo'lmagan yovvoyilar qabilasi haqiqiy, to'laqonli jamiyat bo'la oladi. Gap shundaki, etnos tarixan birinchi o'z-o'zicha yetarli ijtimoiy guruh bo'lgan. Etnos a'zolari birgalikdagi xatti-harakatlari bilan zarur hayot sharoitlarini yaratadilar.

So'z turkumlaridan ot bo'lgan «sotsium» va «jamiyat» so'zlaridan «sotsial» va «ijtimoiy» sifatlarga yasaladi. Binobarin ularni sinonim sifatida ishlatish to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bu tushunchalar anglatadigan ma'nolar, garchand yaqin bo'lsada,

²⁹ Giddings E. Sotsiologiya. – T.: 2002.-820.-b.

lekin aynan emas. «Sotsium» tushunchasi «jamiyat» tushunchasidan keng. «Jamiyat» tushunchasi «sotsium» ifodalaydigan voqelikni konkretlashtirib aks ettiradi, uning mavjudlik usulini ko'rsatadi. Yuqorida aytilganidek, «jamiyat» tushunchasida sotsiumni tashkil etgan birliklarning turli darajalardagi ifodasi aks etadi. U shbu hol ot va sifat ko'rinishidagi «jamiyat», «ijtimoiy» so'zlarni aniq ishlatish, o'mida qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

«Jamo» va «jamiyat» atamaları anglatgan ma'nolariga ko'ra yaqindir. Har ikki so'z arabcha «jam'a»dan yasalgan bo'lib, kishilarning turli darajada va maqomda olingan umumiyiligini anglatadi. Agar «jamiyat» deyilganda keng ma'noda oldingi paragirlarda ko'rsatib o'tilganidek, kishilarning birgalikdagi manfaatları va kelishuvi asosida, maqsadga muvofiq oqilona tashkil etilgan, birgalikdagi faoliyati ifodasi tushunilsa, «jamo» tushunchasida umumiy kelib chiqish, til, taqdir va qarashlar bilan bog'liqlik o'z aksini topadi. Oila, xalq va hokazolar ayni shunday jamoalardir. Har qanday jamoa ham jamiyat bo'lavermaydi. Lekin istalgan jamiyat jamoa hisoblanadi. Ayniqsa, jamiyat murakkab jamoa bo'lib, o'z-o'zidan mavjudlik va rivojlanish xususiyatlariga egadir.

Hozirgacha jamiyat hayotini sotsiologik jihatdan tadqiq qilish, asosan, ikki yo'nalishda rivojlanib kelgan. Birinchi yo'nalish O.Kontdan fransuz sotsiologi E.Dyurkgeym orqali rivojlantirilgan amerikalik sotsiolog T.Parsonslarning sotsiologik ta'limotlarini o'z ichiga oladi. Bu yo'nalishda ijtimoiy tizim o'zgarishi tashqi kuchlar ta'siri orqali tushuntirilib, ko'proq psixologik omillarga e'tibor berilgan. Ikkinchi yo'nalish: marksistik sotsiologik ta'limot bo'lib, unda ijtimoiy tizim ichki ziddiyatlar asosida ichki kuch ta'siri orqali tushuntirilib, materialistik mohiyatga ega bo'lgan moddiy munosabatlarning belgilovchi roliga asosiy e'tibor qaratilgan. Har ikki ta'limot ham jamiyat hayotida muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirib keldi. Sotsiologik amaliyot funksional o'zgarishlarsiz, evolyutsiyasiz, revolyutsiya tushunchasi bilan, funktsional munosabatlar tahlilisiz ijtimoiy tizimlar rivojlanishini faqat ziddiyat va konfliktlar orqali asoslashga urinuvchi bu ta'limot jamiyat hayotini bir tomonlama o'rganishga olib kelganligini davr ko'rsatmoqda.

Burjua sotsiologiyasi nomi bilan atalgan G'arb sotsiologik ta'limotida ham o'ziga xos ijobiy jihatlar bilan bir qatorda, ijtimoiy tizimlar rivojlanishining ichki ziddiyatli xususiyatlarini hisobga olmaslik ham jamiyatni bir tomonlama tushuntirishni bildiradi. «Jamiyat hayotining industrlashuvi ob'yektiv ravishda, qaysi ijtimoiy tizimlar bo'lishidan qat'iy nazar, ijtimoiy ierarxiyaning bir xil (yagona) tipiga olib boradi» - degan amerika sotsiologlarining fikri hozircha tarixiy rivojlanish amaliyotida tasdiqlanmoqda.

Sotsiologiya jamiyatni tizim sifatida uning strukturalari, funksiyalari va tizimi elementlarini o'rganadi. Jamiyatga nisbatan tizimli munosabatning mohiyatini aniqlash uchun, avvalo, tizim nima ekanligiga to'xtalish kerak.

Tizim – o'zaro bir-biri bilan bog'liq va funksional munosabatlar hamda aloqalarda bo'lgan elementlarning bir butun majmuidir.

Ijtimoiy tizim o'z ichiga ayrim individlar, guruhlar, tashkilotlar, institutlar, hamjamiyatlarning ijtimoiy aloqa va munosabatlarda birlashgan, tartibga solingan bir butunlikdir.

Sotsiologiyada, odatda, ijtimoiy tizim 4 aspektda o'rganiladi:

- 1) individlarning o'zaro ta'siri;
- 2) guruhlarining o'zaro ta'siri;
- 3) ijtimoiy maqomlar ierarxiyasi;
- 4) individlar xulq-atvorini belgilaydigan ijtimoiy me'yorva qadriyatlarning

majmui.

Ijtimoiy tizim— o'zaro bog'langan individlar, ijtimoiy guruhlar va institutlarni o'z ichiga oluvchi, murakkab tashkil bo'lgan va tartiblangan ijtimoiy yaxlitlik. Alohida shaxs ham uning tashqi dunyo bilan munosabatlarining serqirraligi va o'z-o'zinitashkil qilishining yaxlitligi nuqtai nazaridan ijtimoiy tizim hisoblanishi mumkin. **Ijtimoiy tizim** - murakkab ichki tuzilishga ega bo'lib, tartibli, bir butun, o'ziga xos ijtimoiy aloqadorlik va turli ijtimoiy munosabatlar birligini tashkil qiladi. Har qanday ijtimoiy tizim tarkibiy tizimlar, masalan, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy, ijtimoiy turmush, fan va boshqa shu kabi sohalaridan alohida olinganinsongacha bo'lgan ijtimoiy tizimlar shular jumlasidandir.³⁰

Ijtimoiy tizim dinamikasi. Tizimning tinch holatini bayon qilish u haqda to'la ma'lumot bermaydi. Tizim dinamikasi unga yo'nalishi, xususiyatlarining o'zgarish sur'ati, shuningdek, rivojlanish tendensiyalarini o'rganishni taqozo qiladi. Tizimlarning turli-tumanligi, to'g'ri chiziqli va to'g'ri chiziqli bo'lmagan dinamik tizimlar, rivojlanish manbai hamda harakatlantiruvchi kuchlari tizimli dinamikaning tadqiqot predmeti hisoblanadi.

Demak, ijtimoiy tizim dinamikasi tushunchasi ijtimoiy voqelikni o'rganishdagi turli munosabatlarni ifodalaydi. Ijtimoiy tizim dinamikasi voqelik o'zgarishidagi jarayonlarni, ularning bog'liqligi, yo'nalishi va oqibatlarini o'rganadi. Uning doirasida bu o'zgarishlarga ta'sir qiluvchi omillar, ijtimoiy munosabatlarga individlarning moslashish qonuniyatlari kiradi.

Tabiatshunoslikda dinamik tizim deganda, tizimning holatini aniqlash mumkin bo'lgan har qanday ob'yekt yoki jarayon tushuniladi.

Dinamik tizimlar to'g'ri chiziqli yoki sikllik bo'ladi.

To'g'ri chiziqli dinamik tizim hatti-harakati bir joyda turadigan narsa atrofida (masalan, mayoqning tebranishi) bo'ladi, u vaqtga bog'liq emas.

To'g'richiziqli bo'lmagan tizim barqaror va beqaror statsionar holatga ega. Barqaror statsionar holat tizimning o'ziga xos, beqaror statsionar holat tizimdagi o'zgarishlarni ko'rsatadi.

To'g'ri chiziqli bo'lmagan tizim tushunchasi ko'p variantlilikni, taraqqiyotni va orqaga qaytmaslikni o'z ichiga oladi.

Jamiyat rivojining asosiy manbai kishilarning xatti-harakatida mujassamlangan energiyadir. U jamiyatning institutsional va madaniy tizimida o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Bu o'zgarishlar ichki o'z-o'zini tartibga solish va nazorat qilish mexanizmi yordamida amalga oshiriladi.

Murakkab tizimlarda evolyutsiya va involyutsiya, integratsiya va dezintegratsiya namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi sivilizatsiyalar asrlar davomida

³⁰Bekmurodov M., Sultonov T. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matini. T.: 2000.-108-b.

gullab yashnadi va halokatga uchradi. A.Toynbi so'nggi 3000 yil ichida bo'lgan 21 sivilizatsiyani o'rganib, o'rtacha progressiv taraqqiyot o'rtacha regressiv taraqqiyotga o'tishni ko'rsatadi. Sivilizatsiyalar, ularning rivojlanishi, inqirozi to'xtovsiz va to'planib boradigan tarzda namoyon bo'ladi.

Sotiologiyaning asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy hayot va ijtimoiy munosabatlarni o'rganishidir. Sotsiologiya terminining o'zi tarjima qilinganda — «jamiyat haqidagi so'z» ma'nosini anglatadi. Sotsiologiya fani insonni alohida emas, balki o'zaro munosabatda bo'lgan va o'zaro aloqada bo'lgan insonlarning faoliyatini, ularning bir-biri faoliyatlari mobaynidagi tasirini o'rganadi.

Jamiyatni biz sotsiologik nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo'lsak qanday o'rganamiz?

Birinchidan, jamiyatni tuzilishi va tarkibi o'rganiladi, ya'ni jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansubligi ko'riladi.

Ikkinchidan jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning xatti-harakatlari nimalardan iborat, ya'ni ularning o'zaro munosabatlaridagi xarakterlari ko'riladi. Bunda biz jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning faoliyatlarini tasodifiy emas, balki aynan o'sha jamiyat qonuniyatlari asosida rivojlanib borishini ta'kidlashimiz kerak. Bunda jamiyat munosabatlari, aynan bir qancha kuchlar idora etib turgan munosabatlar orqali, kishilar u yoki bu munosabatlarni bajaradilar. Jamiyatdagi kishilarning qanday tabaqalarga taqsimlanishi, ushbu jamiyatning qanday kishilardan iborat ekanligi, jamiyat ichki faoliyatida kishilarning o'zlarini qanday tutishlari va ular orasida o'zaro munosabatlarning qay darajada ekanligi, alohida bir kishilarning xatti-harakati natijasida katta ahamiyatga molik bo'lgan ijtimoiy tarixiy jarayonlarning vujudga kelishi, inson xatgi-harakatini qanday kuchlar boshqarib turishligi— kishilarning o'zaro munosabatlaridagi xarakterining o'zagini tashkil etadi.

Uchinchidan, jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai-nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o'tishi bilan o'zgaradi. Taraqqiyotning misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib borishi jamiyatdagi qadriyatlarni o'zgartirib, o'zga ikkinchi yoki uchinchi bir qadriyatlar bilan qorishtirib yubormoqda, kechagi avlodning yashash tarzi bugungi avlodnikiga mos kelmay qolmoqda, bugungi avlodniki esa ertangi avlodni yashash tarziga mos kelmaydi, ya'ni vaqt kutib turmaydi. Shuning uchun jamiyatni to'liq tushunish uchun nafaqat uning tuzilishi va rivojlanishini, balki uning o'tmishini, ya'ni tarxini ham sinchiklab o'rganish, bu jamiyatni qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilmoq jamiyatni to'liq tushunmoqlikka imkon yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega bo'lgan, o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettirgan, individual sifatlarga (shaxsning ijtimoiy belgisi, qizqishlari, qadriyatlar yo'nalishi, shaxs motivlari va hokazo) ega bo'lgan kishilar jamiyatning elementi hisoblanadi.

Jamiyat umumny tabiiy-tarixiy sistema sifatida o'zida ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy, ideologik, siyosiy strukturalarining organik birligini tashkil etadi. Kishilarning turli ijtimoiy guruhlarning o'zaro birligi yoki jamiyat hayotining turli sohalaridagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy

faoliyatlari jamiyat sistemasining tabiiy-tarixiy xarakterini belgilashda muhim omil hisoblanadi.

Jamiyat har bir sohasi ishlab chiqarish taraqqiyotida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi:

iqtisodiy munosabatlar—moddiy ishlab chiqarish funksiyasini,

ijtimoiy munosabatlar—ijtimoiylashuvini (sotsializatsiya),

siyosiy munosabatlar — ijtimoiy boshqaruvni (elementlar nazorati) **mafkuraviy**

munosabatlar — ma'naviy ishlab chiqarish funksiyasi va boshqlar.

Ijtimoiy struktura-jamiyatning ijtimoiy asosidir. Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar ikki xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal' munosabatlar.

2. Ijtimoiy munosabatlar

1. **Sotsietal munosabatlar** sistemasiga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega. Sotsietal' sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'ladi. Demak, sotsietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

1) **iqtisodiy:** (asoschisi A. Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);

Sotsietal sistemalarning bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lishi dialektik xarakterga ega edi. Shuning uchun aynan shu sistemada ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, bazis va ustqurma, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong kabi falsafiy kategoriyalar ishlatiladi. Siyosiy iqtisod nazariyasining asoschisi A. Smit jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishini quyidagicha ifodalagan edi: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsulidir, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ishlashga ham majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda aksincha o'zi uchun ham ishlaydi». **Sotsiologik nuqtai-nazardan jamiyat — bu birgalikda yashovchi kishilarning, o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo'lib, o'z faoliyatlarida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi uyushmasidir.** Jamiyat tashkil topishi uchun eng kamida ikki kishi bo'lishi kerak va bular o'zaro hamkorlikda bo'lib turishlari kerak, bu jamiyatning oddiy ko'rinishi bo'lib, uning murakkab shakllarini shakllantirib boradi, ya'ni oilaning qurilishi bu oddiy jamiyat, bu jamiyatda A. Smit ta'rifi bo'yicha jamiyat a'zosi ham o'zi uchun, ham o'zga bir kishilar uchun ishlaydi, murakkab jamiyatni shakllanishiga o'z oilasi bilan xissa qo'shadi.

2) **ijtimoiy:** a) ijtimoiy munosabatlar asosiy elementi ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar, professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar);

b) elementi (kishilar jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.

3) **siyosiy;**

4) **mafkuraviy.**

2. **Ijtimoiy munosabatlar:** («ijtimoiy» sistema elementi — kishilar).

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlar. Ular turli jamoalar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial organizm qilib

bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo'lishi, dehqonchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfirkirlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik. Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatlari bilan jamiyat tarakqiyotiga ijobiy ham salbiy ta'sir etadi.

Ijobiy munosabatlar ta'siri: hamfirkirlik, kooperatsiya, kurash.

Salbiy ta'sirli munosabatlar: befarqlik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik.

Jamiyatning «ijtimoiylik» sistemasi unsurlar uyushmasining sifatlari munosabatlarini hodisalar va jarayonlarda aks ettiradi. «Ijtimoiylik» sistemasining asosiyunsurlarini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi, ya'ni bular sinflar, millatlar, professional, demografik, xududiy va siyosiy guruhlardir³¹. «Ijtimoiy» sistemasining elementini kishilar tashkil etadi. Bunda har xil ijtimoiy jamoalar birlashgan kishilar bir-birlari bilan o'zaro aloqadorlikda bo'ladilar. Ushbu aloqadorlik jarayonida kishilar ma'lum bir individga va ma'lum bir mehatga ta'sir o'tkazadilar.

Jamiyat tushunchasi va jamiyat to'g'risidagi fikrlar

M.Veber fikricha jamiyat- sotsial, ya'ni boshqa insonlarga yo'naltirilgan harakatlar mahsuli bo'lgan insonlar munosabatidir.

T.Parsons fikricha esa jamiyat qadriyatlar va me'yorlar orqali tuziladigan munosabatlar tizimi.

K.Marks fikricha esa jamiyat-insonlarning birgalikdagi faoliyati jarayonida paydo bo'luvchi munosabatlar majmuasidir.

Ingliz olimi G.Spenser jamiyatni tirik biologik organizmga analogiya qiladi. Uning fikricha, o'xshashliklar quyidagilardan iborat:

1) Jamiyat tirik biologik organizm singari o'z mavjudligi jarayonida o'sadi va rivojlanadi;

2) biologik evolyutsiya jarayonida tirik organizm strukturasi rivojlangani singari jamiyat ham vaqt mobaynida strukturaviy o'zgarishlarga yuz tutadi;

3) biologik organizm kabi sotsial organizmda har bir a'zo o'z funksiyasini bajaradi;

4) biologik organizmning biror a'zosi o'z funksiyasini bajara olmasligi butun organizmga ta'sir qilganidek, jamiyatning biror bo'g'ini faoliyatini olib bormasa, butun jamiyat krizisga uchrashi mumkin.

Ba'zan davlat va jamiyat tushunchalari bir ma'noda ishlatiladi. Lekin ular o'rtasida muayyan farqlar mavjud. Jamiyat davlatga nisbatan kengroq tushuncha hisoblanadi. Davlat taraqqiyotning mehnat taqsimoti davrida vujudga kelgan, jamiyat hayotini tartibga solish maqsadida paydo bo'lgan, ma'lum kishilardan tashkil topgan katta sotsial guruhdir.

K.Marks fikricha, davlat-ko'pchilikni ozchilikka bo'ysindiruvchi apparatdir.

³¹ Aliqoriyev N. Umumiy sotsiologiya. A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.: -2002. -5-b.

Mamlakat-davlat suverenitetidan foydalanuvchi va hududiy chegaralarga ega bo'lgan dunyoning bir qismi yoki hududi.

Davlat-ma'lum mamlakatning aniq siyosiy rejimga asoslangan, boshqaruv bo'g'inlari va hukumat strukturasi ega xokimiyat.

O. Kontning sotsiologik nazariyasida ham aks ettirilgan. O. Kont, D. Yum, A. Smit, Russo, Sen-Simonlarning jamiyat to'g'risidagi nazariyalarini rivojlantirdi. O. Kont sotsiologiyasida psixologiya, siyosiy iqtisod, etika, falsafa tarixi fanlarini tushuncha va metodologiyasi, sintezlashtiriladi. Jamiyat, oila, xalq, millat barcha insoniyatning axloqiy xisssiyotlarini qamrab olgan axloqiy xisssiyotning organik natijasi deyiladi. Jamiyat — o'zaro munosabatda bo'lgan «zarrachalar», «elementlar», «atomlar»ning avtomatik harakatda bo'lgan mexanizmi deb qaraladi. Individd xatti-harakatlari va qiziqishlarini O. Kont abstraksiya deb hisoblaydi. Ijtimoiylikning ajralmas unsuri sifatida inson emas, oilani olib, oila jamiyatning ijtimoiy organizmini birligini tashkil etadi, deydi. Bu yerda kishilarning o'zaro aloqadorligi («assotsiatsiya») emas, balki ajralmas birligi hukmronlik qiladi, deb o'z fikrlarini Kont davom ettiradi.

Jamiyat to'g'risidagi qarashlarini G. Spenser organitsistik (jamiyatni tabiatning organizmini analogi deb qarab, ijtimoiy hayotni biologik qonuniyatlarning belgisi sifatida qarash) ta'limot nuqtai-nazaridan olib qaraydi. Jamiyatning taraqqiyoti biologiyaning yangi yutuqlari bilan shakllanib, rivojlanib boradi. Jamiyat a'zolari jamiyat farovonligi uchun emas, balki jamiyat jamiyat a'zolari farovonligi uchun xizmat qilishi kerak, deb Spenser individualizmi organistik yondoshadi,— insonni sotsiologiyaning eng asosiy muammosi sifatida olib qaraydi. Jamiyat tabiat fenomenining umumlashmasi sifatida, uning taraqqiyoti (evolyutsiya) differensial bo'laklar va funksiyalarning tabiiy jarayoni sifatida qaraladi. Individualizmning axloqiy-ijtimoiy muammosi yangi muammo bo'lib, differensiallashgan jamiyatda individ ham ishtirok etadi, evolyutsiya unga tug'ilgan muammoni yechishga ruxsat etib turadi. **XIX asrda «jamiyat» tushunchasi yangi ma'no bilan boyitiladi.** Jamiyat taraqqiyotining mexanik strukturasi organik strukturasi bilan birgalikda olib qaraladi. Muammoni yechish yo'lini sotsiologlar jamiyatni 2 yo'nalishini tarixiy nuqtai nazardan o'rganib, ikki qarama-qarshi tendensiyaning: an'anaviy va zamonaviy jamiyat turlarini bir-biri bilan solishtirib o'rganadilar. Bunday jamiyat yo'nalishini Tyonnis va Dyurkgeym «status» va «kontrakt» (shartnoma) dixotomik g'oyalarini ilgari surgan holda o'rganib chiqadilar. Unda gipotetik tabiat) ko'rinish va «ijtimoiy shartnoma» ko'inishining ratsional tomonlari aks ettiriladi. Tyonnis o'zining «jamo» («gemaynshaft uyushmasi») va «jamiyat» dixotomiyasida organistik metodologiya muammolashtirgan. Uning konsepsiyasida individning umumiylikka yoki individlarning ichki umumiylikka munosabatlari to'g'risida fikr bormay, balki individlarning o'zaro munosabatining anglangan erkinliklarini bildiruvchi ijtimoiy umumiylik to'g'risida so'z boradi. Erkinlik yoki «mohiyatan» yoki «saylangan» bo'lib, «mohiyat erkinligi» birligi (samost), «organizm va organik bo'laklarga xos» birlikni tashkil etadi, har bir bo'lak ushbu birlikni aks ettiradi va jamoa gemaynshaft—uchun yashaydi. Aksincha, har bir ijtimoiy munosabatlar yuqori turuvchi, qaramog'ida ma'lum bir kuch va imkoniyatlarga ega bo'lgan sun'iy

individdni namoyon qilib, natijada jamiyat ijtimoiy umumiylik nuqtai nazardan fikr yuritadi». Jamiyatni 2 xil tushunish to'g'risidagi dixotomiyada, ya'ni keng ma'noda «jamo»ni jamiyat tarkibiga qo'shib va tor ma'noda «jamo»ni jamiyat tarkibidan chiqarib, Tyonnis turli xil ijtimoiy aloqa va ta'limotlarni tahlil qildi. Tyonnis davlat tushunchasining jamiyat bilan o'zaro aloqadorlikda ko'radi, tarixiy taraqqiyot jarayonida barcha yirik rivojlangan davlatlar «birlik* tendensiyasi sari intilib boradi deb qaraydi. Bu bashoratni yoki oldindan ko'ra bilishni, har qalay hozirgi kunda Yevropa iqtisodiy ittifoqni tuzish uchun rivojlangan davlatlarning o'zaro muzokaralar olib borib, ba'zi bir muvaffaqiyatlarga erishganini hisobga oladigan bo'lsak, bu nafaqat Tyonnisning, balki sotsiologiya fanining jamiyatni o'rganishdagi yutug'i deb hisoblamoq mumkin.

Mana shu dixotomiyani Tyonnisdan keyin Dyurkgeym qo'llab-quvvatlab, uni rivojlantirdi. Agar Tyonnisni jamoani organizm bilan o'zaro mos kelmasligi qiziqirib, jamiyatni tasavvur qilishda u ijtimoiy birlik dixotomiyasiga amal qilgan bo'lsa, Dyurkgeym ijtimoiy aloqaning organik va mexanik turlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi va jamiyatni bir qadar ijtimoiylikning tabiiy va organik turi deb e'lon qiladi. Dyurkgeym jamiyatdagi birlikni «tiniq axloqiy xodisa» deb talqin qilib, jamiyatning axloqiy mustahkamligini o'z tadqiqotlarining markaziga qo'yadi. Mexanistik va organik birlikni farqlash uchun ikki xil xulosaga keladi: 1) guruhlarning barcha a'zolari ozmi yoki ko'pmi ma'noda e'tiqodlar va hissiyotlarning jamlanmasini tashkil etadi, natijada kollektiv turini hosil qiladi. 2) jamiyat — bu turli xil maxsus funksiyalarning sistemasidir.

Organik birlikning mexanik birlikdan farqi shundaki, u mehnat taqsimoti natijasida vujudga keladi. Mehnat taqsimoti ijtimoiy birlikning oliy funksiyasi sifatida axloqiy funksiyalarni vujudga keltiradi va «shaxs individualligini» vujudga kelishini va rivojlanishini ta'minlaydi.

Jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida ko'pgina sotsiologlar o'z ta'limotlarini yaratganlar, jamiyat to'g'risidagi nazariyalarni boyitib, o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar, bular Zimmel, Parsons, Lumin, Chikago maktabi namoyondalari va boshqalar.

V.Pareto jamiyat alohida bir borliqdir, degan qarashlarni rad etdi, biroq jamiyat o'ziga xos birlik ekanligini e'tirof etdi. Xuddi kimyoviy elementlar qo'shilishidan o'ziga xos birikma tashkil topgani singari individual xam o'ziga xos molekulalar bo'lib, ularning birikuvidan sotsial sistema tashkil topadi.

V.Pareto jamiyatga qismlarning o'zaro bog'liqligidan tashkil opgan sistema sifatida qaradi. Jamiyatni sistemali tahlil qilish uning sotsiologiyasining o'ziga xos xususiyati va muhim yutug'idir. Sotsiologiya tarixida bunday yo'nalish jamiyatning ikki modeli (jamiyat organik birlik, jamiyat mexanik birlik) ta'sirida shakllangan bo'lib, Pareto Dyurkgeymdan farqli ravishda jamiyatga mexanizm sifatida qaradi.

V.Pareto muayyan zamon va makondagi sotsial sistemaning xolatini quyidagi omillari bilan belgiladi:

- 1) tashqi tabiiy shart-sharoitlar (tuproq, iqlim, flora va fauna);
- 2) notabiiy xarakterga ega bo'lgan omillar boshqa jamiyatlarning mazkur jamiyatga ta'siri;

3) sistemaning ichki elementlari: xissiyot, mafaatlar, intilishlar, kuzatish, mulohaza yuritish qobiliyati va x.o.

V.Pareto sotsial sistema barcha elementlarning uzviy bog'likligini muttasil ravishda ta'kidladi. U sotsial sistema elementlari o'rtasida bir yoqlama sabab-oqibat aloqalari o'rnatishga bo'lgan intilishlarni keskin qoraladi. V.Pareto monistik qarashlarga qarshi qo'pollik g'oyasini ilgari surdi. Uning fikricha bir element boshqa elementga nisbatan qanday rol o'ynashi aniqlanganidan keyingina sotsial sistemaning xar bir elementini tushunish mumkin. Jamiyatdagi ta'sir va aks ta'sir jarayonlari bir-birini neytrallashtiradi. Shuning uchun ham jamiyat muozanat xolatida bo'ladi. Jamiyat muttasil ravishda revolyutsion o'zgarishlarni kechirib turar ekan, jamiyat muvozanati dinamik xarakter kasb etadi. Muozanatni qo'llab-quvvatlashda his-tuyg'u, muhim ahamiyatga egadir. Pareto sotsial rivojlanishning progressiv xarakterini rad etdi, «progress nazariyasi»ni keskin tanqid qildi.

Uning fikricha, sotsial sistema rivojlanishi huddi mayatnik kabi siklli (takrorlanuvchi) xarakterga egadir. Iqtisodiyot, madaniyat, siyosatda ham, bir butun sotsial sistemada ham tendesiyalarning bir maromda almashishi kuzatiladi. Ana shu tendesiyalarning almashuvini jamiyat muvozanatini qo'llab-quvvatlaydi.

V.Pareto o'zining sotsial rivojlanish siklli xarakterga egadir, degan g'oyasini Elita nazariyasida asoslashga xarakat qildi.

Bunday qarash E.Dyurkgeym qarashlariga butunlay zid edi. U sotsiologiyaning vazifasi ideallarning asoslash, ilmiy zaminga qo'yishdir deb xisoblagan va sotsial ideallar sotsial voqelikda mujassamlashganligini isbotlashga xarakat qilgan edi. Agar E.Dyurkgeym barcha dinlar o'z o'mida yaxshi ekanligi ta'kidlangan bo'lsa, V.Pareto barcha dinlar yolg'on ekanligini isbotlashga xarakat qildi. E.Dyurkgeym fan o'z ob'yektini buzmasligi kerak, desa, V.Pareto aksincha fan o'z ob'yektini buzishi va o'zgarishi kerak deb xisobladi. V.Pareto ham E.Dyurkgeym singari ideallarni real xarakatchan kuch deb xisobladi. Biroq bu ideallar, nazariyalarning biron-tasiga ishonmadi. Bu ideallar yo yaqinlik maxsuli yoki xukmron Elita qo'lidagi keng ommani aldash vositasidir, deb xisobladi. V.Pareto insonning aqliy mavjudot ekanligiga shubha bilan qaradi. Bu jixatdan unga Makiavveli qarashlari ancha yaqin edi. Uning yozishicha odamlar minnatdor bo'lishin bilmaydigan subitsizlikdir, ular ikkiyuzlamachilik va yolg'onchilikka moyil, boylikka o'ch bo'ladilar. Odamlarni faqat xavf – xatargina qo'rqitib turadi.

V.Paretoning antropologik falsafasi insonning reatsionalistik kontsepsiyasiga qarshi qaratilgan edi. V.Pareto inson o'z xatti-xarakatlarni avvalo yaxshi o'ylab ko'radi va keyinsh unga muvofiq xatti xarakat qiladi, degan qarashga keskin qarshi chikdi. Uning fikricha, inson dastaval xatti-xarakatni amalga oshiradi, keyin uni izoxlashga tushuntirishga, oqlashga, ratsionallashtirishga urinadi.

V.Pareto insoning reatsionalistik modeliga qarshi chikar ekan, to'laligicha mantiq va eksperimentga asoslanuvchi reatsional fan pozitsiyasida turdi. Olim-sotsiologning bu ratsionalizmi yolg'on motivlar «nazariya»larni foshetishga qaratilgan edi.

Uning ta'kidlashicha biron-bir nazariyaning eksperimental xaqiqiyiligi bilan uning sotsial foydaliligi bir xil narsa emasdir: ular ko'p xollarda bir biriga qarshidir.

2.2.Jamiatning(yo'nalishlari) mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishini

Sotsiologiyada jamiyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud;

1. Mexanistik. 2. Organistik. 3. Kulturologik³²

1. Jamiyatning mexanistsitik yo'nalishi XIX asrda vujudga keldi. Mexanistik yo'nalishda klassik mexanika konsepsiyasi, olamini mexanik talqin qilish, jamiyat rivojlanishi qonunlarini asosan fizik va mexanik qonuniyatlar asosida deb bilish bilan asoslanardi. Mexanistik tarafdorlari, masalan, T. Kern jamiyat strukturasini va undagi jarayonlarni no organik olam bilan solishtirib, shuning asosida jamiyat qonunlarini yaratishga harakat qildilar. Tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida mexanistik izmda yangi «energetik va «termodinamik» degan terminlar paydo bo'ldi. Mexanistik namoyondalari asosan aniqlikka rioya etishni o'z vazifalari deb bilib, miqdor va statistik metodlarga suyanib jamiyat qonuniyatlarini belgiladilar namoyondalari V. F. Osgfald, Pareto, A. Barsela ve boshqalar.

2. Jamiyatnint Organistik yo'nalishlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kela boshlagan. Bu ta'limotga ko'ra jamiyatni organizm bilan aynan bir narsa deb qarash tashkil etadi. Organistik jamiyat konsepsiyasining namoyondalari O. Kont, T. Spekser, Dyurkgeym va boshqalar ijtimoiy organizmni taraqqiyotining omili deb qaradilar.

3.Ijtimoiy axloq, normalari (Kulturologik yo'nalish (maktabi) - qadriyatlar madaniyatni vujudga keltiradi, deb talqin qiladi)va qadriyatlarining tarixiy murakkablashishi natijasida ushbu ijtimoiy sistema madaniyatni vujudga keltiradi. Madaniy-ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida insoniyat yaratgan va yaratayotgan, hamda jamiyat,taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy qimmatdorliklar majmui. Moddiy madaniyat, texnika ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish jarayoni vujudga keltirilgan moddiy qimmatdorlik Ma'naviy madaniyat, fan, san'at va adabiyot, falsafa, ma'orif va boshqalar sohasida ma'naviy qimmatdorliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va istemol qilish majmuasidir. Madaniyatni vujudga kelishini naturalistlar (tabiatshunos) insoniyatning tabiiy tabiatida deb bildilar. Boshqa bir sotsiologlar insoniyatning axloqiy taraqqiyotida, axloqiy tomonida bo'ladi deytilar. Madaniyat tushunchasidan kelib chiqqan holda kulturologik jamiyatning vazifasi kollektivning maqsadli tuzilish darajasini qiyoslab, uning dinamikasini yaratish, «ijtimoiy» fakt ekanligini ko'rsatishdan iboratdir «Kulturologik» jamiyat har qanday ijtimoiy faoliyatga asoslangan maqsadli komplekslarning aspektiga diqqat bilan qaraydi. Kulturologik jamiyatning funksiyasi o'z aloqaloqadorlikni sistemali ravishda izohlab, sharhlab beradi .Kulturologik jamiyat to'g'risida M. Veber, Zimmel, F.Tenbruk V. Lipp, Y.Vays va boshqalar o'z sotsiologik qarashlaridan fikrlar bildirganlar **Kulturologik yo'nalish (maktabi)** –qadriyatlar madaniyatni vujudga keltiradi, deb talqin qilinadi.

³² Alev B., Mullajonova M., Raxmonov B. Sotsiologiya. Darslik. T.: 201.-129-b.

3.3. Hozirgi kun jamiyatining ko'rinishlariva jamiyatningtuzilishi.

1. **Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati.** G'arb sotsiologiyasida hozirgi kapitalistik davlatlarning qiyofasi ifodalab, «umumiy rohat-farog'at» va «iste'mol qilish jamiyati» degan nazariyasi vujudga keldi. Ushbu nazariyaga ko'ra iqtisodiyotning o'sishi va yangi texnologiyaning ishlab chiqarishga tadbiiq natijasida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ortib boradi, mo'l-ko'lchilik natijasida iste'mol mahsulotlarining ko'plab realizatsiya qilinishi natijasida jamiyatdagi har bir kishining baxtli va nizolarsiz hayot kechirishi ta'minlanadi. Hozirgi kunda shunday davlatlar fikrimizcha rivojlangan kapitalistik davlatlarda, ayniqsa Skandinaviya davlatlari hayotida asta-sekin namoyon bo'lib bormoqda.

2. **Istemol qilish jamiyati.** Unchalik nazariy, empirik va amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan tushuncha. Amerika sotsiologlari tomonidan XX asr 40-50 yillarida jamiyatning har bir a'zosining hayot darajasini yaxshilash maqsadida paydo bo'layotgan tasavvurlarning keng yoyilishi natijasida vujudga kelgan nazariya. Moddiy tomondan kam ta'minlangan kishilarning ijtimoiy jihatdan talab muammolarini qondirish uchun ushbu nazariya ishlab chiqildi. Individual iste'mol ijtimoiy ongda insonparvarlikning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ldi, o'z navbatida bu iqtisodni monopolizatsiya va davlat tomonidan boshqarib turishni mustahkamladi. Iste'mol qilish tamoyilining taraqqiy qilishi natijasida kapitalizmning nafaqat evolyusion tomonlarini, balki ko'p miqdordagi iste'mol ehtiyojlarini oshira borib, iste'mol qilish tamoyiliga modalar reklamasi va marketing munosabatlarini ham kiritdi. Iste'mol qilish tamoyiliga ommaviylashuvi jaxon miqyosida harbiy-siyosiysanang bir muncha barqarorlashuviga ham yordam berdi.

3. **Ochiq va yopiq jamiyati.** Sotsiologiyaga **K.Topper** tomonidan kiritilgan bo'lib, taraqqiyotning turli bosqichlarida turli jamiyatlarning madaniy-tarixiy va siyosiy tasvirlanishi ifoda etiladi. Ochiq jamiyat- demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat, **yopiq, jamiyat esa dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi. K.Topper** yopiq jamiyatlarga o'zining siyosiy va ijtimoiy kelib chiqishidan turlicha bo'lgan davlatlarni kiritadi, bularga Spartak, Prussiya, chor Rossiyasi, natsistlar Germaniyasi, Sovet Ittifoqini kiritadi. Ochiq jamiyatga qadimgi Afina va G'arb rivojlangan davlatlarini kiritadi. Ochiq va yopiq jamiyat konsepsiyasi hozirgi zamon davlatlarining ideologik siyosiy va ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

4. **Industrial (sanoat) jamiyati.** An'anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, G'arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning kelib chiqishi va tabiati to'g'risidag iikki asosiy kategoriyaning biri. Ushbu termini birinchi bo'lib Sen-Simon ishlatgan, uni O.Kont, T.Spenser, Dyurkgeym va boshqalar rivojlantirganlar, qaysi jamiyatda sanoat ishlab chiqarish iqtisodiy tashkilotni boshqaruvchi shakli bo'lsa, bu tashkilot xususiy shaxslar qo'lida bo'lsa, bu tadbirkor xususiy boshqaruvchi bo'ladi, u mehnat jarayoni va ishchilarni boshqarib boradi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarini, menedjer-administratorlar nazorat qiladilar. Sotsiologlar ushbu tamoyil bir necha xilda talqin qiladilar.

a) hozirgi davr dunyosining tarixiy o'zgarishi natijasida, ya'ni «an'anaviy» agrar jamiyatdan «industrial» sanoat jamiyatiga o'tilishi va mashina sanoati, mehnat intizomi, erkin savdoda milliy ho'jalik sistemasining va umumiy bozorning tashkil etilishi modernizatsiya nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

6) industrlashgan jamiyatlarning qanchalik ko'p bo'lishi ularning shunchalik industrlashgan tartibning qonuniga muvofiq baxslashishi raqobatqilishi kuchayadi.

v) «An'anaviy» jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tilishi natijasida — tarixan progressiv harakat boshlanadi, ya'ni an'anaviy nasliy irsiyat xususiyatlari yo'qoladi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotining demokratlashuvi natijasida inson qonunlari tenglashadi, qobiliyat jihatidan genetik ravishdagina insonlarning notengligi vujudga keladi va hokozo.

5. **Postindustrial jamiyat.** Amerikalik sotsiolog D.Bell tomonidan ishlab chiqishgan konsepsiya. Postindustrial jamiyat konsepsiyasining nazariyasiga ko'ra jamiyat taraqqiyoti uchta bosqichda ko'riladi:

J) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr; 2) industrial sanoat jamiyat davri; 3) postindustrial jamiyati davri. Industrial jamiyatgacha bo'lgan davrda asosiy omil qishloq xo'jaligi munosabatlari, cherkov va armiya jamiyatning asosiy sotsial instituti hisoblanardi, bu davrdan industrial-sanoat jamiyatiga o'tilgach, sanoat korporatsiyalar va firmalar jamiyatning asosiy omili bo'lib qoldi, postindustrial jamiyat davrida esa universitetlar asosiy joyi bo'lgan nazariy-bilimlar sanoat va ishlab chiqarishning bir joyga to'planib, qolishida asosiy rol o'ynaydi. Bu jamiyatda **D. Bellning** fikricha, kapitalistlar hukmronligi yo'qolib, uning o'rmini yuqori bilimga ega bo'lgan malakali huquqiy elita egallaydi. Xususiylik jamiyatning asosiy mezon sifatida o'zining ma'nosini yo'qotadi, uning o'rmini ta'lim va bilimning yuksak darajasi egallaydi. Industrial jamiyada asosiy nizo mehnat kapitali orasida bo'lsa, post industrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqur bilimga ega emaslik o'rtasida boradi.

Bugungi kunda sivilizatsion nuqtai nazaridan jamiyatlarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:³³

1. **An'anaviy jamiyatda** yerga bo'lgan mulkchilik asosiy o'rinni egallaydi. Boylik tashqi manbalar asosiga qurilib, tabiat manbaalarini egallash, o'zlashtirish kuchayadi.

An'anaviy jamiyatlarda insonning yaratuvchilik ijodiy qobiliyati ancha chegaralangan edi. Chunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimoti va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning o'ta tabaqalashuvi, o'zaro harakatlar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa biqiq bo'lishini taqozo etar edi.

2. **Industrial (sanoat) jamiyati.** (XX asr 50 - 60- yillarida yuzaga keldi. Bu konsepsiyaga o'z mohiyatiga ko'ra, markscha ijtimoiy - iqtisodiy formatsiya to'g'risidagi ta'limotlarga qarshi qaratilgan.

³³ Umumiy sotsiologiya. T: ToshDU, 1999, 70 -b.

Industrial jamiyat ta'limotiga ko'ra jamiyat turi: texnikaviy, industrial-rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Jamiyat tipini sinfiy strukturadan ajratib olib qaraydi. «Industrial» jamiyat ikki bosqichda kechadi:

- 1) «Industrial» sanoat jamiyati.
- 2) «An'anaviy» jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tib boradi.

Industrial jamiyatda mulkning barcha ko'rinishlariga bo'lgan munosabat shakllanadi. Yirik mashina ishlab chiqarishi qo'l mehnati o'rniga kelib, yuksak mehnat unumdorligiga asoslangan ishlab chiqarishni izohlaydi. Avtomatik ishlab chiqarish vujudga keladi. Ommaviy ishlab chiqarish belgiga aylanadi. Ishlab chiqarishda yuksak malakali ishchilarning roli ortib boradi, ular mutaxassislashadilar. Natijada mashina yordamida standartlashgan operatsiyalar bajariladi. Xo'jalik sohasida sanoat va moliyaviy kapital ustunlik qiladi. Mahsulot bozor uchun mo'ljallangan bo'ladi. Industrial jamiyatni iqtisodiy jamiyat deb atash ham mumkin. Chunki real bog'liq iqtisodga qaratilgan bo'ladi. Natijada erkin xalqaro iqtisodiy hamkorlik mamlakat davlatlari qatoriga qo'shila boradi. Urbanizatsiyalashuv ta'lim tizimiga yangicha yondashuvni, ommaviy madaniyatni vujudga keltira boradi.

3. Post industrial jamiyat. U uch bosqichda yuzaga keladi:

- 1) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr;
- 2) industrial sanoat jamiyati davri;
- 3) post industrial jamiyat davri.

Post industrial jamiyati ta'limotiga ko'ra davlat - monopolistik kapitalizm o'rini bosadi. Xizmat ko'rsatish sohasida fan va maorifga e'tibor beradi. Olim, mutaxassis roliga yuksak baho ko'rsatiladi. Sinflarga munosabati, uning ishlab chiqarishga egaligini inkor qiladi. Jamiyatni boshqarish olimlar va mutaxassislar qo'lga o'tishi tarafdori. Sotsial tengsizlik saqlanib qolishini e'tirof etadi.

Post industrial jamiyatda intellektual mulk, insonning aql-zakovati, ilimi asosiy o'ringa chiqadi. XX asr o'rtalaridan qator G'arb davlatlari jamiyatning uchinchi bosqich ~ post industrial jamiyatga o'ta boshladi. Sotsiologiyada bu jamiyat nomi har xil, jumladan «informatson» jamiyat, inson bilimi va informatsiya zahiralarga ko'ra jamiyatning asosiy manbai bo'lib qoladi. Zamonaviy mikroelektronika va kompyuter texnikasiga asoslanmoqda.

Bular ommaviy axborotlarni vujudga keltiradi va qayta ishlab chiqaradi. Kommunikatsiya tizimida xo'jalik tizimi tubdan o'zgaradi. Tabiat manbalaridan, ishlab chiqarish, metallurgiya, qishloq xo'jaligi qisqaradi, mashina ko'lami kengayadi, aholi deyarli 50 foiz shu sohani tashkil etadi. Post industrial jamiyat-maishiy xizmat qilish jamiyati deb yuritiladi. Ishlab chiqarish (moliyaviy, bank, sug'urta, savdo, ilmiy maslahat, dastur) va noishlab chiqarish sohaslarida xizmatlar (fan, ta'lim va boshqa) o'sib boradi. Bunda urbanizatsiya jarayoni industrial jamiyatga nisbatan teskari ravishda yuz beradi.

Qishloqqa sanoat kirib boradi va vokalizatsiyalanadi.

Teylor fikriga ko'ra, intellektual omil birinchi o'ringa chiqadi. Inson yuksak kapital emas, balki o'z mohiyatini bilim va iqtidorini, qadriyatlarini namoyon qiluvchi ijtimoiy kuchga aylanadi. Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki **An'anaviy jamiyatda** iqtisodiy masalalar insonning tabiatga bevosita munosabati orqali hal qilingan bo'lsa, **Industrial jamiyatda inson** tomonidan yaratilgan sun'iy ishlab

chiqarish vositalari iqtisodning asosini tashkil etadi, shu boisdan **bu jamiyat iqtisodiy jamiyatdir**. U iqtisodiy munosabatlarni belgilaydi. Zamonaviy sotsiologiyaning diqqat markazida jamiyat tushunchasi turadi. U mamlakatning ijtimoiy tashkil etilishini xarakterlaydi. Sotsiolog N. Smelzer jamiyat haqida shunday deydi: «Muayyan geografik chegara, umumiy qonunchilik tizimi va muayyan milliy (ijtimoiy - madaniy) tenglikka ega bo'lgan kishilar birlashmasi jamiyat hisoblanadi».

Sotsiologiyada jamiyat an'anaviy va zamonaviy jamiyatga ajratib o'rganishadi.

An'anaviy jamiyat quyidagi xususiyatlarga ega:

1) mehnat tabiiy taqsimlanadi va ixtisoslashadi (asosan, yosh va jins belgilariga ko'ra);

2) shaxslararo munosabat bevosita individlar orqali namoyon bo'ladi;

3) o'zaro aloqalar norasmiy ravishda tartibga solinadi, (din va axloq qonunlari yordamida);

4) jamiyat a'zolari qarindoshchilik aloqalari bilan bog'liq bo'ladi;

5) ham jamiyat oddiy boshqaruv tizimiga ega (hokimiyatning meros bo'lib qolishi, oqsoqollar boshqaruvi).

Ko'rinib turibdiki, an'anaviy jamiyatda insonning yaratuvchilik, moddiy qobiliyati ancha cheklangan edi. Chunki an'anaviy jamiyatda mehnatning tabiiy taqsimlanishi va ixtisoslashuvi, shaxslararo munosabatlarning tabaqalashuvi, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni norasmiy muvofiqlashtirish, jamiyat a'zolarining bir-biriga tobelik, urug'chilik va qon-qarindoshlik munosabatlari bilan bog'liqligi, boshqaruvdagi primitiv tizimlar imtiyozsiz jamiyat a'zolarining faolligini cheklab qo'ygan bo'lib, bu holat shaxsning ijodiy faoliyat ko'rsatish va fikr yuritishini rivojlantirishga yo'l bermas, o'zaro munosabatlarning esa bog'liq bo'lishini taqozo etardi.

An'anaviy jamiyat kabi zamonaviy jamiyat ham bir qator xususiyatlarga ega:

1) o'zaro ta'sir rasmiy xarakterga ega (kishilarning xulq-atvori va intilishlari ijtimoiy maqom va individlarning ijtimoiy funksiyalari bilan belgilanadi);

2) mehnat taqsimoti chuqur amalga oshadi (ta'lim va ish tajribasi bilan bog'liq kasb - malaka asosida);

3) munosabatlar rasmiy tizimda tartibga solinadi (qonun, tartib, bitimlar asosida);

4) ijtimoiy boshqaruv murakkab tizimga ega (boshqaruv instituti, boshqarishning maxsus organlari);

5) din boshqaruv tizimidan ajralgan;

6) ko'plab ijtimoiy institutlar mavjud.

Demak, hozirgi paytda jamiyat kishilararo munosabatlarning rasmiylashuviga olib keluvchi ijtimoiy aloqalar tizimining murakkablashuvi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning zamonaviy shaklidir. Umuman olganda, shaxslararo munosabat va his-tuyg'ularning bog'lanishi jamiyatni ifodalaydi.

O'zbek jamiyati zamonaviy jamiyat bo'lsa ham, unda ko'plab an'analar saqlangan. Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan jamoa bo'lib, uyushib yashashga odatlangan, to'yda ham, azada ham yonma - yon turib, oddiy kunlarda bir - biriga ko'maklashishgan. Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik

ko'rsatish, millatidan qat'iy nazar odamlarga xayrixohlik, o'zgalarga yordam tuyg'usi o'zbek xalqiga tarixan xosdir. Shuning uchun ham I.A.Karimov 1992 yil 2 iyulda O'zbekiston Oliy Kengashining X sessiyasida «Istiqlol yo'llari va muammolari» mavzuida nutq so'zlar ekan, «biz ijtimoiy taraqqiyot va yangilanish borasida o'z yo'limiz bor, deb e'lon qildik... Bozor iqtisodiyotiga o'tar ekanmiz, milliy - tarixiy turmush tarzimizni, xalqimiz urf - odatlarini, an'analarimizni, kishilarning fikrlash tarzini xisobga olamiz» deydi va tub islohotlarni amalga oshirish borasida dastlabki tamoyilini belgilab berdi.

Jamiyat tushunchasiga atroflicha yondashuv «jamo» va «hamjamiyat» (ijtimoiy guruh) tushunchalariga to'xtalishni taqozo etadi.

O'zbekiston, albatta, zamonaviy jamiyat. Shu bilan birga, bizda an'anaviy jamiyatning ko'plab elementlari mavjud.

Jamo — bu an'anaviy jamiyatdir. Jamo va jamiyat o'rtasidagi aloqalar asosida 3 gipoteza yotadi: evolyutsion o'sib o'tish (jamo rivojlanib, murakkablashib, jamiyatga aylanadi);

Demak, jamo urug'chilik aloqalari asosida vujudga kelgan va ijtimoiy munosabatlarning bevosita turi bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy tashkilotning dastlabki shaklidir. «Jamiyat» tushunchasini (E.Shilzga ko'ra) agar u quyidagi talablarga javob bersa, kishilar birlashmasiga nisbatan qo'llash mumkin:

1) birlashma katta bir tizim (jamiyat)ning bir qismi b'lmasa;

2) nikoh ushbu birlashma namoyandalari orasida tuzilsa;

3) birlashma bolalar tug'ilishi bilan to'ldirib borilsa;

4) shaxsiy hisoblangan hududga egalik qilinganda;

5) o'z nomi va tarixiga ega bo'lish;

6) o'z boshqaruv tizimiga ega bo'lish;

7) birlashma qadriyatlarining umumiy tizimi (urf-odat, an'ana me'yorlar, qonun - qoidalar) madaniyat asosida tashkil topadi.

JAMIYAT TUZILISHLARI

Totalitar jamiyat. Siyosiy boshqaruvning zo'ravonlikka asoslangan sistemadir. Totalitar so'zining ma'nosi, lotincha « totus — umumiy, butun, jamiyki» degan ma'noni anglatib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va xatto boshqaruvchi rahbar elitaning maishiy hayotini yakka lider tomonidan o'rnatilgan harbiy-byurokratik apparat tomonidan boshqarilishi tushuniladi. (Totalitarizmning asosiy ijtimoiy kuchi shahar va qishloqlarda aholi tabaqasining sinfiy qiyofasini yo'qotish bo'lib, ijtimoiy maorif holatiga ega bo'lmagan, barcha ijtimoiy tabaqa va guruhlarining turmush tarzida muayyanlik va mulkka egalik to'g'risida hato fikr tug'diradigan tuzumdur.) Totalitarizm taraqqiyot jarayonini ko'rsatadigan lyumpenizatsiya darajasi, jamiyatning ijtimoiy hayotini harbiylashtirib borishi natijasida «favqulodda holat» tamoyilini amalga oshirib boradi. Ijtimoiy hayotning bunday «tashkiloti» yuqorining tashabbusi va uni aktiv qo'llab-quvvatlab turuvchi jamiyatning lyumpenizatsiyalashgan qismini ta'siri natijasida to'g'ridan-to'g'ri terrorga olib boradi. Harbiy terrorming bunday shakli jamiyat tuzilishida «ijtimoiy tartib» modelini yaratadi. Totalitarizm sharoitida ijtimoiy munosabatlarning

boshqaruvchi va hukmron kuchi zo'ravonlikka asoslangan siyosat bo'ladi, shuning uchun totalitar jamiyatning «siyosatlashuvi», jamiyatni muqarrar ravishda harbiylashuviga olib boradi. Totalitar davlatning harbiylashgan munosabatlarini byurokratlashuvi natijasi, surunkali ravishda harbiy kuchlarni ishlatishga olib keladi. Totalitarizmning g'oyaviy manbai, ijtimoiy munosabatlarni barcha sistemalarini «ko'rsatma tamoyil»larni loyhashtirilgan mushohada yo'lini kimningdir «namunali» bo'lgan utopik konsepsiyasiga asoslashadi. Totalitar tuzumga Gitler, Stalin va bir qancha diktatorning ideologiyasini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Avtoritar jamiyat (lot auctor-boshlovchi, asoschi, ijodkor, avtor, fikr, nigoh, hokimiyat, huquq va h.k.) demokratik bo'lmagan siyosiy rejimga asoslangan va siyosiy ongning avtoritetga, umuman hokimiyat avtoritetiga bo'lgan munosabatlarni aks ettiruvchi shaklidir. Avtoritarizm jamiyati qandaydir bir vaziyatda, no demokratik yo'l bilan, totalitarizmning ba'zi bir elementlarini qabul qilgan holda, boshqa hech qanday «avtoritet»ni tan olmaslik asosida vujudga keladi. Avtoritarizm patologik, ya'ni normal holatini yo'qotgan (o'zini boshqalardan ustun qo'yish, maqtovlarga mahliyo bo'lish) ong shaklini aks ettiradi. Avtoritarizm o'z ta'limotidan kelib chiqib ko'rinmas qobiq ostida fashistik va diktatorlik rejimlariga zamin yaratadi.

Demokratik jamiyat (grek, demos-xalq va kratos-kuch, hokimiyat) hokimiyat shakllaridan biri bo'lib, uning xarakterli tomoni, ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili, hamda fuqarolarning erkinligi va teng huququqliligi e'tirof, etishidir. Bunda fuqarolarning huquqlari jamiyat hayotining. ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlaridan qat'i nazar qonun oldida tengliklari ta'minlanadi. Demokratik jamiyatda konstitutsiya ishlab chiqariladi, parlament va boshqa vakillik muassasalari tuziladi, fuqarolarning umumiy saylov huquqi va siyosiy erkinliklari (so'z erkinligi vijdon erkinligi, va boshqalar) ta'minlanadi. Demokratik jamiyat uchun xarakterli narsa-unda parlamentning mavjudligidir, ya'ni unda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga bo'linganligidir, bunda ijro etuvchi hokimiyatning roli tobora oshib boradi.

Jamiyatlarning turlari. Barcha jamiyatlar turli nuqtaiy nazarlardan kelib chiqib, bir necha turlarga bo'linadi.

Masalan, marksistik an'ana bo'yicha jamiyat ishlab chiqarish usuliga qarab turlarga bo'linadi, ya'ni ibtidoiy jamoa tuzumi, quldorlik, feodal, kapitalistik va kommunistik tuzumlar.

Jamiyatni tasniflash undagi hukmron dinlar (masalan, islom jamiyati), yoki tiliga ko'ra (ingliz tilida yoki frantsuz tilida so'zlashuvchi jamiyat) amalga oshirilishi mumkin.

1970 yil G.Lenski va Dj.Lenskilar jamiyatni yashash uchun zarur vosita olish usuliga ko'ratasnif qiladi:

a)ovchilik va yigish bilan shug'ullanuvchi jamiyat.Bunday jamiyatlarda(asosan,Afrika qabilalari,Avstraliya aboriginlari) ijtimoiy hayot qarindoshchilik aloqalariga asoslanadi. Ularda siyosiy struktura deyarli yo'q, jamoaga oqsoqol, yo'l boshchi bosh bo'ladi. Mehnat qurollari toshbolta, pichoqlar.

b)bog'bonchilik bilan shug'ullanuvchi jamiyatlar,dastlab,Yaqin Sharqda vujudga keldi, keyin Xitoydan Evropagacha yoyildi. Mehnat qurollari omoch, oddiy buyumlar. Siyosiy struktura ikki, ba'zan to'rt ijtimoiy qatlamdan iborat.Urug'chilik

aloqalari ijtimoiy strukturaning asosini tashkil etadi. Uruf jamoasi o'ziga xos qoida asosida nikoh munosabatlarini tartibga soladi.

v) agrar jamiyatlar dastavval Misrda tashkil topdi, ular omoch va hayvonlardan ishchi kuchi sifatida foydalanishni yo'lga qo'ydilar. Ularning ishlab chiqarishdagi mahsuldorligi ham yuqori bo'lgan. Agrar jamiyatda qo'shimcha mahsulotning to'planishi natijasida davlat vujudga keldi, ma'muriy apparat va armiya tashkil topdi. Yozuv kashf qilindi, pul tizimi shakllandi, savdo kengaydi. Nisbatan murakkab siyosiy tashkilotlar tarkib topdi, urug' aloqalari jamiyat ijtimoiy strukturasining asosi bo'lmay qoldi. Shunday bo'lsada, urug'chilik munosabatlari siyosiy hayotda muhim rol o'ynadi: fuqarolik va harbiy amallar otadan meros bo'lib qolardi.

g) sanoat (industrial) jamiyatlari. XVIII asr oxirlaridagina Buyuk Britaniyada industriallashtirishning vujudga kelishi natijasida barpo bo'ldi. Eng zamonaviy sanoat jamiyatlari Shimoliy Amerika, Evropa, Sharqiy Osiyoda tashkil topdi. Texnologiyaning takomillashuvchi, energiya yangi manbalaridan foydalanish sanoat jamiyatlari rivojlanishida asosiy rol o'ynadi. Sanoat ishlab chiqarish ushbu jarayonni boshqarish uchun zarur bo'lgan ilmiy bilimlarning qo'llanilishi bilan bog'liq; inson va hayvonning ish kuchi o'miga issiqlik energiyasidan (avval tosh o'mimiyoqish orqali), keyinchalik elektr va atom energiyasidan foydalaniladi.

d) postindustrial jamiyat. Amerikalik sotsiolog D. Bell tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra nazariy bilimlar sanoat va ishlab chiqarishning bir joyga to'planib qolishida asosiy rol o'ynaydi. Bunday jamiyatda kapitalistlar hukmronligi yo'qolib, uning o'mini yuqori bilimga ega bo'lgan malakali huquqiy elita egallaydi. Xususiylik jamiyatning asosiy mezon sifatida o'zining ma'nosini, uning o'mini ta'lim va bilimning yuksak darajasi egallaydi. Industrial jamiyatda asosiy nizo mehnat va kapital orasida bo'lsa, postindustrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqur bilimga ega emaslik o'rtasida boradi. Chet mamlakatlarga tayyor mahsulotga qaraganda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari ko'proq eksport qilinadi.

XX asrga kelib eng takomillashgan va zamonaviy kishilik birliklari fuqarolik jamiyati, deb atala boshlandi.

Shu o'rinda fuqarolik jamiyati to'g'risidagi g'oyalar tarixiga to'xtash maqsadga muvofiq. Fuqarolar jamiyati to'g'risidagi g'oyalar diyorimizda ilk bor eramizdan oldingi VII-asrlarda siyosiy voqelik mahsadini qimmat va johillik kabi qarama – qarshikuchlarning kurashi orqali hal etgan zardushtiylikdir. qimmat johillikka qarshi faol kurashishini inson hayotining mazmuni tarzida siyosiy omilga aylantirildi. O'sha zamonlardayoq jamiyatga bir oila tarzida qarash, ijtimoiy munosabatlarni boshqaruvchi siyosiy omil axloq qoidalari negizida hal etish ma'naviy qadriyat hisoblanar edi.

«Fuqarolar jamiyati» degan iborani ishlatgan zot Tomas Gobbs(1588-1679) bo'ldi. Jon Lokk (1632-1704) esa fuqarolar jamiyatining davlatdan imtiyozli ekanligini ta'kidlagan. Lui de Monteske(1689-1755) fuqarolik jamiyati zo'rlik va hukmronlikdan qutulish garovi ekanligini ochdi. I. Kant(1724-1804) fuqarolar jamiyatida har bir kishining erkinligi boshqalar erkinligiga monand kelishi bilan ifodalanishini uqitirib, quyidagi prinsiplarni ilgari suradi:

- 1) Inson sifatida jamiyat a'zolari erkinligi,
- 2) Fuqaro sifatida ularning tengligi,
- 3) Fuqaro sifatida har bir jamiyat a'zolari ishga mustaqilligi.

Gegel (1770-1831) fuqarolar jamiyatini davlat ichida emas, davlat qatorida talqin etadi.

Fuqarolik jamiyati shaxs uchun keng imkoniyatlar yaratib, unda har bir shaxs boshqalar bilan birlashishi yoki boshqalar bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsata olishi mumkin. Fuqarolik jamiyati shu tarzda inson ulug'vorligini yuksaklikka ko'taradi. Fuqarolik jamiyati insonlardagi o'z-o'zini anglash, ularning ob'yektiv ravishdagi mas'uliyat hissini sezish qobiliyatining yuksalishiga hamohang ravishda shakllanib boradi. Bu jamiyatda shakllangan mamlakatlar fuqarolari siyosiy, axloqiy va huquqiy madaniyatlari darajasining yuqoriligi bilan ajralib turadi³⁴.

Fuqarolik jamiyatining barqarorligini ta'minlovchi shart-sharoitlar hamborki, ularsiz bu jamiyatning institutlari rivojlanmaydi. Bular jumlasiga jamiyatdagi ijtimoiy qatlamlarning turli ihsam manfaatlarini ifoda etuvchi rivojlangan ijtimoiy strukturalar mavjud bo'lishi lozimligi kiradi. Qolaversa, jamiyat a'zolarining to'la mustaqilligi bilan faoliyat ko'rsata olish qobiliyati, ularning eng rivojlangan darajadagi, intellektual, ruhiy jihatlardan yuksalishi sodir bo'lishini ham taqozo qilinadi.

Ko'rinib turibdiki, demokrati kjamiyatning asosini o'z-o'zini boshqarish va jamiyat tashkilotlari o'zaro munosabatlarining majmuasi tashkil qilinadi. Fuqarolik jamiyatida davlat va hukumatning alohida o'z vazifalari, nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'z vazifalari ham bo'ladiki, ular bir- birini to'ldirib, yuksak rivojlangan demokratik jamiyatning yashovchanligini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar

Jamiyat, farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati, iste'molqilish jamiyati, ochiq va yopiq jamiyat, industrial (sanoat) jamiyati, totalitar jamiyat, avtoritar jamiyat, demokratik jamiyat, ijtimoiy tuzilma.

4. Mavzu. Sotsial institutlar

4.1. Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari sotsial guruh turlari:

4.2. Sotsial institut tushunchasi va uning turlari.

4.3. Sotsiologiyada oila ijtimoiy institut sifatida, uning struktura va funktsiyalari. Oilaning tiplari

4.1. Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari sotsial guruh turlari

Kishilar o'z hayot faoliyatlari davomida birlashadigan guruhlar, masalasi nafaqat sotsial psixologiyasi fanining, balki sotsiologiyaning ham muhim masalasi bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar asosan sotsial guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Kishilik jamiyatida nihoyatda ko'p turli-tuman jamoalar, uyushmalar, birliklar, tashkilotlar mavjud. Inson butun hayoti davomida goh ehtiyojlikdan, goh manfaat yuzasidan, ba'zan majburiylikdan, ba'zan o'zi

³⁴ Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati. «Yoshlik» jurnali, 1996, 6-son, 3-4 b.

xohlamagan holatda yuqorida ta'kidlangan guruhlarga a'zo bo'ladi va ularning vakili bo'lib qoladi. Mana shu kishilik jamoalarini qandaydir mezon (belgi, xususiyat) bilan nisbatan ma'lum guruhlarga ajratish — sotsiologik tahlilning g'oyat muhim va jiddiy masalasidir. Oldindan shuni qayd qilib o'tish lozimki, garchi «sotsial guruh» termini sotsial tadqiqotlarda keng ko'lamda qo'llanilsa ham, lekin sotsiologik tushunchalar kategoriyasiga muvofiq keladigan maqomiga va nazariy asosiga ega emas. Bu tushuncha ijtimoiy fanlar doirasida yaqqol kategorik xususiyatga ega va ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga hos sub'ektni aniqlash uchun ishlatiladi.

«Guruh» tushunchasi ijtimoiy fanlar orasida 2 ta ma'noga ega. Bir tomondan, u biror bir umumiy belgilariga qarab kishilarni ma'lum toifalarga ajratilganda qo'llaniladi (ko'pincha statistikada, demografiyada). Ba'zan bu ma'noda «guruh» termini psixologiya fanida ham ishlatiladi. Masalan, test sinovlari natijalariga qarab, kishilarni u yoki bu guruhlarga ajratish mumkin.

Ikkinchi tomondan, hamma ijtimoiy fanlar doirasida guruh deganda, real mavjud kishilar birligi tushuniladi. Bu holatda odamlar umumiy belgilar, faoliyatlarining xilma-xilligi yoki biror shart, holatlar bilan birlashadilar va ma'lum ma'noda o'zlarini mavjud birlik vakili ekanliklarini his qiladilar. Masalan, talaba o'zini talabalar guruhining a'zosi sifatida his qiladi.

Ilmiy adabiyot bilan tanishish «sotsial guruh» terminini, birinchidan, juda keng qo'llanilayotganligini, ikkinchidan turli hodisalarga nisbatan ishlatilayotganligini ko'rsatayapti, qaysi nuqtai nazardan qarashlaridan qat'iy nazar, konkret ijtimoiy fan vakillari guruhlarni sotsial-iqtisodiy, sotsial-demografik, sotsial psixologik va boshqa guruhlarga ajratadilar.

Sotsial guruh tushunchasiga bu kabi yondoshuv terminlar lug'atida ko'p xillikka olib keladi, hamda «sotsial guruh» tushunchasining o'zini ham noaniq tahlil qilinishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi kunda bu termin sotsiologiya va sotsial psixologiyada keng qo'llanilmoqda. Lekin bu kategoriyaning nazariy tahliliga, uni boshqa sotsiologik tushunchalar bilan munosabatiga doir maxsus ilmiy ishlar yo'q hisobi. Ko'p sotsiologlar tomonidan «sotsial guruh»ga berilgan ta'riflar bir-biridan farq qiladi. Masalan, jamiyat sinfry tarkibi o'rganilayotganda, sotsial guruhni sinflar strukturasidagi element sifatida (sinflar-tabaqalar-guruhlar), sotsial strukturani tahlil qilish chog'ida esa, bu tushunchani keng ma'noda, sinflar tushunchasi bilan bir ma'noda ishlatishadi.

Mana shulardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

Birinchidan, «sotsial guruh» tushunchasini, uni shakllantiradigan holatlarini, uning chegarasini, uni qo'llash imkoniyatini belgilaydigan nazariya sotsiologik asoslarni keltirish;

Ikkinchidan, tushunchaning aynan o'zini aniq ifoda qilish;

Uchinchidan, «sotsial guruh» tushunchasini unga yaqin bo'lgan jamiyat sotsial strukturasini ifodalaydigan tushunchalar sistemasi («sotsial birlik», «sinf», «sotsial tashkilot», sotsial to'plam») bilan birga qarash kerak, chunki har qanday tushuncha butunlik doirasidagina natija berishi mumkin.

Hamma ilmiy terminlar singari «sotsial guruh» tushunchasi ham konkret tarixiy reallikka to'g'ri keladigan va uning muhim ahamiyatli xususiyatlarini aks ettiradigan nazariy, umumiy va mavhum tushunchadir.

«Sotsial guruh» tushunchasining aniqlahning mushkul tomoni shundaki, real hayotda konkret sotsial guruhlar o'zining tarixiy rivojlanish davomida paydo bo'ladigan, o'zgaradigan va barham topadigan individual xususiyatlarga ega bo'lgan omma bilan murakkab birlikni namoyon qiladi.³⁵ Bundan tashqari voqelikda hech bir sotsial guruh boshqalardan ajralgan holda o'z-o'zidan mavjud bo'lmaydi. Ular boshqa sotsial guruhlar bilan o'zaro munosabatda bo'lib, bir-birlariga sezilarli ta'sir o'tkazib turadilar. Mana shular «sotsial guruh» tushunchasini ta'riflashda muayyan qiyinchilik tug'diradi.

Bizga ma'lumki, sotsiologiya fanining predmeti bo'lib kishilarning ijtimoiy munosabatlari hisoblanadi. «Sotsial guruh» tushunchasi ijtimoiy munosabatlar sub'yektini (jamiyat-guruh-shaxs) aniqlashga xizmat qiladigan umumsotsiologik tushunchalar tarkibiga kiradi. Bu uchlikda, ya'ni jamiyat-guruh-shaxs munosabatida sotsial guruh «sintez qiladigan» tushuncha hisoblanadi. Alohida individ jamiyatga «qo'shilishi» uchun, eng avvalo jamiyatdan ajralishi, individual xususiyatlardan tashqari, o'zida sotsial xususiyatlarni shakllantirishi, aniqroq aytganda, har xil sotsial guruhdarga a'zo bo'lishi kerak.

«Sotsial guruh» tushunchasini keyingi nazariy tahlilida «sotsial» tushunchasining asoslarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Aynan shu tushuncha hajmi va mazmunidan «sotsial guruh» tushunchasining mohiyati kelib chiqadi.

«Sotsial» termini sotsiologiyada ikki ma'noda, keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma'nosida «sotsial» tushunchasi «ijtimoiy» tushunchasiga sinonimdir. Tor ma'noda esa, jamiyat hayotining ma'lum sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Ba'zi bir sotsiologlar sotsial munosabatlar masalasini tadqiq etishib sotsial munosabatlarni 3 nuqtai nazardan tahlil qilish kerak degan fikrga kelganlar, keng ma'noda, torroq ma'noda va tor ma'noda.

Keng ma'noda sotsial munosabatlar deganda, jamiyatdagi kishilarning hamma munosabatlari tushuniladi. **Torroq manoda sotsial munosabatlar deganda** jamiyat sotsial sub'yektlari, ya'ni ma'lum sotsial guruhlar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning «parchasi» sifatida tahlil qilinadi. **Tor ma'noda esa u** iqtisodiy va siyosiy munosabatlar bilan bir qatorda ko'riladi.

«Sotsial» tushunchasi turlicha izohlanishdan kelib chiqib, sotsial rypylarga har qanday kishilar birligi (sotsial yoki ijtimoiy guruh; hamma ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchilari (ijtimoiy munosabatlar sub'ekti); aniq sotsial, sinfiy, urug'-qabilaviy va oilaviy munosabatlar (sotsial munosabatlar) sub'ekti sifatida qarash kerak).

Guruh tushunchasi haqida gapirishdan oldin, bir qancha farqlarni ko'rib chiqamiz. Bu masalani sotsial to'plam tushunchasidan boshlaymiz.

Tashqi kuzatuvchilar tomonidan ko'rsatilgan qandaydir umumiy belgilarga ega bo'lgan kishilar yig'indisi sotsial to'plam deb ataladi. Masalan, biz kishilar to'plamidan qora tanli kishilar to'plamini, ko'k ko'zli kishilar to'plamini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bu jismoniy belgilarga asoslanib, to'plamlarga ajratish

³⁵ Alieva Sh., Qodirova X va boshqalar Sotsiologiya fanidan ma'ruzalar matini. T.: 2006-. 110-b.

hisoblanadi. Bu bilan ko'pincha antropologiya fani shug'ullanadi, to'plamni u yoki bu kasb bilan shug'ullanuvchi kishilar ham tashkil etishadi. Aynan bir kasb bilan shug'ullanadigan kishilar kasbiy (professional) kategoriyalar deb ataladi. Yoshiga qarab ajratiladigan kishilar to'plami yoki kategoriyalari deyiladi. Jinsiga qarab kishilar 2 ta jins to'plamiga, ya'ni erkaklar va ayol kategoriyalariga ajratiladi. Aniq belgiga asoslanib ajratiladigan har qanday to'plam sotsial kategoriyani tashkil etadi. Sotsial kategoriyalar hech qanday ichki aloqalar bilan birlashmaydi. Bir kategoriyaga kiradigan, masalan, kasbiy (professional), yosh, jins, mulk, daromadi va boshqa kategoriyalarga mansub kishilar qandaydir umum belgilarga egalar. Ana shu asosga ko'ra, sotsial kategoriyalar ichki aloqa va shaxsiy institutlariga ega bo'lishlari mumkin. Sotsial kategoriyalar biror bir sotsial aloqada bo'lgan taqdiridagina, ular sotsial birlikka aylanishlari mumkin.

«Sotsial guruh» tushunchasiga yaqin bo'lgan tushuncha — sotsial birlik» tushunchasidir. Zamonaviy jamiyatshunoslik fanida bu tushunchalar sinonim sifatida ishlatiladi. Lekin bunday tushunish to'g'ri emas. **«Sotsial birlik» tushunchasi kishilarning hamma birliklarini o'ziga qamrab oladigan keng hajmdagi tushunchadir. «Sotsial birlik» so'zi umumiylikni bildiradi.** U ko'pgina kishilarni birlashtiradigan jarayonlarni aks ettiradi. Real hayotda sotsial birlik «platforma»ga ega bo'ladi. Bu «platforma» negizida birlikka kiradigan individlarning umumiy tomonlari, sifatleri va xususiyatlarini birlashishi amalga oshadi. Uning asosida kelib chiqish birligi (qon-qarindoshlikka asoslangan birlik, oila, urug'), xudud birligi, til va xudud birligi (etnik birlik) va boshqalar yotadi.

Shunday ekan, sotsial birlik — bu tabiiy-sotsial asoslar bilan (qon-qarindoshlik, xudud, til va boshqa) bir sotsial guruhlarning ko'rinishidir. Birliklar sotsial guruhlarning bir turi sifatida sotsial struktura elementlari hisoblanadi.

Guruh — bu xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo'lgan, boshqa birliklardan o'zining xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar sistemasi bilan bog'langan kishilar yig'indisidan iborat bo'lgan sotsial birlikdir.

Guruhga xarakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni, ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari, faoliyat namunalari, norma va qadriyatlar, farq qiladigan xususiyatlari.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a'zolar yig'indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a'zolar soni qancha bo'lishi kerakligi haqida aniq bir to'plamga kelingani yo'q. Guruh o'zining sonini a'zolari sonini chegaralashi yoki chegaramasligi mumkin. Mana shu asosga ko'ra guruhlarni «berk» guruhlar, ya'ni yangi a'zolari qabul qilishda aniq mezon qo'yadigan guruhlar; chegaralangan guruhlar, ya'ni guruh a'zolariga qabul qilish mezoni ham talabchanlik bilan qabul qilinadigan guruhlar; va nihoyat xohlagan kishi kirishi mumkin bo'lgan ochiq guruhlar va bu guruhlarda a'zolariga nisbatan aniq talablar, qo'yilmaydi, ko'pincha guruhlar a'zo qabul qilish va a'zolari guruhdan chiqishi uchun aniq talab qo'yadi. Buning natijasida guruhning bir xilligi va uning ta'sir doirasi ta'minlanadi.

Guruhning paydo bo'lishi uchun ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari, faoliyat namunalari bo'lishi kerak. Shuning uchun ham o'z

shaxsiy tashkilotiga ega bo'lmagan, faqatgina kontaktlar (aloqalarga) asoslangan erkin sotsial birliklar guruh deb atalmaydi.

Guruh o'zining shaxsiy norma va qadriyatlariga, ya'ni birlashish markaziga ega bo'lishi kerak. Bularga g'oyalar, ramzlar, shiorlar, maqsadlar, moddiy predmetlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bular guruhda kishilarni guruhga mansublik va birlashish xissini uyg'otish va rivojlantirish uchun zarur.

Bu qadriyatlar asosida guruhda «biz» so'zi bilan ifodalanadigan birlik xissi paydo bo'ladi. Bu xis kishilarni birlashtiradigan psixik (ruhiy) aloqa bo'lib hisoblanadi.

Nihoyat, guruh o'zining shaxsiy farq qiladigan xususiyatlariga ega bo'lishi kerak. Bular yordamida guruh boshqa sotsial birliklardan farq qiladi. Bunday xususiyatlar bo'lib, bir xududda yashash, alohida harakatlar, til, mafkura va boshqalar hisoblanadi.

Bu 4 shart juda ko'p guruhlarni ta'riflash uchun qo'l keladi. Lekin guruhlarni tasniflash (klassifikatsiya qilish) vaqtida bu to'g'rida to'xtalib o'tamiz. Chunki bu shartlar nisbiy xarakterga ega. Bular ko'pgina guruhlarni qanoatlantirsa ham, ba'zi guruhlarni tahlil qilish vaqtida to'g'ri kelmasligi mumkin.

Guruhlar eng avvalo miqdor jihatdan katta va kichik guruhlarga bo'linadi. Sotsiologiya va sotsial psixologiya fanida katta sotsial guruhlar o'zining aniq ta'rifiga ega emas. Umuman, katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlari tushuniladi.

Katta sotsial guruhlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat;

- 1) a'zolar sonining ko'pligi;
- 2) yagona xududning mavjud emasligi;
- 3) a'zolar o'rtasidagi aloqalarni asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;
- 4) guruh strukturasi murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarni o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar 2 turga bo'linadi.

1 Tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqtda mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlar sistemasida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlarga sotsial sinflar, turli etnik guruhlar (elat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarni kiritish mumkin.

Katta sotsial guruhlarda kichik guruhlarda yo'q. bo'lgan xatti-harakatni boshqarib turadigan o'ziga xos kuch mavjud. Bu huquqlar, urf-odatlar va an'analardir.

Katta guruh bilan kichik guruh o'rtasida o'rta guruh ham bor. Ammo guruh muammosi bilan shug'ullanayotgan sotsiologlar fikricha, o'rta guruhlar, ularning strukturasi, aloqasi, unda bo'ladigan xodisa va jarayonlar mohiyat jihatdan kattaroq guruhlarga xosdir. Kichik va katta guruhlar o'rtasidagi farqni kichik guruhning yiriklashuvi va uning katta guruhga aylanish jarayonida ko'rish mumkin.

Masalan, bir yoki bir nechta taniqli kishilar atrofida birlashgan, 40—45 kishidan iborat partiya kichik guruhdir, chunki bu guruh vakillarining shaxsan bir-birlarini tanishlari (bilishlari) kichik guruhga xos bo'lgan xususiyatni beradi.

Kichik guruhlar deganda, ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zoldan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stlik munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasida bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, yuqori darajada shakllangan kichik maqsadli guruhlar ham mavjud. Bu guruhlarda a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik guruhlar oilani, do'stlarni, qo'shnilarni ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Kichik sotsial guruhlarining turlari juda ko'p. Ular turli mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruh munosabatlari strukturasiga qarab kichik sotsial guruhlar rasmiy va norasmiy guruhlariga, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligiga qarab birlamchi va ikkilamchi guruhlariga, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmashligiga qarab a'zoli va referent guruhlariga bo'linadi. Sanab o'tilgan guruhlarini birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, guruhlarini bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog E. Meyo tomonidan taklif qilingan edi, guruhlarini rasmiy va norasmiy guruhlariga ajratish asosida guruh munosabatlarning strukturasini yotadi. Rasmiy guruhlar — bu huquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi hisoblanadigan mavjud institut, tashkilotdagi mehnat doirasida aniq, maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir.

Rasmiy guruhdarga quyidagi belgilar xos: aniq, va izchil maqsad, ierarxiyaga asoslangan aniq funksiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Rasmiy guruhlarda guruh maqsadlari, funksiyalari xatti-harakat qoidalari, xatto a'zolik shartlari maxsus hujjatlarda (dastur, instruksiya, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi.

Rasmiy guruhlariga siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar, ishlab chiqarish kollektivi, maktab sinfi, sport komandasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Har qanday rasmiy guruhning tashkiloti bo'ladi. Guruh tashkiloti — bu turli guruh va a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning yaqqol namoyon bo'lishidir. Munosabatlar turiga qarab guruh tashkilotlari 2 ga bo'linadi: rasmiy va norasmiy. Bu ikki turdagi guruh tashkilotlari ijtimoiy munosabatlarni yaratuvchisi hisoblanadi. Rasmiy tashkilot yuqoriroq darajali sistema bilan aniq belgilangan funksiyalarni bajarish uchun tashkil etiladi. Bu funksiyalar ma'lum ma'noda individlar uchun yuzaki hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish korxonasining sotsial tashkiloti ishlab chiqarish brigadasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. Brigada doirasida bu funksiyalar har bir brigada a'zosining guruhda tutgan individual martabasiga qarab taqsimlanadi.

Shunday qilib, rasmiy sotsial guruh deb, guruh alohida a'zolarining o'zini va xatti-harakati sotsial tashkilotning rasmiy qoidalari, qonunlari bilan chegaralanadigan guruhga aytiladi. Rasmiy guruh a'zolarining nufuzi (tutgan o'zini) shaxsiy sifatlar bilan emas, ularning martabalari bilan aniqlanadi. Shaxslararo munosabatlar rasman o'rnatilgan chegara doirasida amalga oshadi. Rasmiy guruhning eng sodda ko'rinishi sifatida ishlab chiqarishni ko'rsatish mumkin. Uning hajmi, tuzilishi, rahbarining vazifalari ishlab chiqarish tashkiloti qoidalari bilan qat'iy belgilanadi.

Rasmiy guruh — bu aniq sotsial guruh jamiyat sotsial strukturasi elementidir. U ob'yektiv holda mavjud. Uning strukturasi va xatti-harakat shakllari keng miqyosdagi guruh yoki jamiyat tomonidan boshlanadi. Indivud rasmiy guruhga a'zo bo'lar ekan, o'zining shaxsiy sifatlarini yo'qotadi va rasmiy guruh tashkiloti doirasidagi u yoki bu rollarni bajaruvchi kishiga aylanadi.

Rasmiy guruhlar ham rasmiy (korxona, brigada kasaba uyushmasi, jamoat va davlat tashkiloti), ham rasmiy struktura tomonidan tan olinmagan, ya'ni, norasmiy (yashirin tashkilot, norasmiy guruh va hokazo) bo'lishi mumkin.

Norasmiy guruhlar, ko'pincha bunday guruhlar «psixologik guruhlar yoki «sotsial psixologik guruhlar» deb ataladi. Chunki bu guruhlarining tashkil topish zaminida guruh a'zolari o'rtasidagi psixologik, hissiy munosabatlar yotadi. Norasmiy guruhlarining paydo bo'lishida vaziyat va umumiy manfaatlar majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlarini ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar ham deb atashadi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar mavjud.

Norasmiy guruh rasmiy guruhga qaraganda boshqacha tuzilishga ega. Agar rasmiy guruhda guruh sotsial strukturaning yuqori organlar va xatto jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa shaxsiy asosda, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol o'ynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarning ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat beradigan xatti-harakat sistemasi rivojlanadi.

Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlar doirasida ham, undan tashqarida ham tashkil topishi mumkin. Birinchi navbatda, norasmiy guruh rasmiy guruh tashkilotiga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi. U yoki bu guruh tashkiloti tarkibidagi guruh bo'lib qoladi. Masalan, oddiy ishlab chiqarish korxonasidagi do'stlar guruh — guruhning yaqqol ko'rinishidir. Ikkinchi navbatda, norasmiy guruhlar rasmiy guruhlariga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. Ular hudud (territoriya) yaqinligi asosida (qo'shnilar), qiziqishlarining bir xilligi asosida (turli xil kolleksiya yig'uvchilar), psixofiziologik xususiyat birligi asosida (tengdoshlar, bolalarning o'yin guruhlari), shaxsiy mayl asosida paydo bo'ladi.

Norasmiy guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar aniq ifodalangan shaxsiy sifatlarga ega. Bu aloqalar rasmiy guruhdagi aloqalarga nisbatan a'zolar uchun ahamiyatliroqdir. Masalan, ishchilar guruhi doirasida yuzaga kelgan do'stlar munosabati faqatgina birga ishlashlari bilan emas, bo'sh vaqtlarini ko'proq birga o'tkazishlari, ko'p uchrashishlari, bir-biriga o'zaro yordam berishlari bilan ham belgilanadi.

Norasmiy guruhlar muntazam tashkilotga ega emas, ularda rasmiy saylangan martabali shaxslar; nizomlar, kun tartibi va aniq rasmiy maqsad bo'lmaydi, guruhda

tartib an'anaga, hurmat va obro', munosabatlariga asoslanadi. Biroq norasmiy guruhlar har doim o'ziga xos ahloqiy kodekslarga ega emas. Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlariga qaraganda ancha beqaror, ularga a'zo bo'lish uchun aniq chegara yo'q.

Norasmiy guruhlarda tashkilot yo'q desak xato qilgan bo'lamiz. Ularni birlashtiradigan asosiy omillar bo'lib, a'zolar manfaatlari, mayillari, odatlari hisoblanadi. Norasmiy tashkilotning o'ziga xos tomoni — unga norasmiy liderning va guruhga yaqin bo'lgan shaxsiy hususiyatlarning bo'lishidir.

Agar rasmiy guruh a'zolarining faoliyati qayd qilingan norma va qoidalar, xatto sanksiyalar vositasida nazorat qilinsa, norasmiy guruhlarda esa norasmiy norma va an'analar yordamida amalga oshiriladi. Bu norma va an'analar mohiyati guruhning jipslik darajasiga, uning boshqa sistemalar bilan munosabatiga bog'liq. Ba'zi norasmiy guruhda faoliyat qoidalari buzilgan taqdirda, aybdor shafqatsiz jazolanadi: masalan, banda, mafiyalarda bunday jazo usullari qo'llaniladi.

Shunday qilib, norasmiy guruh deb, guruh jipsligining yuqori darajasi, a'zolar aloqalarining shaxsiy sifatleri, boshqa sotsial strukturalardan mustaqilligi, guruh faoliyatining aniq bo'lmagan maqsadi, norasmiy nazorat sistemasi bilan xarakterlanadigan guruhga aytiladi.

Guruhlarni rasmiy va norasmiy guruhlariga ajratish nisbiy xarakterga ega. Guruh rasmiy guruhga aylanishi mumkin. Masalan, do'stlar ma'lum bir tashkilot tuzishlari mumkin. Boshqa tomondan bir vaqtning o'zida guruh ham rasmiy, ham norasmiy bo'lishi mumkin. Masalan, sinfdoshlar, kursdoshlar.

Birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Shaxsning yaqinligiga ko'ra, kichik guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'linadn. **Fanga birlamchi guruh terminini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog Ch. Kuli tomonidan XX asrning boshlarida kiritilgan.**

Birlamchi guruh termini yaqinlik yaxshi ko'rishlik, bevosita aloqa tushunchalariga sinonim sifatida ishlatiladi. Shunga bog'liq ravishda, birlamchi guruhlarda muhit samimiy bo'ladi va a'zolarning sidqidildan o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Mana shu hususiyati bilan birlamchi guruh boshqa guruhlardan farq qiladi.

Birlamchi guruhlarining xarakterli belgilari quyidagilardan iborat: a'zolar sonining kamligi, guruh a'zolarining hududiy yaqinligi, bevosita samimiy munosabatlar, yashashning uzoq davom etishi, maqsadlarning umumiyliigi, guruhga a'zo bo'lishning erkinligi va a'zolar xatti-harakati ustidan norasmiy nazorat.

Shunga muvofiq, «birlamchi guruh termini turli ko'rinishdagi kichik guruhlarini aniqlash va «ikkilamchi guruh» terminiga qarama-qarshi tarzda qo'llaniladi.

Birlamchi guruh eng avvalo oiladir, guruhni birinchi naybatda a'zolarning manfaatleri bog'laydi.

Bunday xarakterga ega insonning bolalik va o'smirlik chog'idagi tengdoshlar guruhiga ham ega, qo'shnilar, mahalla ham birlamchi guruhga aylanishi mumkin. Birlamchi guruhlar rasmiy aloqaga ega emas. Agar birlamchi guruh a'zolari o'rtasida rasmiy aloqalar paydo bo'lsa, bu guruh kichik rasmiy guruhga aylanganligini bildiradi.

Birlamchi guruhning shaxsga ta'siri katta ahamiyatga ega. Ular a'zolarining axloqiy tomonini shakllantiradi va yangilaydi, mustahkamlaydi. Bu guruhlarda kishilarning birinchi sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) amalga oshadi, kishilar o'zlarining xislatlari va xatti-harakatlarini jamiyat talabiga muvofiq keladigan tarzda shakllantirishadi.

Ikkilamchi guruhlar deb, biror bir aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan har qanday turdagi guruhlariga aytiladi, Ularda moddiy aloqalar muhim ahamiyatga ega. Ularning faoliyati tartib-intizom qoidalari bilan boshqariladi. Umuman, ikkilamchi guruhlar — bu katta guruhlardir. Ba'zan birlamchi guruhlar ham ikkilamchi guruh bo'lishi mumkin. Ikkilamchi guruhlariga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarni kiritish mumkin.

Referent va a'zoli guruhlar. Kichik guruhlarni o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, «referent guruh» deb ataladigan guruhlarni tahlil qilish hisoblanadi. **«Referent guruh» termini amerikalik sotsial psixolog Mustaf o Sherif tomonidan kiritilgan.** «Referent guruh» termini (inglizcha so'z, «mansub bo'lish» degan ma'noni anglatadi) individ ongli ravishda, kiradigan sotsial guruhlariga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy kasbiy) nisbatan ishlatiladi.

Shaxsning «guruh normalariga» munosabati belgilariga muvofiq guruhlar referent guruhlar yoki «etalonli» (o'lchovli) guruhlariga bo'linadi. Referent guruhlar ham kichik guruhlar, ham katta guruhlar — sinf yoki ijtimoiy tabaqa bo'lishi mumkin.

«Referent guruh» termini 4 xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon yoki mezon bo'lib xizmat qiladigan guruh.

2. Individ o'z harakatlarini shu guruhga yo'naltiradigan guruh.

3. Individ a'zo bo'lishga intilayotgan guruh.

4. A'zolarining qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'lchovi, sotsial «o'lchov doirasi» sifatida xizmat qiladigan guruh.

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotsial muhitlarga moslashuvi jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Referent guruhlar real va ideal guruhlariga bo'linadi. Real referent guruhning shaxsga qulay sotsial norma va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan alohida kishilar yoki kishilar birligidir.

Ideal referent guruh - bu ma'lum bir guruhning qadriyatli va normativ yo'l-yo'riqlarini inson ongida aks etishidir. Shaxs bu guruhga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishga harakat qiladi.

Masalan, muhandis o'zini real hayotda muhandislar guruhiga mansub deyish bilan birga o'zini guruh sifatida mavjud bo'lmagan ma'naviy «elitaga»ga mansub deb hisoblaydi.

4.2. Sotsial institut tushunchasivaunin g turlari.

“Institut” tushunchasi—sotsiologiya fanidagi markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi, shuning uchun institutsional aloqalarni o'rganish sotsiologlar oldida turgan asosiy ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sotsial institutlarning yig'indisi jamiyatning ijtimoiy tizimi deyiladi. U nafaqat institutlar bilan, balki ijtimoiy

tashkilotlar, ijtimoiy o'zaro aloqa, ijtimoiy rollar bilan ham bog'langan. Bir so'z bilan aytganda, nima harakatlansa, ishlasa, harakat qilsa shular bilan bog'langan.

Sotsial institut me'yorlar va ijtimoiy munosabatlarning muayyan sohasini tartibga soluvchi muassasalar yig'indisidan iborat. Uni bosqacha ta'riflansa ham bo'ladi **muayyan ijtimoiy ehtiyojni qondirish uchun mo'ljallangan rollar va mavqelarning yig'indisi institut deyiladi.**

Ko'rib turganimizday, institut – bu ijtimoiy sinf degani emas. Masalan, boylar sinfi yoki ijtimoiy guruh, aytaylik barcha nafaqaxo'rlar. Ular ham, bular ham – insonlar yig'indisi. Sotsial institut – mexanizm yoki muassasalar yig'indisidir. Ammo elementlarning mexanik yig'indisi emas. Istalgan muassasaga yoki yaxshisi, ijtimoiy tashkilotga nazar tashlasak, u erda aniq yo'lga qo'yilgan nazorat, rejalashtirish, hisob, xodimlar shtati, binolar va uskunalar, boshqaruv pog'onasini hamda na sinflarda, na demografik va professional guruhlarda uchramaydigan boshqa narsalarni ko'ramiz.

Sotsial institut (lotincha – institutum, ruscha lug'aviy ma'nosi – ustanovleniya, o'zbekcha ma'nolarda, birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi). Sotsial institutlar yoki institutsional sotsiologiya maxsus nazariy yo'nalishdir. Sotsiologiyaga sotsial institut tushunchasi huquqshunos fanlaridan kirib kelgan. Yurisprudentsiyada sotsial institutlar deyilganda, ijtimoiy – huquqiy munosabatlarni idora qiladigan huquqiy normalar (merosxo'rlik, mulkka egalik, oila va nikoh institutlari) tushuniladi.

Institutsional sotsiologiya – ijtimoiy hayotni tashkil etishning va idora etishning (boshqarishning, regulatsiya qilishning) barqaror shakllarini o'rgatuvchi sohadir.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. Yuzaki ko'rinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko'ra esa sotsial institut va shaxslarning konkret vaziyatlarda amal qiladigan maqsadga muvofiq, rasmiy va norasmiy, barqaror, standartlashgan tamoyil, normalar, o'rnamshalarini bildiradi.³⁶

Sotsial institut, qisqacha ta'rifda, odamlar sotsial tashkillashgan va regulatsiya qilinadigan faoliyatni anglatadi. Sotsial institutlar xatti – harakatining nisbatan barqaror shakl na'munalarini, avloddan-avlodga o'tuvchi an'analar, odatlarning qayta takror hosil qilinishini ham ta'minlaydi³⁷. Sotsial strukturaga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyat vazifalarini ado etish uchun tashkil topadi, har bir sotsial institut faoliyat maqsadi, unga erishishni ta'minlovchi konkret funksiyalar, ushbu institutga xos bo'lgan sotsial pozitsiya va rollar, shuningdek, maqsadga muvofiq, kerakli xatti-harakatni rag'batlantiruvchi va deviant (og'ma) xatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar (sanksiyalar) tizimi bilan tavsiflanadi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va xalqaro sohalariga xos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat majudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila

³⁶ Bekmurodov M., Sultonov T. Sotsiologiya asoslari. Ma'ruzalar matini. T.: 2000. -236-b.

³⁷ Alev B., Mullajonova M., Raxmonov B. Sotsiologiya. Darslik. T.: 2011. -234-b.

hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya usullari) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar (maorif, sog'liqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi.

Sotsial institut—bu inson faoliyatining turli sohalarini tartibga soluvchi va ulami rollar va mavqelar tizimiga kirituvchi rasmiy va norasmiy qoidalar, me'yorlar tamoyillari, yo'l- yo'riqlarning turg'un majmuidir. **Shunday qilib, sotsial institutni ikkita usul yordamida ifodalaniadi: bir tomondan me'yorlar yig'indisi, ikkinchi tomondan—rollar va mavqelar yig'indisi.** Yuqorida qayd etilganlardan shuni xulosa qilib aytish mumkinki, ushbu ikkita ta'rif bir—biriga zid emas, aksincha, ular bir—birini to'ldiradi va bitta hodisaning turli tomonlariga urg'u beradi. Sotsial institut butun jamiyat nomidan harakat qiladi. Institutsional aloqalar bir paytning o'zida me'yoriy ham hisoblanadi, chunki ular jamiyat tomonidan o'z a'zolarining u yoki bu ehtiyojlarini qondirish uchun o'rnatiladi. Sotsial institutning mazmuniy va rasmiy tomonlarini ajratish mumkin. Mazmuniy tomondan sotsial institutu yoki bu ijtimoiy mavqe egalari xulq — atvorining andozalari tizimi hisoblanadi. Rasmiy tomondan sotsial institut aniq ijtimoiy vazifani bajarish uchun moddiy vositalarga ega bo'lgan shaxslarning yig'indisi sifatida qaralishi mumkin.

Sotsial institutga quyidagi belgilar xos:

1) uxulq-atvorning to'g'ri turlarini belgilovchi ijtimoiy me'yorlar va yo'l-yo'riqlarning to'plami sifatida mavjud bo'ladi;

2) u jamiyat mafkurasi va qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq;

3) harakatlarning institutsional turlari jamiyat tomonidan nazorat qilinadi, institutning o'zi esa individlarning xulq—atvorini nazorat qiladi;

4) sotsial institut zarur moddiy vositalar va zahiralarga ega bo'lib, ular tufayli institut asosida yotuvchi me'yorlar va yo'l-yo'riqlar u yoki bu darajada muvaffaqiyatli bajariladi.

Har bir sotsial institut:

1) o'z faoliyatining ma'lum darajada aniq shakllangan maqsadlariga;

2) individlarga belgilangan ijtimoiy mavqe va rollarning to'plamiga;

3) individlarning xulq-atvorini nazorat qiladigan sanksiyalar tizimiga;

4) ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan konkret xususiy vazifalarga ega (istalgan sotsial institut bulardan tashqari doim yana bir vazifaga ega bo'ladi—bu harakat qilay otgan individlar o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlash).

Sotsiologiya birinchi navbatda:

1) jamiyatning asosini tashkil etuvchi ehtiyojlarni amalga oshirish (oilalar va ta'lim institutlari);

2) moddiy hayot faoliyatini ta'minlash (iqtisodiyot institutlari);

3) ijtimoiy guruhlar va jamoalarning integratsiyasi (siyosiy va huquqiy-davlat institutlari);

4) ma'naviy qadriyatlarni quvvatlash va saqlash (madaniyat institutlari) hamda boshqalar bilan bog'liq bosh sotsial institutlarning faoliyati bilan qiziqadi.

Ijtimoiy hodisalarning tizimli-tuzilmaviy tahlilida «sotsial institut» tushunchasiga markaziy o'rin beriladi, u ijtimoiy tizimning asosiy maqsadlari va ehtiyojlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali odamlarning turli — tuman

harakatlardan mavhumlashgan faoliyatning eng muhim turlari va ijtimoiy munosabatlarini umumlashtirish imkoniyatini ko'zda tutadi. Shu ma'noda sotsial institut ijtimoiy hayotning alohida sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi jamiyat ijtimoiy tuzilmasining yetakchi tarkibiy qismi sifatida ifodalinishi mumkin.

Institutlashtirish va sotsial institutlarning rivojlanishi. Sotsial institutlar o'zaro ijtimoiy ta'sirining muhim shakli hisoblanadi. **Sotsial institutlar kategoriyasi B.Malinovskiy va A.Radkliff-Braun tomonidan batafsil ishlab chiqilgan: odamlarning faoliyati muayyan guruhlar tomonidan amalga oshiriladi hamda muayyan axloqiy va huquqiy qoidalar bo'yicha bajariladi. Ushbu «moslashish» institut deyiladi.** Ijtimoiy hayotda institutlashtirishning o'zi va roli sotsial institutlarning o'zi va roli bilan belgilanadi. Jamiyatda institutlashtirish—bu shaxsning hayotdagi ijtimoiylashuvining o'zidir. Ularni jamiyat hayotining yo'llari tartibga solinishi, to'g'rilanishi kerakligi birlashtirib turadi. **Sotsiolog S.Frolovning fikricha,** institutlashtirish —bu o'z-o'zidan yuzaga keladigan xulq-atvorning o'ziga kelishi kerak bo'lgan, jamiyatda muayyan ijtimoiy me'yorlarni o'rnatish, ushbu jamiyat a'zolarining mavqe va rollarini belgilash orqali boshqarilishi va kerakli yo'lga yo'naltirilishi lozim bo'lgan, oldindan bashorat qilinadigan xulq-atvordir. U institutlashtirish bosqichlarini belgilab berdi:

- 1) yuzaga kelgan ehtiyojni qondirish uchun tashkillashtirilgan harakatlar zarur;
- 2) barcha uchun umumiy bo'lgan maqsadlar shakllantiriladi;
- 3) o'zaro ijtimoiy munosabatlar jarayonida muayyan me'yor va qoidalar vujudga keladi;
- 4) shu qoida va me'yorlar bilan bog'liq protseduralar yuzaga keladi;
- 5) topilgan me'yor va qoidalar tasdiqlanadi, ular real hayotda qo'llaniladi, ya'ni institutlashtirish jarayonining o'zi sodir bo'ladi;
- 6) belgilangan me'yorlar bajarilmagan taqdirda sanksiyalar belgilanadi;
- 7) jamiyatda institutning barcha a'zolariga tegishli bo'lgan mavqe va rollar paydo bo'ladi.

S.S.Frolov, institutlashtirish jarayoni yakunlanishi bilan o'z qoida va me'yorlariga ega mavqeli-rolli tuzilma o'rnatiladi, u ko'pchilikning ehtiyojini qondiradi, —deydi. Bir qator shartlar mavjud bo'lib, ularni bajarishda ijtimoiy institutlarning to'g'ri va muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin:

- 1) har bir institut uchun vazifalar va maqsadlarni belgilanishi shart;
- 2) institut faoliyati institutlashtirish vazifalarini bajaruvchi kishilarning shaxsiy manfaatlariga bog'liq bo'lmasligi kerak (xolis bo'lishi lozim);
- 3) har qanday institut guruh oldida o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga va ko'tarishga harakat qilishi lozim;
- 4) barcha sotsial institutlarning faoliyatini muvofiqlashtirish juda muhim.

Ushbu shartlarning bajarilishi katta ahamiyatga ega, chunki sotsial institutlar qanday faoliyat yuritishi butun ijtimoiy hayotda aks etadi. Agar institutga misol bo'ladigan oilani ko'rib chiqadigan bo'lsak, bu qadimiy institutlardan biri ekanini bilamiz, ammo u ba'zida inqirozlarni ham boshidan kechirgan bo'lsa-da, hozir ham dolzarb hisoblanadi. Oilani institutlashtirish ayni paytda uning asosini davlat tomonidan ruxsat berilgan nikoh ittifoqi tashkil etishi bilan belgilanadi.

Institutlashtirish –bu shunday jarayonki, unda biror bir ijtimoiy ehtiyoj xususiy emas, balki umum ijtimoiy sifatida anglana boshlanadi va uni amalga oshirish uchun jamiyatda alohida ahloqiy me'yorlar o'rnatiladi, kadrlar tayyorlanadi, zahiralalar ajratiladi.

Institutlashtirishning samaradorligi qabul qilingan hamda institutlar, individlar faoliyatining ijtimoiy –madaniy konteksti hisoblangan qadriyat –me'yorlar tizimi o'zaro uyg'unlashish-ishlamasligi bilan belgilanadi.

Sotsial institutlar tizimi. Institutlarning xilma-xilligi:

> **Norasmiy ijtimoiy institutlar.** Misol: do'stlik

- yetarli darajada aniq belgilangan

- nazorat va sanksiyaning alohida shakllari (ranjish, janjal, ajralish va hokazo), «NR» – qonun va ma'muriy qoidalar ko'rinishida mustahkamlanmaganlik.

- zahiralalar-sarmoyalar (ishonch, yoqtirish, tanishuvning davomiyligi va hokazo)

- aniq chegaralash –avtonomiya (muhabbat, kasbiy munosabatlar, oilaviy munosabatlar va hokazolardan), «NR» —sheriklarning mavqeyi, huquq va majburiyatlari aniq ravishda professional mustahkamlanmaganligi.

2) Rasmiy ijtimoiy institutlar. Rasmiy tarzda shartlashilgan qoidalar, qonunlar, reglamentlar, nizomlar («yozilmagan me'yorlar») asosida o'zaro aloqa qilish.

Ijtimoiy institutlarni funksiyalari bo'yicha tasniflash (virtualizatsiya nazariyasi nuqtai nazaridan ijtimoiy institutlarning funksionalligini tanqid qilish) Virtualizatsiya nazariyasi (post modernizm)

- Virtualizatsiya – bu real voqelikni stimulyatsiya obraz bilan almashtirishdir– u kompyuter texnikasi yordamida bajarilishi shart bo'lmasada, biroq albatta virtual voqelik mantiqini qo'llagan holda bajariladi (masalan: virtual iqtisodiyot–fond birjasidagi spekulyatsiyalar moddiy ishlab chiqarishdan ustun turadi).

- Ijtimoiy fenomenlarni «virtuallik» tushunchasi yordamida ifodalash obrazlar raqobati institutsional ifodalangan harakatlarning o'rini bosganidagina o'rinnidir.

- Ushbunazariya doirasida yangi tendensiyalarni tushuntirish jamiyatning institutlar tizimi emas, balki qadriyatlarni amalga oshirish jarayoni, ijtimoiy institutlarning real voqelikdagi shakllanishi va inqirozga uchrashi kabi tarixiy daqiqalardan iborat jarayonlar sifatidagi tasavvuri kelib chiqadi.

> **Iqtisodiy institutlar.** Boyliklar (farovonlik)ni yaratish, taqsimlash va foydalanish muammolarini qo'yish va hal qilish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): bozor; tovar – buyum, ularning ob'yektiv xususiyatlari boylik hisoblanadi; taklif, talab, mehnat – muayyan vaqtda, muayyan joyda tashkil etilgan sermahsul faoliyat, raqobat, innovatsiya va boshqalar.

postmodern davrida virtuallashtirish:

- qiymatni virtuallashtirish

- innovatsiyalarni stimulyatsiya qilish

- mehnatni virtuallashtirish («ish vaqti iqtisodiy mazmunga emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega»)

Ishlab chiqarishdan iqtisodiyotga.

> **Siyosat institutlari.** Hokimiyatga ega bo'lish muammolarini qo'yish va hal etish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

Asosiy elementlar (modern): harakatlar dasturi, (mafkura); islohot; tashkilot (partiya); jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi
postmodern davrida virtuallashtirish:

-hozir siyosiy hokimiyat uchun kurash– bu harakatlar dasturining raqobat emas,balki siyosiy imijlarning kurashidir;

- siyosatchining real shaxsi va faoliyati faqat “axborot sababi” sifatida kerak xolos;

- ommaviy demokratiya institutlarining virtuallashtirilishi – saylovlar, davlat,partiyalar

Boshqaruv dansiyosatga.

> **Ilm-fan institutlari.**Haqiqatni ochish va malaka oshirish muammolarining hal etilishini ta'minlovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): fakt – sezgi organlari tomonidan qayd etiladigan narsalarning holati; kashfiyot – narsalarning yangicha holatini aniqlash; tadqiqot – faktlarni yiqish va ularni bir tizimga solish jarayoni; bilimga asoslanganlik – faktlar«zahirasi»ga ega bo'lish.

postmodern davrida virtuallashtirish:

- ilm-fan bugungi kunda – bu haqiqatni izlash emas, balki til bilan bog'liq o'yinlar turi, modellarni manipulyatsiya qilishdir;

- moddiy eksperiment ko'p hollarda real voqeilikda referentga ega bo'lmagan modellarda tajriba o'tkazishga almashilyapti;

- farovonlikka murojaatni moliyaviy samaradorlikka murojaat bilan almashtirish;

- ilmiylikning haqiqiylikdan ajralishi;

- kompetensiyani stimulyatsiya qilish.

“Bilimlarni oshirishdan” “ilmiylikka”

> **San'at institutlari.** Badiiy qadriyatlarni yaratish va saqlash muammolarini qo'yish hamda hal etish usullarini belgilovchi me'yorlar majmui.

asosiy elementlar (modern): asar – buyum bo'lib, uning hissiy idroki ezgulikdir; ijod – o'ziga xos asarni yaratish;did – ijodiy idrok etish qobiliyatiga ega bo'lish;badiiy yo'nalish; taqdimot(ko'rgazma, spektakl) va boshqalar.

postmodern davrida virtuallashtirish:

- “go'zallikni” turlicha tushunish

-sitata keltirish san'at tamoyili sifatida

- asar yaratish PR–aksiyalar majmuiga aylanadi

Ijoddan “san'at bilan shug'ullanishga”.

Ijtimoiy institutlarning turlari va funksiyalari. Har bir institut o'ziga xos bo'lgan ijtimoiy vazifani bajaradi. Ushbu ijtimoiy vazifalarning yig'indisidan ijtimoiy tizimning muayyan ko'rinishi sifatidagi ijtimoiy institutlarning umumiy ijtimoiy vazifalari yig'ilib boradi. Mazkur vazifalar turli - tumandir.Turli yo'nalishda faoliyat yurituvchi sotsiologlarularni tasniflashga, ularni tartibga solingan muayyan tizim sifatida tasavvur qilishga urinib ko'rishgan.«Institutsional maktab»uning eng to'liq va qiziqarli tasnifini taqdim etadi. Sotsiologiya fanining institutlashtirish maktabi vakillari (S.Lipset; D.Landberg va boshqalar) sotsial institutlarning to'rtta asosiy vazifasini ajratadi:

1) Jamiyat a'zolarini ko'paytirish. Oila ushbu vazifani bajaruvchi asosiy institut hisoblanadi, ammo unga davlat kabi boshqa institutlarning ham aloqasi bor.

2) Ijtimoiylashuv—individlarga ushbu jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor va faoliyat usullarining namunalarini berish—oila, ta'lim, din va boshqa institutlar.

3) Ishlab chiqarish va taqsimlash. Boshqaruv va nazorat kabi iqtisodiy – ijtimoiy institutlar tomonidan ta'minlanadi—hokimiyat organlari.

4) Boshqaruv va nazorat vazifasi xulq-atvorning tegishli turlarini amalga oshiruvchi ijtimoiy me'yorlar va ko'rsatmalar tizimi orqali amalga oshiriladi. Axloqiy va huquqiy me'yorlar, urf - odatlar, ma'muriy qarorlar va hokazo. Sotsial institutlar individning xulq-atvorini rag'batlar va sanksiyalar tizimi orqali boshqaradi.

Sotsial institutlar bir-biridan o'zining funksional sifatлари bilan farq qiladi:

1) **Iqtisodiy-ijtimoiy institutlar** – mulk, ayirboshlash, pullar, banklar, turli tipdagi xo'jalik birlashmalari—iqtisodiy hayotni ijtimoiy hayotning boshqa sohaları bilan birlashtirgan holda ijtimoiy boylikni ishlab chiqarish va taqsimlashning butun yig'indisini ta'minlaydi.

2) **Siyosiy institutlar**—davlat, partiyalar, kasaba uyushmalari va siyosiy hokimiyatning muayyan shaklini o'rnatish va saqlab turishga yo'naltirilgan siyosiy mahsadlarni ko'zlovchi boshqa turdagi jamoat tashkilotlari. Ularning yig'indisi ushbu jamiyatning siyosiy tizimini tashkil etadi. Siyosiy institutlar mafkuraviy qadriyatlarini takror ishlab chiqarishni va turg'un saqlanishini ta'minlaydi, jamiyatdagi yetakchi ijtimoiy-sinfy tuzilmalarni barqarorlashtiradi.

3) **Ijtimoiy—madaniy va tarbiyaviy institutlar** o'zlariga madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini o'zlashtirish va ularni aks ettirishni, individlarni muayyan submadaniyatga kiritishni, xulq-atvorning turg'un ijtimoiy-madaniy andozalari orqali individlarni ijtimoiylashtirishni va nihoyat, muayyan qadriyatlar va me'yorlarni himoya qilishni maqsad qilishadi.

4) **Me'yoriy—yo'naltiruvchi institutlar** – individlarni axloqiy -yetik yo'naltirish va ularning xulqini boshqarish mexanizmlari. Ularning maqsadi xulq-atvor va motivatsiyaga ma'naviy dalilni berishdan iborat. Ushbu institutlar ham jamiyatda imperativ umum insoniy qadriyatlarini, maxsus kodekslar va xulq etikasini tasdiqlaydi.

5) **Me'yoriy-tasdiqlovchi institutlar** – yuridik va ma'muriy hujjatlarda birlashtirilgan me'yorlar, qoidalar va ko'rsatmalar asosida xulq - atvorni ijtimoiy jihatdan tartibga solishdir. Me'yorlarning majburiyligi davlatning majburiy kuchi va tegishli sanksiyalari tizimi bilan ta'minlanadi.

6) **Tantanalı—ramziy va vaziyatli – konvensional institutlar.** Ushbu institutlar konvensional(shartnoma bo'yicha)me'yorlarni u yoki bu darajada uzoq qabul qilishga, ularning rasmiy va norasmiy mustahkamlanganligiga asoslangan. Ushbu me'yorlar kundalik o'zaro aloqalarni, guruhli va guruhlararo turli tuman xulq-atvor aktlarini tartibga soladi. Ular bir – birining xulq – atvor tartibi va usulini aniqlaydi, axborot berish va almashish, salomlashish, murojaat qilish usullari va h.k.ni, yig'ilishlar, majlislar reglamenti, biror bir birlashmalar faoliyatini aniq qat'iy belgilaydi.

Jamiyat yoki hamjamiyat sifatida chiqadigan ijtimoiy muhit bilan o'zaro me'yoriy aloqaning buzilishi ijtimoiy institut disfunktsiyasi deyiladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, u yoki bu ijtimoiy ehtiyojni qondirish konkret sotsial institutning shakllanish va faoliyat yuritish asosi hisoblanadi. Ijtimoiy jarayonlarning jadal kechishi, ijtimoiy o'zgarishlar sur'atining tezlashishi sharoitlarida, o'zgargan ijtimoiy ehtiyojlar tegishli sotsial institutlar tuzilmasi va funksiyalarida mos tarzda aks etmaydigan vaziyat yuzaga kelishi mumkin. Ularning faoliyati natijasida disfunktsiya vujudga kelishi ehtimoli bor. Mazmun nuqtai-nazaridan disfunktsiya institut faoliyati maqsadining ravshan emasligida, funksiyalarning noaniqligida, uning ijtimoiy nufuzi va obro'sining tushib ketishida, uning alohida funktsiyalarining «ramziy», marosimiy faoliyatgacha, ya'ni oqilona maqsadga erishishga yo'naltirilmagan faoliyatda ifodalanadi.

Sotsial institut faoliyatining shaxsiylashuviuning disfunktsiyasining yaqqol ifodasidan biri hisoblanadi. Ma'lumki, sotsial institut o'zining ob'yektiv harakat qiluvchi mexanizmlari bo'yicha faoliyat ko'rsatadi. Bunda har bir kishi me'yor va xulq-atvor namunalari asosida o'z mavqeiga mos ravishda muayyan rolni o'ynaydi. Ijtimoiy institutni shaxsiylashtirish alohida shaxslarning manfaati, ularning shaxsiy sifatlari va fazilatlariga qarab o'z funksiyalarini o'zgartirgan holda ob'yektiv ehtiyojlar va ob'yektiv ravishda belgilangan maqsadlarga muvofiq tarzda harakat qilishdan to'xtaydi. Qondirilmagan ijtimoiy ehtiyoj institut disfunktsiyasini to'ldirishga intiluvchi me'yoriy tarzda tartibga solinmagan faoliyat turlarining stixiyali paydo bo'lishini, mavjud me'yor va qoidalarini buzish hisobiga yuzaga keltirishi mumkin. Bunday turdagi keskin shakllarga ega bo'lgan faollik huquqqa zid faoliyatda ifodalanishi mumkin.

Xususan, ba'zi iqtisodiy institutlarning disfunktsiyasi «yashirin iqtisodiyot» mavjud bo'lishining sababchisiga aylanadi, chayqovchilik, poraxo'rlik, o'g'irlik va hokazolarga olib keladi. Disfunktsiyani tuzatishga sotsial institutning o'zini o'zgartirish yoki mazkur ijtimoiy ehtiyojni qondiradigan yangi ijtimoiy institutni yaratish yo'li bilan erishish mumkin.

Tadqiqotchilar sotsial institutlar mavjudligining ikkita shaklini ajratishadi oddiy va murakkab. Oddiy sotsial institutlar – kishilarning tartibli birlashmalari bo'lib, ular institut a'zolari tomonidan ijtimoiy qadriyatlar, ideallar, me'yorlarga bog'liq bo'lgan o'zlarining ijtimoiy rollarini bajarishlar asosida birgalikda maqsadga erishishni ta'minlovchi muayyan ijtimoiy ahamiyatga ega funksiyalarni bajarishadi. Ushbu darajadagi boshqaruvchi tizim mustaqil tizimga ajralmagan. Ijtimoiy qadriyatlar, ideallar, me'yorlarning o'zi ijtimoiy institut mavjudligining turg'unligini va faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Shuningdek sotsial institutlar rasmiy va norasmiylarga, funksiyalar esa yaqqol va yashirinlarga bo'linadi.

Demak, sotsial institutlarning eng muhim quyidagi turlari mavjud:

1. Oila – jamiyatning muhim institutlaridan biri.
2. Ijtimoiy-madaniy institutlar.
3. Qarindoshlik instituti.
4. Nikoh instituti.
5. Ta'lim (maktab, oliy ta'lim va h.k.) instituti.

6. **Kommunikatsiya** (informatsion texnologiya) va ommaviy axborot vositalari (OAV) instituti

7. Din instituti

8. Mehnat instituti

9. Iqtisodiyot instituti va h.k.

Sotsial institutlarsotsial muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sir normal tarzda, shuningdek, normaning buzilishi sharoitida ham bo'lishi mumkin. Har qanday real jamiyatda normativ tartibotga bo'ysunmaydigan anomik hodisalar bo'lishi tabiiydir.

Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarningquyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Relyatsion (yozma ma'lumotlarga asoslanuvchi) institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-mashg'ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi.

2. Regulyativ (idora etish) sotsial institutlari. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz holda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketilganda qo'llaniladigan sanksiyalarni (bunda sotsial nazoratning hamma mexanizmlari ham kirib ketadi) belgilab beradi.

3. Integrativ (uyg'unlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga ma'sul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi.

4. An'anaviy sotsial institutlar. Bu sotsial institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bog'liqdir.

5. Madaniy sotsial institutlar. Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq muassasalar.

Institutsional sotsiologiyada **sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari** quyidagilardan iborat:

a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;

b) sotsializatsiya (individda ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normalarniyetkazishning turli xil shakllari);

v) ishlab chiqarish va taqsimot;

g) tartibga rioya qilish va axloqni saqlab turish.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar amal qilinishini taqozo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi tomon qadam tashlayotgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanish jarayoni ro'y bermoqda. Bular:

- **iqtisodiy sohada** - bozor iqtisodiyoti amal qilishiga xizmat qiladigan sotsial institutlar;

- **siyosiy sohada**- demokratik hokimiyat turli bo'g'inlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar hamda jamiyat barcha jabhalarida yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident Islom Karimov izchil tadbiq qilayotgan konsepsiyaga muvofiq yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda

4.3. Sotsiologiyada oila ijtimoiy institut sifatida, uning struktura va funksiyalari.

Oilaning tiplari

Bu yoryg' dunyoda hayot bor ekan, oila bor .Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne'mat bor. Farzand bor ekan, odamzot hamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.³⁸

Oila sotsiologiyasi — sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, bu fan oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida o'z vazifalari mavjuddir. Ularga jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish, oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash, nikoh va oila turlari evolyutsiyasini o'rganish, oilani tashkil topishi va taraqqiyotida avlodlarning o'zaro ta'sirini aniqlash, oila tarbiyasi, oilaning regulativ faoliyatining va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish, mehnat taqsimotida oila o'mini o'rganish kabilar kiradi.

Oila sotsiologiyasi oilaning tabiiy biologik, nikoh, qarindoshlik, ma'naviy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni birlashtiruvchi jamiyatni kichik bir bo'lagi sifatida o'rganar ekan, uning jamiyat bilan o'zaro bog'liqligini asosiy e'tiborini qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida uning davomiyligini ta'minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo'lishi — avlodlar almashuvi asosan oilada sodir bo'ladi. Farzand tug'ilib, kamolga yetib, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo'lgan barcha ta'lim, tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug'iga, qariyalarga, atrof-muhitga va tabiatga bo'lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarini avlodlardan-avlodga yetkazuvchi sotsial institut hisoblanadi.

Oila asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi tashkil etadi. Oila faqatgina erkak bilan ayol munosabatini emas, er bilan xotin, ota-onalar bilan bolalar munosabatini ifodalaydi. Oila jamiyat bag'rida tashkil topib, taraqqiy etib borar ekan, o'zi ham ana shu jamiyatning kichik bir bo'lagi sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oila taraqqiyotiga ta'sir etadi. Oiladagi ta'lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat o'zaro bog'liq holda taraqqiy etib, rivojlanadi.

Fanda oilaga quyidagicha ta'rif beriladi: **«Oila – insonlarning tabiiy - biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviyat munosabatlariga asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari orqali bog'langan ijtimoiy guruhdir».**

Oila – kishilar hayotining eng muhim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy – madaniy organizm. **Oila** – kishilarning tabiiy – biologik (jinsiy munosabatlar, uy – ro'zg'orni boshqarish), huquqiy (masalan, nikohni fuqarolik holatlarida qayd etish), ma'naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o'rtasidagi sevgi, mehr-muhabbat tuyg'usi va shu kabilar) munosabatlariga asoslangan birlik.

³⁸Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Ikkinchi nashri. T.: «Ma'naviyat», 2010 -56-b.

Nikoh va oila munosabatlari qadimgi davrlardan boshlab ilmiy tadqiqotlar manbaining bir yo'nalishini aks ettirib, sotsial tizimni tashkil etuvchi sotsial institutlarning alohida funksiyaga ega bo'lgan bir bo'lagi hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir sotsial institut o'ziga xos funksiyani bajarishga yo'naltirilgandir. Turli yo'nalishdagi sotsiologlar bu sotsial institutlarning alohida funksiyalarini o'rganishga kirishib, klassifikatsiyalashga uringanlar.

Bu sohada ancha to'liq va qiziqarli ma'lumotlarni sotsiologlar S.Lipset, D.Landberg va boshqalarning «Institutsional maktab» sotsiologiyasi manbalaridan olishimiz mumkin. Ana shu sotsial institutlardan biri **oila** hisoblanadi. Klassik sotsiologlarning nazariyalarida **sotsial institutlar amal qilishiga ko'ra ikkiga ajratib ko'rsatilgan: Oddiy va murakkab.** Oddiy sotsial institutning klassik misolida oila institutini ko'ribchiqishimiz mumkin. A.G. Xarchevning ma'lumotiga ko'ra oila kishilarning nikoh va qon-qarindoshlik xususiyatiga ko'ra birlashmasi bo'lib, ijtimoiy turmushni shakllantirish va birgalikdagi javobgarliklariga ko'ra bog'langan bo'g'indir.

1857-1929 yillarda yashab ijod etgan Amerika sotsiologi va iqtisodchisi T.Vebning sotsial institutlar haqidagi konsepsiyasi asosida funksional yondashuvlarni ko'rish mumkin. Bunga ko'ra **oila – jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish funksiyasini bajaruvchi institutlar hisoblanadi.**

Bu masalalarni biz A.Millerning konsepsiyalarida ham ko'rishimiz mumkin (1914-1973). O'z davrida M.Veber ham sotsial institutlar va ularning funksiyalari haqida alohida to'xtalib o'tgan. O.Kont o'z sotsiologik nazariyalarida oilani jamiyatning birlamchi asosisifatida qarab chiqadi va uning kelib chiqishini insoniy munosabatlardagi tabiiy holat deb izohlaydi.

O.Kontning fikricha, oilada ijtimoiy munosabatlarning barcha ko'rinishlari o'z aksini topadi, ya'ni **notenglik** (avlodlar va jinslar o'rtasida), **tobelik** (oila a'zolari o'rtasidagi, oila boshlig'i, kattalar) va hokazo. Shunga ko'ra oila bir kichik davlat bo'lib, u davlatning shakllanish asosi, uning modeli, oila sotsial funksiyalari esa – jamiyat funksiyalarini aks ettiradi. P.Sorokin o'zining sotsiologik tadqiqotlarida oilaviy kelishmovchiliklar, ularning sabablari va oqibatlari haqida keng to'xtalib o'tgan³⁹.

L.Prizberg o'zining Sotsial konfliktlar (1982 y.) asarida oilaviy kelishmovchiliklar va ularning oqibati, jamiyat taraqqiyotiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltirib, ularning oldini olish va oqibatlariga qarshi kurashish jamiyat oldiga qo'yiladigan muhim vazifalardan biri ekanligini ta'kidlagan.

Oilaning sotsial mohiyati hamda uning axloqiy va huquqiy asoslari Mamlakatimiz Konstitutsiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab qo'yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa zaruriy qonun hujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevorlar yaratilmoqda.⁴⁰

Oilaning huquqiy asoslarini asosan quyidagilar tashkil qiladi:

I.Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi (1948 yil 10 dekabr) 16-moddada berilgan.

³⁹ Sorokin P. Inson. Sivilizatsiya. M., 1992, 272–273-betlar.

⁴⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2012, 576.

II. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 63–66-moddalarda bayon etilgan.

III. O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi (1998 yil 30 aprelda qabul qilingan) 8 bo'lim, 238 moddadan iborat.

IV. Va boshqa shular doirasida qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar.

I. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi 1948 yil 10-dekabrda qabul qilingan. U, 30-moddadan iborat, deklaratsiyaning 16 – moddasi oilaga bag'shlanadi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi 360 dan ortiq tilda chop etilgan va jahonda eng ko'p tarjima qilingan hujjat hisoblanadi.

Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi: 16 – moddasi

1. Balog'at yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklanishsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga haqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va bekor qilish vaqtida bir xil huquqlardan foydalanadilar

2. Nikoh har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkin.

3. Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga haqli⁴¹.

II. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan. U, 6-bo'lim, XXVI bob, 128-moddadan iborat. Konstitutsiyasining, XIV bobi, 63 - 66 - moddalari, oilaga bag'shlanadi :

63-moddada. "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.

64-modda. Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga etgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum bo'lgan bolalarni boqish, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlaydi, bolalarga bag'ishlangan xayriya faoliyatlarni rag'batlantiradi

65-modda. Farzandlar ota-onalarining nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qat'iy nazar, qonun oldida tengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

66-modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amhoriylik qilishga majburdirlar.⁴²

Oilaning funksiyalari va uning tiplari

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (63-modda)da ta'kidlanganidek, "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega"

⁴¹Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. Deklaratsiyaning 60 yilligiga bag'shlangan nashr T.: «O'zbekiston», 2009- 12 -b.

⁴²O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T.: «O'zbekiston », 2014- 12- 6.

Nikoh va oila sotsiologiyasi o'z mazmuniga ko'ra juda keng ko'lamga ega bo'lib, hozirgi zamon oila-nikoh munosabatlarining barcha jihatlarini o'z ichiga oladi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi oila-nikoh munosabatlarida ham jiddiy o'zgarishlarni, oilaviy munosabatlarda vujudga kelayotgan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ularning ichida oila-nikoh munosabatlarining huquqiy-yuridik yo'nalishi, ahloqiy-estetik, oila va islom dini, oila va aholi salomatligini himoya qilish muammosi, oila soni, tarkibi va tuzilishi, oilaning moddiy-iqtisodiy ta'minoti, turmush darajasi, oilada er-xotinning o'rnini va roli, oiladagi ruhiy muhit, oilaviy mojarolar va ajralishlar, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, yosh oilalar va ularning ahvoli kabi yo'nalishlar muhim sotsiologik tadqiqot ob'yekti bo'lib kelmoqda.

Aslida oilaning vujudga kelishi va shakllanishida quyidagi oila turlari mavjud bo'lgan:

1. Gruppaviy oila: ibtidoiy jamoa tuzumida er-xotin umumiy bo'lgan.
2. Patriarxal oila: juft oila bilan monogom oila o'rtasidagi oraliq shaklida bo'lgan.
3. Monogam oila: bir nikohli (hozirgi) oila vujudga kelgan.

Oilalarni sotsiologiyasi turmush tarzi sotsiologiyasi bilan uzviy bog'liq holda olib qarab o'rganiladi. Zero, oila bilan bog'liq bo'lgan barcha masalalar kishilar turmush tarzi tarkibiga kiradi. Ammo, oila jamiyatning kichik yacheykasi sifatida maxsus sotsiologik tadqiqotga muhtoj. Shuning uchun ham oila-nikoh sotsiologiyasi maxsus sotsiologik nazariya sifatida hozirgi davr jamiyat ijtimoiy hayotini ilmiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi kunda jahon mamlakatlarida nikohning quyidagi turlari mavjud:
Monogam nikoh. Nikohning bu turi eng ko'p tarqalgan bo'lib, 2 ta shaxs o'rtasida amalga oshiriladi.

1. **Poligeniya nikoh.** Yunoncha poli – ko'pchilik, geniya – nikoh, ya'ni bitta erkakning bir necha ayollar bilan qonuniy nikohda turishidir. Bu ko'proq arab mamlakatlarida bor.

2. **Poliandriya nikoh.** Bunda bitta ayol bir necha erkaklar bilan nikohda bo'lishi mumkin.

Oilalarni sotsiologiyasi asosiy sotsiologik tushunchalariga quyidagilar kiradi: Oilaviy hayot sharoiti, oila tarkibi, oila funksiyasi, oila turmush tarzi, oilaviy mafkurava boshqalar.

Bu tushunchalar oila-nikoh munosabatlarining eng muhim jihatlarini o'zida ifodalaydi.

Oilalarni jamiyat ijtimoiy tarkibining muhim elementi sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifasi (funksiyasi) deganda, oila va uning a'zolari hayot faoliyati, faollikni namoyon qilish usuliga bag'ishlanadi. Ularga quyidagilar kiradi: biologik ko'payish, tarbiyaviy, xo'jalik-iqtisodiy, o'zaro yordam, kommunikativ, regulativ kabilar.

Oilaning funksiyalari, asosan quyidagilardan iborat:

1. Avlodni davom ettirish.
2. Bolalar to'g'risida g'amho'rlik.
3. Iqtisodiy funktsiya yoki uy-xo'jalik ishlarini yuritish.

4. Qariyalar to'g'risida g'amho'rlik.
5. Burch va majburiyatlarni his qilish.
6. Muomala talablarini qondirish.
7. Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish.

Ayniqsa, oilada bola tarbiyasi, keksalarga yordam, mehnatga layoqatini yo'qotganlarga g'amxo'rlik qilish, oilaviy an'analarni saqlash va ma'naviy munosabatlarni tartibga solish kabi muhim ahamiyatga ega ijtimoiy munosabatlar mujassamlashgandir. Oilada "voyagayetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z otionalari haqida g'amxo'rlik qilishga majburdirlar"⁴³

Shunday qilib, "Oila turmush va vijdon erkinligi qonunlari asosida quriladi, o'zining ko'p asrlik mustahkam va ma'naviy tayanchlariga ega bo'ladi, oilada demokratik negizlarga asos solinadi, odamlarning talab-ehtiyojlari va qadriyatlarini shakllanadi".

Hozirda, turli mamlakatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham oilaning moddiy ne'matlar ishlab chiqarish funksiyasining salmog'i yanada ortmoqda. Bozor munosabatlarining tarkib topishi natijasida bu funksiyaning bajarilishi, oilaning boshqa funksiyalarining faol amal qilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, oilaviy kichik korxonalar, ustaxonalar, kooperativlar, oilaviy fermer xo'jaliklari, ijara pudratlari kabi ishlab chiqarish funksiyasining amal qilishi bilan jamiyat taraqqiyotida nafaqat iqtisodiy jihatdan ahamiyatliroqdir, ko'p jihatdan aholini ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish, xo'jalik uchun zarur mollar bilan ta'minlash (xo'jalik - iqtisodiy funktsiyasi), bolalarda yoshlikdan mehnat ko'nikmalarini shakllantirish (tarbiyaviy funktsiyasi), ijtimoiy-psixologik (o'zaro yordam funktsiyasi), oila byudjetini ta'minlaydi. Er-xotin va farzandlar o'rtasidagi ruhiy uyg'unlik(kommunikativ funktsiyasi) mehr- oqibat munosabatlarini yanada oshiradi.

Oila asosini nikoh munosabatlari tashkil qiladi. Nikoh – bu tarixan vujudga kelgan, er va xotin o'rtasidagi munosabatlarning ijtimoiy-axloqiy shaklidir. Nikoh orqali jamiyat er-xotinning o'zaro jinsiy hayotini tartibga soladi va ularning oiladagi huquq-burchlarini qonunlashtiradi. Shu bilan birga, oila nikohga nisbatan yanada murakkabroq bo'lib, nafaqat er-xotinni, balki ularning farzandlarini va shu oila tarkibiga kiruvchi qarindoshlarni ham o'z ichiga oladi.

Oila taraqqiyotini uch yo'nalishda tanlash maqsadga muvofiqdir.

1. Oila demografik taraqqiyoti.
2. Oila ijtimoiy taraqqiyoti.
3. Oila iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning demografik taraqqiyoti - deganda oilaning miqdori, shakllanish va demografik tarkibi (Oilaning, oilada yashayotgan kishilar miqdoriga qarab guruhlarga bo'linishi) ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti - esa oila a'zolarining ma'lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqe salomatligi borasida o'zgarishi, hamda ularning ta'lim-tarbiya, urfodat, fan va madaniyat tabiatda va jamiyatga bo'lgan munosabatlarini takomillashib borishidir. Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy joy va boshqa yashash uchun

⁴³O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: « O'zbekiston », 2014.- 13 -6.

zarur bo'lgan narsalar bilan ta'minlash darajasining o'zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat hayotida turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator fanlarning o'rganish mavzusidir. Bularga etnografik, demografik, psixologiya, pedagogika, tibbiyot, huquq, iqtisodiyot, tarix va sotsiologiya fanlari kiradi.

Ular oila vazifalarni va taraqqiyot yo'nalishlarining alohida tomonlarini o'rganadilar. Masalan, iqtisodiyot oila jamiyat taraqqiyotida iste'molchi guruh sifatida o'rgansa, etnografiya oiladagi urf-odatlar qadriyatlarini etnik ko'lamda o'rganadi, demografiya esa asosiy e'tiborini oilaning eng muhim vazifasi bo'lmish avlod davomiyligini ta'minlashga qaratadi. Oila sotsiologiyasi esa yuqorida qayd etilganidek oilani jamiyat taraqqiyotida muhim vazifalarini, jamiyat taraqqiyotida, muhim vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. U o'z tadqiqoti davomida oilani o'rganuvchi barcha fanlar olib borgan tadqiqot natijalaridan keng foydalanadi va ular bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Ma'lumki, oila paydo bo'lganidan to hozirgi davrga qadar uning turlari va ijtimoiy-demografik tarkibi muntazam o'zgarib bordi. Oila turlari va tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga ta'sir etuvchi omillarini jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlari uchun alohida o'rganish ham oila sotsiologiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oila sotsiologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri oilaning mohiyati va faoliyatini o'rganishdir.

Oilaning mohiyati uning faoliyati, ya'ni u bajarayotgan vazifalari bilan belgilanadi. Ularga avlod yaratish vazifasini (jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, inson zotini davom ettirish); ijtimoiy vazifasi (oiladagi farzandlarni tarbiyalash, ularni o'zaro tabiatga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish, oila a'zolarining dam olishi va salomatligini tiklash); iqtisodiy vazifasi (oilaning a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash kiradi. Oila sotsiologiyasi oila vazifalarini turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda, davlatlarda bajarilish omillari va xususiyatlari oila vazifalariga bo'lgan munosabatlarni ham atroflicha o'rganadi. Oilaning eng muhim vazifasi bu farzandlarning tug'ilishi, ya'ni jamiyat davomiyligini ta'minlovchi yangi avlod yaratishdir. Tug'ilish dunyodagi turli xalqlarda turlicha ko'rsatkichlarga ega.

Yer shari bo'ylab tug'ilishning o'zaro farq qilishi avvalo mamlakatlar aholisining moddiy va madaniy turmush darajasi, asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelgan urf-odatlariga, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari tug'ilishga aholining jinsi, yoshi bo'yicha taqsimlashi, nikoh va ajralish jarayonlari, tibbiyotning rivojlanish darajasi, shuningdek har bir davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir etadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ta'sirida oilaning bolaga bo'lgan talabi, jamiyatning bolaga bo'lgan talabi, o'zgarib boradi. Oila sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlarida, dunyoga barcha xalqlar va davlatlar miqyosida tug'ilishning o'zgarib borishiga oilaning bolaga bo'lgan ehtiyojiga ta'sir etuvchi omillarni, aholining turli demografik va ijtimoiy guruhlarining hamda er-xotinning oilada farzandlar miqdoriga bo'lgan munosabatlarini sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan aniqlanib beradi.

Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, iqtisodiy-mulkiy, ma'naviy-huquqiy, psixologik munosabatlar, o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zolarining o'z ijtimoiy o'mi bordir.

Ma'umki oilaning asosini — yadrosini er-xotin tashkil etadi. Oilada er-xotin, o'zi yoki farzandlari bilan yetishadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin. Oila muhiti, uning jamoada tutgan o'mi oila a'zolariga, ularning xulq-atvorlariga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa oila muhitida ayolning o'mi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oila a'zolarining oilaga, atrof-muhitig'sin va o'zaro munosabatlarni o'rganish ham oila sotsiologiyasining vazifalaridan biridir.

Oilaning tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanishida demografik vaziyat muhim ahamiyatga egadir. Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni o'rganish ham oila sotsiologiyasi o'rganadigan muhim masalalardan hisoblanadi, Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi deganda, oilada yashab kelayotgan kishilarning nikoh qondoshlik-qarindoshlik munosabatlari, ijtimoiy guruhlar va miqdori asosida turlarga bo'linishi tushuniladi. Oilaning eng ko'p tarqalgan ijtimoiy, turli **nuklear oddiy oila bo'lib**, unda er-xotin nikohga kirmagan, ya'ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Agar birorta farzand turmush qurib, shu oilada birga yashasa, unda bu oila kengaygan yoki murakkab oilaga aylanadi. Murakkab oilada ikki yoki undan ko'p oddiy oilalar, 3 va undan ko'p avlod vakillari istiqomat etishadi. Agar oilada er-xotin mavjud bo'lsa, yashasa, unda oila to'la, tug'al oila, ularning biri oilada yashamasa (bo'lmasa), tug'almas oila hisoblanadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin.

Ana shunday holatlarni hisobga olgan holda sobiq SSSR tarkibiga kirgan barcha respublikalarda, jumladan **O'zbekistonda ham oilani quyidagi turlarga bo'lib o'rganilgan:**

- I. Er-xotin bolalari bilan yoki bolasiz yashaydigan oilalar;
2. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi bilan yashaydigan oilalar;
3. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan yashaydigan oilalar;
4. Ikki yoki undan ortiq. oddiy oila (nikoh juftlari) bolalari bilan yoki bolasiz, ota-onalarining biri (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan (yoki ularsiz) yashaydigan oilalar;
5. Ona va bolalar bilan yashaydigan oilalar;
6. Ota va bolalar bilan yashamaydigan oilalar;
7. Ona-bolalar va onaning (yoki otaning) ota-onalaridan biri yashaydigan oilalar;
8. Ota-bolalar, otasining (yoki onasining) ota-onalaridan biri bilan yashaydigan oilalar;
9. Boshqa oilalar.

Oila uning a'zolarining ijtimoiy guruhlariga qarab ham turlarga bo'linadi;

1. Oila a'zolari bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar.

2. Turli guruhga mansub oilalar:

Oilalarning o'sha oila a'zolari miqdoriga qarab turlarga bo'linishi uning demografik tarkibini tashkil etadi.

O'zbekiston uchun shartli ravishda oilaning 3 ta demografik turga ajratish maqsadga muvofiqdir:⁴⁴

1. Kichik oilalar — 2—4 kishi istiqomat etuvchi oilalar;

2. O'rta oilalar — 5—6 kishi istiqomat etuvchi oilalar;

3. Katta oilalar — 7 va undan ortiq kishilar istiqomat etuvchi oilalar.

Oila sotsiologiyasi o'rganadigan navbatdagi demografik jarayon bu nikohdir.

Ma'lumki, oila nikohdan boshlanadi. Nikoh jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo'ldi va qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar, din, urf-odatlar, qadriyatlar ta'sirida shakllanib boradi. Nikoh va uning turlari, tarixiy evolyutsiyasi, uning turli xalqlar ijtimoiy guruhlar, hududlar bo'yicha xususiyatlarini, nikoh qonuniyatlarini, oilada mehnat taqsimotini va yoshlarni nikohga psixologik, iqtisodiy tomonidan tayyorlash va aholini nikohga bo'lgan munosabatlarini o'rganish ham oila sotsiologiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oila tarkibi hamda rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik omillardan yana biri — nikohning bekor etilishi, ya'ni ajralishdir. Ma'lumki, oilada er-xotinning ajrashishi birinchi navbatda oilaning tarkibiga ta'sir etadi. Oila tugay oiladan, tugalmas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug'ilishi ma'lum darajada kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning takror barpo bo'lishiga salbiy ta'sir etadi. Oila sotsiologiyasi mustahkamligiga salbiy ta'sir etuvchi ajralish jarayonini o'rganar ekan, uning sabablarini turli tarixiy davrlarda, davlatlarda, xalqlarda va ijtimoiy guruhlardagi xususiyatlarini ochib beradi.

Aholi migratsiyasi ham oilaning ijtimoiy-demografik tarkibiga ta'sir etuvchi omillardandir. Insonning bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi ijtimoiy-iqtisodiy muhitga o'tishi (masalan, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga ko'chishi), uning oilaga bo'lgan demografik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga ta'sir etadi.

Ma'lumki, oila paydo bo'lib to tugagunga qadar bir qancha bosqichlardan o'tadi. Ular :

Oilaning tashkil topishi (nikohga kirish)

Birinchi farzandni tug'ilishi (farzand ko'rish faoliyatini boshlanishi),

Ohirgi farzand tug'ilishi (farzand ko'rish faoliyatini tugallanishi), Oxirgi farzandni oilali bo'lishi,

Oilani tashkil etgan er yoki xotinni dunyodan ko'z yumishi (oilaning tugallanishi).

Yuqorida keltirilgan jarayonlar oilaning hayotiy davrlari bo'lib, oila davomiyligiga muntazam qaytarilib turadi. Ushbu davrlarning har birini o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mavjuddir. Ana shu muammolar ham oila sotsiologiyasining o'rganish doirasiga mansubdir.

⁴⁴Aliev B., Mullajonova M., Raxmonov B. Sotsiologiya. Darslik. T.: 2011. -260-b.

Oila tarbiyasi masalalarini o'rganish ham oila sotsiologiyasida keng o'rin olgandir. Oila tarbiyasi oilada ota-onalar, katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash bo'lib, yosh avlodni har tomondan rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Oila tarbiyasida oilaviy tartib, oila a'zolarining bir-biriga munosabati, ota-ona va katta kishilarning hulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, oila byudjeti, sharoiti asosiy omil hisoblanadi.

Oila huquqi ham oila sotsiologiyasi tomonidan o'rganilib, unda asosiy e'tibor nikoh, qarindoshlik, bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olishdan kelib chiqilgan munosabatlarni, nikohga kirish munosabatlarini, er-xotin, ota-ona bilan bolalar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shahsiy va mulkiy homiylik, vasiylikdan kelib chiqadigan munosabatlarni hamda nikohning bekor qilinishi bilan bog'liq masalalarni o'rganishga qaratiladi.

Oila sotsiologiyasi qator ijtimoiy va tabiiy fan yo'nalishlari bilan uzviy aloqada tadqiqot o'tkazadi va rivojlanib boradi. Bularga psixologiya, demografiya, etnografiya, tarix, ijtimoiy geografiya, siyosatshunoslik, aholi sotsiologiyasi, tug'ilish sotsiologiyasi, o'lim sotsiologiyasi, migratsiya sotsiologiyasi, nikoh sotsiologiyasi, matematika, statistika, ekologiya kabi fanlar kiradi.

Oila sotsiologiyasi o'z tadqiqotlarida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, tarixiy taqqoslash, statistik va matematik usullardan foydalanadi.

Oila sotsiologiyasi fan yo'nalishining tadqiqot natijalari oilaning kelajak istiqbolini aniqlashda, davlat tomonidan oila va nikoh mustahkamligini ta'minlovchi qonun va tadbirlar joriy etilishida ilmiy asos va yo'llanma sifatida qo'llaniladi.

Oila-nikoh munosabatlarining asosiy prinsiplari:

1. Yakka nikohlik tamoyili (faqat bitta).
2. Nikohning ixtiyoriyligi.
3. Ajralishning erkinligi (davlat tomonidan nazorat qilinadi).
4. Oila va oilaviy munosabatlarda er-xotinning teng huquqligi.
5. Bolalarni birgalikda tarbiyalash tamoyili.

Oila ijtimoiy institut sifatida muayyan darajalarga ega bo'ladi. Dastlab, er-xotinning nikohdan o'tishi oqibatida oila vujudga keladi. Birinchi farzandning dunyoga kelishi esa - bolali oilani yuzaga keltiradi. Bu holat oilani yanada mustahkamlaydi. Hattoki, bir-birlarini sevib qurilgan oila ham, agarda farzandli bo'lmasa, mustahkambo'la olmaydi, bundan ko'rinib turibdiki, oilaning avlod qoldirishlik funksiyasi jamiyat hayotida ham, oila mustahkamligini saqlashda ham muhim rol o'ynaydi. Oilaning yana bir darajasi - ko'p bolali oilalar soni hozirga kelib, ma'lum ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'siri bilan borgan sari kamayib ketmoqda.

Oila tipining muhim belgilari quyidagilar hisoblanadi: oila a'zolarining yoshi, oiladagi bola soni, murakkab oilalar, bunday oilalar bizning sharoitimizda ko'plab uchraydi. Bunday oila tarkibi bir necha - ikki yoki undan ortiq nikohli juftdan iborat bo'ladi. **Respublikada oilaning o'rtacha soni** 5,5 kishidan iborat, bir qancha viloyatlarda esa 6 kishidan iborat, bu ko'rsatkich MDHning Yevropa qismidagi mamlakatlarida 3,2 kishini tashkil etadi.

Davlatning vujudga kelishi bilan oilaviy hayotni boshqarish huquqiy xarakterga ega bo'lgan. Nikohni yuridik jihatdan rasmiylashtirish nafaqat er-xotin oldiga, balki davlat oldiga ham muayyan javobgarlik (burch, vazifa, ma'suliyat)

qo'yadi. Shundan boshlab oilaviy munosabatlar muammolarini nazorat qilish, huquqiy jihatdan boshqarish davlat zimmasiga yuklatiladi.

Nikoh munosabatlarini, yolg'izyashovchilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat ijtimoiy tarkibining ijobiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Oddiybirmisol diniy munosabatlar asosida, avval nikoh muqaddas hisoblanar edi. Sobiq totalitar tuzum asorati sifatida biz bu masalaninganchakeyingi o'rinlardanbirigasurilibqolganligining guvohi bo'lib turibmiz.

Hozirgi davrda oila rivojidagi sotsial xususiyatlar

"Hozirgi vaqtda oilaning haqiqiy moddiy ahvolini, ularning ma'naviy va madaniy qiziqishlarini mahalladan ko'ra yaxshiroq biladigan boshqa tuzilma yo'q. Shuning uchun hozirda oila sotsiologiyasi mahalla doirasida kengroq o'rganilmoqda. Bozor munosabatlari barchani tobora chuqurroq o'z doirasiga tortayotgan ekan, bu holat oilaviy munosabatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi, albatta. Oilaning ishga yaroqli bo'lgan barcha a'zolari tirikchilik bilan band bo'lib, bolalar o'z holiga tashlab qo'yilayotgani ham haqiqatdir. Ana shunday vaziyatlarda mahallalarning rolini, mas'uliyatini oshirish to'g'risidagi da'vat va tegishli farmoyishlar, oilalardagi muammolarning keng jamoatchilik muammolari sifatida qabul qilinishi davr taqozosi ekanligidan dalolat beradi. Bolalar jamiyatning kelajagi ekanligi e'tirof etilar ekan, ularning tarbiyasi uchun shu jamiyatning har bir a'zosi mas'ul ekanligini e'tiborga olgan holda, eng avvalo oila o'z farzandining tarbiyasi, uning kelajagi, jamiyat oldidagi burchini anglab etishida javobgar ekanligini ta'kidlash bilan birga uning zimmasiga eng og'ir mas'uliyat tushishini anglab etib, o'z funksional vazifasiga sodiq holda jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borishi talab etiladi.

«Farzandlaringizni izzat-ikrom qilish bilan birga, ahloq-odobini ham yaxshilangizlar», - deyiladi hadislarda. Farzand - hayotnig guli. Darhaqiqat, odobli farzand bilan hayotimiz fayzlidir. Biroq, farzandlarimiz xatti-harakatida ham goho nuqsonlar ko'zga tashlanadi, ularning o'z vaqtida oldi olinib, bartaraf etilmasa, gunoh ishlarga olib boradi. Shuning uchun oilada farzandlarimizga hadis namunalarini uqitirib borishimiz ham foydadan xoli emas.

Pedagogika fani atamasida «tarbiyasi qiyin» degan tushuncha mavjud. Bu tushuncha odatda sho'x va qaysar o'quvchilarga nisbatan ishlatiladi. Shuningdek, tarbiyasi og'ir bolalar qatoriga o'zboshimcha, hatto bezori bolalar va zararkunanda darajasiga tushib qolgan o'smirlar ham kiradi: ularni tarbiyalash, hayotini haqiqiy to'g'ri yo'lga solib yuborish oson ish emas, albatta. Biroq, astoydil, e'tiqod va fidoyilik ko'rsatib, ijtimoiy fanlar qonuniyatlariga suyanib, bu og'ir va mashaqqatli ishda muvaffaqiyatga erishadigan tarbiyachi-murabbiylar ham yo'q emas.

Bola ruhiyati va madaniyatining nuqsonlarini o'z vaqtida payqab, ularni bartaraf etish tadbirlarini izlash va mohirona ish yuritib, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatib, shubhasiz, samarali natijalarga erishish mumkin. Buning uchun ruhiyat va pedagogika fanlarining yutuqlariga suyangan holda oilalarda, ota-onalar universitetlari ishlarini jonlantirgan holda, bu vazifaga mutasaddi bo'lgan mutaxassislarning mas'uliyatini oshirish talab etiladi.

Oila a'zolari o'rtasida nutq odobi masalasi ham g'oyat muhim ahamiyatga egadir. Biroq, bu ishni amalga oshirishda, birinchi galda, ota-onalarning o'zlari

namuna ko'rsatib, sof ona tilida so'zlashlari lozim. Ma'lumki, «sen» va «siz» so'zlari ham bir og'izdan chiqadi. Ayniqsa, o'zbek kelinining xush odobi, mehnatsevarligi, uddaburon va chaqqonligi, saramjon-sarishtalik xususiyatlari bilan hammadada havas uyg'otibgina qolmay, shirin so'z, xushmuomala, yoqimtoylik fazilatlarini bilan xonadonga nur yog'diradilar. Baliq suv bilan tirik deganlaridek, odam-odam bilan hayotdir. Buning asl ma'nosida odamlarning o'zaro muloqotidagi aloqa qurolining ijtimoiy sifatleri yotadi. Bo'lajak oila vakillari, bular farzandlar ekan, ularning kelgusida qanday oila qurishlari, qanday oila egasi-yu, qanday uy bekasi bo'lishi ular o'sib-unayotgan oilasida shakllanadi. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», - degan naql bejiz emas. Oiladagi an'analar, udumlar asrlar osha davom etaveradi. Undagi yaxshi va yomon fazilatlar hamda illatlar kelgusi avlodlar hayotida o'z aksini topadi. Shuning uchun, iloji boricha oilada ijobiy xislatlarni kengroq shakllantirib, nuqsonlarni bartaraf etib borish ota-onaning va oiladagi boshqa kekxa avlodlarning jamiyat oldidagi jiddiy burchi hisoblanadi.

Oilada bolaning kitobxonligini uyushtirish ham jiddiy ahamiyatga ega bo'lib, uni quyidagicha amalga oshirish mumkin:

1. Har qaysi yoshdagi bolalar uchun badiiy asarlarni to'g'ri tanlash va olib berish.

2. Ma'lum tartib asosida badiiy kitoblarni o'qish uchun vaqt hamda sharoitni belgilash.

3. Badiiyasarlarning tarbiyaviy tomonidanta'sirko'rsatadiganlarini tanlash va kerakli adabiyotlarni to'plab, oila kutubxonasini tashkil etish.

4. Bolalar kitobxonligini bog'cha va maktab bilan hamkorlikda uyushtirish. Bunda uslubchilar va sinf rahbarlari bilan doimiy aloqa o'rnatib, bolaning tarbiyasi bilan muntazam ravishda qiziqib turish kerak.

5. Oilada bolalar kitobxonligini oshirish (uyushtirish)da turli xil usullardan foydalanish (tajriba va kuzatish, suhbat, ifodali o'qish, hikoya, bahs-munozara) yaxshi samara berishini ko'rsatadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, oilada tarbiyaga katta ahamiyat berish kerak. Oila a'zolari bir-birlari bilan qanday muomalada bo'lsalar, shu muhit qobig'idagi o'spirinlarda ham xuddi shunday va ularga xos xulq-atvorlar namoyon bo'la boshlaydi. Oila a'zolari xontaxta atrofida o'tirib, turli mavzularda mulohazalar yuritish, murakkab muammolarni hal qilish borasidagi atroflicha yetarli bahslar, shubhasiz, yigit-qizlar aql-zakovatining o'sishida, ularning aql-kamolotida turtki vazifasini bajaradi.

Oilaviy turmush bu buyuk hayot maktabidir, unda er-xotin bir-birini tarbiyalaydi, biri ikkinchisidan o'rganadi, o'zidagi kamchiliklarni payqaydi va bartaraf eta boradi. Ana shu kamchiliklarga bardosh bergan oilagina baxtli bo'la oladi. Oila qurishdan asosiy maqsad farzand ko'rishdir, avlodlar davomiyligini davom ettirish, jamiyat manfaati yo'lida hormay-tolmay mehnat qilishdan iboratdir.

Er ila xotunning qonuniy suratda birga yashab, bir vujud bo'lishlaridan oila tashkil bo'lur. Er o'zi uchun bir xotun tanlab, dunyoda bo'lgan tirikligida, shodligu-qayg'usida, har bir yaxshi-yomon kunida suyanchiq bo'ladigan, joniga rohat baxsh etadigan bir sirdosh topur. Xotun odam bolasida bo'lg'on xulqlarni go'zallashtirurki, bunga sabab qattiq ko'ngillarni yumshatuvchi, insonlarni jonvor emas, inson etuvchi

bir qut bo'lganidandir. Zero, do'stlik va yaqinlik kabi narsalar naqadar mustahkam bo'lsa-da, oila tashkil etishdan qudratliroq emas. (Hadis, 9-bet).

Oila qurishdan oldin, uning inqilobi va istiqbolini ustida o'ylamoq oqillarning ishi. Aksincha, ba'zilar avval turmush qurib, keyin pushaymon qila boshlaydilar. «Er va xotinning bir-biriga bo'lgan mehru-vafosi bizga bobolarimizdan qolgan bebaho merosdir».

Nikoh munosabatlarini, yolg'iz yashovchilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat ijtimoiy tarkibining ijobiy rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, oila va nikoh munosabatlari nafaqat er-xotinning o'rtasidagi shaxsiy, balki ijtimoiy, umumbashariy ahamiyatga ham egadir. Oila nafaqat er-xotin ittifoqi, balki jamiyatning asosiy bo'g'inidir, respublikamizda o'tgan 1998 yilning «Oila» yili deb e'lon qilinishi va shu munosabat bilan bir qator tadbirlarning amalga oshirilayotganligi buning yaqqol dalilidir.

O'zbekiston Respublikasida nikoh va oila munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlash yo'lidagi sotsial tadbirlar

1997 yil 5 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 5 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali yig'ilishda mamlakatimiz rahbari Islom Karimov ma'ruza qilib, 1998 yilni "Oila yili" deb e'lon qilgan edilar. "Hammamizga ayon bo'lishi tabiiyki, oila sog'lom ekan – jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan – mamlakat barqarordir" ⁴⁵.

Bu yig'ilishda Prezidentimiz oilaning har bir inson hayoti va umuman, jamiyat hamda davlat taraqqiyotida tutgan o'rini atroflicha sharhlab, ajoyib fikrlarni aytdilar va jamiyat oldiga shunday masalani qo'ydilar: «... Oilaga e'tiborimizni tubdan o'zgartirish, oilalarni avvalo ijtimoiy jihatdan himoyalash, e'zozlash, qo'llab-quvvatlash - bugungi kunimiz uchun va ertangi istiqbolimiz uchun naqadar muhim va dolzarb ekanligini yaxshi tushunishimiz va anglashimiz darkor» ⁴⁶. Shu munosabat bilan ko'p o'tmay 1997 yil 9 dekabrda Prezidentimizning oila masalasiga bag'ishlangan maxsus farmoyishi e'lon qilindi. Farmoyishda "Oila yili" bilan bog'liklikda Davlat dasturini ishlabchiqish uchun Respublika Komissiyasi tuzildi va uning tarkibidagi ishchi guruhlarini tashkil etish vazifasi qo'yildi. Dasturning asosiy yo'nalishlari belgilab berildi. 1998 yil yanvar oyida oila manfaatlarini ta'minlash borasidagi tadbirlar, davlat Dasturi tayyorlandi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 yanvardagi qaroriga asosan tasdiqlandi. "Agar ushbu masalalarning tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, bu yo'ldagi daslabki salmoqli qadamlarimiz 1998 yilni mamlakatimizda "Oila yili" deb e'lon qilish bilan boshlanganining o'zi ham, o'ylaymanki, ko'p narsani anglatadi. Shu manoda oilani uning boqiy qadriyatlarini ulug'lab mamlakatimizda "El-yurt tayanchi" degan muazzam yodgorlik barpo etganimiz ko'pchilikning ko'nglidagi ish bo'lganini taqiqlash joiz" ⁴⁷ Davlat Dasturi kompleks tusda bo'lib, u 150 dan ko'proq tadbirlarni o'z ichiga oldi, dasturda belgilangan

⁴⁵Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. Ikkinchi nashri. T.: «Ma'naviyat», 2010, 59-b.

⁴⁶Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidagi. T.6 – T.: «O'zbekiston», 1998, 401-b.

⁴⁷O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2014. - 57-6.

tadbirlarni amalga oshirish uchun esa barcha manbalar bo'yicha 144,8 mlrd. So'm mablag' ajratilib, uning deyarli yarmi davlat byudjetidan berildi.

Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan Oila Kodeksining oilaviy munosabatlarida erkak va ayolning teng huquqlilik prinsiplari mustahkamlandi. Kodeksda oiladagi mulk, bola tarbiyasi va boshqa jihatlar yangi zamon talablari asosida talqin etilgan. Shu bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Respublika «Oila» ilmiy-amaliy Markazini tashkil etish to'g'risida»gi **1998 yil 2 fevral' qarori** oila manfaatlarini takomillashtirish yo'lida qo'yilgan yangi salmoqli qadamdir. Bu qarorga binoan O'zbekiston respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasida Respublika "Oila – ilmiy-amaliy Markazi" tashkil etildi. Markaz oila muammolarini o'rganish bo'yicha laboratoriyaga ega bo'ldi. Bunday markazning vujudga kelishi ko'p jihatdan ahamiyatlidir. Birinchidan, oila – jamiyatning negizidir, demak oila muammolarini o'rganish va hal qilish bilan uzluksiz, hamisha shug'ullanadigan, bu borada o'z taklif-mulohazalarini ishlab chiqib, vaqti-vaqti bilan davlat va jamiyat oldiga qo'yadigan muassasaga ehtiyoj katta. Ikkinchidan, hayot, jamiyat hamisha rivojlanishda, taraqqiyotda ekan, demak oila muammolari ham o'zgarib, yangilanib boraveradi va ular to'g'risida butun jamiyat va davlat boshqaruvi o'z vaqtda aniq tasavvurga ega bo'lib boradi.

«Oila» markazi avvalo oilaning ravnaqi bilan bog'liq muammolar majmuasini atroflicha ilmiy o'rganish va uslubiy tavsiyalar tayyorlashni o'zining asosiy vazifalaridan biri deb biladi. Bunday muammolar esa oz emas. Shu bilan birga «Oila» markazi faqat ilmiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolar bilangina shug'illanib qolmay, qarorda ko'rsatilganidek, u keng amaliy faoliyat bilan ham mashg'ul bo'ladi. Ya'ni, oilani rivojlantirish, uni takomillashtirish, oila a'zolari salomatligining tibbiy-biologik asoslarini ilmiy o'rganish bilan bir qatorda bu muammolarni hal qilish yuzasidan amaliy tadbirlar majmuasini ham bajaradi. Yana, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashni yaxshilash maqsadida Nikoh uylari va salomatlik markazlarida maxsus o'quv - tarbiyaviy kurslarni tashkil etish ko'zda tutilgan bo'lib, bugungi kunda bu maskanlar muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatmoqdalar. Shuningdek, oilaning huquqiy savodxonligini yaxshilash va himoyalash – hozirgi kunda eng muhim vazifalar qatoridan o'rin olgan. Markaz 1998 yillning «Oila yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan belgilangan tadbirlar tufayli Davlat dasturining bajarilish monitoringini olib borayotganligi katta ahamiyatga egadir.

Oila ilmiy-amaliy markazining faoliyati davlat va jamiyat taraqqiyoti manfaatlariga yo'naltirilgandir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Oila» ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to'g'risida»gi qaroni va uning bugungi kundagi faoliyati butun mohiyat e'tibori bilan jamiyat taraqqiyotida, ma'naviy barkamol va jismonan sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'zining muhim ekanligini yana bir marta tasdiqlaydi va uning ravnaqiga xizmat qilmoqda.

Xukumatimiz tomonidan oilani, oila-nikoh munosabatlarini mustahkamlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator tadbirlar o'tkazilib kelinmoqda.

1. 1999 yil "Ayollar yili" deb e'lon qilindi.
2. 2000 yil – "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilindi.
3. 2000 yil 15 fevralda Vazirlar Mahkamasining "Sog'lom avlod davlat dasturi to'g'risida" qarori qabul qilindi. U 6 yo'nalishdan iborat.

4. 2001 yil – “Onalar va bolalar” yili bo’ldi.
5. 2001 yil 5 fevralda Vazirlar Mahkamasi “Ona va bola” davlat dasturi to’g’risida” qaror qabul qildi.
6. 2002 yil – “Qariyalarni qadrlash yili” deb e’lon qilindi.
7. 2003 yil – “Obod mahalla yili”.
8. 2004 yil – “Mehr va muruvvat yili”.
9. 2005 yil – “Sihat-salomatlik yili”.
10. 2006 yil – “Homiylar va shifokorlar yili”.
11. 2007 yil – “Ijtimoiy himoya yili”.
12. 2008 yil – “Yoshlar yili”.
13. 2009 yil - “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”.
14. 2010 yil – Barkamol avlod yili.
15. 2011 yil – Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili.
16. 2012 yil – Mustahkam oila yili
17. 2013 yil – Obod turmush yili

Ma’lumki, oilaning avlod qoldirish funksiyasi nafaqat oila mustahkamligini saqlashda, balki jamiyat hayotida ham juda muhim rol o’ynaydi.

Ko’p bolali oilalar hozirga kelib, ma’lum ijtimoiy - iqtisodiy omillar ta’siri ostida brogan sari kamayib ketmoqda. Bu holat yaqin kelajakda o’zbek millatining rivojlanishi va ravnaqi darajasiga o’z ta’sirini ko’rsatmay qolmaydi, albatta. Jamiyat, har qanday davlatning ijtimoiy tanazzulga yuz tutishi eng avvalo undagi oilaning barbod bo’lishi, buzilishining ko’payishiga ko’p jihatdan bog’liqdir. Shuning uchun oilaviy ajralishlarni, qo’ydi-chiqdirlarni keltirib-chiqaruvchi tub sabablarni aniqlash, o’rganish va ularning oldini olish uchun ilmiy - amaliy tavsiyalar ishlab chiqish oila sotsiologiyasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Respublika bo’yicha nikohlar umumiy sonining o’sishi bilan ajralishlar sonining ham o’sayotganligi tashvishlidir. Oilaviy ajralishlarning asosiy sabablari nimalarda? Ajralishlarning tarafdori ko’proq kim? Erkaklarni yoki ayollarni? Qaysi birlari ko’proq aybdor?– degan savollar yuzasidan olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga ko’ra oilaviy ajralishlarning 70% da ayollarning, faqat 30% da erkaklarning da’vogarligi asosida sodir bo’lmoqda. 41,4% ajralishlarning asosiy aybdori erkaklar, 26,8% ayollar, 4,5% har ikki tomonning o’zaro kelisha olmaganligi sababli, 7,3% esa kelin bilan qaynona o’rtasida kelishmovchilik sabab bo’lganligi oqibatida buzilmoqda. Hozirgi vaqtda asosan ko’proq quyidagi omillar oilaviy ajralishlarga sababchi bo’lmoqda:

1. Er o’z oilasini moddiy va ma’naviy jihatdan qo’llab-quvvatlay olmasligi.
2. Erlik burchini, oila boshlig’isi fatidagi mas’uliyatli vazifasini bajarmayotganligi tufayli. Erning spirtli ichimlik, narkotik moddalarni iste’mol qilishi va natijada sog’lom oilaviy muhitning buzilishi oqibatida.
3. Ayollarning o’z eriga nisbatan qo’pol munosabatlarda bo’lishi, erni er o’rnida ko’rmasligi, mensimasligi va oilada ayollik (xotinlik) burchini his qilmasligi natijasida.
4. Er-xotin o’rtasida o’zaro hurmatning yo’qligi, xarakterlarining to’g’ri kelmasligi, oddiy muomala madaniyatining yo’qligi.
5. Qaynona-kelin munosabatlaridagi kelishmovchiliklar.

6. Yosh yigit-qizlarning bo'lg'usi oilaga har jihatdan tayyor emasliklari va hokazolar.

Olib borilgan sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra, oilaviy hayotda o'zlarini baxtli deb hisoblagan ayollar bular: ish joyida muvaffaqiyatga erishgan, har tomonlama qiziqishga va qobiliyatga ega bo'lgan, mustaqil, tashqi ko'rinishidan kelishgan va go'zal bo'lgan ayollar emas, balki – jiddiy, yumshoq ko'ngil, mehribon, o'z oilasiga jonkuyar, chekinuvchan, bir gapdan qoladigan ayollar ekan. E'tibor berilsa, haqiqiy oilaviy baxtga erishish omillari axloqiy munosabatlarga borib taqalishi ma'lum bo'ldi.

Ayrim mualliflarning fikricha, oila qurish yoshidagi har bir erkakka 5 nafar ayol to'g'ri kelishi va bu holat esa ko'p xotinlikka ruxsat berishga asos bo'lishini ta'kidlaydi. Ammo statistik ma'lumotlar esa bu fikrlarni tasdiqlamaydi. Agar 1989 yilda respublikamizda 5481,8 ming erkak va 5820,8 ming ayol (1 ga 1,06) istiqomat qilgan bo'lsa, 1997 yilda 6562,7 erkak va 6873,3 ming ayol (1 ga 1,0) yashagan. Shundan ham ko'rinadiki, sezilarsiz bo'lgan farq yil sayin kamayib bormoqda.

Oilalami mustahkamlash, nikohni bekor qilish holatlarining oldini olishda milliy urf-odatlar va an'analar, shuningdek, mahallalardagi yarashtiruv komissiyalarining imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayotganligi oqibatida nikohni bekor qilish darajasi yuqoriligicha qolmoqda. Bu ko'rsatkich Toshkent viloyatida quyidagicha: 2002 yilda viloyat bo'yicha 14648 ta nikoh qayd etilib, shundan 2857 tasi bekor qilingan. 4025 ta holatda nikohsiz farzand tug'ilib, otalik belgilangan. Andijon viloyati misolida "Oila kodeksi"ning "Er-xotinning mulkiy huquq va majburiyatlariga taalluqli qoidalar" moddasi o'rganilganda nikohi bekor qilingan er-xotinlarning yoshlari tahlil etilib, bu ko'rsatkich asosan 20-25 yoshgacha 16,1, 30-35 yoshgacha 31,3%ni tashkil etayotganligi, nikoh shartnomasini tuzishda xatoliklarga yo'l qo'yilayotganligi aniqlangan⁴⁸.

Aholining turmush sharoiti va tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini izchillik bilan yaxshilash natijasida mamlakatimizda umumiy o'lim ko'rsatkichi keyingi 10 yilda qariyb 20 foizga kamaydi. Go'daklar o'limi ko'rsatkichi esa yangi tug'ilgan har 1000 nafar chaqaloqqa nisbatan 23 tadan 13 taga tushdi va birgina 2007 yilning o'zida 11 foizga kamaydi⁴⁹.

Agar 1991 yilda onalar o'limi bilan bog'liq ko'rsatkich har 100 ming nafar ayolga nisbatan 65 tani tashkil etgan bo'lsa, 2007 yilda bu (ko'rsatkich) raqami 24 taga tushdi, go'daklar o'limi esa ilgari 1000 nafar chaqaloqqa 35 tadan to'g'ri kelgan bo'lsa, hozirgi kunda 14 taga tushdi.

O'rtacha umr:

Aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1990 yilda 67 yoshni tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda 72,5 yoshni tashkil etdi. Jumladan, erkaklar o'rtasidagi o'rtacha umr ko'rish 66 yoshdan 70 yoshga, ayollar o'rtasida esa 70 yoshdan 74,6 yoshga uzayganini ko'rish mumkin.

⁴⁸ Ayollaborekan, dunyo go'zal,xayot abadiy//Qonun himoyasida. 2004.No8. 31-bet.

⁴⁹ Karimov I.A. Inson manfaatlarini ustuvorligini ta'minlash –barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. –T.: "O'zbekiston" NMFIJ, 2008. -21-22-b.

Prezidentimiz islom Karimov 2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma ruzasida o'tgan 20 yil davomida ijtimoiy-gumanitarsohada enshilgan marralar xususida to'xtalib, "aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilanganı va buning natijasida onalar o'limi 2 barobardan ko'proq, bolalar o'limi 3 barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshgacha yetganini mamnunıyat bilan ta kldasak arziydi, deb o'ylayman"⁵⁰.

Insonlar salomatligini muhofaza qilish sharoitini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning aniq va yaqqol natijasi sifatida baholash o'rınli bo'ladi⁵¹. "Erkak buyuklikka intiladi,va lekin buyuklikka yetish unga nasib etavermaydi:ayol buyuklikka intilmaydi, ammo u mudom buyukdir"⁵².

Tayanch iboralar

Sotsial guruh, katta sotsial guruh, referent guruh, sotsial institut, oila, gruppaviy oila, patriarxal oila, monogam oila.

5 – MAVZU. Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor

Reja:

- 5.1. "Odam", "indivıd", "shaxs tushunchasi.Shaxs va uning xususiyatlari.
 - 5.2. Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar, shaxs ijtimoiylashuvining fazalari, shaxs manfaat turlari.
 - 5.3. Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) tushunchasi va uning turlari.
- Sotsial sanksiya turlarini tushuntirish

5.1. "Odam", "indivıd", "shaxs tushunchasi.Shaxs va uning xususiyatlari

Har qanday ijtimoiy tizimning bo'laklari odamlar hisoblanadi. Odamlarning jamiyatga kirishligi turli birliklar orqali amalga oshiriladi. Har bir aniq shaxs sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar jamiyatda qabul qilingan qoida va qadriyatlar tizimi, ya'ni madaniyat orqali gavdalanadi. Shunga muvofiq inson ko'p sotsial tizimlarga tortilgan bo'lib, ularning har biri unga shakllantiruvchi ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, odam faqat sotsial tizimning bo'lagi bo'libgina qolmay, uning o'zi ham murakkab tuzilmali tizimda aks etadi. **Sotsiologiya shaxsni barcha xilma-xillikdagi majmuida emas, ya'ni tabiat mahsuli sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar yig'indisi, jamiyat mahsuli sifatida qarab chiqadi.** «Jamiyatni isloh qilish va yangilash bo'yicha ko'p qirrali faoliyatimiz markazida inson, suveren O'zbekistonning fuqarosi turadi. Islohotlarning mazmuni ayni har bir fuqaro o'z qobiliyatini, o'z iste'dodini namoyon etishiga, shaxs sifatida o'zini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishiga qaratilgan»⁵³.

⁵⁰Karimov I.A. mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi. –Toshkent O'zbekiston, 2010. –b. 4-5.

⁵¹Karimov I.A. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyoti yo'li. – T.: "O'zbekiston", 2007. – 44-45-b.

⁵²V.Alimasof." Gender falsafasi".T.2008 y.

⁵³Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: «O'zbekiston», 1996. 352–353 b.

Saxs sotsial o'zaro ta'sir va munosabatlarning birlamchi omili bo'lib hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda **shaxsning o'zi nima?** Bu savolga javob berish uchun, avvalo, «odam», «inson», «individ», «shaxs» tushunchalarini bir-biridan farqlab olish kerak. **1. Odam tushunchasi.** Odam – barcha jonzotlarning eng yuqori pog'onasida turadigan mavjudot, ijtimoiy jarayonlar sub'yekti. Odam ijtimoiy mehnat asosida shakllangan tafakkur va nutqqa ega bo'lishi, mehnat qurollarini yasash va atrof-muhitga faol ta'sir ko'rsata olish bilan boshqa tirik mavjudodlardan farq qiladi. Boshqacha aytganda, odam - fikrlash, so'zlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot, kishi, inson. Odam Ato, Odam alayhissalom diniy afsonalarga ko'ra yer yuzida birinchi yaratilgan erkak. Moma Havoning jufti. Odam – Yerdagi tirik organizmlar taraqqiyotining oliy bosqichi, ijtimoiy-tarixiy faoliyati va madaniyati sub'yekti. Odamni antropologiya fani o'rganadi. Odam o'zini-o'zi anglab, insonga aylanishning quyidagi shakllari mavjud:

1) O'z-o'zini his etish, sezish.

2) Idrok etish (fahmlash).

3) Odam muayyan madaniyat va ijtimoiy guruhga o'zi mansubligini anglashi.

4) Odam o'z «men» iga ega bo'lishi («men» uchun namuna kerak).

2. «Inson» tushunchasi: Inson – o'zini anglagan, jamiyatda yashash qobiliyatiga ega bo'lgan ulug' zotdir. Inson atamasi umumiy, hamma uchun xos bo'lgan sifat va qobiliyatni izohlash uchun qo'llaniladi. Bu tushuncha dunyoda mavjud bo'lgan, tarixan o'ziga xos shunday rivojlanayotgan birlikki, insoniyatni anglatib, u boshqa hamma moddiy tizimlardan farqli o'laroq o'ziga xos ijtimoiy faoliyat usullari bilan farq qiladi. Ushbu hayotiy faoliyat usuli tufayli inson tarixiy rivojlanishning hamma bosqichlarida, dunyoning barcha nuqtalarida o'ziga o'xshash bo'lgan antologiyaga oid holatni saqlab qoladi.

Inson tushunchasi bioijtimoiy-ruxiy mavjudlikni ifodalaydigan tushuncha. Unda insonning **zohiriy va botiniy sifatlari** o'z aksini topadi. Insonning umumiy sifatlari uning aniq holat va murakkab hayot sharoitlari namoyon bo'ladigan xilma-xil kayfiyat, ruxiyat va munosabatlarning yig'indisidir. Har bir insondagi alohida bu xususiyatlar betakror, o'ziga xos holatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Inson ongi ijodiy xususiyatini aniqlash mezoni quyidagilar tashkil etadi:

1) Ongning muayyan ijtimoiy yo'nalishi.

2) Voqelikni anglab olish darajasi.

3) Mustaqil fikrlash qobiliyatining holati.

4) Inson tabiatda noyob va universaldir (noyob qobiliyat sohibi, nozik did, ulug'vorlik, yaratuvchi).

5) Inson ichki va tashqi olam mujassamlashgan zot (mehnat, muloqat, badiiy ijod, xulq-atvor).

6) Inson juda ko'p qismlardan tashkil topgan yaxlit birlik (tabiiylik, ijtimoiylik, aqllilik, hissiy, axloqiylik mujassam).

7) Inson tarixiy mavjudot (kelajagini yaratadi, ertangi kunga tashvish bilan qaraydi, chunki inqirozlar, omadsizliklar, ta'qiblar mavjud).

8) Inson mas'uliyat hissidan qochib qutilmaydi (u gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg'unlashtirish orqali shunday vaziyatdan chiqadi).

Demak, insoniyat o'ziga xos moddiy voqelik sifatida mavjud bo'ladi. Ammo, insoniyat o'z holicha mustaqil mavjud bo'lmaydi.

Aniq insonlar yashaydilar va harakat qiladilar. Insoniyat alohida vakillarining mavjud bo'lishi «indivd» tushunchasi bilan ifodalanadi.

3) **Individ** (lot. yagona, bo'linmas) - bu insoniyat zotining yakka vakili, insoniyatning hamma sotsial va ruxiy jihatlarini idrokiy irodasi, ehtiyojlari, manfaatları va hokazolarning sohibi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, alohida insonning o'ziga xos tabiiy-biologik va ijtimoiy ehtiyojlari, manfaatları, aqli, irodasi va hokazolar yig'indisi ekanligi nazarda tutilib, «indivd» tushunchasi qo'llaniladi. Individ «mohir odam» turiga mansub yaxlitlikni o'zida gavdalanitrgan alohida insondir. «Individ» tushunchasi bu vaziyatda «aniq inson» sifatida foydalaniladi.

«Individ» tushunchasini ayrim olimlar insonning tarixi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga to'g'ri kelishini bayon etgan. Ikkinchi xil fikrga ko'ra, individ sifatida inson o'zining jismoniy mavjudligini ta'minlashni birinchi o'ringa qo'yadi. Masalaning bunday qo'yilishida turli biologik omillar (yosh jihatları, jinsiy mijozlarining o'ziga xos tomonları), shuningdek, inson hayotiy faoliyatining sotsial sharoitlaridagi tafovutlar belgilamaydi.

Har qanday inson individi o'ziga xos salohiyati bilan dunyoga keladi. Hamma gap bu salohiyatni qay tarzda ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Inson rivojlanishining individ bosqichi eng uzoq davom etadigan, izchillikni taqozo qiladigan davrdir. Bu bosqichda uning asta-sekin shaxsga aylanish jarayoni boshlanadi. Individning shaxsga aylanishida, boshqacha aytganda, insonning individ bosqichidan shaxs bosqichiga o'tish jarayonida sotsiumning u yoki bu darajasida olingan jamoa a'zosi sifatida uning imkoniyatlari, ijtimoiy-ahamiyatli belgilari qat'iy tizim shaklida qaror topadi. Ya'ni fe'l-atvori shakllanadi.

4. **Individuallik tushunchasi. Individuallik** – «Individ» atamasidan yasalgan bo'lib, insonning noyob xususiyatlarini ifodalaydigan tushuncha.

Insonni turli darajada: yakka tarzda va tarixiy rivojlanishining aniq-tarixiy o'ziga xosligini aks ettirishda «indivd» tushunchasi bilan bir qatorda «shaxs» tushunchasi ham qo'llaniladi. «Shaxs» bir qator gumanitar fanlarning falsafa, ruxshunoslik, pedagogika va sotsiologiyani o'rganish ob'yekti hisoblanadi.

5. «Shaxs» – odamning ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol xatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilishining mahsuli hisoblanadi.

Falsafa shaxsni faoliyat sub'yekti, ong va ijodiyot sifatida tutgan o'mi, nuqtai-nazaridan qarab chiqadi. Ruxshunoslik - shaxsni ruxiy jarayonlar, xususiyat, qobiliyat, iroda sifatları va boshqa jihatlardan barqaror yaxlit holda o'rganadi.

Sotsiologik yondashuv shaxsning sotsial-tipik jihatini ajratadi. Shaxs sotsiologik nazariyasining asosiy masalasi shaxsning shakllanish jarayoni va uning ehtiyojlarini qondirish, sotsial birlikda rivojlanishi va amal qilishi, jamiyat bilan shaxs aloqaları, shaxs va guruhlar, shaxsning sotsial fe'l-atvorini, tartibga solish qonuniyatlarini o'rganish bilan chambarchas bog'langan. Bu yerda, sotsiologiyada shaxsni o'rganishga ayrim umumiy tamoyilar nuqtai-nazaridan yondashuv ifodalangan.

Sotsiologiya shaxsga oid ko'pgina nazariyalarni o'z ichiga olgan bo'lib, ular bir-birlaridan qat'iy metodologik ko'rsatmalar orqali farq qiladilar. Insonning qaysi jihat shaxs tushunchasida nomoyon bo'ladi?

Insonning ikki xil ehtiyoji mavjud: tabiiy va ijtimoiy. Tabiiy - bu barcha biologik ehtiyojlar. Ijtimoiy - mehnat faoliyati, ijtimoiy faollik, ma'naviyat va boshqalar. Shaxs bu insonning jismoniy tabiati emas, balki uning ijtimoiy sifatidir. Shaxs ehtiyojlari uning manfaatlarini orqali nomoyon bo'ladi. Manfaatlar esa uni maqsadli faoliyatga yo'llaydi. Kishilarning ijtimoiy munosabatlari ularning xulqlarida, eng avvalo, manfaatlar tarzida nomoyon bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaxs faoliyatining maqsadini, mazmunini va mohiyatini ifodalaydi. Manfaatlarning maqsadga aylanishi shaxs faoliyati motivining oliy darajasidir.

5.2. Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar, shaxs ijtimoiylashuvning fazalari, shaxs manfaat turlari.

Sotsiologiya tarixida o'zining metodologik qurilmasi jihatidan farq qiluvchi shaxs to'g'risidagi nazariyalar ishlab chiqilgan.

Karl Marks va F. Engel's tomonidan asos solingan **shaxs ijtimoiy faoliyat va munosabat sub'yekti va ob'yekti to'g'risidagi nazariyasi**, Ch.Kuli, R.Darendorf, R.Milton, R.Mertonlarning **shaxs roli nazariyasi** va boshqa shu kabilar.

1. Shaxs ijtimoiy faoliyat, munosabat sub'yekti va 'yekti to'g'risidagi **marksistik nazariyada asosiy e'tibor shaxs va jamiyatning** o'zaro munosabatiga qaratilgan. Marksistik sotsiologiyada shaxsning moddiy faoliyati jarayonida yuzaga keluvchi va ongining muayyan xususiyatlarini aks ettiruvchi sub'yektiv jihatlarini ko'proq tadqiq qilingan.

2. Amerika sotsiologlari: T.Znanetskiy va Ch.Tomaslar asos solgan **shaxs ijtimoiy xulqini o'z-o'zini boshqarishining dispozitsion nazariyasida** shaxs hayotidagi dunyoqarashlik va qadriyatli - normativ omillarga ko'proq ahamiyat beriladi. Bu nazariyaga ko'ra, shaxs ongi uning hayotiy o'rmini belgilaydi. Shaxs dunyoqarashi, ijtimoiy qadriyati, g'oyaviy va ma'naviy normalar uning faoliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Ko'rinib turibdiki, shaxs to'g'risidagi bu nazariyada shaxsning sotsiologik va ijtimoiy psixologik xususiyatlari bir qilib olingan.

3. Sotsiologiyada Amerikalik D.J.Mid va G.R.Mintonlar tomonidan asos solingan **shaxsning roli nazariyasi ham diqqatga** sazovordir. Keyinchalik bu nazariya G.Merton va T.Parsons, G'arbiy Germaniya sotsiologi G.Darendorflar tomonidan yanada rivojlantirilgan. Bu nazariya ikki asosiy tushunchalar: shaxsning ijtimoiy mavqeyi va ijtimoiy roli orqali tushuntiriladi. Unga ko'ra, har bir inson muayyan ijtimoiy tizimda bir necha o'rinni egallashi mumkin. Har bir egallangan o'rin **ijtimoiy mavqe deb ataladi**. Shaxs o'z hayoti davomida bir necha ijtimoiy mavqega ega bo'lishi mumkin. Binobarin, bu o'rinlardan qaysi biridir uning asosiy ijtimoiy mavqeyini belgilaydi. Bosh mavqe shaxsning egallab turgan mansabi (masalan, direktor, rais, professor kabi) bilan belgilanadi. Shaxs ijtimoiy mavqeyi uning tashqi xulqida, tashqi qiyofasida, yurish-turishida va hatto muomalasida ham o'z ifodasini topadi.

Shaxsning **ijtimoiy rol** nazariyasida **belgilangan** va **erishilgan ijtimoiy mavqelari** o'zaro farqlanadi. Belgilangan mavqe – bu shaxs xizmati va xatti-harakatidan qat'iy nazar, jamiyat tomonidan belgilab qo'yiladi. Shaxsning etnik kelib chiqishi, tug'ilgan joyi, oilasi, jinsi va boshqalar shular jumlasidandir.

Erishilgan mavqe deganda, shaxsning o'z xatti-harakati, qobiliyati bilan erishgan mavqeyi tushuniladi. Masalan, yozuvchi, firma boshlig'i, direktor, professor va shu kabilar. Bulardan tashqari, yana shaxsning tabiiy va kasbiy lavozim mavqei ham o'rganiladi. Shaxsning erkak va ayol, bolalik, o'smirlik, yoshlik, o'rta yosh, keksalik davrlarini bildirsa, kasbiy lavozim mavqei shaxsning ijtimoiy - iqtisodiy va ishlab chiqarish - texnik holati (muhandis, temirchi, haydovchi va boshqalar)ni bildiradi.

Ijtimoiy mavqe shaxsning muayyan ijtimoiy tizimida egallagan konkret o'mini ifodalaydi. **Ijtimoiy rol** esa shaxsning ijtimoiy tizimida egallagan mavqe bilan bajaradigan faoliyati majmuini ifodalaydi. Masalan, ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan sobiq sovet tizimi buyruqboz shaxslar tipini shakllantirib qo'ydi. Bunday shaxs tipiga «yuqori»ga ko'r-ko'rona, so'zsiz bo'ysunish, dunyoqarashi tor, bir tomonlama, o'z mansabini saqlab qolish va yuqori mansablarga erishish yo'lida har qanday qabihlikdan qaytmaydigan, munofiqlik kabi xususiyatlarga ega bo'lganlar kiritildi. Bunday kishilarning shaxs xususiyatlari ular bajaradigan vazifasiga o'z o'mini bo'shatib beradi. Shaxs tipining bunday ko'rinishi hozirda ham ba'zan jamiyat hayotini yangi sharoitda erkin rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shaxs faoliyati deganda, uning ichki va tashqi tendensiyalarining ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxs sifatidagi darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatli ehtiyojlarini qondirishlari va sifat ko'rsatkichidir. Demak, ijtimoiy faollik shaxsning muhim sifatidir.

Shaxs faolligi deb, uning hayotini boshqarish bilan, bog'liq bo'lgan va qadriyatlarining nomoyon bo'lish xususiyatlariga aytiladi. Ijtimoiy faollik inson shaxsi sifati darajasining asosiy ifodasi bo'lib, uning yuksak qadriyatdagi ehtiyojlarini qondirish usuli va sifat ko'rsatkichidir. Shu jihatdan shaxs faoliyati sotsiologiyada keng va kichik (tor) ijtimoiy darajalarda o'rganiladi. Shaxsning bunday darajalarda o'rganilishi metodologik ahamiyat kasb etadi.

Shu boisdan ham shaxs sotsiologiyasini o'rganish Vatan, xalq farzandi, haqiqiy chin insonga xos bo'lgan shaxs darajasiga yetishini anglab olishimizga yordam beradi. Vatanni sevish, Vatan farzandi bo'lish g'ururini o'stiradi. Vatan uchun, xalqi uchun kerak bo'lsa jonini fido qilishga shay turish – buyuk insoniy fazilatdir. Shaxs sotsiologiyasi ana shunday yetuk shaxslarni yetishtirib berishga xizmat qiladi.

«Shaxs» - odamning ijtimoiy xususiyatlarining yaxlit majmui bo'lib, ijtimoiy taraqqiyot va individning faol xatti-harakati hamda muomalasi vositasida ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shilishining maxsuli hisoblanadi. Shaxs tushunchasi ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'yekti sifatidagi individni ham ifodalaydi.

«Shaxs» tushunchasida uning atrof-muhitga munosabatini bildiradigan ijtimoiy-ruxiy sifatlarning ichki muayyan yaxlitligi ifodalanadi. Shaxs bo'lish

degani, birinchi navbatda, o'zining ichki qadriyatlardunyosini shakllantirishni, tevarak-atrofga, eng avvalo, ijtimoiy hodisalarni anglash, uning mohiyatini tushunish orqali qadriyatit-tanqidiy munosabatga ega bo'lishni bildiradi.

Insonning shaxs sifatidagi qadriyati uning o'zligidan, fiziologik mavjudligidan ajratib olingan tarzda mavjud emas. Shu bilan birga, aytish mumkinki, istagan inson shaxs bo'lolmaydi, lekin har qanday shaxs- insondir. U tashqi muhitga faqat biologik moslashuv natijasi sifatida shakllana olmaydi. Balki sotsiumda, aniqrog'i, uning turli darajalarida qaror topadi va unga ma'lum darajada bog'liq bo'ladi. Ya'ni shaxsning kelib chiqishi va uning imkoniyatlarining ro'yobga chiqishi kishilik jamiyati tomonidan ta'minlanadi. Demak, shaxsda insonning jamiyatda tutgan o'mi va bajaradigan vazifalari ifodalanadi. Shunga ko'ra, sotsiumning turli darajalarini o'rganadigan barcha fanlar doirasiga shaxs masalasi ham kiradi. Xususan, inson tanasi tuzilishi va faoliyatini o'rganadigan biologiya va boshqa fanlardan farqli o'laroq jamiyatshunoslik, ruxshunoslik, ta'limshunoslik kabi qator fanlar shaxs masalasini o'rganishga ehtiyoj sezadi.

Muayyan ma'noda shaxs yaxlit sotsiumning ajralmas bo'lagidir. Unda dastavval kishilar o'rtasidagi mavjud munosabatlar jamuljam bo'ladi. Lekin bu o'inda shaxs bilan sotsium aynanligi to'g'risida gapirishga asos yo'q. Ibtidoiy tuzumning sodda jamoachiligi inqirozga yuz tutishi tufayli kishilar bir-biridan «ichki» dunyosi va manfaatlari bilan o'zaro farqlanib, shaxs bosqichiga ko'tarilib boradilar. Buning natijasida esa shaxs bilan sotsium manfaatlari nisbati masalasi kun tartibiga qo'yiladi.⁵⁴

Shaxsning sotsium bilan munosabatlari o'ziga xos jihatlarga ega. Shaxsning o'zligi, dastavval, uning muayyan darajadagi mustaqilligidir. U shu holati bilan sotsium hayotining barcha sohalarida ishtirok etadi. Albatta, gap bu borada ko'proq yetuk shaxs to'g'risida boradi. Lekin yangi tug'ilgan insonning shaxs bo'lish imkoniyati faqat sotsiumda vujudga keladi. Demak, shaxsni sotsiumning turli darajalaridagi tashkiliy sifatleri voyaga etkazadi.⁵⁵

Inson bilan sotsium aloqadorligi jihatidan uning shaxs sifatleri shakllanishini aniqlab olish muhim. Shaxs shakllanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi va konkret shaxs boshqa oddiy insondan nimasi bilan farqlanadi,- degan savol qo'yilsa, unga javob berish xiyla qiyin. Negaki, shaxs shakllanishida juda ko'p omillar ishtirok etadi. Ularning ichida ijtimoiy muhit katta mavqega ega.

Individ sifatida namoyon bo'lgan mavjudot, ijtimoiy muhit ta'sirida shaxs sifatida shakllanadi. Individning jamiyat bilan o'zaro munosabati uni ma'lum bir sotsial jamoa vakiliga aylantiruvchi turli guruhlardir. Bu munosabatni amalga oshirishda muloqat asosiy rol o'ynaydi, sotsial guruhlar orqali amalga oshadi. Chunki muloqat shaxsning asosiy ijtimoiy munosabatlar sistemasida nazariy va amaliy bilimlarni egallashida uning shu sistemadagi o'zining maqomiga ega bo'lishida, faoliyat jarayonida va kundalik turmush tarzida asos sifatida xizmat qiladi, Shu bilan birga shaxs muloqot orqali o'zining shaxs sifatida shakllanganligini

⁵⁴Jo'raev N., Azizov Sh. Ijtimoiyat asoslari.-T.: «Ma'rifat-madadkor». 2003.-62-6.

⁵⁵Umumiy sotsiologiya Toshkent: ToshDU, 1999.- 42-bet.

va boshqa shaxslarning ijtimoiy muhitining haqiqiy sub'yekti yoki uning ijrochisi sifatida shakllangani to'g'risida tushunchaga ega bo'lishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli shaxs jamiyatdagi barcha munosabatlarning shakllanishi va sotsial dinamik xarakterini belgilashda asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, shaxs kishining hayot kechirish sharoitlarida sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ta'sirida faoliyat jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishida guruhlar va jamoalar yetakchi rol o'ynaydi.

Umuman, shaxs – o'ziga xos intellektual, emotsional, irodaviy-shaxsiy belgi va sifatlarga ega bo'lgan sub'yekt. Bu belgi va sifatlarni muayyan sotsial-iqtisodiy formatsiyaning mahsulidir. Shaxs o'tmish tarixiy tajribani, o'tmishdagi madaniy boyliklarni o'zida to'playdi «Shaxs – barcha ijtimoiy munosabatlarning yig'indisidir». Jamiyatdan tashqaridagi shaxs norealdir.

Shaxsning shakllanishida:

- 1) Shaxsning rivojlanish davri va uning natijasi.
- 2) Shaxsni maqsadga yo'naltirilgan tarzda tarbiyalanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning rivojlanishini uning faoliyatida o'zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ularni qondirishning imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda aniqlanadi.

Hozirgi sharoitda insonga ijtimoiy muhit ko'rsatayotgan ta'sirini quyidagicha tasnif etish mumkin:

Birinchidan, har bir insonga bo'lgan global ta'sir, ya'ni radio, televidenie, matbuot, kino va hokazolar orqali axborot almashinuvi.

Ikkinchidan, mamalakat va mintaqa miqyosidagi ijtimoiy ta'sir insonni mavjud shart-sharoitlar doirasida inson dunyoga kelishidan to hayotdan ko'z yumgunigacha o'z orbitasida tutib turadi.

Uchinchidan, insonni avval boshidan o'rab turgan mikromuhit – oila, maktab, ko'cha va hokazolar o'z ta'siriga oladi.

Ana shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, inson shaxsning shakllanishidagi birinchi bosqich – oiladir. Oila bioijtimoiy sifatga ega bo'lgan tuzilma sifatida jamiyatning barqaror va dastlabki bo'g'inidir. Oilada go'dak ilk bor ijtimoiy-madaniy qadriyatlar anglamagan holda o'zlashtiradi va ular zahirida faolligini asta-sekinlik bilan oshirib boradi. **Maktab, turli ijtimoiy guruhlar** (masalan, tengdoshlar, sport uyushmalari va boshqalar) bilan muloqat davomida madaniy ideallik qaror topa borib, shaxs shakllanishining muhim manbaiga aylanadi.

Hozirgi davr sotsiologiyasida «inson» deganda Yerda yashayotgan mavjudot turlaridan biri tushuniladi. Inson alohida olingan tur (Homo sapiens) vakilini ifodalovchi umumiy tushunchadir. Inson, umuman inson zotining yig'iq obrazi sifatida bioijtimoiy mavjudot bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham tabiatga, ham ijtimoiy hayotga mansubdir. Gegel ta'bir bilan aytganda, «insonning o'zida bevosita mavjudligi qandaydir tabiiydir, bu uning o'z tushunchasiga binoan tashqidir; faqat o'ziga tegishli tana va ruhini takomillashtirish vositasida, mohiyatan o'zini-o'zi anglashi sababli ham u o'zini erkin tutadi, u o'ziga o'zi egalik qilishga kirishadi va ham o'ziga, ham boshqalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda o'ziga o'zi egalik qiladi. Bu o'ziga o'zi egalik qilishga kirishish, shuningdek, bu holatni voqelik deb bilish shuni ko'rsatadiki, inson o'z tushunchasiga binoan (imkoniyat, qobiliyat,

moyillik), endi o'zini o'ziniki deb bilishi, o'zini xuddi predmetdek hisoblashi – oddiy o'zini o'zi anglashdan farq qilib, u haqiqatda narsa (buyuk) shaklida namoyon bo'la olish qobiliyatiga erishadi»⁵⁶.

Mustaqil O'zbekistonning buyuk kelajagini barpo qiladigan, unga munosib shaxs bo'la oladigan kishini tarbiya qilib yetishtirish hozirgi davrning asosiy vazifasi ekanligi shaxs sotsiologiyasida o'rganiladi. Gegel

Hozirgi davrda jamiyatimizda shaxsning quyidagi belgilar mavjud:

1. **Birinchi grupp shaxs belgisi:** jamiyatga, siyosatga munosabati bilan bog'liq (Vatanga sadoqat, o'lka boyligi xo'jayini ekanligini anglash, optimizm, maqsadsariintilish, intizomlilik, uyushqoqlilik, aktiv hayotiy pozitsiya va boshqa).

2. **Ikkinchi grupp shaxs belgisi:** uning o'z faoliyatiga bo'lgan munosabati bilan xarakterlanadi (Mehnat qilish, so'z bilan ish birligi, bilim olishga intilish, madaniyatga intilish, mehnatda tashabbuskorligi va boshqa).

3. **Uchinchi grupp shaxs belgisi:** uning boshqa kishilarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq (Kishilarni hurmat qilish, qardoshlik, to'g'rilik, axloqiylik).

Shaxsning asosiy xislatlari, bular:

- onglilik;
- ma'naviy boylik;
- ijtimoiy munosabatlar;
- jamiyatga nisbatan nisbiy mustaqillik;
- javobgarlik.

Insonning ijtimoiy sifatlarini belgilovchi omillar:

1) ijtimoiy maqsadi:

- a) egallab turgan maqomi;
- b) bajarayotgan ijtimoiy roli;
- v) normalar va qadriyatlar:
- madaniyat;
- inson foydalanadigan belgilar tizimi;
- bilimlar;
- bilim va maxsus tayyorgarlik darajasi;
- ijtimoiy-psixologik o'ziga xosliklar;
- yechimni qabul qiladigan mustaqillik;
- faollik.

Bugungi kunda, ayniqsa Prezidentimiz Islom Karimov 2000 yil Oliy Majlis 2-chaqiriq 1-sessiyasining 2-yig'ilishida (11 fevraldagi) rahbar kadrlar quyidagi xislatlarga ega bo'lishini alohida ta'kidlagan edi⁵⁷

1. Shaxsiy xislatlar:

- 1) ijtimoiy manfaatlarni o'z shaxsiy manfaatidan yuqori qo'yishi;
- 2) adolatlilik;
- 3) o'z qo'l ostidagilarga hurmat bilan qarash;
- 4) mehnat jamoasida qulay psixologik munosabatni vujudga keltirish;

⁵⁶G. V. Filosofiya prava. Moskva, «Mo'sl», 1990, s.113.

⁵⁷Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. T.8. T.: «O'zbekiston», 2000, 358–361.b

- 5) odamlar bilan osonlikcha til topisha bilish;
- 6) umumiy madaniyat saviyasining yuksakligi;
- 7) bosiq bo'lish;
- 8) o'ziga ishonch va hokazo.

2. Amaliy xislati:

- 1) fikrining tiniqligi;
- 2) yangilikni qabul qila bilish;
- 3) tashabbuskorlik qobiliyati;
- 4) tashkilotchiligi;
- 5) o'z so'zi ustidan chiqa bilish;
- 6) puxtaligi va hokazo.

3. Professional xislati:

- 1) ishlab chiqarishni bilish;
- 2) kadrlarga e'tibor;
- 3) o'z malakasini oshirish;
- 4) ishbilarmonlik va hokazo;

Jamiyat va individning integratsiyalashuv jarayoni va ijtimoiy birliklarining turli tiplari ham mavjud bo'lib, bular:

- 1) guruh;
- 2) ijtimoiy institutlar;
- 3) ijtimoiy tashkilotlar va boshqalardan iborat.

Shaxsning asosiy sotsial sifatleri konkret sotsial guruhlar, jamoalar faoliyati va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli **shaxsning sotsial sifatleri 3 ta kichik tizimdan iboratdir:**

1. Shaxsning individualligi.
2. Shaxslararo munosabatlari.
3. Munosabatlar sub'yekti.

1. **Shaxsning individualligi** undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlaruning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

2. **Shaxsning shaxslararo munosabati**, avvalo shu munosabatlar sistemasi elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxs rivojlanishining, uning komil inson sifatida tarkib topishining asosi sifatida xizmat qiladi, shu sababli shaxsning shaxslararo munosabatlar shaxsda insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylik kabi xislatlarning shakllanishida va takomillashuvida alohida o'ringa ega.

3. **Munosabatlar sub'yekti.** Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'yekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlarda sub'yekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatigina emas, balki sababchisi hamdir. Har bir shaxsning sotsial sifatleri uning amaliy faoliyatining mazmun va xarakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsning ichki holat ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqeikka shaxsiy munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit

sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar tizimidir. Shaxsning sotsial xususiyati kishining faoliyati, xatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida ko'rinadi. Shaxsning sotsial sifatlarini tashkil etuvchi elementlarga (shaxs sotsial maqsadi):

- o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar;
- foydalanadigan belgilar tizimi;
- o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilish uchun

yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi kiradi.

Shaxs sotsiologiyasida shaxs manfaati alohida o'ringa ega. Shaxs manfaati – bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojini qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir. Manfaatlarda asosida kishilarning ehtiyojlari yotadi. Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida manfaat ehtiyojini anglashda muhim rol o'ynaydi. Manfaatning 4 turi mavjud:

1. **Munosabat manfaati:** - shaxs faoliyatida u yoki bu ob'yektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaati 2 ko'rinishda kechadi: a) asosiy munosabat manfaati – bu shaxsning hayotida maqsad va vazifasini, harakatlarini o'z ichiga oladi; b) yordamchi yoki ikkinchi darajali munosabat manfaatdir. Bu shaxs faoliyatining maqsad va vazifalaridan tashqari uning boshqa voqelikka qiziqishini bildiradi.

2. **Harakat manfaati:** – shaxsning u yoki bu faoliyatida qatnashishida ko'rinadi. Aktiv yoki passivligini bildiradi. Harakat manfaati: a) maqsadli va b) maqsadsiz bo'lishi mumkin (boshlang'ich faoliyati bilan cheklanib qolgan, tor doiradagi harakat).

3. **Tayanch manfati:** – shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta'sirlashuvda shakllangan va turli vaziyatlarda o'z yo'nalishinisaqlab qolgan manfaatdir. Shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda shakllanadi.

4. **Yo'nalish manfaati:** – bu yo'nalish manfaatlari ichida juda murakkab bo'lib, u shaxs manfaatlaridan birini tanlashi bilan bog'liq.

Demak, shaxsning tipi u yashaydigan jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bog'liq. Shaxsning shakllanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat:

- 1) Ijtimoiy siyosiy tizim.
- 2) Tarbiya va maorif tizimi.
- 3) Turmush.
- 4) Mehnat faoliyati.
- 5) Ijtimoiy faoliyat.
- 6) Oila va boshqalardir.

Shaxs shakllanishida uni o'rab turgan muhit va u intiladigan madaniy-ijtimoiy ideallar hamda bajarilishi lozim bo'lgan vazifalarning ham ahamiyati kattadir. Bunday hodisani fanda insonning ijtimoiylashuvi yoki sotsializatsiya yo'li bilan shaxsga o'tishi, deb atash qabul qilingan. Buni izohlaydigan ko'pgina qarashlar mavjud.

Ijtimoiylashuv umumiy ma'noda insonning bio va ruxiy ehtiyojlariga maqsadga muvofiq, oqilona ta'sir o'tkazishdir. Buning oqibatida inson shaxsi

qaror topishining ikkinchi tomoni – uning sub'yektiv «MEN»i ham shakllanadi. Shaxsning «MEN»i ota-onalari, qarindosh-urug'lar, tanish-bilishlar, mahalla-ko'y va boshqalardan o'zlashtiradigan sifatlardir. Bu sifatlarning aniq olingan joyi va vaqtiga ko'ra ijobiy yoki salbiy shaxsiy xususiyatlar tarzida shakllanishi mumkin. Ijobiy holatda shaxsda o'zi to'g'risida odillik, epcchilik, qobiliyatlilik, uddaburonlik kabi tasavvurlar tug'lsa, salbiy holatda uning layoqatsizligi, noshudligi, zaifligi kabi xususiyatlari qaror topishi mumkin. Albatta, bu xususiyatlar inson sub'yektivining o'z «MEN»i to'g'risidagi fikrlardir. Ularning voqelikka muvofiq kelishi, ya'ni haqiqiy yoki yo'qligi masalasini ham nazardan qochirmaslik lozim.

Sub'yektiv «MEN» yuzaga kelishi bilan nisbiy mustaqillik tarzini oladi va shaxs sifatida o'zini ko'rsata boshlaydi. Shu bilan birga shaxs «MEN»i doirasida uning ikkinchi jihati-boshqalarning bu «MEN»ga bo'lgan munosabatiga javoblari masalasi ko'zga tashlanadi. «MEN»ning bu jihati o'zga harakatlari, fikr-o'y, siyosiy mavqey, turmush tamoyillari va hokazolar to'g'risida jamoatchilik fikrlarini hisobga olish yoki olmaslik bilan bog'liq holatlar ifodalanadi.

O'zga «MEN» quyidagi holatlardan tashkil topadi. Bular-boshqalarning aynan shu shaxs to'g'risidagi qarashlari asosidagi fikrlar. Ayni shu shaxsning xatti-harakati va faoliyatini boshqalar tomonidan baholash bilan bog'liq omillar; boshqalarning qarashlari va bergan baholariga javoban qoniqish, g'urur, o'ziga ishonchining kuchayishi, o'zini bekamu ko'st deb hisoblash, uyalish, afsuslanish, ehtiyotkorlikka moyillik kabi holatlardir. Shaxsning ob'yektiv «MEN»i bilan uning to'g'risidagi «o'zga MEN» bir-birini to'ldirgandagina insonning ijtimoiy tabiati haqidagi fikrlar ham to'laroq bo'ladi.

- Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi bog'lovchi u yoki bu sotsial tizim bo'lishi mumkin. Demak:

Shaxsning ijtimoiylashuvi deb, shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayonga aytiladi. Shaxsning (individdning) sotsial tashkilot elementi bo'lishi 2 muhim jihatga bog'liq: 1) sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi bilan qobiliyatining shakllanishiga va 2) shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi bilan qobiliyatining shakllanishiga bog'liq.

Shaxs ijtimoiylashuvning 2 fazasi mavjud:

1. Sotsial adaptatsiya (moslashish). Bunda individning sotsial sharoitlarga, funktsiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlariga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptatsiya jarayoni, asosan oilada boshlanadi va shakllanadi. Oiladagihar qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuvida o'z aksini topadi. Shu boisdan individning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi.

2. Sotsial interiorizatsiya, ya'ni sotsial norma va qadriyatlarning individ ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unga mustaqil birlik sifatida kiradi. Ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir ob'yekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik xususiyatlar hisobga olinmaydi.

Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyati sifatida o'zi ham ijtimoiy hayotining hamma sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs sotsial ta'sirlanishning ob'ekti va sub'yektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar tizimi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat ko'rsatish uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ulami ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak.

Individ faoliyat qiluvchi mavjudotdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham insonsifatidagi o'zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarni anglaydi va anglash asosida o'zining sotsial faoliyatini belgilaydi. Shaxs tomonidan o'z faoliyatini boshqarish faqat ob'yektiv va sub'yektiv qonuniyatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatlarni, uning elementlarini, xususiyatlarini ham bilishni taqozo etadi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga keltiruvchi ob'yektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'p, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddiy va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga ob'yektiv bog'liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyat ehtiyojlarini qondirish shakli sifatida qaralishi ob'yektiv sharoitlarning in'ikosi va ulami qondirishning real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin.

Ehtiyojlarning 2 ko'rinishi mavjud: 1) tabiiy va 2) jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar.

1) **Tabiiy ehtiyojlar** sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar-joy va boshqalar tushuniladi.

2) **Sotsial ehtiyojlar** esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sotsial faolligi, ruhiy madaniyati, ya'ni nima ijtimoiy hayotmahsuliga bo'lgan ehtiyojdir. Tabiiy ehtiyojlar asosiy bo'lib, ularda sotsial ehtiyojlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

Shaxsning ijtimoiylashuv davri quyidagilar asosida kechadi:

1) Bolalik:

- agentlar va ijtimoiylashuv turlari.

2) Ota-onalik:

- otalar va bolalar: ikki dunyo;

- «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibli.

3) O'spirinlik:

- qadriyatlarning parallel tizimi.

4) Balog'at yoshi:

- voyaga yetgan inson maqomining asosiy mezonlari;

- voyaga yetganlar - shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.

5) Keksalik:

- ijtimoiylashuv ushbu davr maqomi va muammolari.

Ijtimoiy faoliyat va ijtimoiy fe'l-atvor mexanizmlari:

1) Faoliyat turlari.

2) Ehtiyojlar:

- tabiiy ehtiyojlar;

- biologik ehtiyojlar;

- ijtimoiy ehtiyojlar.

3) Ijtimoiy faoliyatni asoslovchi mexanizmlar:

- ehtiyojlar;

- qadriyatlar;

- manfaatlar va ularning o'zaro ta'siri;

4) Ijtimoiy nazorat.

5) Sanksiyalar.

6) Ijtimoiy buyruq.

7) O'z-o'zini nazorat.

8) Tashqi nazorat.

9) Jamoatchilik fikri.

10) Deviant (jinoiy bo'lmagan) xulq-atvor.

11) Delenkvent (jinoiy) xulq-atvor.

12) Shaxsning muhim ijtimoiy-psixologik xislati – o'z-o'zini anglash kabilardir.

Umuman, ijtimoiy muhit ta'siri ostida shaxsning shakllanish jarayonini tasvirlash uchun «ijtimoiylashuv» tushunchasi XIX asr oxirida - paydo bo'ldi. Ijtimoiylashuv deganda, shaxsning o'z hayoti mobaynida o'zi mansub bo'lgan jamiyatning ijtimoiy me'yorlari va madaniy qadriyatlarini o'zlashtirish jarayoni tushuniladi. «Ijtimoiylashuv» tushunchasi «shaxsni tarbiyalash», «shaxsni shakllantirish» tushunchalari bilan chambarchas bog'liq, biroq u kengroq tushuncha bo'lib, insonga barcha mumkin bo'lgan ta'sirlarni qamrab olishga imkon beradi.

Siyosiy ijtimoiylashuv individ tomonidan o'zining siyosatga qo'shiluvini ta'minlovchi siyosiy bilimlarni, qadriyatlarni, me'yorlarni, qoidalarini, xatti-harakat odobini o'zlashtirish jarayonidan iboratdir.

XX asr 90-yillarning boshlarida siyosiy ijtimoiylashuv jarayoniga hokimiyat muassasalariga ishonchning yo'qolishi, ularni siyosatda shaxsan qatnashishni istamaslik, buzg'unchilik, siyosiy norozilikning qo'poruvchilik usullari katta ta'sir ko'rsatib keldi. Rasmiy siyosat ko'pincha ko'pchilik kishilar uchun ma'naviy tayanch bo'lmay qolgan edi.

Turmush tarzidagi, ijtimoiy muhitdagi o'zgarishlar shaxs mavqeini ancha murakkablashtirdi. Iqtisodiy jarayon xarakterida jiddiy o'zgarishlar yuz berdi. Yangi texnologiyalarning joriy qilinishi jiddiy o'zgarishlarga olib kela boshladi. O'tmishda siyosiy ijtimoiylashuv ikki tamoyil qarama-qarshiligi asosida kechdi:

1) Shaxsning ijtimoiy rivojlanishiga, uning siyosatda faol qatnashishiga jiddiy ijtimoiy ehtiyoj borligi ma'lum bo'ldi.

2) Ikkinchi tomondan inson hokimiyatdan, uning tashkilotlaridan siyosiy begonalashuvga olib kelgan edi.

Shaxsning dastlabki ijtimoiylashuvi uning kelib chiqishi bilan bog'liq. Inson ongiga oila katta ta'sir ko'rsatadi. Mashg'ulot turi, turmush darajasi, ma'lumoti, siyosiy yo'nalishi kabi omillar ta'sir qiladi.

Siyosiy ongni qayta qurishko'pincha ilgari qoidalarini o'zgartirish natijasida yuz beradi. Siyosiy ong shakllanishida:

Siyosiy madaniyat o'sishi:

- turli, siyosiy tashkilotlar faoliyati;
- ommaviy axborot voistalari;
- norasmiy guruhlar;
- korxona jamoalari;
- uyda yashovchilar;
- siyosiy partiyalar;
- kasaba uyushmalari;
- yoshlar tashkilotlari katta ta'sir ko'rsatadi.

Siyosiy ijtimoiylashuvda mafkura katta rol o'ynaydi. Shaxs siyosiy ijtimoiylashuvda siyosiy ong tuzilishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ehtiyojlar va ijtimoiy kuzatishlar tizimini shakllantirish;
- o'z ijtimoiy guruhinitenglashtirish;
- o'z manfaatlarini anglash;
- siyosiy faoliyat imkoniyatlariga baho berish;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar va dasturlar tizimini qabul qiladi.

O'z-o'zini anglash: o'z-o'zini anglashda iqtisodiy, siyosiy, huquqiy axloqiy va madaniy muhitning ta'siri katta. O'z-o'zini anglash millatlar uchun siyosiy onglikning oshishigina emas, shu millat bilan birga milliy mustaqillik va milliy ozodlik hamdir. O'z-o'zini anglash jahon tarixida ozodlik harakatlarning kuchayishiga, sotsializm va imperiazizmning yemirilishiga, parchalanishiga olib keldi. Portugaliya, Ispaniya, Gollandiya, Angliya, Fransiya, sobiq SSSR kabi imperiya davlatlari o'z mustamlakalaridan mahrum bo'ldi. O'zbek millatining o'z-o'zini anglashi moddiy kuch sifatida millat sha'ni, qadr-qimmati, obro'-e'tibori, ornomusi tiklanishiga olib keldi. O'z-o'zini anglash millatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini himoya qilishdir. Mustaqillik sharoitida o'zbek xalqining o'z-o'zini anglashini rivojlantirish davlat siyosati darajasigacha ko'tarildi.

O'zbekiston Konstitutsiyasida shaxsning huquq va erkinliklari (24-31 - modda) o'z ifodasini topdi: 1) siyosiy huquqlar; 2) iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar; 3) inson huquqlari va erkinliklari kafolatlanishi; 4) fuqarolar burchlari o'z ifodasini topgan.

5.3. Deviant xulq-atvor sotsiologiyasining mohiyati

Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqqan holatlarini o'rganuvchi deviant xulq-atvor sotsiologiyasi muammolari O'zbekistonda istiqlol sharofati bilan o'rganila boshlandi. Deviant xulq-atvorning turli ko'rinishlarini mamlakatimiz olimlari o'z tadqiqot ob'ektlari doirasida o'rganganlar. Respublika faylasuflari X.Shayxova, Q.Nazarov, M.Xolmatova, N.Komilov (shaxs tarbiyasida ma'naviy-axloqiy tarbiya ta'siri masalalari), sotsiolog M.B.Bekmurodov (ijtimoiy me'yorlarga jamoatchilik fikrining ta'siri jarayonlari), huquqshunolar A.Qulahmetov, Y.Karaketov, M.Usmonaliev (jinoyatchilikning umumiy jihatlar va o'smirlar jinoyatchiligi masalalari), psixolog olimlar G'B.Shoumarov, N.A.Sog'inov, S.A.Axunjanova, Z.R.Qodirova, E.Sh.Usmonov, B.M.Umarov (o'z joniga qasd qilish va jinoyatchilik muammolarining ruhiy-psixologik asoslari), pedagog-olimlar O.Musurmonova, D.J.Sharipovalarning (oilada barkamol shaxsni

tarbiyalash hamda g'iyohvandlik, ichkilikbozlik, chekish kabi illatlarning oldini olish muammolari) olib borgan ilmiy ishlarini shunday ishlar jumlasiga kiritish mumkin⁵⁸.

Jamiyatda insonlar faoliyati, xatti-harakatlari va xulq-atvorlarini ijtimoiy me'yorlar boshqaradi. Ijtimoiy me'yor jamiyat boshqaruvining ajralmas qismi bo'lib, shaxs yoki ijtimoiy guruh xulq-atvorini muayyan sotsial muhitga moslashtiruvchi qoidalar majmuidir. Ijtimoiy me'yorning bir necha turlari mavjud bo'lib, huquqiy, axloqiy, diniy hamda urf-odatlariga oid me'yorlar shular jumlasidandir.

Ijtimoiy me'yorning afzalligi shundaki, yoshligidanoq muayyan me'yorlarga moslashtirib borilgan shaxslar umum tomonidan qabul qilingan tamoyillar doirasidan chetga chiqmaydi va boshqalardan ham shuni kutadi. Jamiyat taraqqiy etib borgan sari o'rnatilgan me'yorlar ham eskirib boradi va yangi me'yorlar o'rnatiladi. Yangi me'yorlarni o'rnatish jarayoni jamiyatda o'rnatilgan mavjud me'yorlar doirasini kengaytirish va o'zgartishdan iboratdir. Jamiyat a'zolarini mazkur ijtimoiy me'yorlarga amal qilib yashashlarini nazorat qilib boruvchi institutlar ijtimoiy nazorat institutlari deyiladi. Ushbu institutlarga oila, maktab, mahalla, huquqni muhofaza qilish organlari va hokazolalar kiradi.

Insonlar bolalarga ijtimoiy me'yorlarni o'rgatib borish bilan birga, xulq-atvor me'yoriy talablarining to'g'ri bajarilishini nazorat etishadi va bu bilan ijtimoiy nazorat vakili vazifasini bajarishadi. Nazoratni yakka shaxs amalga oshirsa, bu individual tavsifga ega bo'ladi, agar butun bir jamoa, oila, do'stlar, maktab, mahalla (qo'ni-qo'shnilar) tomonidan amalga oshirilsa, ijtimoiy tavsifga ega bo'ladi hamda u ijtimoiy nazorat deyiladi.

Ijtimoiy nazorat vakillari insonlar xulq-atvorini boshqarishning eng muhim vositasi bo'lib, deviant xulq-atvorning oldini olishda ham ushbu jamoalarning o'rni katta bo'ladi.

Inson tarbiyasida eng birinchi va eng muhim ijtimoiy nazorat instituti bu-oiladir. Farzand tarbiyasida va barkamol avlodni shakllantirishda sog'lom oila muhitining o'rni kattadir. «Bola tug'ilgan kunidan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bola zuvalasini shakllantiradi. Eng muhimi, farzandlar oilaviy hayot maktabi orqali jamiyat talablarini anglaydi, his etadi.

Afsuski, oramizda shunday insonlar ham uchraydiki, ular jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmasdan, balki unga to'siq bo'luvchi me'yordan og'ish holatlarini yuzaga keltiradilar. **Jamiyatda o'rnatilgan ijtimoiy me'yorlardan chetga chiqish holatlari sotsiologiyada «deviantlik holatlari», undan tug'iluvchi xulq-atvorni «deviant xulq-atvor» deb nomlanadi.**

Deviant xulq-atvor — jamiyatda o'rnatilgan axloq me'yorlariga mos kelmaydigan insoniy faoliyat yoki xatti-harakat, ijtimoiy hodisa bo'lib, **yolg'onchilik, dangasalik, o'g'rilik, ichkilikbozlik, g'iyohvandlik, o'z joniga qasd qilish va boshqa ko'plab shu kabi holatlar ushbu xulq-atvor xususiyatlari hisoblanadi.**

⁵⁸Yunusov maqolasidan foydalanildi. Sotsiologiya. O'quv qo'llanmasi.-T.: A.Qdiriylar nomidagi xalq maorosi nashriyoti, 2006.-115-120-b.

Quyidagilar deviant xulq-atvorning nisbatan kengroq tarqalgan ko'rinishlaridan hisoblanadi:

a) **Jinoyatchilik.** Muayyan davlatda o'rnatilgan qonun va me'yorlarga nisbatan ayrim shaxslarning salbiy munosabati jinoiy faoliyat, mazkur shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

b) **Ichkilikbozlik.** Bu borada ilmiy adabiyotlarda bir necha tasniflar mavjud: 1) Alkogolni har-har zamonda iste'mol qilish, 2) Alkogolni ko'p iste'mol qilish—spirtli ichimliklarni muntazam, ya'ni haftada bir martadan bir necha martagacha yoki, birvarakayiga o'rtada tanaffus bilan ko'p miqdorda (200 ml dan oshiq). Bu ko'pincha alkogolizmga olib keladi. 3) Alkogolizm—spirtli ichimliklarga patologik (muttasil) o'rganib qolish bilan tavsiflanuvchi kasallik.

v) **Giyohvandlik.** Giyohvand yoki unga tenglashtirilgan vositalarga muntazam ruju qo'yish va tibbiy ko'rsatmalarsiz iste'mol qilish.

g) **Fohishabozlik.** Fanda rasmiy nikohsiz jinsiy aloqa ikki turli bo'lib o'rganiladi: 1) Konkubinat – nikohsiz birga yashash. 2.) Fohishabozlik- pul uchun o'z tanasini sotish.

G'arbda asosan ikkinchisi qoralansada, Sharka ikkala holatga ham me'yordan og'ish sifatida qaraladi.

d) **Byurokratiya.** «Byurokratiya» termini aslida «hokimiyatga ega bo'lgan xodim» degan ma'noni anglatadi. Biroq davrlar o'tishi bilan «byurokratiya» mahalliychilik, qog'ozbozlik, to'rachilik, mansabni su iste'mol qilish kabi salbiy ma'nolarda qo'llanila boshladi. Hozirgi kunda ko'plab davlatlarda «byurokratiya» termini asil ma'nosini yo'qotib, boshqaruvdagi o'ziga xos idoraviy uslub tarzida tushuniladi.

Yuqoridagilardan tashqari mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, boqimandachilik kabi salbiy holatlar ham ijtimoiy me'yordan chekinishning diqqat talab ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Deviant xulq-atvor muammosini sotsiologiya fani doirasida dastlab E.Dyurkgeym maxsus o'rgangan bo'lsa-da, jamiyatning eng qadimiy muammolaridan biri sifatida deviant holatlarga munosabatlar qadim davrlardan shakllanib kelgan. Qadimgi xalqlarning diniy-mifologik tasavvurlari, xususan, **Misir, Hindiston va Xitoy diniy qonun-qoidalaridagi axloqiy me'yorlar** bu sohadagi dastlabki qarashlar edi. Qadimgi yunon va Rim faylasuflari ham o'z asarlarida mazkur muammolarni tahlil qilib berganlar.

O'rta asrlarda axloq me'yorlari diniy qarashlar ta'siri ostida rivojlandi va ulardan chekinish diniy nuqtai nazardan baholangan. Yevropada xristian dini barcha sohada hukmronlik qilgan bo'lsa, Sharq dunyosida axloqiy-huquqiy me'yorlar va ular haqidagi ta'limotlar islom falsafasi ta'sirida rivojlandi.

XVII-XVIII asrlarga kelib Yevropada jamiyat rivojining kuchayishi axloq me'yorlarining xristiancha talablari doirasiga sig'may qoldi. XVIII asr mutafakkirlari ijtimoiy me'yor va undan chekinish muammosini yanada chuqurroq tahlil qildilar. Sh.L.Montesk'e, J.J.Russo, Ch.Bekkaria, Gel'vetsiy, D.Didro, P.Gol'bax, Morelli va Sh.Furelar o'z ilmiy izlanishlarida ijtimoiy me'yorlar, qadriyatlar uchun umumiy bo'lgan qonuniyatlarni topishga intilganlar.

XIX asr oxirlarida tabiiy fanlarda erishilgan ilmiy yutuqlar ijtimoiy fanlar taraqqiyotiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Xususan, sotsiologiyada ijtimoiy me'yordan og'ish holatlarini tushuntiruvchi dastlabki ta'limot — **E.Dyurkgeymning «anomiya»** g'oyasi yaratildi. Ma'lumki, sotsiologiyaning fan bo'lib shakllanishida ijtimoiy patologiya omiliga e'tibor qaratilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada E.Dyurkgeymning to'rtta asari chop etilgan bo'lib, shulardan biri *O'z joniga qasd qilish»* (1897) kitobi deviantlik muammosiga bag'ishlangan edi.

Amerika sotsiologiyasida muhim o'rin tutuvchi ta'limotlardan biri E.Saterlendning **differentzial aloqalar ta'limotidir**. Bunga ko'ra, har qanday xulq-atvor, shu jumladan, deviant xulq-atvor ham o'rganiladi, ya'ni mavjud jamiyat a'zolari tomonidan mazkur xulq-atvor boshqalarga o'rgatiladi.

Deviant xulq-atvor muammolarini tahlil qilishda R.Merton ishlab chiqqan ta'limot sotsiologiyada yetakchi o'rin tutadi. E. Dyurkgeymning anomiya g'oyasini rivojlantirib, Merton deviant xulq-atvorga quyidagicha ta'rif beradi: «Deviant xulq-atvor jamiyatda e'lon qilingan qadriyatlar va rasmiy xulq-atvor standartlari bilan aholi xulq-atvor motivlari hamda mavjud imkoniyatlarining bir-biriga mos kelmay qolishi natijasidir».

Shaxslarda yuz beruvchi deviant holatlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan uchta omilni ko'rsatish mumkin. Bular **shaxs xususiyatlari, muammoli holat va ijtimoiy nazorat institutlari**. Aynan mana shu omillar shaxsning qanday faoliyat yuritishini belgilab beradi.

Shaxs xususiyatlarining shakllanishida asosan 3 ta omil muhim ahamiyat kasb etadi, bular: 1) irsiy omillar; 2) psixo-fiziologik omillar; 3) shaxsning bilim darajasi.

Shuningdek, ijtimoiy og'ishlarning yuz berishiga shaxsning qat'iyatli yoki qat'iyatsizligi, prinsipialligi yoki prinsipsizligi, qoidalarga bo'ysunish yoki bo'ysunmaslik odatlari, biron-bir qarorga kela olish imkoniyati, tashqi ta'sirga qanchalik berilishi, irodasi va boshqa shu kabi psixofiziologik holatlari, mijozi ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Deviant xulq-atvorni o'rganishda muammoli vaziyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muammoli vaziyat shunday holatki, u sub'yektdan yechimini talab qiladi, uning yechimi ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan bo'lsa-da, u yoki bu sabablarga ko'ra, ushbu me'yorlarni qo'llash qiyinroq bo'ladi.

Eng katta muammoli vaziyat ziddiyatli holatlarda, ya'ni turli shaxslar yoki guruhlarining manfaatlari bir-birlariga to'qnash kelganda yuz beradi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z joniga qasd qilishlarning 40%i oilaviy ziddiyatlar oqibatida sodir etiladi.

Ziddiyatli holatlarning yuzaga kelishiga ba'zan shaxs xususiyatlari sabab bo'lsa, ba'zan kichik ijtimoiy guruhlar, oila, mahalla, ishlab chiqarish brigadasi a'zolari, sinfdoshlar orasidagi salbiy munosabatlar ham sabab bo'ladi.

Jamiyatda shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi muammoning va uni hal qilish imkoniyatlarining murakkabligi darajasiga ko'ra muammoli holatning to'rtta asosiy holati ko'zga tashlanadi: 1) hech qanaqa muammo yo'q holat, holat hech qanaqa qaror qabul qilishni talab qilmaydi; 2) muammo bor, biroq qiyinroq yoki osonroq bo'lsa-da, uning echimi ham ijtimoiy me'yorlarda ko'rsatilgan holat; 3)

mavjud muammoni sub'yekt ijtimoiy me'yorlar doirasida hal qila olmaydigan holat; 4) muammoni hech qanaqasiga hal qilib bo'lmaydigan holat. Ushbu turlicha holatlar keng ko'lamda biridan ikkinchisiga o'tib turadi.

Muammoli holatning mazmuni sub'yektning individual maqsadlari bilan jamiyat manfaatlar orasidagi maqsadlar va unga erishishning mumkin bo'lgan vositalari orasidagi, faoliyatning kutilayotgan oqibatlari va uning qo'shimcha natijasi (ijobiy yoki salbiy) orasidagi, shuningdek, ijtimoiy me'yor talablari va shaxs xususiyatlari orasidagi ziddiyatlarning (ko'pincha o'ylab chiqarilgan) paydo bo'lishidan iboratdir.

Jamiyat a'zolari shaxsiy nuqtai nazarlarining shakllanishiga, ularning deviant xulq-atvoriga nisbatan ijtimoiy faol munosabatlarining tarkib topishiga tarbiyaviy jarayonlar uchun bevosita mutasadli shaxslar, tashkilotlar rahbarlarining o'rnini va roli kattadir. «Ba'zilar mumkin, boshqalarga mumkin emas», «hozir yaxshi, ertaga yomon» va shu kabi munosabat holatlarining ikkilamchi fe'l-atvor shaklida, ya'ni parallel standartlar yo'nalishida amal qilishiga izn berish juda xavflidir. Shu boisdan, har qanday holatlarda ham mansabdor shaxslar, turli jamoat tashkilotlari va mehnat jamoalarining rahbarlari, pedagog va tarbiyachilar, qonunni himoya qiluvchi tashkilotlar vakillarining xulq-atvor me'yorlarini buzishi qat'i qoralanadi.

Deviant xulq-atvor turlariga kiruvchi ichkilikbozlik, giyohvandlik, o'z-o'zini o'ldirishlar bilan bog'liq ijtimoiy illatlarning har biri yuzaga kelishi va sotsial oqibatlariga ko'ra mohiyatan farqli jihatlarga egadir.

Birinchii farq, ijtimoiy zararli odatlarning uzoq davom etishi deviant xulqi turmush tarzining uzviy bo'lagiga aylanib ketishidan iborat bo'ladi. Doimiy oilaviy kelishmovchiliklar, oila va atrof-muhitdan norozilik, quyidagi tushunmovchiliklar va hokazolar—bularning barchasi sub'yekt ruhiyatini jarohatlaydi hamda u mavjud vaziyatni o'zgartirishga urinadi. Bu o'rinda ijtimoiy institutlardagi kamchiliklar, shu jumladan, ziddiyatlar rivojlanishining oldini oluvchi va ularga qarshi kurashuvchi ijtimoiy nazorat tizimlari ham salbiy rol o'ynaydi.

Bularning **ikkinchi farqli jihati** yuqoridagi holatlarni hal qilishning ma'lum qiyinchiliklarga egaligidir. Ma'lumki, har qanday holatda ham, ko'p «qurbon» berib bo'lsada, to'g'ri yechimga erishish mumkin. Lekin hamma gap shundaki, sub'yekt «qurbon» bera oladimi: xotini (yoki eri) bilan ajralib keta oladimi, yangi kasbga ega bo'la oladimi yoki yo'qmi. Qat'iy qarorga kela olmay, ko'pincha sub'yekt «o'rinbosar» vositalarga, ichkilik va giyohvand moddalarga murojaat etadi.

Bunday holatlarning **keyingi farqi shundaki**, ko'pincha sub'yekt ularni hal qilishning noto'g'ri yo'llarini tanlaydi. Oilaviy va ishdagi janjallar odatga aylanib qolganda bundan «qutulishning» noto'g'ri hayoliy yo'llari, ichkilik, giyohvand vositalar va hokazolarga murojaat etiladi. Biroq bu yo'l ziddiyatning chuqurlashuviga va turmush tarzini zararlantiruvchi omilga olib keladi.


Statistik ma'lumotlarga qaraganda O'zbekistondagi jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 2002 yili 49173 shaxsga nisbatan jinoyat ishi ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2163 tasi voyaga yetmaganlardir, bu esa 4,3%ni tashkil etadi. Bulardan 613 tasi (28%) maktab o'quvchilari, 644 tasi (29%) litsey va kollej o'quvchilari ekanligi aniqlangan.

2003 yilning 9 oyida 49584 shaxsga nisbatan jinoiy ish ko'rilgan bo'lsa, ulardan 2049 tasini (4,1%) voyaga etmaganlar tashkil etadi. Ularining 613 tasi (29%) maktab o'quvchilari, 160tasi (7,8%) litsey va kollej o'quvchilari.

Lekin keyingi yillarda sotsiologik tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, olimlarimiz deviant xulq-atvor sotsiologiyasida-jinoyatchilik ichkilikbozlik, giyohvandlik, fohishabozlik, byurokratiya kabi illatlar, **axloq-me'yorlari normalariga zid bo'lgan salbiy holatlardan tashqari ayrim iste'dodli yoshlarda** uning ijobiy tomonlari borligini ham aniqlaganlar. Masalan, hayotda katta obro'-etiborga ega bo'lgan ayrim buyuk shaxslar, davlat arboblari, yozuvchi, shoirlar, artistlar va boshqalar ilk bolalik davridagi deviant xulq-atvorida injiqlik, qo'pollik, qaysarlik singari salbiy illatlarga ham egabo'lganlar. Shu boisdan bunda ta'lim-tarbiya shaxs faoliyatida muhim o'rin tutadi.

Tayanch iboralar

Odam, individ, shaxs, ijtimoiy mavqe, ijtimoiy rol, sotsial adaptatsiya, sotsial interiorizatsiya, tabiiy ehtiyojlar, sotsial ehtiyojlar, deviantlik holatlari.



Shaxsning ijtimoiylashuv davri quyidagi bosqichda kechadi:

- 1) **Bolalik:** - agentlar va ijtimoiylashuv turlari.
- 2) **Ota-onalik:**
 - otalar va bolalar: ikki dunyo;
 - «otalar va bolalar» munosabatlarining mutanosibligi.
- 3) **O'spirinlik:** - qadriyatlar parallel tizimi.
- 4) **Balog'at yoshi:**
 - voyaga etgan inson maqomining asosiy mezonlari,
 - voyaga etganlar - shaxs ijtimoiylashuvining faol payti.
- 5) **Keksalik:**

Shaxs sotsiologiyasida shaxs manfaati alohida o'ringa ega. Shaxs manfaati – bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojini qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir. Manfaatlar asosida kishilarning ehtiyojlari yotadi. Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida manfaat ehtiyojini anglashda muhim rol o'ynaydi. Manfaatning 4 turi mavjud:

Munosabat manfaati: - shaxs faoliyatida u yoki bu ob'yektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaati 2 ko'rinishda kechadi

a) asosiy munosabat manfaati
- bu shaxsning hayotida maqsad va vazifasini, harakatlarini o'z ichiga oladi

b) yordamchi yoki ikkinchidarajali munosabat manfaatidir. Bu shaxs faoliyatining maqsad va vazifalaridan tashqari uning boshqa voqeikka qiziqishini bildiradi


Harakat manfaati: – shaxsning u yoki bu faoliyatida qatnashishida ko'rinadi. Aktiv yo passivligini bildiradi. Harakat manfaati

a) maqsadli va b) maqsadsiz bo'lishi mumkin (boshlang'ich faoliyati bilan cheklanib qolgan, tor doiradagi harakat).


Tayanch manfati: – shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq sotsial ta'sirlashuvida shakllangan va turli vaziyatlarda o'z yo'nalishini saqlab qolgan manfaatdir. Shaxslararo va guruhlararo munosabatlarda shakllanadi.

Yo'nalish manfaati: – bu yo'nalish manfaatlar ichida juda murakkab bo'lib, u shaxs manfaatlaridan birini tanlashi bilan bogliq.

Shaxsning tipi u yashaydigan jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga bog'liq. Shaxsning shakllanishini belgilovchi omillar quyidagilardan iborat



Shaxsning sotsial sifatleri 3 ta kichik tizimdan iborat



6- MAVZU

6-mavzu. Jamoatchilik fikri va mahalla sotsiologiyasi

- 6.1. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining ob'ekti va sub'ekti.
- 6.2. Jamoatchilik fikrining dolzarb yo'nalishlari va ularning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi.
- 6.3. Mahalla o'ziga xos sotsiologik ob'ekt sifatida O'zbekistondagi mahalliy boshqaruv tizimi shakli.

Jamoatchilik fikrining ob'ekti va sub'ekti.

Jamoatchilik fikri tushunchasi ma'no mazmuni nuqtai nazardan "jamo", "jamoatchilik", "fikr" so'zlarining mantiqiy maqsadli uyg'unlashuvi mahuslidir. Jamoatchilik fikrini teran va to'g'ri anglamoq uchun yuqoridagi tarkib yasovchi so'z

terminlar mohiyatini avval boshdan anglab olmoq muhimdir. Hozir va o'tmishda, vatanimiz yohud xorijiy mamlakatlar tadqiqotlari bu terminlar mazmuniga turlicha talqin berishib, ularga maqsaddan kelib chiqadigan ma'no yuklatib kelingan. Xususan, aksariyat tadqiqotlarda jamoatchilik fikrining tarkibiy qismi bo'lgan "fikir" tushunchasi "tasavvur", "muhokama", "qarashlar", "mulohazalar", "ishonch", "e'tiqod", "lafz", "fikir bildirish", "plyuralizm" va hokazo terminlarga sinonim tushuncha sifatida ham talqin etiladi. Fikir tushunchasining bunday har yoqlama talqini jamoatchilik fikrini tushinishda muayyan murakkabliklar tug'dirishi tabiiydir.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi – ijtimoiy guruhlarining mavjud voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilish qonuniyatlarini o'rganuvchi fandir.

Jamoatchilik fikri o'zi nima?

Jamoatchilik fikri – xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir (Gegel), jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy bo'lmagan narsalar chatishib ketsada, u har bir davrda katta kuchga ega bo'lib ketgan.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari, aytaylik, fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. Chunki fikrning o'zida u yoki bu holatga nisbatan taxminiy, ehtimoli bo'lgan uchun ham ko'pincha insonlar ongida vujudga keladigan o'tkinchi, o'zgaruvchan fikr, mulohaza, his-tuyg'ulari yig'indisidir. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan hisoblashmaslik kerak degan gap emas. Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etish predmeti – bu jamoatchilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal mexanizmlari masalalaridir.

Jamoatchilik fikri atamasi inglizcha "publik opinion" so'z birikmalaridan olingan bo'lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo'llanilgan keyinchalik boshqa mamlakatlarga o'tib, XVIII asr oxiridan boshlab keng tarqalgan. Xuddi shuningdek jamoatchilik tushunchasi xususida ham ilm fanda yakdil qarashlarni yo'qligini e'tirof etish jozidir. "Jamoatchilik" tushunchasi eng qadimgi davrlarda xususan qo'hna Ellada va Rim davlatlari siyosatida muhim o'rin tutgan bo'lib, unga xalq fikri nuqtai nazaridan qarab kelingan. Garchi qadimgi Ellada mamlakatida jamoatchilik fikriga muhim ahamiyat berib kelingan bo'lsada, bu masalada ko'proq differentsial yondoshuv ustunlik qilgan. Xususan, xalq fikri zodagonlar, askar boshliqlari, shaharliklar ozod afinaliklar fikri periferiya, polislar yohud plebeylar va qullar fikridan keskin farq qilgan. Shu boisdan "jamoatchilik" termini qadimgi Yunon va Rim davlatlarida "el xalq maqsad tilaklari", Olmoniya, Farangiston va Angliyada "omma hohish irodasi", Polsha va Chexoslovakiyada "guruh", Rossiyada "yig'in fikr yodi" ma'nolari bilan uyqash tushunib kelingan. Movarounnahming ko'p yillik tarixida jamoatchilik termini muqaddas tushunchalardan sanalib shaxs va jamoa munosabatlarida birlamchi o'rin tutib kelgan. U shaxsning tavalludidan boshlab butun hayoti davomida muayyan mayoq vazifasini o'tab, tartib qoidalar, tuzuklar, qonunlar, urf-odatlar va an'analar tarzida amal qilib kishilarning hatti-harakatlari, o'y fikrlari, orzu va rejalarini muayyan maqsadlar sari yo'naltirib kelgan. Jamoatchilik fikrining shaxs va jamiyat munosabatlarida ustun mavqeiga egaligi jamoatchilik

tushunchasini esa yondashuv nuqtai nazar ma'nosida anglash imkonini beradi. Shu boisdan, bizning nazarimizda jamoatchilik fikri tushunchasini xalq yondoshuvi xalq nuqtai nazari tarzida tushunish maqsadga muvofiqdir. Zero, fikr nuqtai nazar ma'nosida tutilganda o'z lug'aviy mazmuni zamiriga mulohaza, baholash, qarashlar singari tarkibiy hamda tizimiy tushunchalarni ham qamrab oladi. Shunday qilib jamoatchilik fikri tushunchasiga berilgan yuqoridagi ta'rif negizida mazkur ijtimoiy hodisa mohiyati va tarkibiy qismlari xususida atroflicha mulohaza yuritish mas'uliyati mujassamlashganligini e'tiborga saqlamoq lozimdir.

Jamoatchilik fikri tushunchasining ma'no doirasi juda keng bo'lib, uning tarkibiga mazkur ijtimoiy hodisaning shakllanishi umuminsoniy vazifalarini hal etishidagi o'rni va ta'lim masalalari ham kiradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, jamoatchilik fikri mohiyatini izohlovchi turli-tuman ta'riflar mavjud bo'lib, ular ijtimoiy ongning bu hodisasi mazmunining u yoki bu jihatlarini oydinlashtirishga to'la qonli yaxlit tasavvur shakllanishga shubhasiz ko'maklashadi. Jamoatchilik fikri termini Harbiy Evropada ilk da'fa Angliya huquq nazariyasi fanida qo'llanilgan bo'lib, so'ngra u Olmoniya, Farangiston mamlakatlari ijtimoiy – siyosiy hayotida keng foydalana boshlandi. XVII-XVIII asrlarda Angliya ijtimoiy hayotida mazkur muammo bir muncha tor tushunilib, asosan siyosiy fikrlar jamoatchilik fikri sifatida talqin qilib, mamlakat miqyosida Parlamentida qabul qilingan qarorlarga nisbatan xalqning qarshi yoki tarafdor kayfiyati jamoatchilik fikri sifatida talqin etib kelindi.

XVIII – asr so'ngigiga kelib Angliyada shaxs erkinligi va ozodligi amalga ta'minlanganligi, har bir shaxsga o'z mulohaza va nuqtai nazaralarini oshkora tez hal eta olish huquqlarini rasman berilganligi va qonun yo'lida mustahkamlanishi bilan jamoatchilik fikri tushunchasi keng ommalasha boshladi. Jamoatchilik fikrini ommalashuvi jamiyatda rasmiylashuvi, tashkiliy shakllanish jarayonlarini ham tezlashtirib yuboradi. Ijtimoiy xayot tarkibida turli xil siyosiy oqimlar partiyalar, uyushma va jamiyatlar faol amaliy-nazariy say harakatlarini boshlab yubordilar. Turli xil tashkilot va birlashmalarga uyushgan kishilar tabiat va jamiyat xususidagi tasavvur va rejalarini yanada kengroq yoyish maqsadlarida ommaviy axborot vositalari taraqqiyotiga kuchli turki berdilar. Bu esa jamoatchilik fikri yuzasidan boy emperik materiallarni to'planishi va natijada uni nazariy tatqiq etish jarayonini dolzarb masala sifatida ko'p tartibiga qo'ya boshladi. Bu xususida amalga oshirilgan ilk tadqiqotlar xususidagi ma'lumotlarni Brays va F.Golstendrof asarlarida uchratamiz. Bu asarlarda ilgari surilgan fikrlarga ko'ra, g'arbiy Evropada jamoatchilik fikri XIX asr oxiriga qadar huquqshunoslik fanining predmeti sifatida o'rganib kelingan. XX asr boshlaridan e'tiboran esa jamoatchilik fikri bilan ijtimoiy psixologiya fanining yirik namoyondalari jiddiy qiziq boshladilar. Qisqa vaqt ichida G.Lebon, V.Baur, Ch.Kuli, U.Limpan va boshqa yirik mutaxassislarning salmoqli tadqiqotlari nashrdan chiqazildi. Bu asarlarda jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan holati, ilmiy boshqarishga moyil hodisa ekanligi, muayyan yo'nalishdagi motivastion omillar hosilasi sifatida talqin etildi.

Jamiyat hayotiga sotsiologiya fanining kirib kelishi jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyatini keskin kuchaytirdi. Jamoatchilik fikri sotsiologiya fanining uzviy tadqiqot ob'ekti sifatida atroflicha o'rganila boshlandi. Ayni chog'da mazkur

muammoni ilmiy ta'riflash hamda yondashishda qator plyuaralistik nuqtai nazaridan ilgari sura boshlandi.

Shubhasiz, jamoatchilik fikri kishilarning u yoki bu hodisaga nisbatan bildirgan e'tiroziy yohud e'tirofiy munosabatlari taklif va istaklari jamul-jamidir.

Jamoatchilik fikri mohiyatini umumiy tarzda va to'g'ri baholashda amerikalik sotsiolog U.Lipmon nuqtai nazari e'tiborga loyiqdir. Jamoatchilik fikri deb ta'kidlaydi, u kishilarning umumiy, jamoaviy manfaatlari ifodasidir.

XIX asr fransuz jamiyatshunos olimi A.Sonining fikricha, jamoatchilik fikrlari o'z ijtimoiy -siyosiy g'oyalari va nuqtai nazarlarini targ'ib tashviq etish ommalashtirish imkoniga shakllantirilishi mumkindir. Angliyalik faylasuf Dj.Lokn jamoatchilik fikri ta'sir doirasini toraytirib tushuntirishga urinadi. Tabiiyki, bunday yondashuvlar jamoatchilik fikrining ahamiyati va ijtimoiy ta'siri ko'lamlarini etarli anglamaslikdan boshqa narsa emasdir. Jamoatchilik fikriga adabiyot va san'at va diniy muassasalar arboblari ham turlicha izoh va ta'rif berishga harakat qilganlar, zero, aksariyat hollarda adabiyot, san'at borasida iste'dodli asarlar, muqim ijtimoiy-siyosiy voqealar, diniy qoida va qarashlar tevaragida ham kuchli jamoatchilik fikri shakllanishi, jamiyatda muayyan ijtimoiy rezonans tug'rdirishi tabiiydir.

Shunday qilib, jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning axloq, siyosat, san'at, din singari shakllardagi ma'lum holati va ayni chog'da mazkur sohalarida uning nechog'li namoyon bo'lish mezonini hamdir. Gegel o'zining "Huquq falsafasi" asarida jamoatchilik fikri va mohiyati xususida mulohaza yuritib, unga "muvofiqlik" mezoniga ko'ra uyg'unlashuvga fikrlar jamuljamidan o'zga hodisa emas deb qaraydi. "Kishilar - deb qayd etadi ulug' faylasuf - ijtimoiy hodisalar xususida o'z mulohazalarini izhor etishlari hisobiga ko'pchilikning o'zaro mantiqan muvofiq umumiy fikri yuzaga keladi". Gegelning ta'kidlashiga ko'ra, jamoatchilik fikri "xalq o'y-xayoli va hohishlarining noorganik birlashuvi va yalpi namoyon bo'lishidan o'zga narsa emasdir". Gegel ijtimoiy xayot sohalarining ba'zilarida, xususan, ilm-fan muammolariga yondoshishda jamoatchilik fikridan foydalanmaslik nuqtai-nazarini, ilgari suradi. U ilm-fan chuqur tekshirishi, atroflicha tadqiq etilgan ma'lumotlar negizidagina takomil topishini ta'kidlaydi. Aksariyat hollarda jamoatchilik fikri "maxsus tayyorgarlikdan o'qimagan kishilar fikr-mulohazalarining yig'indisi sifatida ko'pgina tasodifiy faktlar, tasdiqlanmagan xabarlar, fisq-fasod va g'iybatlar asosida ham shakllanishi mumkin" deb uqtiradi.

Shunday qilib, Gegel jamoatchilik fikriga baho berishda ehtiyotkorlik va sovuqqonlik zarurligini ta'kidlab masalaga birmuncha konservativ boshqaruv jarayonlarida anglashni inkor etadi.

Jamoatchilik fikri bilan bevosita shug'unlanuvchi mutaxassislar bu ijtimoiy hodisaning murakkabligini ta'kidlashadi. Darhaqiqat, jamoatchilik fikrini tasvirlash, aniqlash mushkul, uni o'lchab bo'maydi. Lekin u hamma joyda mavjud, uning ta'sirini alohida shaxs hatti-harakatida ham, omma xulq-atvor faoliyatida ham ko'rsa bo'ladi.

Jamoatchilik fikrining strukturasi tahlil qilishda birinchi navbatda uning ob'ekti va sub'ekti masalalarga e'tiborni qaratish zarur. Jamoatchilik fikrining ob'ektini aniqlashda, dastavval ikkita muammo e'tiborga molikdir.

1) Jamoatchilik fikrini unda aks ettirayotgan voqealikning o'ziga xosligi nuqtai nazaridan tahlil etish. Boshqacha qilib aytganda, jamoatchilik fikri dunyodagi hamma narsa to'g'risidagi fikr qila olishi mumkinmi yoki uning mulohaza doirasi chegaralanganmi?

2) U yoki bu hodisa, jamoatchilik fikrining ob'ektiga aylanishining mezonlarini aniqlash, boshqacha aytganda, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan ob'ekt qanday sifatleri, xususiyatlari bilan farq qiladi.

Birinchi savolga javob tariqasida avvalo shuni qayd etish kerakki, jamoatchilik fikrining ob'ekti bo'lib ham ob'ektiv voqelik, ham sub'ektiv reallik faktleri hisoblanishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri ma'lum darajada chegaralangandir, muayyan bir holatlarga jamoatchilik mulohazalarining ob'ekti bo'la oladi. Bular a) voqea va hodisalarning haqqoniy mavjudligi; b) voqea hodisalar o'rtasidagi munosabatlar; v) voqea-hodisalarning kishilar ongida aks etishi. Ushbu holatlar jamoatchilik fikri sotsiologiyasida "aniqlik chegarasi" deyiladi. Bu "chegaradan" tashqarida bo'lgan narsalar to'g'risida jamoatchilik fikri mulohazaga ega bo'la olmaydi.

Endi jamoatchilik fikrining ob'ektiv tanlash mezonlariga to'xtalamiz. Duch kelgan har bir narsa, hodisa, voqea, jarayon yoki fakt ham birvarakayiga jamoatchilik fikri ob'ekti bo'lavermaydi. Jamoatchilik fikrini uyg'otishning birinchi omili ijtimoiy manfaat bo'lib, bevosita manfaat tug'diradigan dolzarb hodisa yoki narsalarga mulohazaga sabab bo'ladi. Chunki bunday holatlar kishilardan baholovchi munosabatni bildirishini talab etadi. Omma fikrining shakllanishi asosida "umumiy ish" yotadi.

6.2. Jamoatchilik fikrining dolzarb yo'nalishlari va ularning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi.

Ta'kidlash joizki, taraqqiyotning keyingi bosqichlardan xususan, XXI asr bo'sag'alarida jamoatchilik fikrining yuzaga kelishi, shakllanishi va amal qilishi jarayonlarida hamda uning ta'sir ko'lamlari keyingi kengayishida ilmiy bilimlar ishtiroki har tomonlama orta boshladi. Bu narsa halqaro "Ekosan", "Grinpis" singari uyushmalar faoliyatlarida ekomuhitni saqlash borasida amalga oshirilayotgan xalqaro dasturlar, yadro quroli sinovlarining tabiiy muhitga ko'rsatayotgan zararlarni asoslab ilgari surilayotgan ijtimoiy talablar, planetamiz imkoniyatlari va resurslaridan xojasizlarcha foydalanishga qarshi harakatlarida yaqqol ifodasini topmoqda. Zero, jamiyat xayotiga ilmiy bilimlar, fan yutuqlari ta'sirining orta borishi ijtimoiy ongning insoniylashuvi (gumanizastiya) tendenstiyasini kuchaytirish tabiiydir.

Hozirgi zamonda Amerika olimlar jamoatchilik fikri tarkibini tahlil etganimiz, uni "publika" omma tushunchalari bilan mustahkam bog'liqlikda o'rganishga undaylar K.YUng va L.Firmen jamoatchilik fikrini biror-bir masala, muammoning echimining echimi xususida bildirishgan fikrlar jamlansami, shu boradagi e'tiqod va

ishonch bilan uzviy bog'liqda tushuntiriladilar. Jamoatchilik fikri muayyan guruhning biror-bir ijtimoiy xususida bildirilgan e'tiqodi, fikr-qarashlarining ifodasidir.

Bunday izoh jamoatchilik fikrini muayyan guruh, olomon fikri, jamoatchilik fikri sube'ktlarini esa bevosita tabiiy va mazmunan mantiqiy uyushuvlar zarur bo'lmagan tasodifiy to'da sifatida tasavvur etishga olib keldi.

Jamoatchilik fikrini yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, muayyan, mavhum, guruh, to'da fikr tarzda tushunishni rus olimi V.I Bexterov o'ziga xos asoslashgan harakat qiladi. Olimning ta'kidlashiga ko'ra, jamoatchilik fikri tashkiliy tarkib topgan yig'inlar, muloqot shakllari parlament, s'ezd, kongress, muntazam o'tkazib turuluvchi majlislarda birlashgan jamoatlar tomonidan ifodalovchi mulohazalar majmui hamda aniq va konkret kasbkoriy sohalar ya'ni qalam ahli yozuvchi va shoirlar olami o'qituvchilar davrasi – pedagogik muhit, harbiy, tibbiy va boshqa sohalarida shakllanuvchi fikr qarashlar jamuljamidan iboratdir.

V.I.Bexterov ramiy uyushgan yig'inlarda bildiruvchi fikrlarni amaliy kuchga ega bo'gan jamoatchilik fikri sifatida olomon tomonidan o'rtaga qo'yiluvchi talab va takliflarni esa amaliy kuchga ega bo'lmagan passiv jamoatchilik fikri tarzida talqin etadi. Mazkur xulosalrdagi umumiy fikr bilan jamoatchilik fikri o'rtasidagi muayyan miqdorlarda o'ziga xoslik yohud farq mavjudligini e'tirof etgan qoida umumiy fikr va jamoatchilik fikri sifatida Xitoy devori talqin etish maqsadga muvofiq emasdir. Bizning nazarimizda umumiy fikr jamoatchilik fikrini uyg'un tarkibiy qismi hisoblanadi va ular muayyan ijtimoiy maqsadlarga erishi jarayonlarida biri ikkinchisini to'ldirib boradi. Jamoada yuzaga keluvchan nuqtai nazarlarning tadrinsiyiligi har qanday fikrning tugal ijtimoiy mohiyati kasb etishida kishilarning turli muloqot shakllaridagi mulohazalari muayyan jarayoniy bosqichlar vazifasini o'tab borishini ham ta'kidlash lozimdir. Ayni chog'da jamoalar fikri o'zining haqqoniyligi va adolatligi xayot manzaralariga muvofiqligi bilan tuzum davrida jamoatlarda shakllantiriladigan ijtimoiy fikr markscha-lenincha mafkura nuqtai nazardan deformastiya qilinlar va real borliq muammolarini aynan ifoda etishdan mahrum edi.

Jamoatchilik fikri funkstivalari

Jamiyatni rivojlantirishda keng jamoatchilik fikri suyanish katta tarixiy tajribaga suyanishni talab etadi.

Jamoatchilik fikri quyidagi funkstiyalarni bajarib kelinganligining shohidi bo'lishgan.

1. Direktiv, ya'ni qarorlar qabul qilishda jamoatchilikning keng ishtiroki.
2. Konsultativ-qarorlarni hayotga tadbiq etishda, hukm chiqarishda keng jamoatchilik bilan maslahatlashishi.
3. turli davlatlar va nodavlat tashkilotlar ishi ustidan nazorat o'rnatishda.
4. Ekspressiv (nazorat) – ya'ni favqulodda hodisalarning oldini olish va bartaraf etishda va hokazo funkstiyalarni bajaradi.
5. Konstruktiv funkstiyasi. Bu sube'ktlarning ijtimoiy munosabatlari va jarayonlarini o'ziga xos programmalashtirishdir.

6. Regulyativ (boshqaruv) funkstiyasi.
7. Baholash funkstiyasi.
8. Pozitiv (ijobiy) funkstiya.
9. Negativ (salbiy) funkstiyalarni bajaradi.

Umuman, jamoatchilik fikri funkstiyalarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Jamoatchilik fikrining mohiyati va mazmunini ifoda etuvchi funkstiyalar: a) gneseologik; b) baholash;
2. Jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahamiyatini ifoda etuvchi funkstiyalar: a) tarbiyalash; b) rag'batlantirish; v) nazorat qilish; g) maslahat.
3. Jamoatchilik fikrining kishilarga ta'sirini ifoda etuvchi funkstiyalar.

Nihoyat, ifodalanish shakliga ko'ra jamoatchilik fikri ikki pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) funkstiyalarni bajaradi. Darhaqiqat, jamoatchilik o'z fikrini doimo qo'llab quvvatlash va aksincha, inkor etish, qoralash ko'rinishida bildirishi mumkin. Sube'kt ijtimoiy jarayonlarda oylik ishtirok etishga tayyorligini bildirgan taqdirda jamoatchilik fikri pozitiv, agar sube'kti norozilik bildirib, hech bir harakatni sodir qilmagan taqdirda negativ vazifani bajaradi.

Mamlakatning rivojlanishi, dunyoda o'z o'mi va mavqeiga ega bo'lishi uchun jamoatchilik fikrining islohotlarga munosabati, ularning boshqaruvidagi ishtiroki, hukumat qarorlarini nazorat qilib borishi juda muhimdir.

Biz davlat idoralari ustidan jamoatchilikning nazoratini o'rnatishga erisha olmasak, poraxo'rlik, qonunbuzarlik, o'z mansabini suist'emol qilish kabi illatlarni tak tomiri bilan tugatishning imkoni bo'lmaydi. Bunga erishish uchun eng avvalo jamoatchilik vakillarining siyosiy, ijtimoiy saviyasini o'stirish kerak. Har bir fuqaro o'z huquqini yaxshi bilishi va uni himoya qila olishi zarur. Odamlarning huquqiy madaniyat, huquqiy ong, huquqiy bilimlar bilan qurollantirish asosiy vazifalardan biri bo'lishi shart. Toki, jamiyatning har qaysi a'zosi o'z huquqi, o'z burchi va ma'suliyatni puxta bilmas ekan, uni hayotiy ehtiyoj sifatida anglamas ekan, bizning islohot, yangilanish haqidagi barcha sa'iy harakatlarimiz besamar ketaveradi.

Hayotimizda qonun talablari bo'zilishiga asosiy sabab- ijtimoiy tashkilotlar, nodavlat tashkilotlar, mahalla, ayollar, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalarining hayotimizga ta'siri va o'mi etarli darajada shakllanmagani bilan izohlash mumkin.

Huquqiy, nodavlat tashkilotlari ustidan nazorat o'rnatishda, jamoatchilik va ijtimoiy tashkilotlar bilan birga, avvalam bor fuqarolar va jamoatchilik erkin fikrini ifoda etuvchi ommaviy axborot vositalari ish olib borishi, haqiqat va adolat uchun kurashga qattiq bel bog'lashi lozim.

Jamoatchilik nazoratining tub mohiyati shundaki, jamoatchilik amalga oshirayotgan islohotlar sur'atini, ularning sifatini, islohotlar boshida turgan rahbarlarning g'ayratini, layoqatini holisona o'rganib, yutuqlarni e'tirof qilib, kamchiligini ro'y-rost ochib tashlashimiz kerak.

Hozirdanoq, davlat organlarining ayrim vaklatlarini bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan nodavlat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga berib borish lozimligini hayotning o'zi yaqqol ko'rsatmoqda.

Bevosita jamoatchilik fikri asosida amalga oshadigan jarayonlardan biri saylovlardir. Xalq saylovda ilg'or, etuk va o'zida ta'surot qoldirgan rahbarni, liderni tanlab olishga imkon beradi. Saylovlar xalqni boshqara olmaydigan, loqayd rahbarlardan voz kechishga, har tomonlama etuk, ilg'or g'oyalarni olg'a suruvchi, jamiyatning rivojlanishiga o'z hissasini qo'shuvchi rahbarlarni qo'llab-quvvatlashga katta yordam beradi.

Iqtisodiyotning rivojlanishida, jamiyatning adolat va demokratiyaning qaror topishida turli xil jamoatchilik tashkilotlarning o'mi juda kattadir. Agar nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy tashkilotlar, yoshlar va boshqa jamoat birlashmalarning hayotimizga ta'siri qanchalik kuchli bo'lsa va ular o'z o'miga ega bo'lsa, demokratik har tomonlama rivojlangan davlatning qaror topishi shunchalik tezlashadi.

Masalan, sobiq SSSRning tarqalishi yoki uni saqlab qolish masalasi keng jamoatchilik fikri asosida – referendum natijalariga binoan hal qilindi.

Xuddi shuningdek, O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning Prezidentlik vakolat muddatini Oliy Majlis deputatlari ishi bilan muvofiqlashtirish masalasi ham referendum orqali jamoatchilik fikrini o'rgangan holda uning vakolati 2000 yilga qadar uzaytirildi.

Konstitutsiya va boshqa qonunlarning qabul qilinish jarayonlari ham jamoatchilik muhokamasidan so'ng o'zgartirishlar kiritilgan holda amalga oshirilmoqda.

Sud jarayonlarida ham hamisha jamoatchilik vakli sud maslahatchisi sifatida ishtirok etib kelmoqda.

Jamoatchilik fikriga sabab bo'ladigan birinchi omil – manfaatdir.

Jamoatchilik fikriga sabab bo'ladigan ikkinchi omil bu – munozaralilikdir. Boshqacha aytganda, u yoki bu darajada munozarali, bahsli holatga ega bo'lgan hodisalargina jamoatchilik fikri predmetiga aylanishi mumkin. jamoatchilik fikri doimo hali hal bo'lmagan masalalar bo'yicha shakllanadi va hech qachon so'zsiz, aniq masalalar bo'yicha tug'ilmaydi.

Nihoyat, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan uchinchi omil – malakalilikdir. Bu shuni anglatadi, jamoatchilik bilishi va tushunishi mumkin bo'lgan hodisalargina jamoatchilikning ob'ekti bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik fikri sub'ekti deganda, avvalo jamoatchilik doirasida fikr uyg'ota olish qobiliyatiga ega bo'lgan fikr egasi va ifodalovchisi tushuniladi. Shu o'rinda sub'ekt sifatida alohida individ, kichik guruhlar, jamoa, millat, sinf va hatto jamiyat hisoblanishi mumkin.

Jamoatchilik fikrining bilish imkoniyati muayyan – tarixiy xususiyatga ega, ya'ni u jamiyatda mavjud madaniyat, texnik imkoniyatlar, muloqot vositalarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillarga bog'liq. Shu bilan birga jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari (fan, mafkura, din, san'at, axloq, huquq, siyosat va b.), darajalari (individual, kollektiv, milliy, sinfiy ong) va sohalari bilan bog'liq holda

rivojlanadi. Aytish mumkinki, jamoatchilik fikri – ijtimoiy ongning tez o'zgaruvchan, dinamik holatidir.

Jamoatchilik fikri turli darajaga ham ega bo'lib, bu individual, kollektiv va ijtimoiy fikr ko'rinishida bo'ladi va ular o'rtasida doimiy va mustahkam bog'liq mavjud.

Jamoatchilik fikri ko'p jihatli hodisadir. Uning rastional aqliy (bilimlar), psioxologik (ijtimoiy ruhiy) kechinmalar, aksiologik (qadriyatlar) va boshqa jihatli bo'lib, birgalikda jamoatchilik fikrining tez tarqaluvchan va eksentiv xususiyatini ta'minlaydi.

Jamoatchilik fikrining real ijtimoiy hayotda amal qilishi uning ifodalanishi va u bajaradigan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Avvalo, jamoatchilik fikrining uch xil ifodalanishi kuzatsa bo'ladi:

- 1) jamoatchilik fikrining stixiyali ifodalanishi;
- 2) siyosiy institutlar tashabbusiga ko'ra biror bir qonunni muhokama qilish yoki chora tadbir (referendum, umumxalq muhokamasi va b.) o'tkazish fikrining bildirilishi;
- 3) maxsus sotsiologik tadqiqotlar, ya'ni so'rovlar paytida jamoatchilik fikrining aniqlanishi.

Jamoatchilik fikrining tadjriy shakllanish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshadi: **birinchi bosqichda**: ijtimoiy hayot, fakt, hodisa ta'sirida alohida shaxslar ongida individual tasavvurlarning yuzaga kelishi; **ikkinchi bosqichda**: alohida shaxslar fikrlarning suhbat, bahs, muhokama, yig'in va mitinglar vositasida jamoa fikriga aylanishi; **uchinchi bosqichda**: esa jamoalar fikrining aylanishini ifodalovchi nuqtai nazarlar uyg'unlashuvi va birlashuvi jarayonlaridir.

Bozor munosabatiga o'tish sharoiti jamoatchilik fikrining eski tuzum muammolaridan yangi masalalarga ko'chishi yuz bermoqda. Ammo, jamoatchilik qayta yo'nalishi murakkab jarayon bo'lib, u oldin shakllangan xulq atvor jabhalarining tafakkur va hatti-harakat qoliblarining (stereotip-larning), ba'zi an'alarining o'zgarishini o'z ichiga oladi. Gap shundaki, aytib o'tilgan ko'pgina elementlar (eskicha tafakkur qoliplari, odatlar va h.k.)ni jamoatchilik fikri o'zida mujasammlashtirgan bo'lib, bu uning konservativ tomonidir. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotiga to'siq bo'layotgan, ammo kishilar ongida chuqur o'mashgan, aynan jamoatchilik fikrining qaysi jihatini o'zgartirish mumkinligini aniq tasavvur eta bilish zarur. Ammo, odamlar fikrini o'zgartirishdan ko'ra, ularda yangi muammolarda nisbatan munosabat, fikr mulohazani shakllantirish osonroq. Demak, masala jamoatchilik fikrining kuchini oshirish, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish omiliga aylantirish uchun tabiiy tarzda, amma zarur yo'nalishda, ongli ravishda shakllantirishda bilishdadir. Bu jamiyat hayotida jamoatchilik fikri ahamiyatining oshib borishi bilan boqilib bo'lib, quyidagi shart-sharoitlarni talab etadi: a) davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy markazlar tomonidan jamoatchilik fikrining muntazam o'rganib turilishi; b) barcha fuqarolarning turli shakllarda (referendumlar, manifestastiyalar, so'rovlar va h.k.) jamiyat hayotning har xil muammolari yuzasidan o'z fikrlari, baholari, nuqtai nazarlarini erkin bildirishlari; v) fuqarolarning

jamoaviy (kollektiv) fikrlarni bildirishlari vositalari va shakllarini kengaytirish, oshkoralik; g) davlat organlari va jamoa tashkilotlari tomonidan jamoatchilik fikridan diomiy foydalanish

Jamoatchilik fikriga maqsadli ta'sir qilish ikki xil yo'l bilan amalga oshirilishi mumkin:

- 1) xaspo'shslash (manipulyastiya qilish);
- 2) ilmiy shakllantirish;

Jamoatchilik fikrinin xaspo'shslash – dolzarb muammolar bo'yicha aholi ongiga nisbatan biror-bir fikrni zo'rlab singdirish. Xaspo'shslash yolg'iz hukmron siyosiy guruh, toifa, elitaning manfaatlarini ifodalaydi va uning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy hukmronligini saqlab qolishga qaratilgan bo'ladi. Xaspo'shslashning asosiy vositasi dezinformastiya (soxta axborot) hisoblanadi. Xaspo'shslash asosan tatalitar jamiyatga xosdir.

Jamoatchilik fikrni erkin shakllantirish - jamoatchilik fikrini shakllantirish jarayoniga maqsadli ta'sir ko'rsatishdir. Bunda ko'rsatilgan asosiy maqsad jamiyatda axborot maydonini tabiiy ravishda hosil qilish bo'ladi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda stixiyali va ongli omillar, uning shakllanishining ob'ektiv jarayonlari bilan bog'liq bo'lgan ichki va boshqaruv organlari tomonidan kishilar ongiga chetdan ongli ravishda ta'sir qilishda ifodalaniladigan tashqi mexanizmlar birligini ham ta'minlash zarur. Jamoatchilik fikrni muhim institut bo'lib, faol amal qilish uning funkstiyalari (vazifalari) bilan bog'liq. Bu funkstiyalar jamoatchilik fikri jamiyat hayotining turli sohalarida (aytaylik, taqsimot munosabatlarida) "qo'llanishiga" qarab turli shakllarda namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikri funkstiyalari uning u yoki bu ijtimoiy institutlarga ta'siriga qarab, bildirilayotgan fikrning mazmuniga ko'ra va bu fikrning shakliga qarab belgilanadi.

O'zbekiston Respublika Konstitutstiyasida fikr erkinligi qonun yo'li bilan asoslangan. Jamiyat mamlakatda bo'layotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy o'zgarishlarga nisbatan o'z fikrini erkin ifoda etishi va ularda faol ishtirok etishi zarur. Aks holda taraqqiyot bir joyda to'xtab qolishi, hatto orqaga ketishi ham mumkin.

Demokratiya deganda, eng avvalo har bir fuqaro o'z fikrini erkin bayon eta olishi, matbuot erkinligi, e'tiqod erkinligi va shu kabilar tushuniladi. Har qanday jamiyatda demokratiya qay darajada ekanligini belgilovchi asosiy uchta mezon bor. Bular xalqning qarorlar qabul qilish jarayonidan qanchalik xabardorligi, hukumat qarorlari – xalq tomonidan qanchalik nazorat qilinishi, oddiy fuqarolarning davlatni boshqarishda qanchalik ishtirok etishidir.

O'zbekistonning kelajagi ko'p jihatdan o'sib kelayotgan yosh avlodlarga bog'liq. Ular qanchalik erkin fikrlovchi, mustahkam irodali, keng dunyoqarashli va ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faol bo'lsa, O'zbekistonning kelajagi shunchalik porloq bo'ladi. Ularni amalga oshirish uchun butun xalqimiz jamoatchilikning kuch va sa'y-harakatlarini birlashtirishi zarur.

Birinchi galda sog'lom fikrlovchi, shu aziz Vatan qismatini o'z shaxsiy qismati deb biladigan, mamlakatning ertasi uchun bor ma'suliyatni zimmasiga olishga qodir, jafokash xalqimiz uchun, demokratiya va adolat uchun o'zini bahshida etadigan, fidoyi, izlanuvchi yosh avlodning boshini qovushtirish, uning maqsad va intilishlariga qanot berish zarur.

6.3. Mahalla o'ziga xos sotsiologik ob'ekti sifatida O'zbekistondagi mahalliy boshqaruv tizimi shakli.

Mahalla – (arabcha “mahalla” ~ joy, o'rin, makon) – O'zbekistonning muayyan tarixiy sharoitlarida, asrlar davomida shakllanib, faoliyat ko'rsatayotgan, aholi yashaydigan ma'muriy-hududiy birlik, uyushma. Mahalla o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim milliy ijtimoiy organi bo'lib, u O'zbekistondagi ijtimoiy hayot tarzining mahalliy ko'rinishidagi shakli hamdir.

Mahallalar 1917 yilgacha bo'lgan davrda juda keng ish olib borib, mahalliy aholini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi tashkiliy tuzilma bo'lib kelgan. Mahalla o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilishda izlab topgan va asrlar davomida takomillashtirib kelgan hayotiy amaliyotidir. Ammo shunga qaramasdan, sho'raolar davrida hukmron tuzum va mafkura mahallalarni rasman tan olmadi. Biroq aholining chuqur noroziligiga sabab bo'lmaslik uchun mahallalarni taqiqlab ham qo'ya olmadi, uni jamiyatni boshqarish tizimiga kiritmadi. Mahalla o'z mohiyati, faoliyati mazmuni va shakllari bilan sharqona fikrlash, ish ko'rish tarzi kabi halqimizning o'ziga xos fazilatlarini aks ettiradi. Mahallalar aholini ahil yashashga, sidqidildan mehnat qilishga, kasb o'rganishga, shular orqali hayot kechirishni engillashtirishga chaqiradi.

Mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasida 2 ta muhim masalaga e'tibor bermoq lozim. Bular:

1. Mahalliy hokimiyat organlari.
2. Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.

Mahalliy hokimiyat organlariga O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasining 9-140-moddalariga muvofiq viloyatlar, tumanlar va shaharlarda hamkorlik boshchilik qiladigan xalq deputatlari, Kengashlari hokimiyatning vakillik organlaridir. Ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab va vakolatlariga taaluqli masalalarni hal etadilar. 1993 yil 2 sentyabrda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasining 100-moddasiga binoan mahalliy hokimiyat organlariga ihtiyoriga quyidagilar kiradi:

1. Qonunchilikni huquq tartibotini va fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash.
2. Hududlarni iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlantirish.
3. Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, mahalliy soliqlar, yig'implarni belgilash, byudjetdan tashqari jamg'armalarni hosil qilish.
4. Mahalliy kommunal xo'jalikka rahbarlik qilish.
5. Atrof-muhitni muhofaza qilish.
6. Fuqarolik holati aktlarini qayd etish.
7. Normativ hujjatlarni qabul qilish.

Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 105-moddasiga binoan, "shaharcha, qishloq va ovullarda, shuningdek, ularning tarkibidagi mahallalarda, shaharlardagi mahallalarda fuqarolarning yig'inlari o'zini-o'zi boshqarish organlari bo'lib, ular yarim yil muddatga raisni (oqsolni) va uning maslahatchilarini saylaydi".

Mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari tarkibini fuqarolar yig'inlari, xususan mahallalar tashkil etadi. Jamiyatda o'zini-o'zi boshqaruv tizimining muhim organi bo'lgan mahalla – bu hududiy, kasbiy, turli yoshga oid va boshqa shu kabi turli xil ijtimoiy guruhlarning qiziqishi va irodasini o'zida mujassamlashtirib, ularni ijtimoiy hayotga joriy qiluvchi umumiy hamda alohida holatlarni namoyon qiladi.

Shu boisdan ham mahalla va mahalliy boshqaruv sotsiologiyasi aynan ana shu fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari faoliyatini va uning ijtimoiy jihatini tahlil qiladi.

Demak, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarishning mahalliy quyi organi bo'lgan mahallaning avvalo huquqiy asoslari quyidagi jihatlar bilan belgilanadi:

1. O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasi (aynan 21-bob, 105-moddada o'z ifodasini topgan).

2. 1993 yil 2 sentyabrda Oliy Kengash tomonidan qabul qilingan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi qonun.

3. 1999 yil 14-15 aprelda Oliy Majlis tomonidan "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonunni yangi tahriri, uning asosiy maqsad va vazifalarini, ijtimoiy mohiyatini ifoda qilib bergan.

Mustaqillik yillarida mahallalarga munosabat tubdan o'zgardi. 1992 yil 12 sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasini tuzish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17 oktyabrda Respublika "Mahalla" xayriya jamg'armasi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida"gi 480-sonli qaror qabul qilindi. 1992 yili Respublikamizda 8000 ga yaqin, Toshkentda 279 mahalla mavjud edi. 1993-1994 yillarda mamlakatimizda 12 000 dan ortiq mahalla qo'mitalari tuzildi. 2000 yilga kelib O'zbekistonda 13 000 dan ortiq, Toshkent shahrida esa 481 dan ko'proq mahalla faoliyat yurita boshladi. "Oila – mahalla - maktab" konstepstiyasi hamkorlik dasturi ishlab chiqildi. Bu boshqa davlatlarda uchramaydigan noyob dasturdur.

1999 yil 14 apreldagi "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunning 7-moddasiga muvofiq:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mahallalar faoliyati erkinlashtirildi;
2. Mahallalar hokimiyat tizimidan chiqarildi;
3. Qator imtiyozlar berildi;
4. Boqimandalik ayfiyatidan ozod etildi;
5. "Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari" qadam tashlanadi.

Natijada mahallalarda adolatli, demokratik jamiyatning negiziga aylanib bormoqda.

Demak, mahallalar o'zini-o'zi boshqaruv tizimida quyidagi ijtimoiy vazifalarni, funkstiyalarni bajarib kelmoqda:

1. Mahalla – ona maskan. Oila ko'z ochib ko'rgan dargoh bo'lsa, mahalla Vatan ichidagi Vatandir. Vatan – eng oliy qadriyatdir.

2. Mahalla – avvalo sog'lom ijtimoiy muhitdir. Bu erda kuchli ta'sirga ega bo'lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o'aro munosabatlarni adolat va ma'naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma'noda mahalla, Prezidentimiz i.Karimov ta'бири bilan aytganda, haqiqiy demokratik darsxonasidir.

3. Mahalla – tayanch markazi. Kam ta'minlangan, ko'p bolali oilalar, yolg'iz keksalar va h.k. tayanchi hisoblanib kelmoqda.

4. Mahalla – ma'naviy ahloqiy qadriyatlar, an'analar maskani.

5. Mahalla yoshlarni kasb-korga yo'naltiruvchi, ishsizlarni mehnat bilan ta'minlovchi ijtimoiy himoya hamdir.

6. Mahalla – tarbiya maskani. Bir bolaga etti qo'shni ota-ona.

7. Mahalla – oila tinch-totuvligini, jipsligini mustahkamlaydigan joy. Otang – mahalla, onang – mahalla iborasi deb bejiz aytilmagan.

O'zbekiston hududida mahallalarning quyidagi 4 ta asosiy qismga ajratish mumkin:

1. Shaharlardagi an'anaviy mahallalar.

2. Shaharlardagi kvartal mahallalar.

3. Shaharchalardagi mahallalar

4. Qishloq mahallalar.

Mahallalar ijtimoiy hayotida quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Oila muhofazasi.

2. Obodonlashtirish, ko'klamzorlashtirish va tozalik.

3. Ijtimoiy himoyada faol ishtirok etish.

4. Ma'naviyat va ijtimoiy huquqni shakllantirish.

5. Siyosiy faollikni oshirish va h.k.

Sotsiolog P.A.Sorokin fikricha, "Inson ijtimoiy organizm bo'lib, tabiatdagi barcha tirik organizm singari yashash uchun muhim bo'lgan barcha sharoitlar ehtiyoj sezadi". Hukumatimiz tomonidan mahalla masalasiga e'tibor qaratilayotganligining sabablaridan biri u ijtimoiy aloqadorlikni shakllantiruvchi va kishilarni ijtimoiy guruh sifatida bog'lovchi jarayonlarning mavjudligidir. Bu jarayonlar: a) ildizlar; b) munosabatlar; v) tashabbuskorlik. Bu holatlar kishilarni yanada jipslashtiradi.

O'zbekiston Respublikasining asosiy kuch qudratining manbai – bu xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolganligidir. O'zbekistondagi ana shunday umuminsoniy qadriyatlarga sarchashmalaridan biri, mahalla tizim haqida yuqorida to'xtalib o'tgan edik. Uning nufuzini oshirish, ijtimoiy siyosiy Prezidentimiz i.Karimov "Turkiston" gazetasi muxbiri bergan savollarga – "mahalla, ta'bir joiz bo'sa, kishilik jamiyatida alohida tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'lgan o'ziga xos maskandir deyish mumkin. Bu noyob tajriba aholining mahalla bo'lib yashash tarzi jahonning boshqa mamlakatlarida kam uchraydi. Shuning uchun ham

insonni jamiyati bilan birga yashashga o'rgatadigan, shu ruhda tarbiyalaydigan birlamchi beqiyos makon – bu mahalladir”, deb javob qaytarishi ushbu tizimning ommabop jarayonga aylantirish ayni muddao to'g'risidagi g'oya deb ifodalasa bo'ladi.

Hozirgi paytda mahalla qumitalari, bozor iqtisodi qonunlari asosida, o'z ishlarini tashkil qilishlari uchun barcha imkoniyatlar ochib berildi. Ular oldi-sotdi, to'y-ma'raka marosimlari o'tkazish, hasharlar uyushtirish, mahalladagi oilaviy nizolarni bartaraf etish, bemorlar holidan xabar olish ishlari bilan shug'ullanadilar. Ko'pchilik mahallalarning o'z masjidlari bor, turli ma'rkalar uchun kerakli ashyolar (doshqozon, palos, idish-tavoq, choynak-piyola, tobut va boshqalar) mavjud. Mahalla qo'mitasi – tashabbuskor jamiyat tashkilotidir. Mahallada xo'jalik va madaniy qurilish, uning hududini obodonlashtirish, uy-joylarni va hududdagi shahar xo'jaligini saqlash, ozodalikni ta'min etishda, omma kuch-g'ayratini bunyodkorlikka yo'naltirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mahallalarning ish faoliyati horijiy mamlakatlarning diqqat e'tiboriga tushmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov “O'zbekiston XXI asrga intilmoqda” asarida ta'kidlagandek, “Mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarining o'zini-o'zi boshqarish organlari bajaradigan vazifalar doirasini kengaytirish, ularga davlat vakolatlarining bir qismini bosqichma-bosqich topshirish lozim. Bunda eng muhimi, aholining kasb va ijtimoiy tarkibi manfaatlarini yanada to'laroq ifodalash va himoya qilishda nodavlat, jamoat tuzilmalarning huquq va mavqeilarini oshirish darkor”. “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari degan siyosiy qurilish dasturining mohiyati ana shunda yaqqol namoyon bo'ladi. Aynan shunday, yondashuv fuqarolarning o'zlariga-o'zilar hayoti va butun jamiyat hayotini boshqarishda va teng tashkil etishda keng imkoniyat yaratadi”.

Yangi jamiyat bunyodkori bo'lmish yangi insonni tarbiyalashda hozirgi paytda mahallalarimizda samarali faoliyat olib borayotgan, bu noyob tuzilmani tom ma'noda o'zini o'zi boshqarish idorasiga aylantirishga katta hissa qo'shib kelayotgan mahalla oqsqollari va faollari, fuqarolar yig'inlarining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy masalalar bo'yicha maslahatchilarining ijobiy ta'siri tobora ortib bormoqda. Aynan ana shu insonlarning odamlar ko'ngliga yo'l topib, ularning dardu tashvishiga sherik bo'lib, o'z vaqtida berayotgan amaliy yordamlari, to'g'ri va o'rinli maslahatlari tufayli oila va mahalla muhitida, butun diyorimizda tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat tuyg'ulari kuchayib borayotganini el-yurtimiz yuksak qadrlaydi. Ayniqsa, yosh yigit va qizlarimizning mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning jamiyatdan o'ziga munosib o'rin topishida bu fidoyi va mehnbon, jonkuyar odamlarning qanchalik muhim rol o'ynayotganini hurmat bilan e'tirof etishimiz lozim.

Prezident o'z ma'ruzasida parlament va mahalliy xokimiyat organlari kengashlari oldida turgun quyidagi dolzarb vazifalarni bayon etgan:

1. Iqtisobiy va sotsial sohadagi islohotlar ijtimoiy-siyosiy, sud-xuquq tizimi islohotini chuqurlashtirish bilan bog'liq. Shu sabab, mamlakatni modernizatsiya qilish dolzarb vazifa.

2. Qabul qilingan qonunlarning ijro etuvchi xokimiyat, xukumat tomonidan markazda, hokimliklar tomonidan esa joylarda qanday bajarilayotgani ustidan qat'iy parlament nazoratini, deputatlik nazoratini o'rnatish kerak.

3. Kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan demokratik yangilanishlar, liberalislohotlar, targ'ibotini amalga oshirish. Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari dasturini amalga oshirish uchun fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish kerak. Siyosiy partiyalarning markaz va joylarda ijro etuvchi xokimiyat idoralari bilan faolligini ta'minlash kerak.

4. Bugungi kunda ekologik yo'nalishda 100 dan ziyod nodavlat va notijorat tashkilotlarini O'zbekiston ekologik xarakati o'z safitda birlashtirgan. Shu sababli qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida atrof muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq bo'lgan qonunchilikni rivojlantirish vazifasi turipti.


5. Fuqarolik jamiyati institutlari, jumladan, fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarining (maxallalar) jamiyat va davlat qurilishi tizimidagi xuquqiy vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish ustuvor vazifaga aylanishi zarur.

6. Fuqarolik jamiyati institutlari tizimida OAVning o'rni va rolini yanada mustahkamlash vazifasi turipti. OAVni yanada erkinlashtirish, nodavlat matbuot nashrlari, radio, televideniya faoliyatini jonlantirish, internet global tarmog'iga kiritish imkoniyatlarini kengaytirish lozim, kuchli fuqarolik jamiyatini izchil shakllantirish darkor.

Tayanch iboralar:

Direktiv, konsultativ, ekspressiv, referendum, manipulyastiya (xaspo'shlash), dezinformastiya (soxta axborot), pozitiv, negativ, kommunikastiya.

Jamoatchilik fikri funksiyalarini uch guruhga bo'lish mumkin



7-Mavzu. Jamiyat sotsial strukturasi va stratifikatsion jarayonlar

Reja:

- 7.1. Sotsial struktura tushunchasi va sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari.
- 7.2. Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi va mohiyati.
- 7.3. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari qarashlari, sotsial harakatchanlik belgilari, turlari: gorizontaal va vertikal harakatchanlik.

7.1. Sotsial struktura tushunchasi va sotsial struktura to'g'risidagi antik davr mutafakkirlarining ta'limotlari

Insoniyat tarixiga nazar tashlar ekanmiz har bir siyosiy tarixiy davrda aholini tabaqalarga bo'lish orqali boshqarish, jamiyat tarkibida sinflar, strata, ijtimoiy guruhlarning bo'lishi kabi ijtimoiy hodisalariga duch kelamiz. Qadimiy Misrva, Vavilonda aholi zadogonlar va qullarga, Afina va Rimda, fuqarolar va plebeylarga, Hindistonda, braxmanlar va xizmatkorlarga ajratilgan. **Qadimgi Turon mamlakatida asosan aholini:**

- a) Urug' qabilaviy kelibchiqishidan;
- b) kasbiy mansubligidan;
- v) diniy e'tiqodiy qarashlaridan;
- g) shajaraviy, sulolaviy kelib chiqqan holda tasnif etib kelingan.

Turon tarixidan ma'lumki, jamiyatni anashunday tasnif etish har bir ijtimoiy guruh, strataning ijtimoiy o'rni va rolini ob'yektiv baholash, ulardan samarali foydalanish, umum davlat miqyosida ularning murosaviy munosabatlarini ta'minlash, siyosiy boshqarish imkonini bergan.

Jamiyatni o'rganish tamoyillari, ijtimoiy iqtisodiy voqelikka yondashuv xususiyatlari doimiy ravishda o'zgarib, takomillashib boradi. Totalitar tuzum davrida ijtimoiy taraqqiyotning bosh sababi sinflar aro kurash deb qaralganligi sababli jamiyatdagi muammolarga umumiy yondashib, bir sinf vakillari bilan ikkinchi sinf vakillari qarashlaridagi tafovutni aniqlash barcha ijtimoiy fanlar xususan sotsiologiyaning ham asosiy ilmiy tadqiqot tamoyillaridan hisoblanib kelingan.

Jamiyatning tinchlik sharoitida mo'tadil va odatiy holatlardan barcha ijtimoiy ziddiyatlarni asosan muayyan sinflar, urug' va tabaqalar ichidagi qarama-qarshiliklar tarzida namoyon bo'lib keladi. Ijtimoiy guruhlardan tabiiy amal qilish holati bo'lgan ichki, botiniy muammo va ziddiyatlarning sinflar aro ziddiyatlarga ko'chishi, ya'ni bir guruh ziddiyatlarning boshqa guruhlar tomonidan o'zlashtirilishi, ziddiyatlarning ijtimoiylashuvi, sinflararo, davlatlararo urushlarga olib kelgan bunday yondashuv, tabiiyki jamiyat ijtimoiy guruhlarini siyosiy-ijtimoiy, mulkiy- ma'naviy tenglashtirishga, ijtimoiy psixologiya masalasini o'rganishning negizi mazmunidan, ya'ni ichki jihatlaridan tashqi tomonlariga burib, to'liq ehtiyoji va zaruratidan kelib chiqqan bo'lib kishilar tomonidan voqelik o'zgarishlari mohiyatini bilish milliy o'zlikni anglashga bo'lgan intilishlariga yo'l bermaslikni ifodalay edi.

Bunday yondashuv aholini ma'naviy erksizlikka mahkum qilayotgan, o'z haqu-huquqlari uchun kurash, o'zlikni muxofaza etish, o'zgalarga kerakli bo'lishdan ijobiy fazilatlar rivojiga yo'l bermasdan, surbetlik, boqimandalik, yalqovlik, ijtimoiy mulkka nisbatan yulqichlik xususiyatlarini tarkib toptiray edi.

Ikkinchi katta ijtimoiy qusur bu ijtimoiy voqelikni idroke tishda induktiv yondashuvni mutloqlash tirishdan iborat edi. Induktiv metod, ya'ni bu xususda umumning to'la namoyon bo'lish g'oyasi har qanday holatda umumiy, ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan qat'iy nazar amal qilishi muqarrar deb qarashdan kelib chiqib tan olmaslik oqibatida tabiat va jamiyatga o'nglab bo'lmas darajadagi katta zararlar yetkazilar edi.

Induktiv metodni mutloqlashtirishning ma'naviy o'z-o'zini anglash borasida juda zararli ekanligi Sharq va G'arb mutafakkirlari Zardusht, Lao Szi, Konfutsiy, Platon, Aristotel, Sitseron, ImomBuxoriy, al-Moturidiy, Forobiy, Beruniy va boshqalar o'z asarlarida asoslab berganlar.

Totalitar tuzum davrida tabiatning noyob iste'dodlari oyoq osti qilinganligi, hammani barobarlashtirishshi oriyosida qarab kelinganligi kishilarni "jamiyatning vintiklari" va ularni istagan paytda birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin deb yondoshish uslubi keng ko'lamda amalda bo'lib keldi. Ijtimoiy adolatni qaror toptirish tarixi insoniyat tomonidan o'z-o'zini anglash jarayonlari boshlanishi bilan bog'liq. Dunyoni ilk kitoblaridan sanalmish "Avesto"da aholining barcha qatlamlari, qavmlari va guruhlar uchun umumiy turmush tarzi qoidalarini tavsif etiladi. **Antik dunyo qonunshunosi Solon tomonidan yaratilgan ilk qoidalar majmui ham turli xil ijtimoiy guruhlar o'rta asrda totuvlik va murosas me'yorlaridan iboratdir.** Stratifikatsion tasniflarni o'rganganda, olamni yaxlit bir butunlik tarzida tasavvur etish, ya'ni "Olamiy uyg'unlik" nazariyasiga monandlik jihatlarni ham e'tiborga olishimiz kerak bo'ladi. Bu nazariya tarafdorlaridan biri Platon olamiy jon olamini ruxlantirib, o'zi sonli nisbatlarga, gormonik tartibga bo'ysunadi deb qaraydi. Platondan farqli, Aristotel tartibsizliklardan vujudga keladigan olamiy uyg'unlik kabi birmuncha o'ziga xos yondashadi va uni jondagi manba emas balki faqat narsalar tabiatidagi manba deb cheklanadi.

Stratifikatsiya sotsiologiyaning asosiy tushunchalaridan biri sifatida jamiyatning ijtimoiy tarkibi, ijtimoiy guruhlar va ularni tabaqalanishi belgilarini zimni o'zida aks ettiradi. Hozirgi zamon stratifikatsion yondashuvining nazariyotchilari ijtimoiy guruhlarining ishlab chiqarishdagi ishtiroki, jamiyatning asosan mulkka bo'lgan munosabat asosida tabaqalashuvi xususidagi marksistik yondashuvini inkor etib jamiyat, ma'lumot, ruxiyat, maishiyshart-sharoitlar, bandlik darajasi, daromad, ko'lamlari va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalanishini asoslab beradilar. Ular yuqoridagi belgilarga ko'ra ajraluvchi ijtimoiy guruhlardan tashqari, yuqori tabaqa, o'rta tabaqa va quyi tabaqa doimiy amaletishini ta'kidlaydilar.

Keyingi 20 yilda rivojlangan G'arb, xususan AQShda o'rta tabaqa kontsepsiyasini o'rta sinf kontsepsiyasi bilan ayni uyg'unlashtirish tendensiyasi yuz bermoqda. O'rta sinf jamiyatni o'ziga xos milliy, irqiy intellektual va moliyaviy tenglik va barqarorlik me'vori sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifasini ham o'tamoqda. Shu boisdan o'rta sinf xissasining ortishi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida ham talqin etilmoqda. O'rta sinf vakillari miqdori esa ulardagi ko'chmas mulk hajmi, bankdagi mablag'lari, turli manbalardan olgan foydalari boshqa daromadlardan davlatga to'lanadigan soliqlari salmog'iga ko'ra yilma-yil aniqlab boriladi. G'arb mamlakatlari turmush tarzini o'ziga xos barometri vazifasini o'tayotgan o'rta sinf, fenomeni garchi rivojlangan Yevropa davlatlari uchun ijtimoiy – iqtisodiy qadriyat darajasida kelinayotgan bo'lsa-da, bu qadriyat o'rta sinf vakillarini yuqori va quyi sinf vakillari bilan ma'naviy yaqinlashtirish imkonini bermadi.

Insoniyatning 5 ming yillik o'tmishi kishilarning xavf umumiy bo'lganda birlashuvlari tarixidan iboratdir. Keng xalq ommasining nechog'lik ko'p miqdori

birlashuviyuning xavfga qarshilik salmog'ini shunchalik oshirib turgan. Ammo xavf tazyiqi susayishi bilan birlashuvlari ham yemirilib borgan

Insoniyat tarixida stratalar xalqning madaniy takomillashganlik belgilari sifatida ham baholanib kelingan. Xususan, gilamdo'zlar, do'ppi do'zlar, temirchilar, bog'bonlar va boshqa kasbiy stratalar muayyan mehnat faoliyati orqali nafaqat o'ziga xos iqtisodiy– ijtimoiy hayot yo'rig'ini amalga oshirganlar. balki o'z qavmlari siru-sinoatlarining o'zgalar mulkiga aylanmasligi enshilgan komillik qadriyatiga putur yetmasligi xususida ham qayg'urganlar.

Xalqimiz o'z stratalarini himoya qilib kelgan, zero, bu himoya nafaqat qavmlar, shakllangan kasb va ijtimoiy guruhlar mavqeini muhofaza etish shakllarida, balki axloqiy yondashuvlar tizimini turmush tarzi yaxlitligini, xalq urf-odatlarini va an'analarini saqlash uchun kurash lavhalarida ham namoyon bo'lib kelgan.

O'zbek xalqi stratalarining tarkibi va tizimi tahlili etnoregional xususiyatlarini ham hisobga oladi. Ma'lumki, o'zbek xalqi tarixan shakllangan 92 urug'-etno element maxsulidir. Bu etno–tasnif tarkibidagi har bir urug' alohida stratifikatsion tadqiqot talab etuvchi etnik birliklardir. Mazkur urug'larning ijtimoiy-tarixiy o'rni tahlil etilganda uning nafaqat o'zbek xalqi etnogenezisini o'rganishdagi ahamiyati oydinlashadi, balki uning umum turkiy makro etnosida tutgan tarixiy o'rni va ijtimoiy mavqei yuzaga chiqadi.

Iqtisodiy rivojning zamonaviy, eng ilg'or turiga o'tishga intilayotgan har bir mamlakat ham texnika, ham biznes sohalarida yuksak professional tayyorgalikka ega ijtimoiy qatlamga tayanishi shart. Mazkuri ijtimoiy qatlam vakillari o'z professional – malaka tayyorgarlik saviyalariga mutanosib ijtimoiy o'rin egallashga intilishlari shart. Tarixiy taraqqiyot shunday shakllandiki, ilmiy bilimlar va ishbilarmonlik o'zlashmalari asosan harbiy davlatlar va Yaponiyada mujassamlashdi. Ularda band aholi tarkibidagi oliy kategoriyali professional ijtimoiy qatlam vakillarining hajmi o'rta va past kategoriya vakillarining ulushidan sezilarli darajada yuqoridir. Bu jarayon o'z yo'nalishda yanada rivojlanib, mazkur davlatlarning eng boy va zamonaviy ishlab chiqarish hamda ilmiy – texnik tarqqiyotning old qatoridagi xalqaro iqtisodiy o'rmini saqlab turishga zamin yaratmoqda.

Asosan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda ixtisoslashgan va iqtisodiy xomashyo yetkazib berishga qaratiladigan mamlakatlarda esa ijtimoiy qatlamlashuv tarkibi, asosan, professional ijtimoiy qatlamlarning o'rta va past kategoriya vakillaridan iboratdir. Buning sababi-mazkur davlatlar o'z taraqqiy etgan texnologiyasini yaratishga ko'makdosh firmalar yoki hukumat darajasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga ko'makdosh iqtisodiy rag'batlarni ta'minlash uchun manbalarga ega emas. Mazkur o'mashib qolgan tartibni buzib va rivojlanayotgan davlatlarda jamiyat ijtimoiy tarkibida ijobiy o'zgarishga erishibgina emas, balki yuqori va o'rta kategoriyali ijtimoiy qatlamlarni shakllantirib, shart-sharoit yaratishga qaratilgan davlat siyosati hisobiga erishish mumkin. Rivojlanayotgan davlatlar mehnat faoliyatining murakkab, ilmiy, ijodiy turlarini rivojlantirish uchun kuchli homiylik siyosatini o'tkazishlari kerak. Faqats hunday yondashuv natijasidagina jamiyat ijtimoiy tarkibida progressiv o'zgarishlarga erishish va ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda mahalliy ilmtalab mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishda G'arb davlatlari bilan tenglik ta'minlanishi mumkin.

Dunyoning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlaridan farqli o'laroq O'zbekistonda ham bunday ijtimoiy qatlam mavjud. U, ilgari yirik ilmiy muassasalar va boshqaruv organlarida ishlagan hamda o'shadavrning ijtimoiy pog'onalarida yetarli darajada yuqori o'rin egallagan yuksak malakali mutaxassislardan tarkib topgan. Hozirgi paytda mazkur ijtimoiy qatlam vakillarining sezilarli qismi kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanadi, texnologik zamini ularning professional malakasiga mutanosib bo'lmagan kichik korxonalar negizida faoliyat yuritadi.

Mazkur ijtimoiy qatlam, iqtisodda ularning ijtimoiy maqomini qayta tiklashga qodir yangi soha yuzaga chiqishi bilan o'zi jamul jam etgan professional-malaka salohiyatini maksimal darajada ishlatishga tayyor turadi.

Jamiyatning ijtimoiy, tarkibiy tuzilishi quyidagicha:

1. Sotsial stratifikatsiya, sotsial mobillik tushunchalari⁵⁹
2. Iqtisodiy va taqsimot munosabatlari.
3. Ijtimoiy-sinfiy munosabatlar.
4. Ijtimoiy demografik munosabatlar.

Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy guruhlar xarakteriga va o'zaro aloqadorligiga bog'liq. Uning xarakteriga: oila, maktab, davlat partiyalar, iqtisodiyot, fan, madaniyat, matbuot, sog'liqni saqlash kabi sohalarining rivojlanishi o'zaro mos ravishda bo'ladi. Anashu guruh munosabatlarida qaysilari peshqadam rolo' ynaydi? Qaysilari asosiy rol, bo'ysunuvchi xarakterga ega «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi»,deb Konstitutsiyada ko'rsatilgan.

Har bir ijtimoiy guruh, ayrim olingan shaxs ham jamiyat ijtimoiy tarkibida o'z o'miga ega. Shaxs o'zining jinsi, yoshi, ijtimoiy kelib chiqishi, ma'lumoti, mutaxassisligi, oilaviy ahvoli, millati va boshqa shu kabilar bilan muayyan ijtimoiy tarkibga kiradi.

7.2. Ijtimoiy stratifikatsiya tushunchasi va mohiyati

Insoniyat jamiyatlarning barcha turlarida tengsizlik mavjuddir. Hatto, insonlar o'rtasida iqsodiy faqlanish deyalı yo'q bo'lgan ibtidoiy jamiyatlarda ham shaxslar o'rtasida erkak va ayyollar, yoshlar va keksalar o'rtasida tengsizlik mavjud. Odam, masaln, ovdagi jasurligi uchun uoki u, qabilaning boshqa a'zolari fikrisha, ajdodlar ruhlari bilan muloqatga kirishishga qodirligi uchun boshqalardan ko'ra yuqoriroq mavqeni egallashi mumkin. **Stratifikatsiya guruhlar o'rtasidagi strukturaviy farqlar diya ta'riflash mumkin.** Tushunchalarni bo'lish uchun, stratifikatsiyani geologic qatlamlar ko'rinishida faraz qilish mumkin. Jamiyat ham ierarxik tartibda joylashgan qatlamlardan iborat bo'lib, imtiyozga ega bo'lganlar cho'qqiga yaqin, ega bo'lmaganlari esa quyida joylashadi.

Stratifikatsiyada to'rt asosiy tizim mavjud: quldorlik, kasta, tabaqa va sinf. Ba'zan ular bir nechta birgalikda amal qiladi, masalan: Qadimgi Greksiya va Rinda, shuningdek, AQShning janubiy shtatlarida fuqarolik urushidan avval amal qilgan quklorlik va sinf tizimlari.

⁵⁹Yunusov K. Sotsiologiya. Andijon, 1997- 51-58-betlar.

1.Quldorlik- kishilarni qaram qilishning iqsodiy, ijtimoiy va huquqiy shaklidir. Tengsizlik darajasining ko'rinishidir.

2.Kasta -(lot.Portugal.guruh, toifa, tabaqa) odam tug'ulganidan boshlab a'zobo'lib qoladigan ijtimoiy guruhlar (stratalari) dir.

3.Tabaqalar- taomillar yoki huquq, qonunlari bilan mustahkamlangan nasldan – naslga o'tuychi huquqlar va burchlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruhlar.

4. Sinflar – sinflar paydo bo'lishi XVIII-XIX asr bilan bog'liq.

AQSH-o'rtasi sinflar jamiyati. AQSHda 4ta asosiy sinflar bor:

Oliy;

O'rtasi;

Ishchi;

Quyi sinflar.

5.Sinfsiz jamiyat. Bu marksizim –leninizim ta'limotida aytilgan.

1.Quldorlik tengsizlikning eng keskin darajasi bo'lib,unda inson tom ma'noda boshqa insonlarning mulki bo'ladi.Turli jamiyatlarda quldorlik munosabatlarini belgilagan huquqiy normalar bir-biridan ancha farq qilardi.Ba'zan qullar barcha huquqlardan qonunan mahrum qilinardi.AQSH janubida shunday bo'lgan, boshqa hollarda esa qullarning holati ko'proq xizmatkorlar holatini eslatardi.XVIII-XIX asrlarda AQSHda Janubiy va Vest-Indiyada qullardan faqatgina plantatsiyalarda va uy xizmatchilari sifatida foydalanilardi.Lekin klassik davirdagi Afinada ularni turli sohalarida, hatto, o'ta ma'suliyatli lavozimlarda ham ishlaganlar.Qullar faqatgina siyosiy va harbiy lavozimlarga qo'yilmas edi. Ularning ba'zilari savodxon bo'lib, davlat xizmatchilari bo'lib ishlar edi.Ko'pchiligi hunar egalari edi.Tijorat ishi past ish hisoblangan Rimda qullar savdo bilan shug'ullanardi.Hatto, ba'zi boy qullar o'z qullariga ham ega edild.Lekin ularning eng quyi tabaqasi-plantatsiya va shaxtalarda ishlaganlar, ular bilan juda shafqatsiz munosabatda bo'lingan.⁶⁰

Qullik doimo doimo qarshilik uyg'otgan.Tarix qullar qo'zg'olonlari haqida hikoyalar bilan to'la.Ba'zan qullar birlashib harakat qilib, ozodlikka chiqib ketar edilar.Qullikka asoslangan tizimlar, masalan:plantatorlik, odatda, beqaror edi. Mehnatning yuqori samaradorligiga erishish uchun qat'iy nazorat va shafqatsiz jazolar talab qilinardi.Qullar mehnatiga asoslangan tizimlarning inqirozga uchrashiga sabab, qisman qullarning qarshiligi, qisman esa majburlashga qaraganda iqtisodiy va boshqa rag'batlarning yuqororoq samaradorligi bo'ladi.Oddiy so'z bilan aytganda, qullik unchalik mahsuldor emas edi.G'arb davlatlarida XIX asrgacha saqlanib kelingan qul savdosi bu tizimning so'ngg, eng keng ko'lamli ko'rinishlari edi. Shimoliy va Janubiy Amerikadagi qullar erkinlikka erishganlaridan so'ng, bu tizim parchalana boshladi va hozirgi payitda yer yuzida qolmadi.

2.Kastalar, avvalo,Hindiston yarim orolining madaniyati bilan bog'liq. "Kasta" atamasinig o'zi hindchadan kelib shiqqan.U portugalcha "Irq" yoki " sof nasil"ma'nosini anglatuvchi " casta" so'zidan kelib chiqadi.Hindlarda kastalar tizimini butunligicha anglatadigan yagona atama yo'q, unung turli jihatlarlari o'z

⁶⁰ Giddings E. Sotsiologiya. – T.:2002.-234-b.

nomiga ega.Ularning asosiylari **varna va djatidir**. Varnalar-ijtimoiy obro'siga qarab ajratiladigan to'rt asosiy tabaqlardir.Bu to'rt tabaqadan pastroq "qo'l tekkizilmaydiganlar" tabaqasi turadi. Djatilar-bu kastalarga bo'linadigan alohida mahalliy guruhlardir.

Kastalar tizimi o'ta murakkab bo'lib, uning strukturasi mintaqadan mintaqaga qarab o'zgaradi, shunchalik o'zgaradiki, aslida yagona tizim emas, uzoq o'hashshlikka ega bo'lgan kichik dinlar va urf-odatlar majmuasini tashkil etadi.Lekin ularni bir qator umumiy tamoyillar birlashtirib turadi.Oliy varnani tashkil etadigan, tozalikni eng yuksak darajasi," qo'l tekkizilmaslar"- eng past pog'onasining timsolidir. Brahmanlar " qo'l tekkizilmaslar" bilan ba'zi turdagi aloqalardan o'zlarini chetda tutushlari lozim va faqatgina " qo'l tekkizilmaslar"gina nopok hisoblangan ba'zi narsalarni va hayvonlarni bebosita ushlashlari mumkin.Kastalar tizimi induizmdagi reinkarnasiya ruhlar ko'chisi konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liq.Unga ko'ra, o'z kastasidagi urf-odatlar va majburiyatlarni kanda qilgan odamlar, keying hayotida pastroq tug'lishlari lozim. Hind kastalari tizimi hech qachon to'la static bo'lmagan.Bir insonni kastadan kastaga o'tishiga ruxsat etilmasa-da, kastalar ierarxiyasida guruhlar o'z mavqeini o'zgartirib turadi.

Kasta tushunchasi ba'zan hind madaniyatidan tashqari, ikki yoki bir nechta etnik guruh bir-biridan irq sofligi nuqtai nazardan ajratilganligi hollarda qo'llaniladi.Bunday hollarda, ko'pincha turli guruh bakiillari o'rtasidagi hikohlarga taby(ba'zan qonunan ta'qiqlash) mavjud bo'ladi. AQSh janubida quldorlik bekor qilingandan so'ng ham oq va qora tanlilar o'rtasida chegaralanish shunchalik kuchli ediki, bu stratifikatsiya tizimiga nisbatan ba'zan "kasta" atamasi qo'llanilar edi.Yaqin vaqitgacha oq va qora tanlilar o'rtasida segregatsiya saqlanib kelingan, nikoh va jinsiy aloqa qonunan taqiqlangan.Janubiy Afrikada ham kastalar mavjud deyishga to'la asos bor.

Shimoliy Amerikada shimoliy va janubiy shtatlar o'rtasidagi fuqarolar urushi natijasida qullikka chek qo'yildi. Aslida qullarni ozod etish haqidagi Manifest urush tugamasdan bir yil avval -1863 yilda imzolangan.Qullikning bekor qilingani qora tanlilarning hayot darajasi yahshilangani ma'nosini bermaydi.Ularning aksariyati avvalgidek o'ta qashshoq hayot kechirar edilar.1890-1912 yillar orasida AQShning Janubida qora tanlilarga oqlarning temir yo'l vagonlariga,umumiy hojatxonalarga va kafelarga kirishi man etuvchi bir qator diskriminatsion qanunlar qabul qilindi.Bunday segregatsiya 1896 yili Oliy sudning Konstitutsiyaga mos "Alohida, lekin teng" imkoniyatlar beruvchi qarori bilan rasman tasdiqlanadi.Ku-Kluks-Klan deb nomlangan maxfiy terroristic jamiyatining faoliyati segregatsiyani saqlab qolishga yo'naltirilgan edi.⁶¹

3.Tabaqalar Yevropa feodal tizimning bir qismi edi.Ular, shuningdek, ko'lab boshqa madaniyatlarida ham mavjud edi.Feodal tabaqalar turli majburiyatlar va huquqqa ega bo'lgan stratalardan iborat bo'lib, ularning ba'zilari qonunan

⁶¹ Giddings E. Sotsiologiya – T.:2002.-294-b.

belgilanar edi. Yevropa yuqori tabaqa aristokratiya va djentndan(mayda dvoryanlar) iborat edi. Ruhoniylar boshqa tabaqaga mansub bo'lib, ular biroz quyiroqda tursalar-da, ular bazi maxsus imtiyozlarga ega edilar.Oddiy xalqni esa keyinchalik "uchinchi tabaqa"deb atay boshladilar. Bular krepostnoylar, erkin dehqonlar, savdogarlar va hunarmandlar edi. Kastalardan farqli o'laroq, tabaqalar unchalik yopiq emas edi va turli tabaqa vakillari o'rtasida nikohga ruxsat etilar edi.Monarxga ko'rsatgan xizmati uchun oddiy fuqaroga riser unvoni berilishi mumkin edi, savdogarlar esa, bazan unvon sotib olishga muvaffaq bo'lar edilar.Tabaqalar tizimining bazi unsurlari Buyuk Britaniyada hozirgi kunda ham saqlanib qolgan. U yerda dvoryan unvonlari hozir xam katta obro'ga ega va avloddan avlodga o'tadi; yirik ishbiarmonlar, davlat arboblari va boshqa shaxslarga ko'rsatilgan xizmatlari uchun per yoki riser unvonlari berilishi mumkin.O'tmishda tabaqalar ananaviy aristokratiya va aslzodalik tushunchalari mavjud bolgan joylarda paydo bo'lgan. O'rta asr Yevopasidagi kabi feodal tizimlarda tabaqalar mahalliy feodal jamoalar bilan bog'liq edi ularning har birida o'z stratifikasiya tizimi shakllangan Ko'proq markazlashgan davlatlarda ,masalan Xitoy yoki Yoponiyada tabaqalar butun davlat miqyosida shakllanar edi. Bazan tabaqalar diniy qarashlarga asoslanib farqlanar edi , lekin bu farqlar induizm rastalar tizimichalik qattiy emas edi

4.Sinflar

Sinfy tizimlar quldorlik va kasta tizimlaridan ko'p jihatlardan farq qiladi. Ularning to'rt asosiy xususiyatini mavjud.

1.Boshqa stratalardan farqli o'laroq,sinflar qonun yoki urf-odatlar bilan belgilangan tug'ma xislatlarga aloqador emas. Sinfy tizimlar, boshqa stratifikatsiya tizimlariga qaraganda ,ancha elastikdir ,sinflar o'rtasida hech qachon aniq belgilangan chegara bo'lmaydi. Turli sinflarda insonlar o'rtasidagi nikohlarga hech qanday rasmiy to'siqlar yo'q.

2.Sinfga mansublik shaxs tomonidan qozoniladi, boshqa stratifikatsiya tizimlardagi kabi meros bo'lib qolmaydi.Ijtimoiy harakatchanlik –sinfy tuzilma ichida yuqori va pastga siljish bu yerda boshqa tizimlardan ancha avvalroq paydo bo'lgan(masalan, kastalar tizimida shaxsning bir kastadan boshqasiga o'tishi umuman mumkin emas).

3. Boshqa stratifikatsiya tizmlarida noiqtisodiy omillar etakchi rol o'ynasa (masalan, hind kastalar tizimida-din) sinflar insonlarning iqtisodiyahvolidagi farqlar, moddiy resurslarini boshqarish va ularga ega bo'lish bilan bog'liq.

4. Boshqa stratifikatsiya tizmlarida tengsizlik birinchi o'rinda insonlar shaxsiy munosabatlarida huquqiy va majburiyatlarning farqliligida namoyon bo'ladi, sinflar tizimi esa, aksincha katta miqyosdagi shaxssiz munosabatlarda, masalan, sinfy bo'linishning eng muhim omillaridan biri-har qanday kategoriya vakillariga tegishli bo'lgan va o'z navbatida umumiy iqtisodiy ahvolga bog'liq bo'lgan mehnat qilish va haq to'lash sharoitlaridir.

Sinflarning moddiy boyliklarga ega bo'lishi va buning natijasida hayot tarsi jihatidan bir-biriga yaqin insonlarning yirik guruhi, deb ta'riflash mumkin. Sinfy farqlanish birinchi o'rinda insonlarning moddiy farovonligi va maslagiga bog'liq.Hozirgi zamon g'arb jamiyatida quyidagi sinflar mavjud:yuqori sinf(

boy, tadbirkorlar, sanoatchilar va ishlab shiqarish vositalarini bevosita nazorat qiluvchi yuqori tabaqa rahbarlari), o'rtta sinf (ko'pchilik xizmatshilar va mutaxassislar) va ishchi sinfi (jismoniy mehnat bilan band odamlar). Ba'zan industrial davlatlarda, masalan, Fransiyada va Yoponiyada, to'rtinchi sinif-an'anaviy qishloq xo'jalik bilan shug'ullanuvchi dehqonlar yaqinlasha muhim rol o'ynab kelgan.⁶²

Ijtimoiy stratifikatsiya (social stratification)-moddiy va boshqa ne'matlarga erishish imkoniyati bilan bog'liq bo'lgan jamiyatdagi guruhlar o'rtasidagi tuzilmalashgan tengsizlikning mavjudligi. Hamma jamiyatlarda ham stratifikatsiyaning shakllari mavjud bo'lishiga qaramay davlat tizimining rivojlanishi oqibatida boylik va hokimiyatga egalik qilishdagi tafovutlar kuchayib boradi. Hozirgi jamiyatlarda stratifikatsiyaning eng xarakterli shakllaridan biri sinfiy bo'linish hisoblanadi.⁶³

5.Sinfsiz jamiyat. Bu marksizim –leninizim ta'limotida aytilgan

6.O'zbekiston Respublikasida jamiyat ijtimoiy tuzilishi Bozor munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan mulkchilikning 4 ta va shunga muvofiq sinflar yuzaga keldi.Mulkdorlar sinfi shakllanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 3- bo'lim. XII bob 53 va 54-chi moddalari Jamiyat va Shaxsga bag'shlangan.⁶⁴ (53-54-moddalar).

53-modda. Bozor munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan O'zbekiston iqtisodiyotining negizini xilma-xil shakllardagi mulk tashkil etadi. Davlat iste'molchilarning huquqi ustunligini hisobga olib, iqsodiy faoliyat, tadbirkorlik va mehnat qilish erkinligini, barcha mulk shakllarining teng huquqliligini va huquqiy jihatdan bab-baravar muhofaza etishni kafolatlaydi.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat himoyasidadir.Mulkdor faqat qonunda nazardatutilgan hollarda va tartibdagina mulkidan mahrum etilishi mumkin.

54-modda. Mulkdor mulkiga o'z xohishicha egalik qiladi, undan foydalanadi va tasarruf etadi. Mulkdan foydalanish ekologik muhitga zarar yetkazmasligi, fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning huquqlarini hamda qonun bilan qo'riqlaniladigan manfaatlarim buzmasligi shart.

O'zbekiston Respublikasidagi mulkshakllari quyidagilardan iborat:

- 1) Davlat mulki.
- 2) Davlatga qarashli bo'lmagan mulk:a)xususiy mulk;b) jamoa(shirkat)mulki.
- 3) Yuridik va jismoniy shaxslar, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar mulki.
- 4) Aralash mulk shakli.

Hozirgi kunda O'zbekistonda tabaqalanishda sinflar: boylar, o'rtta,kambag'allar mavjud. Stratifikatsiyaning aralash tipi bor. Hozir, O'zbekistonda mulkdorlar sinfi shakllanmoqda. O'zbekistonda umuman mulkdorlar sinfi shakllanishining 2ta sharti mavjud:1) Kichik va xususiy tadbirkorlikni kengrivojlantirish; 2)qimmatbaho qog'ozlar bozoriniri vojlantirish⁶⁵.

⁶² Giddings E. Sotsiologiya. – T.:200.-237-b.

⁶³ Su asar 820.-b.

⁶⁴ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston. 2014.-b.11-15-b.

⁶⁵ Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan 4-tom. T.: "O'zbekiston", 1996.

Bozor munosabatlariga o'tishning(O'zbekistonda)5ta tamoyilibor:

- 1) iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi;
- 2) davlat bosh islohotchiligi;
- 3) qonun ustuvorligi;
- 4) o'tkir ijtimoiy siyosat(shumasalaga taluqlidir);
- 5) bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Kuchli ijtimoiy siyosat prinsiplari esa quyidagilardan iborat:

- 1) Aholini ish bilan ta'min qilish va mehnat bozorini shakllantirish.
- 2) Daromad siyosatini yurgizish:pul daromadlari.
- 3) Ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy kafolatlar, kam ta'minlaganlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash.
- 4) Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.
- 5) Xalqning moddiy turmush sharoitini yaxshilash.
- 6) Har kimning mehnatiga va har kimning qobiliyatiga yarasha prinsipiga rioya qilish.

Jamiyatning moddiy – ishlab chiqarish jarayoni sotsiologiyada ijtimoiy tizim sifatida olib qarab o'rganiladi. Moddiy ishlab chiqarish tizimi – ijtimoiy hayot sohasi bo'lib, kishilarning moddiy nematlar ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq.

Har qanday ijtimoiy jarayonlar inson faoliyati bilan uyg'unlashadi. Muayyan ijtimoiy birlik sifatida uyushgan kishilarning katta-katta guruhlar, sinflar, millatlar milliy-etnik, ijtimoiy-demografik, nisbatan kichik tizimlar: o'quv-tarbiyaviy, oila-turmush va boshqa guruhlar, ijtimoiy tashkilotlar, birlashmalar, ittifoqlar-jamiyatning ijtimoiy tarkibini tashkil qiladi. Ular tarixiy rivojlanish bosqichlarida turli ijtimoiy asoslarda shakllanadilar. Yashash sharoitiga, rivojlanish xususiyatlariga, ijtimoiy ehtiyojga, manfaatlarga va muayyan maqsadga ega bo'ladi. Ijtimoiy tizimlar zanjirida turli o'ziga xos halqaga ega bo'ladilar. Ichki tashkiliy tuzilishi, xarakteri, funksional va rivojlanish darajasi, turmush tarzi, faoliyat shakli va usullari bilan qadriyatlar tizimi, norma, g'oyalari, qarashlari va boshqa jihatlar bilan o'zaro farq qiladilar.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini aniq tarixiy davr kesimida olib qarash talab qilinadi, chunki turli tarixiy davrlar ijtimoiy tarkib o'zaro sifat va xususiyatlari bilan farq qiladi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibini sotsiologiya jihatidan o'rganish uni uch ma'noda:umumiy, maxsus keng va xususiy tor ma'noda olib qarashni taqozo etadi.

Umumiy ma'nodagi ijtimoiy tarkib – jamiyatning bir butun tarkibini tashkil qiladi. Bu ijtimoiy tarkibning elementi sifatida jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga mos tushuvchi iqtisodiy siyosati, ideologiyasi kabi sohalari kiradi.

Ikkinchi, maxsus, keng ma'nodagi ijtimoiy tarkibga esa ijtimoiy – tarixiy birlik munosabatlari kiradi. Bu tarkib milliy - etnik,ijtimoiy - demografik, mutaxassislik va boshqa shu kabi kishilar guruhlarini o'z ichiga oladi.

Tor ma'noda ijtimoiy tarkib tushunchasiga mehnat jamoalari, hududiy birlik, nisbatan tez o'zgaruvchan guruhlar kiradi.

Bozor munosabatlarning tarkib topishi jarayonida O'zbekiston ijtimoiy tarkibida keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarishlarni yuqorida ko'rsatilgan uch metodologik bosqich bo'yicha sotsiologik tadqiq qilish-asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibi—ijtimoiy guruhlar, ularning ijtimoiy hayotdagi o'z mavqei bilan farq qiluvchi tomonlari majmuidan iborat. Oldingi zamonlarda ham jamiyat turli guruhlar dantashikiltopgan. **Masalan, Hindistonda jamiyat:**

- a) yuqori tabaqa – braxmanlar;
- b) o'rta tabaqa - kshatriylar (jangchi toifasi)
- v) shudralar (qora xalq)dan iborat guruhlar ajratilgan.

Qadimgi yunon faylasufi Aflotun (er.avval. 4-asr) jamiyat a'zolarini 3 guruhga ajratgan:

- a) faylasuflar (yuqori tabaqa bo'lib, davlatni boshqaruvchi sinf);
- b) harbiy jangchilar;
- v) qullar - quyi tabaqa.

Sotsiologlar sotsial harakatchanlikni stratalarga (qatlamlarga) bo'lingan jamiyatning o'ziga xos xususiyati deb biladilar va uni gorizontall hamda vertikal harakatchanlikka ajratadilar. Kishilarning aynan bir tabaqa ichida harakati, masalan, ish joyini yoki turar joyini o'zgartirish gorizontall harakatchanlikni anglatadi. Vertikal harakatchanlik esa quyi tabaqalardan yuqori tabaqalar tomon va aksincha qilingan harakatni bildiradi. Amerikalik sotsiolog Seymur Lipsetning fikricha, jamiyatda stratifikatsiya tizimi sotsialzinaning quyi pog'onasida turganlarga norozilik manbai sifatida ta'sir qiladi, shuning uchun ham stratifikatsiya tizimi ajralishning manbaidir, ammo shu bilan birga u kishilarni turli lavozimlarga tayinlashning va ularni o'z vazifalarini ado etishga rag'batlantirishning asosiy mexanizmidir. Amerika sotsiologiyasida U.Uortner Amerika jamiyatining sotsial tabaqalanish modelini ishlab chiqdi. Bu modelda oltita sotsial sinfning tabaqalanish tartibi berilgan. Uortnerga ergashgan holda K. Deyvs, U. Mur, V. Koleman, L. Reyuter, E.Shoyx, T. Gayger, R. Darendorf kabi olimlar o'zlarining stratifikatsiya sxemalarini ishlab chiqdilar.

Sotsial stratifikatsiyaning tarixiy tiplari.

Stratifikatsiya (lot stratum - qatlamva fatisio – bajaraman) - jamiyat tuzilmasi, alohida qatlamlari, ijtimoiytabaqalanish belgilari tizimi va tengsizlikni ifoda etuvchi sotsiologik tushunchadir.⁶⁶

Sotsial stratifikatsiya - sotsiologik tushuncha bo'lib, jamiyat va uning ayrim qatlamlari tuzilishini, ijtimoiy tabaqalanish, tengsizlik belgilari tizimini ifodalaydi yoki boshqacha aytganda, jamiyatning mulk, maqom va hokimiyat munosabatlaridan kelib chiqadigan tizimi bo'lib, u ijtimoiy rollar va vazifalarni o'zida aks ettiradi. Sotsial stratifikatsiya jamiyatdagi mehnat taqsimotida turli guruhlarining ijtimoiy differensiyasidan (tabaqalanishuvi), shuningdek u yoki bu faoliyatning ahamiyatini

⁶⁶ Aliev B., Rafiqov G., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). –Toshkent: TDYul nashriyoti. 2006. -124-b.

va ijtimoiy tengsizlikni qonuniylashtiruvchi qadriyatlar va madaniy namunalar (standartlar) tizimining xususiyatidan kelib chiqadi. Ijtimoiy stratifikatsiyaning asosiy vazifasi–turli faoliyat xillari uchun rag‘batlantiruvchi tizim yordamida ijtimoiy rollarni mos ravishda idrok etish va bajarishni ta‘minlashdir.

Sotsial stratifikatsiya: ma‘lumot, maishiy sharoit, mashg‘ulot daromad, ruxiy, din va shu kabi belgilar asosida jamiyat «yuqori», «o‘rta» va «quyi» sinflar hamda strat (qatlam)larga (2 dan 6 gacha) bo‘linadi. Tengsizlik har qanday jamiyatda bor. Sotsial stratifikatsiya tizimida kishilarning o‘z qobiliyatlariva kuch-g‘ayratlariga muvofiq maqomlarni o‘zgartirishlari (sotsial mobillik) esa jamiyatning barqarorligini ta‘minlaydi va sinfiy kurashni «ortiqcha» qilib qo‘yadi (Marksistik tadqiqotlar ijtimoiy sinflar nazariyasiga asoslanib kelingan).

Sotsial stratifikatsiyaning tarixiy tiplari

Umuman, stratifikatsiya yigindilari:

-daromad;

-boylik;

-obro‘;

Stratifikatsiyaning tarixiy tiplari:

-daromad;

-hokimiyat;

-obro‘;

Stratifikatsiya kishilik jamiyatining paydo bo‘lishi, tug‘ilishi bilan yuzaga keladi.

Shuni ham ta‘kidlash lozimki, sotsial stratifikatsiya empirik sotsial tadqiqotlarda uch xil yondashuv–uslub muhim ahamiyatga ega bo‘lib, shu uslublara sosida o‘rganiladi. Ya‘ni:

1.O‘z-o‘ziga– o‘zicha baholash ta‘rif berish yoki “sinfiy identifikatsiya”(yondashuv)asosida ta‘riflash bo‘lib,unda sotsiolog– respondentga (so‘raluvchi) o‘z mavqei va qatlamini so‘raganda aholining qaysi sinfidagi tabaqasiga – darajasiga mansub ekanligini ko‘rsatilishiga muvofiq javob berishlik uslubiga aytiladi,ya‘ni insonning jamiyatda kimligi o‘zidan so‘ralib aniqlanadi.

2.“Reputatsiyali baholash uslubi bo‘lib, bunda so‘rovchi-tadqiqotchi sotsiolog-so‘roluvchidan vositachi (ekspert rolini bajarishi, ya‘ni sinfiy tabaqa yoki mavqeini aniqlanayotgan shaxs – kishiga xolisona bir – biriga qaysi sotsial guruhga mansubligini bildirish uslubi; yana o‘zgalar fikriga asoslanish uslubi;

3.“ob‘yektiv yondashish” uslubi bo‘lib, unda tadqiqotchi bir qatoro b‘yektiv birlik kriteriyalar asosida sinfiy- sotsial kriteriyali(darajali zina poya yoki bosqichma-bosqichlik)asosida uch xil differensiyatsiyali sotsial holat asosida sotsial stratifikatsiya aniqlanadi,ya‘ni har bir individ, guruh:

1)ixtisoslik mavqei– ya‘ni bupr ofessi yaning noyobligi va uning orqasida sotsial turmush holatining tobora yaxshilanib borishi;

2)ma‘lumotlilik darajasi;

3)daromad darajasiga qarab insonlarning sotsial stratifikatsiyasi–ya‘ni aholining sotsial mavqei tabaqa va qatlami aniqlanadi.

Anashu uslub, ya‘ni “ob‘yektiv podxod” usuli g‘arb sotsiologlarining sinflarga bo‘linishi va kishilarning sotsial–iqtisodiy statusini aniqlashda muhim rol o‘ynagan va bu uslubdan keng foydalangan.

Ko'plab sotsiologlar jamiyatda kishilarning sotsial mavqeini, tabaqa va qatlamlarini aniqlashda stratifikatsiyalashning sotsial 7 – xil vertikal tabaqalanish holatidan foydalanib o'rganishga harakat qilingan. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) professional, ma'muriy – yuqori sinf qatlami (yuqori tabaqa vakillari);
- 2) o'rta darajadagi texnik mutaxassislar;
- 3) kommersiyaviy sinf tabaqalari (savdo karchalonlari);
- 4) mayda burjuaziya sinfi (o'rta mulkdorlar tabaqasi);
- 5) rahbarlik funksiyalarini bajaruvchi texniklar, ishchilar (rabochiylar) – ya'ni vositachi rahbarlar – o'rta toifadagi rahbar xodimlar;
- 6) malakali ishchilar, ya'ni haqiqiy moddiy boylik yaratuvchi malakali mutaxassis mehnatkashlar;
- 7) malakasiz, mutaxassis yoki mutaxassis bo'lmagan ishchilar, mehnatkashlar.

Yuqorida keltirilgan aniq darajada aholining sotsial startifikatsiya turi – qatlamini aniqlanishiga imkon beradi. Ammo ushbu yuqorida nomlari keltirilgan aholi qatlami ham aniq chegaraga ega bo'lmagan, ular ham o'zlarining jamiyatdagi sotsial mavqe, iqtisodiy, siyosiy o'limi va rolini aniqlashda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi, ya'ni ularning – professiyasi malakaliligi, moddiy daromati, ma'lumotliligi, turar joy – yashashi, turmush tarzi bilan farq qilganligi sababli mavqe, o'limi, roli o'zgarib turadi va shakli, guruhi aniqlashda noaniqlikni vujudga keltiradi

Stratifikatsiya tizimi (sistema) tiplari (turlari)ni quyidagicha izohlash mumkin. (Bu uslubdan G'arbda, asosan Rossiyada keng foydalanadi).

Ushbu stratifikatsiya tizim tiplari alohida bir – biridan ajralgan holda emas, balki bir-birini to'ldirish va o'zaro bog'lanib, mutanosiblashib ketishi bilan turmushda, sotsial-jamiyatda namoyon bo'ladi. Ushbu uslub bevosita G'arbda va Rossiyada qo'llaniladi va sotsial stratifikatsion tizimni aniqlashda keng foydalanishga harakat qiladilar va harakat qilmoqdalar.

Sotsial stratifikatsiya tizimini aniqlashda uning nazariy, ilmiy va amaliy jihatlarini o'rganib, tahlil qilishda, qadimdan amal qilishi jarayonlari qadimiy Sharqda va Turoni zaminda ham Sharqona uslubda va original formada foydalanib kelganlar, hozirgi kunda ham ijtimoiy jamiyat stratalari – elementlarini aniq talil qilib kelingan va kelinmoqda.

Azaldan jamiyatda jamiyat a'zolarini, insonlarni turli toifali tabaqalarga ajratilib, bo'lingan holda tahlil qilinib kelingan. Jumladan, yaqin Sharqda, Misr va Voviloniyada zodagon va qullarga Afina va Rimda fuqaro va plebey, patritseylarga, Hindistonda esa braxman va xizmatkorlarga (4-ta tabaqaga) ajratilib kelingan va amalda qo'llanilib o'rganilgan, amal qilinganligi fanda ma'lum.

Turon zaminda esa aholini toifa, tabaqalarga ho'linishi qadimdan ma'lum bo'lib, ular quyidagicha amal qilingan.

- 1) el – elat, urug' – qabilaviy etnik kelib chiqishidan;
- 2) kasbiy mansubligi, xunar – xunarmandchilik holatiga muvofiqligi;
- 3) diniy – e'tiqodiy qarashlari va qaysi dinga mansubligiga muvofiq qililgiga,

4)shajaraviy–avlod–ajdodlariga mansublik kabi sulolaviy kelib chiqishiga qarab, eʼtiborga olinib guruh, toifa va tabaqalarga boʻlinib kelinganligiga, mulkiy mavqeiga qarab–boy, kambagʻal, batrak va toʻpor, mardikor kabi holatlarga eʼtibor berilgan.

Maʼnaviy mavqeiga qarab aholi oʻrtasida–sadd, eshon,xoʻja, imom, mulla, mahsim va domla kabi guruhlariga ajratilgan holda munosabatda boʻlingan.

Turon zaminda aholi qatlamini ijtimoiy turmushning tabiiy – obʼyektiv kartinasi jamiyatdagi holatga muvofiq sotsial guruhlariga ajratilib kelingan va boshqarilgan.

Jamiyat taraqqiyotining bu xilda sharqona boshqarilishini tarix tajribasi,uning obʼyektiv holatda mavjudligini koʻrsatmoqdaki, insonlarni (shaxslarni) bu tartibda guruhlash, ijtimoiy qatlam–tabaqa va toifa sifatida sotsial guruh–guruhlariga–stratalarga ajratib ijtimoiy- siyosiy mavqei, oʻmini toʻgʻri qilib belgilash, shu asosda bu sotsial guruh stratalarga munosabatda boʻlish holati jamiyatni sotsial-siyosiy jihatdan samarali boshqarish imkonini bergan va asrlar osha anashu sotsial tartib Turon zaminda mavjud boʻlib kelgan, umum davlat miqyosida ular bilan anashu tizimda sotsial - siyosiy murasaviy kontsepsiyasini takomillashtirilib, sotsial ziddiyatlarning oldi olinib, keskin sotsial - siyosiy muammolar hal qilinib kelingan.

Jamiyatda mavjud bu sotsial tizim vaqt oʻtishi bilan asrlar osha tobora takomillasha boradi, jamiyatdagi jiddiy, maʼnaviy, moddiy oʻzgarishlar, jamiyatning sivilizatsiyalashuvi jarayoni bu sotsial guruhlar– stratalar hayotiga ham jiddiy taʼsir yetib, anʼanaviy (avvalgi) tizim tartibotlariga ijtimoiy guruhlar, sinflarning abadiy turgʻunlik tushunchalariga keskin zarba beriladi,aholining oʻzgarmas qatlamlari haqidagi tushunchalarga asta-sekin barham berilib boriladi.

Tabaqa, qatlam, sinflarning jamiyatdagi anʼanaviy farqlari

Uzoq yillar oʻtishi oqibatida, tobora yemirila boradi, sotsial guruhlar–stratalarning ijtimoiy guruhlanish tendensiyasi yuzaga kelaveradi va shakllana boradi, yangicha qatlam, sinflar tobora vujudga kelib, sinflar uyushqoqligi paydo boʻlib, oʻz navbatida jamiyatni boshqarish tizimlarini shakllantirish zaruriyati vujudga kela boshlaydi va bu ehtiyoj koʻp holatlarda siyosiy va jamiyatni sotsial boshqarishdan tez rivojlana borishi holatlari yuz bera boshlab yangicha shakllangan aholi qatlami–sinflar talabiga jamiyatni siyosiy boshqarish tizimi koʻp holatlarda javob bera olmay qolish holatlari yuzbergan joylar –xudud , mamlakat – davlatlarda jamiyatni yangicha boshqarishga moslasha olmay turli xil sotsial portlashlarga olib keladi va olib kelgan.Bunga jahonda koʻplab misollar keltirish, sotsial oʻzgarishlar ijtimoiy – siyosiy boshqarish tizimlari oʻzgarganligi haqidagi voqealarni, hatto hozirgi kunda ham (jumladan, Qirgʻiziston,Ukraina va boshqalar)mavjudligiga guvoh boʻlmoqdamiz.

Jamiyatda yuz berayotgan bunday sotsial-sinfy oʻzgarishlar qadimda ham va hozirgi zamonda yuz berib sotsial– siyosiy boshqarishni demokratlashtirish ehtiyoji zaruriyatini vujudga keltirgan va hozirgi zamonda ham bu masala obʼyektiv dolzarb muammo boʻlib qolmoqda.Chunki jamiyatda shakllanib, katta ijtimoiy-siyosiy kuchga aylana boradigan sotsial guruh-stratalar talabi doimo boshqarishga nisbatan ilgari ketadi va jamiyatni yangicha sotsial– siyosiy boshqarish ehtiyojini

vujudga keltirib boshqarishni yangilash zaruriyati ob'yektini muammo qilib qo'yadi. Ammo shuni ham ta'kidlash zarurki, jamiyatni sinflarga bo'lib, ular o'rtasidagi qarama-qarshiliklar asosida sinfiy kurashlar mavjudligi sababli bu sinfiy kurashlarning oldini olish, sinfiy muammolarni hal qilish jamiyatni siyosiy boshqarishning asosiy va zifasi, deb qaraganlar. Bu munosabat esa umumiy tarzda sinflar maqsad va manfaatlari hisobga olinib, ana shu sinflar tarkibidagi ijtimoiy-sotsial guruhlarining-stratalarning maqsad-manfaatlariga e'tibor berilmagan. Jamiyatdagi umumiy yondashilib bir sinf vakillari bilan ikkinchi sinf va killari qarashlaridagi tafovut-farqlarni umumiy tarzda aniqlash masalasi ijtimoiy fanlarning shu jumladan sotsiologiya fanining ham vazifasi bo'lib, ijtimoiy muammolarga bir tomonlama yondashib kelingan. Jumladan, jamiyatda aholining ijtimoiy tuzilishini umumiy tarzda G'arbda va sobiq Sovet tuzumi davrida uchta: ishchilar, deqqonlar va ziyolilar, (G'arbda kapitalizm sharoitida burjuaziya, mayda burjuaziya) kabi sinflarga bo'lib, ularni ajratib sotsial muammolarini umumiy sinfiy muammola tarzida o'rganilib, umumiy tarzda bu sotsial muammolarni hal qilinishiga harakat qilinib kelingan. Vaholanki, ishchilar sinfi tarkibida manfaatlari, turmushi, kasbi, xunari, mavqei, mashg'ulot turibir-biriga to'g'ri kelmagan qanchadan-qancha sotsial guruhlar mavjud bo'lib, ularning o'zaro manfaatlari ham turlichadir, ish, mehnat sharoitlari, mehnat taqsimotlari ham turlichadir. Anashunday ijtimoiy holatning turli xilligi deqqonlar sinfiga ham, ziyolilarga hatto burjuaziya deb atalguvchi sinflarga ham ta'lluqlidir. Bu sinflardagi turli xil mayda-mayda bir-biridan farq qilinadigan sotsial guruhlar borki, ularning ham o'ziga xos sotsial muammolari mavjuddir, bu sotsial guruhlar esa jamiyat aholi tarkibining asosiy qismini tashkil etib, ularni sotsiologiya fanida sotsial-stratalar-sotsial guruhlar deb ataladi. Ularining jamiyatdagi mavqeini, rolini, o'mini va istak, maqsad va manfaatlarini yuz bergan, beradigan sotsial muammolarini sotsial stratifikatsiya yo'nalishi o'rganadi. Sotsial stratifikatsiya deb o'rganiladigan jamiyatning stratifikatsion sotsial yo'nalishlari sotsiologiya fanida-ikkita katta sotsial yo'nalish asosida o'rganiladi.

Birinchisi-moddiy yo'nalish, bunda jamiyatda moddiy noz-ne'matlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak maxsulotlari, umuman inson uchun, inson yashashi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarini qondiradigan iqtisodiy talablar amalga oshirilib, ishlab chiqarish, ishlab chiqarish vositalari, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari asosiy rol o'ynab, unda mehnat, mehnat taqsimotlari jarayonlari asosini tashkil etib sotsial muammoviy yo'nalishlarni tashkil etadi.

Ikkinchidan esa-jamiyatning sotsial ma'naviy yo'nalishini tashkil etadi. Unda jamiyat ahlining aql-zakovati, ong, tafakkuri, ma'naviy madaniyati shakllanadi, ma'naviy mehnat va uning natijalari, inson bilimi, ilmi, tarbiyalanganligi, ta'limi, moddiy turmushi asosiy ahamiyatga ega bo'ladi.

Moddiy sotsial yo'nalishining ob'yekti bu ishlab chiqarish korxonalari, muassasalari, qishloq xo'jaligining turli-xil sohalari, sanoat ishlab chiqarishi uning turli-xil tarmoqlari asosi yob'ekt hisoblanib, bu yo'nalishda ham insonlar (shaxslar) mavqei, o'rni, roli, tabaqa, toifa kabi, ya'ni boy, badavlat, mansabdor, kambag'al, yo'qsil, qashshoq va o'g'ri, poraxo'r, zo'rovon, talonchi, firibgar va h.k. kabi sotsial guruhlar-stratalari mavjuddir. Ma'naviy-madaniy sotsial

yo'nalishda ham uning ob'yekti – ta'lim – tarbiya tizimi, ilmu-fan, madaniy maskanlari hisoblanib, buy o'nalishda ham turli-xil aholi qatlamlari-tabaqa, toifalari–boy, kambag'al, mansabdor, mansabga intilish, ma'naviy boy ziyoli, ma'naviyatsiz ziyoli, salohiyatli intelligent, savodli, savodsiz, ma'naviy qashshoq, manqurt shaxs kabi sotsial guruhlar–stratalar mavjudligi tabiiydir.

Jamiyatning anashunday murakkab tarzda ijtimoiy tuzilishini mukammal o'rganish, muammolar sabablari, hal qilish yo'llarini aniq bilish, aniqlash, har bir sotsial guruhning istak-maqсадlari, manfaatlari, ehtiyojlari, talabalarini, ularning jamiyatdagi o'ri, mavqei, rolini ahamiyatini aniqlab, to'g'ri munosabatlarni belgilash bevosita jamiyatda yuz beradigan sotsial qarama-qarshiliklarni, ziddiyotlarni, bartaraf etishda katta ahamiyatga egadir, bu esa jamiyatni siyosiy boshqarishni osonlashtiradi. Ushbu sohani o'rganish faqat sotsiologiya fani va uningeng muhim yo'nalishlaridan biri–sotsial stratifikatsiya yo'nalishi hisoblanadi.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, ya'ni ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti jarayonida yuz beradigan totalitar tizimi hukmronlik qilgan sharoitda ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot faqat umumiy tarzda sinflararo kurash asosiy va bosh sababi, - deb qaralgan va xulosa chiqarilib jamiyatdagi boshqa yuqorida ta'kidlangan sotsial guruxlar ye'tiborga olinmagan, guruxdagi muammolarga ham sotsial guruxlar – stratalar manfaatlari asosida emas sinflararo manfaatlari nuqtai – nazaridan qarab ijtimoiy muammolarni hal qilishga noto'g'ri harakat qilinib kelingan, sotsiologiya fanida sotsial stratifikatsiya tamoyillari buzilib kelingan. Shu sababli jamiyat taraqqiyotini sinflararo qarama-qarshi va ziddiyotlar asosida emas, sotsial guruxlararo, ular manfaatlari muvofiq o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bubirinchidan. Ikkinchidan esa jamiyat taraqqiyotida, ijtimoiy taraqqiyotni idrok etishda induktiv yondashuvlarni mutloqlashtirishdan iborat bo'lib, bu induktiv metod esa u ham, xususning (yakkalik, ya'ni stratalar) umumga (umumiylikka mansubligi) muvofiq lashtirilib, ijtimoiy taraqqiyotning asosida bosh sababchi ham umum (umumiylik) ning to'la namoyon bo'lishi asosida xulosa qilish g'oyasiga amal qilish jamiyatda ijtimoiy-iqtisodiy muhitning mavjud ob'yektivligi qanday bo'lishidan qat'iy nazar umumga (umumiylikka) amal qilish muqarrar degan noto'g'ri g'oyaviy tamoyillarga amal qilingan. Natijada ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida tabiiy sotsial muhitni tan olinmaslik harakatlar o'timishda jamiyatga katta zarar keltirilgan. Bu induktiv metod ham nafaqat sotsial guruxlar - stratalarning, balki jamiyatda aholining etnik xususiyatlari ham, tabiiy, ijtimoiy muhitning ham ustuvorligi tan olinmasdan umumiylikka rioya qilishlikdan iborat bo'lib, o'yektiv borlig'ning sotsial tamoyillari qo'pol ravishda buzilib, jamiyatda millionlab kishilarning manfaatlari zarar keltirgan, xatto millinlab kishilar yostig'ini quritgan. Hozirgi zamonda ham qisman bo'lsada ushbu holat takrorlanib turmoqda.

G'arbiy Yevropalik yana bir sotsiolog olim Maks Veber "umumiylik" va xusus" borasida o'ziga xos g'oyani ilgari suradi. Uning fikricha jamiyatdagi barcha empirik amaliy narsalarni tartibga solishning qulay usuli bo'lgan ideal tiplar, ya'ni hamma, hamma narsalarni muayyan gavdalanitra oladigan vositalar kontsepsiyasini ilgari suradi. Uning nuqtai – nazaridan olib qaralsa feodalizm, kapitalizm yoki quldorlik jamiyat tuzilmalari jamiyatda tarixan shakllangan formatsiyalar sifatida emas, balki aholi turli tabaqalari o'rtasidagi munosabatlarning

ideal muvofiqlashuvi, qat'iy lashgan uyg'unlashuvi tarzida talqin etilib jamiyatdagi mavjud barcha tabaqa va guruhlardan iborat rang-barang stratalar tasnifi ham ana shu ideal muvofiqlashuv va qat'iy lashganlik mohiyatidan kelib chiqqan va amalga oshirilgan, - deb ilmiy tahlil natijalariga asoslanadi.

MaksVeber stratifikatsion jarayonlar mohiyatini ochishda ratsionalistik asosida yondashadi va ratsionalistik omilning muhimligiga alohida ahamiyat beradi.

MaksVeber fikricha ratsionalizm Yevropa xalqlari tabiatiga xos bo'lib, bu omilni ijtimoiy voqelikning barcha sohalariga joriy etish zarur, deb hisoblaydi. Uni amalda qo'llash uchun quyidagi prinsipni joriy etishni taklif etadi. Iqtisodiyotda – deydi u, -ikki yoqlama hisob-kitobni amalga oshirish tizimiga o'tish, axloq borasida esa-to'g'ri va teng munosabatlarga amal qilishga erishishni, siyosatda – parlamentarizmga amal qilib, rasmiy huquq va ma'muriy boshqaruv institutlarini joriy etish zarurligini, musiqa sohasida esa – Yevropaga xos notalar tizimini va unga mos texnik (cholg'u asboblari) vositalarini uyg'unlashuv me'yorlariga o'tish g'oyasini targ'ib etadi. U hamma sohaga umum planetar axloq va turmush tarzi faqat Yevropa xalqlarigagina xos deb hisoblab, bu sohada u milliylikda alohidalikni (ya'ni yevropachalik tizimni) iqtisodiyot, siyosat va huquq va boshqaruvda, axloqda umumiylikni ulug'lab dualizm – ikki tomonlamalik pozitsiyasiga amal qiladi. Shu sababli Maks Veber hamma narsalarning jamiyatda yakkalikda umumiyning ("xusus"dan"Umumning") kelib chiqishdek umumiy qonuniyatni unutadi.

Sotsial stratifikatsiyaning yana bir eng muhim va asosiy tushunchalari sifatida namoyon bo'ladigan sohasi, u ham bo'lsa jamiyat sotsial–ya'ni ijtimoiy tarkibi, uning ijtimoiy guruhlari va ularning tabaqalanish belgilari (boy, kambag'al, qashshoq, ilm- fan , proletar, batrak, mardikor, to'par, kapitalist, burjuy va kasbi - hunari, bilimi, mavqei, ixtisosi va h.k.) tizimi hisoblanadi. Bu sohaga yuqorida ta'kidlanib o'tilganimizdek, ikki xil yondoshuv hozirgi zamon sotsiologlari qarashida mavjud, ya'ni sotsial stratifikatsion nazariyaga muvofiq jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarning (hamma turdagi mehnatkashlar) ishlab chiqarishdagi ishtiroki, jamiyatning mulkka bo'lgan munosabatlari asosida tabaqalashuvi jarayoni xususida marksistik va nomarksistik (ya'ni marksistik va unga qarshi qarashlar) yondashuvlar mavjuddir. **Marksistik qarashlar jamiyatning mulkiy tabaqalashuvini sinfiy nuqtai nazardan tahlil etsa, hozirgi zamondagi ko'plabsotsiologlar ularning - marksistlarning sinfiy qarashlarini rad etib, jamiyat tabaqalanishini jamiyatning ijtimoiy guruhlar tabaqalanishini ma'lumoti, ruxiyati, maishiy shart - sharoitlari (mulkiy holati), bandlek darajasi, daromad ko'lamlari va boshqa belgilarga ko'ra tabaqalanishini asosiy deb hisoblamogda.** Shu bilan bir qatorda bu yondashuv tarafdorlari ilmiy jihatdan yondashuv deb hisoblab, jamiyatda ijtimoiy turmush tarzi, ma'lumoti, kasbi va boshqa rang-barang farqlanmalarga, mulkiy mavqelariga ko'ra aniq ajraluvchi-tabaqalanuvchi guruhlardan tashqari jamiyat ahlini yana yuqori tabaqa, o'rta tabaqa va quyi tabaqalarga bo'linishiga ham amal qiladilar (bu prinsip bevosita sinflashish jarayoniga muvofiq kelishini unutadilar) va amal qilinayotganligini ta'kidlaydilar.

Albatta bunday yondashuv tor doirada bo'lsada, yuqorida ta'kidlangan ijtimoiy farqlarning o'ziga xos yakuniy natijasi, xosilasi, sintezi sifatida namoyon bo'layotganligi ob'yektiv holatdir.

Ayniqsa bunday holat XX- asrda keng ko'lamda rivojlangan, G'arbda, asosan AQShda jamiyatning ijtimoiy tabaqalanishi jarayonida o'rta tabaqa kontsepsiyasiga asosiy e'tiborini qaratib, bu o'rta tabaqa kontsepsiyasini o'rta sinfiy qarash kontsepsiyasi bilan uyg'unlashtirilib o'rta sinfiy tabaqa tendensiyasiga alohida o'ziga xos milliy, irqiy, intellektual va moliyaviy tenglik va barqarorlik me'yori sifatida o'ziga xos ijtimoiy barometrlilik roliga muvofiq vazifani bajarmoqda, deb hisoblashmoqda, katta e'tibor berib, muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlamodalar. Bu holat bevosita sinfiy tabaqalanishni e'tirof etish tendensiyasi hisoblanib haqiqatga yaqinlashmoqda. Shu boisdan ham o'rta sinf – tabaqa hissasi ortib borishi jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlik sharti sifatida talqin etilmoqda. Chunki o'rta sinf vakillari miqdori (ya'ni kambag'alning o'rtahollashuvi, o'rtaholning boyib borishi va h.k. – A.Sh.) oshib borish tendensiyasi va ulardagi mulkning o'zgarishi–ko'chmas mulk hajmi, bankdagi mablag'lari (foiz asosida ko'payishi va h.k.) va bankdagi va boshqa turli manbalardan olgan daromadlari, foydalari (ishlab chiqarish, fermerlik, tijorat, savdo-sotiq, sudxo'rlik, hatto mansabdorlik va h.k. – A.Sh.) va shunga o'xshash boshqa daromadlaridan davlatga to'lanadigan soliqlari salmog'iga ko'ra va bu tabaqa yil sayin aniqlanib boriladi va tekshirish, tahlil etish natijalariga ko'ra bu tabaqaning sinfiy salmog'I oshib bormoqda.

Ammo G'arb va AQSh mamlakatlari aholisi turmush tarzining o'ziga xos barometr va zifasini o'tayotgan o'rta sinf fenomeni, garchi rivojlangan Yevropa mamlakatlari uchun ijtimoiy- iqtisodiy qadriyat darajasiga ko'tarilib baholansada, bu qadriyat o'rta sinf vakillarini go'yo kapitalizm–xalq kapitalizmiga aylanib bormoqda – degan g'oya – A.Sh.), yuqori va quyi sinf vakillari bilan ma'naviy yaqinlashtirilish imkonini bermadi, bermaydiham. Chunki bu jarayonda ijtimoiy taraqqiyot ob'yektiv qonunlari–insonga bo'lmagan (ya'ni to'g'ridan-to'g'ri) ob'yektiv vaziyat, ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy tizimga mos– sub'yektiv vaziyatlar e'iborga olinishini taqozo etadi.

O'zbekistonimiz jamiyati ijtimoiy jarayonlarning tarkibi va ijtimoiy tizim mohiyatini xarakterlovchi omillardan hozirgi kun sotsiologlari, o'n ikkita stratifikatsion tizimlar tipini alohida ajratib ko'rsatib, o'rganmoqdalar. Ular quyidagi stratifikatsion tiplardan iborat:

1. Ijtimoiy–kasbiy tasnifga ko'ra tiplar;
2. Qavm–sulolaviy asoslarga muvofiq tiplar;
3. Madaniy–estetik darajalarga ko'ra tiplar;
4. Yoshiga ko'ra – yosh davrlariga ko'ra tiplar;
5. Jinsiy tasniflariga ko'ra tiplar;
6. Etnik–xududiy holatlariga ko'ra tiplar;
7. Diniy e'tiqod,diniy konsessiyalariga ko'ra tiplar;
8. Partiyaviy e'tiqodlariga ko'ra tiplar;
9. Uruf–qabilaviy–etnik ajdodiga ko'ra tiplar;
10. Muayyan manfaatlar doirasida uyushgan korporativ tiplar;
11. Huquq buzarlik, jinoyatchilikka moyilikka ko'ra tiplar;
- 12.Madaniy–ramziy intilishlarga qiziqishlariga ko'ra tiplar kabilardan iborat stratifikatsion tiplardir.

O'zbekistondagi ijtimoiy stratifikatsiya jarayonlarini o'rganishda aniq sotsiologik tadqiqot metodlari, xususan, anketa, intervyutest, hujjatlarni o'rganish usullariga real holatlar taqozosi asosida yondashiladi va ular orqali olingan birlamchi ma'lumotlar kontent analiz usulida qayta ishlanadi.

Jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni o'rganishning asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

-Tadqiqot davomida ijtimoiy stratalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularning ijtimoiy tarkib va tuzumdagi o'zmi va mavqeini xurmat qilish;

-Stratalar ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiy va yahtit yondashish;

-O'zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, regional – hududiy xususiyatlarini alohida e'tiborga olish;

-Ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli ta'sir o'tkazuvchi siyosiy - iqtisodiy, ijtimoiy, diniy-konfessional, mafkuraviy omillarni o'rganish;

-Ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda siyosiy tahlil usullaridan foydalanish.

Shu bilan birga jamiyatda ijtimoiy tabaqalanish jarayonini va tabaqalanishni o'rganishda rioya qilinadigan tamoyillar ham bo'lib, ular asosan quyidagilardan iboratdir.

1. Empirik tadqiqotlar davomida ijtimoiy stratalarga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, ularning ijtimoiy - tarkibiy tuzilishiga, ijtimoiy tuzumdagi o'zmi va mavqeiga nisbatan hurmat qilish.

2. Ijtimoiy stratalarning ijtimoiy statikasi va dinamikasi jarayonlarini ilmiy baholashda tizimiy va yahtit yondashish talab etiladi.

3. O'zbekistondagi ijtimoiy stratalarning milliy mentaliteti, regional hududiy xususiyatlarni alohida e'tiborga olish, urf-odatlariga ham yaxshi munosabatda bo'lish.

4. Ijtimoiy stratalar tarkib topishiga sezilarli ravishda ta'sir etuvchi siyosiy - iqtisodiy, ijtimoiy ma'naviy-madaniy va diniy konfessional, mafkuraviy va g'oyaviy omillarini atroflicha o'rganish, ob'yektivxulosachiqarish.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy stratalar tasnifini tuzishda ob'yektiv holda yondashib qiyosiy tahlil usullaridan foydalanish talab etiladi.

Eng muhimi jamiyatda ijtimoiy stratalar mohiyati o'zmi mavqeini ob'yektiv o'rganilib, ijtimoiy stratifikatsion tahlil qilib, empirik tadqiqotlar asosida to'g'ri tahlil qilib, nazariy xulosalar chiqarilar ekan, dastavval stratalarning ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, ma'rifiy – madaniy darajasiga siyosiy boshqaruv mohiyatiga har bir strataning (asosan sotsial guruh, tabaqa, qavm, el-elat va h.k.) o'troqligiga, milliyligi, diniy e'tiqodlariga, demografik - xududiy yahtitligiga, ma'naviy – madaniy mentalitetiga, ilmu – fanyutug'iga, o'tmish taraqqiyotiga, jahon sivilizatsiyasidagi o'ziga va hozirgi zamon taraqqiyoti kabi sohalarga jiddiy e'tibor berib, ob'yektiv stratifikatsion nazariy xulosa chiqarishni taqozo etadi.

Ijtimoiy tabaqalashuv turlari. Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi va ijtimoiy tarkibi o'zaro yaqindan bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi ijtimoiy tartib o'zgarishsiz sodir bo'la olmaydi. Iqtisodiy munosabatlarni ayiravishda o'zgartirishga urinishlar aholi qarshiligiga sabab bo'lmasa ham, sustligiga duch kelishi mumkin. Jamiyatning ijtimoiy qatlamlashuvi ikki shaklda namoyon bo'ladi:

1. Insonlarning professional-ta'lim saviyasiga asoslangan professional malakali shakl. 2. Daromad darajasiga qarab taqsimlanishiga asoslangan iqtisodiy shakl.

Professional –malakali ijtimoiy tabaqalashuv esa ishchi bajarayotgan shu faoliyatning murakkabligi, aqliy salohiyati, jamiyat uchun muhimligi va ahamiyatini e'tiborga olishga asoslanadi.

Iqtisodiy – ijtimoiy tabaqalashuvi inson mulk maqomini baholashga hamda jamiyat va ma'naviy qulayliklarga erishuvlarida uning real imkoniyatlarini e'tiborga olishga asoslanadi.

Har bir mamlakatda shakllangan tabaqalar va qatlamlar tamomila turlicha bo'lishi mumkin. Ularning soni tabiiy manbalar va o'lkaning iqtisodiy tarixi, mehnat taqsimoti va iqtisoslashuv jarayonida erishilgan daraja,davlat sektori bajaruvchi vazifalarning nisbiy miqyosi va ro'yxati, mulkchilik,shu jumladan o'tmishdan meros mulkchilik xarakteriga ham bog'liq bo'ladi.

Professional ta'lim va iqtisodiy tabaqalashuv har doim ham mos kelavermaydi.Professional malakali va iqtisodiy - ijtimoiy tabaqalashuv orasida mobillikka erishish mamlakat aholisining mehnat faoliyatini yuksaltirishda hal etuvchi omillar.

«O'zbekistonda, – deb ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti I. A. Karimov, uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish, xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi». Respublikamiz jamiyatining ijtimoiy tarkibi nazariyasi hozircha ishlab chiqilgani yo'q. Mustaqil O'zbekiston jamiyatining ertangi kuni jtimoiy –iqtisodiy tuzumiga bugun asos solindi desa odashmaymiz. Shuning uchun ham jamiyat ijtimoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada to'laroq bilishga xizmat qiladi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibida ijtimoiy–sinfiy munosabatlar ham muhim o'rin tutadi.O'tgan davrda asosan, ikkisinfi – ishchilar va dehqonlar sinfi va intelligentsiya qatlami mavjud deb ko'rsatilib, jamiyat ijtimoiy tarkibidagi boshqa guruhlarining ahamiyati mutlaqo tilga olinmas edi.

Ijtimoiy tarkibda hududiy yo'nalish ham mavjud bo'lib, u mintaqaviy, viloyat, shahar, qishloq, mahalla kabi hududiy birikmalarni o'z ichiga oladi.Bu tarkibiy birlikda ayrim olingan hudud doirasida sotsiologik tadqiqot olib borish talab qilinadi. So'ngi yillarda bu masalaga jiddiy qaralmoqda. Ayniqsa, shahar, qishloq, mahallaga oyid muammolarni o'rganish zaruriyati ortmoqda.

7.3. Sotsial harakatchanlik (mobillik) to'g'risidagi sotsiologiya klassiklari qarashlari.

Sotsial mobillik deb individ yoki guruh tomonidan jamiyat stratifikatsion tizimida egallagan sotsial maqomini, statusini o'zgarishi, ya'ni insonlarning sotsial ko'chishiga aytiladi. **Mobillik (inglizcha mobilite-«ko'chish», «safarbarlik»)** маъносини англатади Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar,qatlamlarning harakatlarini sotsial dinamikaning sotsial mobillik

(lotincha mobilis - harakatchan, o'zgaruvchan)va sotsial o'zgarishlar, deb ataladigan ko'rinishlari ifodalaydi.⁶⁷

(Ijtimoiy mobillik (social mobility) -individlarning turli ijtimoiy pozitsiyalarga munosabati.Vertikal mobillik-ijtimoiy stratifikatsiyasining ierarxiya tizimida quyiga yoki yuqoriga qarab siljishi.Gorizontal mobillik-individ yoki guruhning bir mintaqadan ikkinchisiga o'tishi Vertikal mobillikni tahlil qilishda sotsiologlar individning o'z shaxsiy kar'erasi doirasidagi mobilligini ham, individ va uning ota-onasi ijtimoiy pozitsiyasidagi tafovutlarni ham o'rganadilar)⁶⁸

«Sotsial mobillik»termini sotsiologiyagaP.Sorokin tomonidan1927 yilda kiritilgan. Sorokinga ko'ra, sotsial mobillikning 2 turi mavjud: vertikal va gorizontal sotsial mobillik.⁶⁹

Vertikal mobillik o'z o'rnida yuqoriga va pastga yo'naltirilgan bo'ladi. Yuqoriga yo'naltirilgan sotsial ko'tarilish, yuqoriga xarakatni, pastga yo'naltirilgan sotsial tushish, pastga harakatni anglatadi.

Gorizontal sotsial mobillik individning bir sotsial qatlamdan shu darajada joylashgan boshqa qatlamga o'tishini anglatadi. Mobillikning bu turi yashash joyi (migratsiya)ni, boshqa diniy guruhga (dinini o'zgartirishi va h.k.) bildiradi.Vertikal sotsial mobillik bir stratadan boshqasiga o'tishni nazarda tutadi.Vertikal sotsial mobillik hayot davomida insonning yuqori statusni quyiga, quyi statusni yuqori darajadagisiga almashishidir. M-n, vodoprovod ta'mirllovchisining korporatsiya prezidenti darajasiga ko'tarilishi yoki teskari jarayon.

Sotsial mobillik boshqa mezonlarga ko'ra klassifikatsiya qilinishi mumkin.Masalan,individualvaguruhiymobillik.

Individual mobillik-individning gorizontal yoki vertikal chiziq bo'yicha yuqoriga va pastga ko'chishi boshqalarga bog'liq bo'lmagan holda sodir bo'ladi.

Guruhiy mobillikda ko'chishlar guruhii, kollektiv holda sodir bo'ladi, u yoki bu strataning sotsial mavqei o'zgaradi. M-n, sotsialistik revolyutsiyadan keyin hokimiyatdagisinf o'z vakolatlarini yangi sinfga bo'shatib beradi. Bularga ilm – fan revolyutsiyalari ,fuqarolar urushlari, to'ntarishlar, islohatlarni misol qilib olish mumkin. **Individual mobillik** omillariga kasbiy – pffessional zinapoyada ko'tarilish (malaka oshirish natijasida), ta'lim darajasi, ma'muriyatda egallagan o'rn, ya'ni kasbiy karyera bilan bog'liq bo'lgan omillar kiradi. Individualmobillik siyosiy va tadbirkorlik faoliyati, armiyada, va boshqa davlat institutlaridagi faoliyati bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin. Individual sotsial mobillik omillari-oilaning ijtimoiy maqomi, millat, ta'lim darajasi, jismoniy va aqliy xususiyatlar, tashqi ko'rinish, tarbiya, yashash joyi va h.k. Individual sotsial mobillikning yuqoriga yo'naltirilgan turining eng samarali usuli–manfaatli nikohdir.

Sotsiologiyada yana avlodlar aro va avlodlar ichidagi sotsial mobillik ham farqlanadi. Avlodlarning mobillikda farzandlar o'z ota – onalaridan ko'ra yuqoriroq sotsial pozitsiyani egallashadi yoki ulargan isbatan quyi pog'onaga tushib qoladi. Avlodlarichidagi mobillik individning uning ota –onasining

⁶⁷ Aliev B., Mullajanova M.,Raxmonov B. Sotsiologiya. Darslik. T.: 2011.- 105-b.

⁶⁸ Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002.-23-b.

⁶⁹ Nosirxojaev S., Sultonov T.,Tursunova S. Sotsiologiya. Darslik.T.2009.-126-b.

pozitsiyasiga solishtirmasdan turi bo'zining sotsial statusini o'zgartirishini anglatadi. Individsotsial maqomini o'zgartirganda o'zi uchun yangi statusni o'zlashtirishi va bunga bog'liq bo'lgan o'zaro xarakat va munosabatga, muloqatga kirish muammosi yuzaga keladi. Madaniy to'siq va munosabat, muloqat to'siqlarni buzib o'tish uchun individdagi hayot tarzini o'zgartirishi, o'zi uchun yangi statusning xatti-xarakatlari namunalarini shakllantirishi, ijtimoiy muhitini o'zgartirishi lozim. Ammo hayotiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, barcha individlar ham bunday muvoffaqiyatli o'tib yangi stratada qulay joylasha olmaydi. Barcha ob'ektiv mezonlarga ko'ra yuqoriroq pog'onaga ko'tarilgan individsotsiomadaniy shart-sharoitlarga ko'ra yangi strataga kiruvchi eshik ortida qoladi, lekin u eskistratanitar ketgan bo'ladi. Uning yangi holati, yangicha tarzidagi hayot kechirishga intilishi va h.k. uni buyerda «begona» ga aylantiradi. Individ 2 strata, 2 madaniya torasida «osilib» qoladi. O'xshash holat pastga yo'naltirilgan vertikal mobillikda ham sodir bo'lishi mumkin. Jamiyatning yuqori qatlamlarida bo'lish imkoniyatini yo'qotgan, sotsialierarxiyaning quyi pog'onasiga tushib qolganin son yangi holatiga, yangi hayot tarziga moslashishga qiynaladi. Individ yoki sotsial guruhning sotsial ko'chish oqibatida 2 sotsial birlik, 2 madaniyat orasida bo'lish fenomeni marginallik deb ataladi. Individlar marginallashuvi ko'pincha gorizontaal mobillik natijasida (avvalo, migratsiya, emigratsiya, shahardanqishloqqa, qishloqdanshaharga) sodirbo'ladi.

AQShlik sotsiolog T.Parsons: «Stratifikatsiya - ijtimoiy tizim tarkibiy ziddiyatini asosiy yuzaga keltiruvchisi» deb, uni rivojlantirdi.

G'arb mamlakatlari sotsiologlan jamiyatni «yuqori», «o'rta», «quyi» sinf va qatlamlardan iborat deb talqin qilishadi. Masalan, G'arbiy Germaniyalik sotsiolog R.Darendorf jamiyatni boshqaruvchi va boshqariluvchilar toifasiga bo'ladi. **O'z navbatida boshqaruvchilar toifasi 2 guruhdan: a) mulkdor boshqaruvchilar va b) mulkdor bo'lmagan boshqaruvchilar – ma'muriy byurokrat menedjerlardan iborat, deydi. Boshqariluvchilar toifasi ham 2 ga: yuqori - «ishchi aristokratiyasi» va quyi - malakasi past darajada bo'lgan ishchilardan iborat bo'lib, boshqaruvchilarva ishchi aristokratiyasining qo'shilishidan shakllanmoqda, deb fikr bildiradi.**

Jamiyat ijtimoiy tarkibi turli ijtimoiy birliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ham ifodalaydi. Masalan:

- ijtimoiy-sinfii, guruhlararo (sinflar, ijtimoiy tabaqalar, qatlamlar);
- ijtimoiy-demografik (yoshlar, o'rta yoshlar, xalqlar);
- ijtimoiy-professional (kasb-korga qarab o'qituvchilar, injener, tibbiyot xodimlari va h.k.);
- ijtimoiy-hududiy (mintaqa, shahar, qishloq, tuman, mahalla, aholisi).

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik tushunchasi: Ijtimoiy o'zgaruvchanlik sotsiologik tushuncha bo'lib, demografik va ijtimoiy faoliyatlarda qo'llaniladi. Shaxsning bir sinfdan ikkinchi bir sinfga, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, jamiyat ijtimoiy tarkibida tutgan o'mini, o'zgarishini bildiradi.

Shaxs misolida go'dak bola, o'smir, yoshlik, o'rta yoshlik, qarilik. Ma'lumot oladi, xunar o'rganadi, kasb egallaydi. Uning jamiyatda tutgan o'rnini o'zgarib boradi. O'quvchi edi, ishchi bo'ldi, yo talaba bo'ldi, nafaqaxo'r va boshqa.

Jamiyat misolida. Jamiyat asosini tashkil etgan insonlar hayotida ijtimoiy o'zgaruvchanlik jarayoni sodir bo'ladi. Sinflar paydobo'lishida, sinflarning bir ko'rinishdan ikkinchi bir ko'rinishga o'tishida, jamiyat sinfiy strukturasi, undagi ishlab chiqarish kuchlari joylashishida, taraqqiyotida, fan, texnika, madaniyat, sa'nat taraqqiyotida o'z aksini topadi. Masalan, qul, krestiyon, ishchi, sovxozchi, pomeschchik, kapitalist, fermer.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlik turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi yoki **sotsial mobillik tushunchasi** bilan bog'liq. Kishilarning ijtimoiy pog'onalaridan 2 yo'nalishi bo'yicha harakat qilishidir:

1) **Vertikal (yo'nalish) ijtimoiy o'zgaruvchanlik.** Bu bir ijtimoiy tizimda tutgan o'rnini, o'zgarishidir. Masalan, shaxs misolida: o'quvchi, ishchi, xizmatchi, olim, kolxozchi, fermerchi, xususiy tadbirkor, pensioner va hokazo (Yuqori va past darajaga qarab o'zgarib boradi).

2) **Gorizontal (yo'nalish) ijtimoiy o'zgaruvchanlik.** Bir ijtimoiy guruh doirasidagi o'zgarishlari yoki ijtimoiy darajadagi o'zgarishlar. Masalan, ishchi 1-5 razryad, aspirant, kandidat, fan doktori, akademik.

Ijtimoiy o'zgaruvchanlikning turlari:

1. Reprodukativ. Ishlab chiqarish, tuzilishi, ekologik o'zgarishlar.
2. Statusli - xizmat pog'onasiga ko'tarilish, hayot darajasi va boshqa.
3. Territorial - qishloqdan shaharga ko'chish, ishlab chiqarishni ko'chirish, bir davlatdan ikkinchisiga ko'chish va h.k.
4. Ma'naviy - manfaatlar, qadriyatlar, fikr, tushunchalar, his-tuyg'ular.
5. Siyosiy (sinfiy struktura), hukmronlik shakli.
6. Ilmiy-texnikaviy va hokazo.

Jamiyat ijtimoiy tarkibining yana bir yo'nalishi — mamlakat xalq xo'jaligida band bo'lgan ijtimoiy guruhlar va tarkibini o'rganishdir. Aholining uy-joy bilan bandligi, maishiy xizmat va boshqa. Ta'lim darajasi, mansab darajasi, ijtimoiy-hududiy yo'nalish va boshqalar.

O.Kont sotsiologiyasida sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yondashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mexikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limdir. Umumiy ma'noda dinamika harakat holatini, narsa-hodisalarning o'sish, o'zgarish, rivojlanish jarayonini anglatadi. Sotsiologiya «Fiziologiya»ning bevosita davomi yoki «Sotsial fizika» deb hisoblangan. Kont ijtimoiy voqelikning tabiiy qonunlarini topishga harakat qilgan edi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy voqelik ikki yo'nalishda - sotsial statika yo'nalishida va sotsial dinamika yo'nalishida ko'rilishi lozim. Sotsial statika ijtimoiy elementlarning muvozanatini, mavjudlik qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy elementlarning uzviy uyg'unligi, ularning o'zaro muvozanatlashgan tarzda mavjudligi jamiyatni yahlit bir butunlik sifatida qarashga imkon beradi. Shuning uchun ham jamiyat alohida o'ziga xos tizim bo'lib, bunda eng muhimi, elementlarning o'zaro aloqasidir. Sotsial statika har qanday jamiyat barqarorlik, muvozanat holatini, asosiy tartibotni o'rgansa, sotsial dinamika

jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning izchilligi, birin-ketinligini ochib beradi. Shunday qilib, sotsial dinamika jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin. Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar, qatlamlarning harakatlarini sotsial dinamaning sotsial mobillik (lotincha mobilis - harakatchan, o'zgaruvchan) va sotsial o'zgarishlar, deb ataladigan ko'rinishlari ifodalaydi. **Sotsial mobillik tushunchasi sotsiologik tadqiqotlar doirasiga P. Sorokin 1927 yildakiritgan edi.** Sotsial mobillik kishilarning muayyan ijtimoiy guruh va tabaqalardan boshqalariga o'tishlarini (sotsial o'zgarishlar), shuningdek, ayni bir sotsial tabaqa doirasida mashg'ulotlarning o'zaro almashtirishini anglatadi. **Sotsial mobillik tushunchasi guruhlar va bir butun jamiyatlar «ochiqligi» yoki «yopiqligi»ni tavsiflash uchun ishlatiladi.** U intrageneratsion (avlodlar orasidagi) va generatsion (avlod ichidagi) sotsial mobillik turlariga ajratiladi. Sotsial holatning otadan o'g'liga (kamdan-kam hollarda onadan qizga) o'tishi **generatsion sotsial mobillikka**, sotsial ko'tarilish yoki sotsial pasayish bilan bog'liq individual belgilar esa intrageneratsion sotsial mobillikka misol bo'la oladi. O'zgarishlar yo'nalishiga qarab vertikal (ko'tarilish va pasayish) va gorizontal sotsial mobillik bo'yicha farqlanadi. Sotsial mobillikning emperik ko'rsatkichi bo'lib o'zgaruvchanlik-mobillik, barqarorlik-stabillik indeksi xizmat qiladi. Bu indeks tekshirilayotgan guruhdagi mobil va stabil shaxslar nisbatidan olinadi. Bundan tashqari mobil (o'zgaruvchan) shaxslarning jinsi, ma'lumot darajasi, «aqli rasolik koeffitsienti», millati, irqi, turar-joyi, sog'salomatligiga qarab ham sotsial mobil shaxslarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rtasidagi korellyatsiya (mos keluvchi) koeffitsientlari hisoblanishi mumkin. Sotsial mobillik o'lchashda turli xil imkoniyatlarning mavjudligi miqdoriy analiz qo'llanishidan kelib chiqadi. Sotsial mobillik darajasini aniqlash yordamida u yoki bu jamiyatni «an'anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokazolarga bo'linadi.

Sotsial differensiatsiya va sotsial integratsiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin. Sotsial **differensiatsiya tushunchasi birinchi bo'lib G. Spenser tomonidan** qo'llanilgan. Uning fikricha, ijtimoiy evolyutsiya bir vaqtning o'zida differensiatsiya (bir xillikdan ko'p xillikka o'tish: mehnat taqsimoti, maxsus sotsial institutlar paydo bo'lishi) va integratsiya (organlarining bir-birlariga tobora muvofiqlashib borishi, oddiydan murakkabga o'tish, umumiy aloqadorlik takomillashuvi), ijtimoiy tartibot mukammallashuvidan iboratdir.

E.Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differensiatsiya va integratsiya jarayonlariga e'tibor bergan. U differensiatsiyani aholi zichligining oshishi va shaxslararo hamda guruhlararo muloqatlar sur'atiga bog'lab tushuntirgan. Odatda, **differensiatsiya tushunchasi «tafovut»** so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu holda u rollar, statuslar (maqomlar), institut va tashkilotlarni turli mezonlar yordamida klassifikatsiya qilishga yordam beradi.

Strukturaviy funksionalizm va sistemali yondashuv tarafdorlari (Parsons, Ettsoni va b.) sotsial differensiatsiya bilan sotsial sistemaning o'z-o'zini saqlashini shart deb qaraydilar. Bunda sotsial differensiatsiyaning yahlit jamiyat, uning ostki tizimlari, guruhlari darajasida ko'rinishlari qat'iy farqlanadi. Ularnig fikricha, quyidagi hayotiy

muhim vazifalar - muhitga moslashish, maqsadlarini qo'ya bilish, ichki ixtiloflarni bartaraf etish (integratsiya) va hokazolar bajarilgandagina muayyan tizim mavjud bo'la olishi mumkin. Bu vazifalar esa faqat ozmi-ko'pmi maxsuslashgan institutlar tomonidagina bajarilishi mumkin. Demak, bunga muvofiq sotsial tizimlar ozmi-ko'pmi differentsiatsiyalashgan (tabaqalashgan) bo'ladi. Sotsial differentsiatsiya o'sishi bilan faoliyatlar ham maxsuslashib boradi, shaxsiy va oilaviy aloqalar o'z o'mini borgan sari odamlar o'rtasidagi shaxssiz norasmiy munosabatlarga bo'shatib beradi. Bu munosabatlar ko'proq ramziy vositalar bilan boshqariladi (masalan, iqtisodiy munosabatlar uchun bunday vositachi asosan - pul).

IJTIMOY HARAKAT

«Sotsial harakat» kategoriyasi nazariy sotsiologiyaning muhim va asosiy tushunchalaridan biridir. Hech bir ijtimoiy tizim harakatsiz mavjud bo'la olmaydi. Jamiyat hayotida yuz beradigan o'zgarish, ya'ni ijtimoiy harakat umuman harakat turlarining ichidagi eng murakkabidir. Chunki bunda nafaqat ob'yektiv ijtimoiy qonuniyatlar, balki sub'yektiv, ya'ni insonlarga bog'liq omillar ham mavjud bo'ladi. Shu jihatdan olganda ijtimoiy harakatning o'zi ham tizim xususiyatiga ega bo'ladi. Uni to'raligicha o'rganish ijtimoiy harakatning turli tomonlari ijtimoiy-ruhiy, strukturali-funksional, qadriy-normativ jihatlarini tadqiq etishni, ijtimoiy harakatni o'rganishga kompleks yondashuvini talab qiladi.

Ijtimoiy harakatning falsafiy tushunchasiga nisbatan uning sotsiologik tushunchasi o'rtasidagi farqni ajrata bilish zarur. Ma'lumki, falsafada ijtimoiy harakat keng ma'noda, ijtimoiy faoliyat sifatida tushuniladi. Sotsiologiyada ijtimoiy harakat tushunchasi ijtimoiy faoliyatning eng oddiy birligi sifatida talqin qilinadi. Bunda ijtimoiy individning hayotiy muammolari va ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan va boshqa kishilarning javob xatti-harakatlari nisbatan ongli ravishda yo'naltirilgan harakati tushuniladi.

Ijtimoiy harakat ijtimoiyligining asosiy belgisi - individning kishilar xatti-harakatidagi ijtimoiy yo'nalishlarni sub'yektiv anglashidir.

Sub'yektning xatti-harakatiga nisbatan o'zaro munosabatlarning boshqa qatnashchilarining javobini «kutish» tushunchasida ifodalanadi. Bunday «kutish»ni o'z ichiga olmagan, harakat sotsial harakat hisoblanmaydi (masalan, behosdan qilinadigan harakatlar). Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy harakat — bu moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladigan va shu orqali yangi ijtimoiy aloqalar, munosabatlar, institutlar yaratishga olib keluvchi harakatidir.

Ijtimoiy harakat tushunchasini ishlab chiqishga G'arb sotsiologiyasida katta e'tibor berilgan. Ijtimoiy harakat nazariyasi kishilarning jamiyatdagi o'zaro aloqalari va munosabatlari majmuini izohlash imkonini beradigan maxsus ijtimoiy omilni qidirishdan boshlangan. «Ijtimoiy harakat» tushunchasini izohlash uchun dastlabki bosqich sifatida harakatning ideal holatini olib ko'rish zarur. Bu holda harakat maqsadi va harakat qiluvchining maqsadi bir-biridan ajratilmaydi. Buni maqsadli-ratsional harakat tushunchasi bilan izohlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, «maqsadli ratsional harakat» tushunchasi individlarning ijtimoiy harakatlarini o'rganish metodi sifatida qaraladi. Bu tushuncha orqali jamiyatni o'rganishda xalq,

jamiyat, davlat, iqtisod va boshqa tushunchalar mohiyati ochib beriladi. Individdning o'zi esa qandaydir ijtimoiy organizmning hujayrasi sifatida qaralmaydi. Harakatni uning mazmunidan, ongliklikdan mahrum etib bo'lmaydi. Ijtimoiy harakatning zamonaviy sotsiologik modeliga ko'ra ongliklik bunday harakatning zaruriy sharti hisoblanadi. Umumiy bir yaxlitlik emas, balki alohida individga tayanish talab etiladi. Biz individ xatti-harakatini tushunamiz, lekin hujayraning xatti-harakatini tushunmaymiz. Shu kabi xalqning harakatini tushunmaymiz, lekin xalqni tashkil qiluvchi individlarning xatti-harakatini tushunamiz. Sotsiologiyaning vazifasi-harakat turlarini tushunarli harakat ko'rinishiga keltirish, yakka individlarning harakatini o'rganish. Individual maqsadli-ratsional harakat ideal tip sifatida inson harakatiga ongliklik ruhini beradi. Sotsiologiya ijtimoiy harakatni tushunishga, uning sabablarini va oqibatlarini ham izohlashga urinadi, bunda u alohida individ yoki individlar guruhining xatti-harakatini o'z tadqiqotlarida boshlangich atom sifatida oladi. Sotsiologiya ma'lum bir mazmunga ega bo'lgan harakatgina qiziqtiradi. Ijtimoiy harakatni o'rganayotganda biz nimaga asosiy e'tiborni qaratishimiz harakat ma'nosigami yoki harakat qiluvchigami? Masalan, bozorda bir odam biror narsa xarid qilayotganini ko'rsak biz uni o'zi uchun olayapti, sovg'a uchun olayapti, kimningdir iltimosini bajaryapti va shu kabi ko'plab xulosalar chiqarishimiz mumkin. Shunday tarzda fikrlashdan ko'rinib turibdiki, harakat ma'nosini tushunishga intilyapmiz, lekin buning yordamida harakat qilayotgan individni ham tushunsa bo'ladi. Agar sotsiologiya individning o'zini tushunishga ko'p e'tibor berganda, ko'p qiyinchiliklar yuzaga kelgan bo'lardi.

Chunki individ uchun har qanday harakat nimaningdir belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Aslida esa butunlay teskarisi bo'lishi mumkin. Bu haqda ko'pgina hollarda individ tasavvurga ega bo'lmaydi, bo'lganda ham yashirishga harakat qiladi, ko'proq harakat ma'nosi qiziqishiga molikdir. Hozirda sotsiologiya fanida ijtimoiy harakatning to'rt xili ajratib ko'rsatiladi, bular: maqsadli-oqilona, qadriyatli-oqilona, affektiv va an'anaviy.

Maqsadli-oqilona harakat — sub'yekt tomonidan o'z maqsadini aniq anglaganligini, oqilona vositalar tanlaganini taqozo etadi. Ammo, konkret inson harakati maqsadli-oqilona harakatga qisman yaqinlashishi mumkin, lekin aynan mos kelmaydi. Maqsadli-oqilona harakat o'ziga xos harakat modeli rolini o'ynaydi, uning yordamida harakatlardagi chetga og'ishlarni aniqlash mumkin. Bu esa harakat qilayotgan sub'ektning haqiqiy motivlarini tushunish imkonini beradi.

Qadriyatli-oqilona harakat - etik, estetik, diniy va boshqa ma'lum xatti-harakat qadriyatlariga bo'lgan ishonchga asoslangan ijtimoiy harakatdir. Qadriyatli-oqilona harakat doimo ma'lum bir bajarilishi burch hisoblangan talablarga bo'ysunadi. Ma'lum bir qadriyatni anglash bilan bog'liq bo'lgan bu harakat o'zining ma'lum bir tartibli tufayli rejali, oqilona xususiyatga ega bo'ladi. Qadriyatli-ratsional harakatda odam tashqi dunyodagina emas, balki o'zining sub'ektiv qadriyatlariga ham mos ravishda vositalar tanlaydi, bu qadriyatlar harakatni tezlashtirishi va aksincha, susaytirib qo'yishi mumkin.

Affektiv harakat tipi- affektiv harakat tipini sub'yektning ma'lum bir emotsional holati, ma'lum affektlar va his-tuyg'ular bilan xarakterlanadigan harakatni ifodalaydi. Bularga sevgi, nafrat, qo'rquv, mardlik, quvonch va boshqalarni kiritish

mumkin. Bu harakat ijtimoiy mohiyatga ega emas. Affektiv harakatda tashqi bir maqsadlarga intilish bo'lmaydi, balki his-tuyg'ular tomonidan oldindan mazmun jihatdan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bunday harakatda eng muhim-individni qamrab olgan his-tuyg'uni, xohishni zudlik bilan qondirishga bo'lgan intilishdir. Bunday harakat inson harakatining chegarasida turadi. Bu chegaradan chiqqan harakat ijobiy harakat xususiyatini yo'qotadi. Affektiv harakat o'tkinchi xususiyatga egadir.

An'anaviy harakat - madaniy an'analarda ifodalangan xatti-harakat timsollariga, taqlidga asoslangan xarakatni bildiradi. Bunday xarakat oqilona xususiyatga ega bo'lmay, harakat jarayoni avtomatik ravishda yuz berayotgan jarayon ko'rinishini oladi, sub'yektivlar har qanday vaziyatda ham takrorlanuvchi va ko'nikib qolingan an'analarga, odatlarga asoslanadi. An'anaviy xarakat yuzaki qaraganda ob'yektiv oqilona tarzda ko'rinishi mumkin, lekin uning haqiqiy mohiyati sub'yektiv nooqilona asosga egadir. An'anaviy xarakat ham affektiv harakat kabi inson xatti-xarakatining chegarasini bildiradi. Lekin bu harakatning ahamiyati shundaki, odat va ko'nikmalarga asoslangan harakatlari jamiyat hayotida juda ko'p o'rin tutadi. Individning xatti-harakati o'zida harakatning barcha turlariga xos bo'lgan xususiyatlarini saqlaydi. Bunda maqsadli-oqilona, ham qadriyatli oqilonalik, affektivlik, an'anaviylik belgilari bo'ladi. Turli jamiyatlarda ba'zi harakat vaziyatlari kuchliroq bo'lishi mumkin. Masalan, an'anaviy jamiyatda an'anaviylik va affektivlik, oqilonalik va qadriyatli oqilonalikka nisbatan ustunroq bo'ladi. Aksincha, industrial jamiyatda oqilonalik va qadriyatli xarakat nisbatan ustun bo'ladi.

Insonning sub'yektiv dunyosi ijtimoiy hayot, ijtimoiy jarayonlarning shaxs jihatida sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat rivojlangan sari maqsadli ratsional xarakat kuchayib boradi.

Demak, harakat individning g'oyalar va vaziyat sharoitlari ta'siri ostida o'z maqsadlarga erishish vositalari yuzasidan sub'yektiv qarorlar qabul qilishni anglatar ekan. Albatta bu alohida olingan harakat bo'lib, ijtimoiy harakat ko'pgina shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan mana shunday harakatlarning muntazam qatorlarini o'z ichiga oladi.

Maqsad harakatning zarur elementidir. Maqsad harakat qiluvchi istagan holatdir. Demak, maqsadlar kutilgan, tasodifiy yoki qandaydir bir bilimlar natijasida tanlangan bo'lishi mumkin. Maqsad ma'lum bir vaqtning taqozo etadi. Vaqtdan tashqari u ahamiyatini yo'qotadi. Maqsad xato bo'lishi, ya'ni maqsad va vositalarning noto'g'ri tanlanishi, ularning bir-biriga muvofiq kelmasligi natijasida maqsadning amalga oshmasligi mumkinligini ham unutmaslik kerak.

Vaziyat esa harakatning tashqi qobig'idir. Vaziyatning asosiy xususiyati shundan iboratki, u maqsadga nisbatan boshqa yo'nalishda rivojlanadi. Xarakat qiluvchining vaziyat ustidan nazorat qilishi xarakat sharoitlari va vositalari yordamida olib boriladi. Xarakat sharoiti harakat qiluvchi o'zgartira olmaydigan elementdir.

Xarakatning normativ (me'yoriy) yo'nalganligi ham muhimdir. Chunki harakatda doimo me'yoriy yo'nalganlik mavjud bo'ladi. Me'yoriy harakatni namunaga muvofiklashtirishga bo'lgan intilish bilan ifodalanadi. Me'yoriy elementning belgilari quyidagilar: a) harakat qiluvchida u yoki bu qabul qilingan me'yorga amal qilishga bo'lgan intilishning mavjudligi; b) harakat qiluvchining har qanday imkoniyatlardan

qat'iy nazar, shaxs sistemasi oldinga qo'yilgan maqsadga erishish zaruriyatini tan olishi. Me'yoriy yo'nalganlik ijtimoiy harakat nazariyasida muhim o'rin tutadi. Ma'lum me'yorlarga intilmaydigan harakat mavjud bo'lmaydi, kelmaydigan mexanik harakat bo'lmaganligi kabi bo'lmaydi.

Harakat tizimi murakkab tuzilishiga ega. Ijtimoiy harakat doimo boshqa harakat qiluvchilarning o'zaro yo'nalganligini va umumiy qadriyatlar asosida o'zaro integratsiyasini tashkil etadi. Bu darajada ijtimoiy harakat quyidagi tushunchalar bilan izohlanadi: harakat qiluvchi; me'yoriy yo'nalganlik, maqsad, vaziyat, boshqa harakat qiluvchi, o'zaro yo'nalganlik, qadriyatlar. Harakat sistemasi bu harakat elementlaridan va harakatlar o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalardan iborat. Bu munosabatlar quyidagilardir: 1) sistema tushunchasi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan munosabatlar; 2) individ yoki harakat qiluvchi deb ataladigan birikmalarda yuzaga keladigan munosabatlar; 3) ijtimoiy guruhdagi individlarning o'zaro aloqasi natijalarida yuzaga keladigan munosabatlar, harakat ma'lum bir qismlardan iborat, ularni biz sistemalar deb ataymiz. Ba'zi sotsiologlar jumladan T. **Parsons harakat elementlaridan iborat uchta tizimni ajratib ko'rsatadi:** 1) ijtimoiy tizim; 2) shaxs tizim; 3) madaniyat tizimi. Ijtimoiy tizim va shaxs tizimi motivlangan salbiy harakatni tashkil qiladi. Madaniyat tizimi esa ramziy nusxalar tizimini mohiyatini bildiradi. Umumiy bir harakat tizimini tashkil qiluvchilari quyidagilardir: 1) harakat qiluvchi organizm (moslashuv funksiyasini bajaradi); 2) shaxs tizimi (maqsadga erishish funksiyasini bajaradi); 3) ijtimoiy tizimi (integratsiya funksiyasini bajaradi); 4) madaniyat tizimi (latentlik vazifasini bajaradi).

Ijtimoiy harakat tizimi ikki darajadagi o'zga voqelik-orasida mavjud bo'ladi. Bu ikki daraja harakat sistemasiga kirmaydi, bular fizik organik tashqi muhit va oliy fikrni voqelikdir. Ular orasidagi ta'sirlar quyi darajada harakat qiluvchi organizm yordamida, yuqori darajada-madaniyat yordamida yuz beradi. Bu ta'sirlar quyi darajada harakatni energiya bilan, yuqori darajada esa axborot va nazoratni ta'minlaydi.

Ijtimoiy harakatning funksional jihati ijtimoiy munosabatlarning amal qilishi, buzilishi va o'zgarishi jarayonlarida namoyon bo'ladi. Bunda uch tizim, ya'ni madaniyat, shaxs va ijtimoiy tizim uch birlashtiruvchi markaz sifatida barcha harakat tizimlarining tarkibiy asosida yotadi. Bular bir-birini to'ldiruvchi tizimlar bo'lganligi sababli ularning o'zaro munosabatlarsiz birorta ham harakat tizimi mavjud bo'la olmaydi.

Ma'lumki, insonning ijtimoiy voqelikka nisbatan munosabati faoliyat tushunchasi bilan ifodalanadi. Aynan insonning amaliy faoliyati uni o'rab turgan moddiy, tabiiy va ayniqsa ijtimoiy dunyoni o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Shu bilan birga insonning tashqi dunyoni o'zgartirishga qaratilgan harakati uning faoliyatining boshqa barcha turlari uchun asos hisoblanadi. Lekin shaxs boshqa insonlar bilan hamkorlikdagina amaliy faoliyat yuritadi. Umuman insonning amaliyotdagi faoliyati (harakati, xulq-atvori) sub'yekt-ob'yekt va sub'yekt-sub'yekt munosabatlari birligida namoyon bo'ladi. Bu yerda sub'yekt-ob'yekt munosabatlari insonning tashqi muhitni sun'iy qurol va vositalar yordamida o'zlashtirishini anglatadi, sub'yekt-sub'yekt munosabatlari esa ushbu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasidagi muloqatni ifodalaydi.

Ijtimoiy harakatni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Keng ma'noda ijtimoiy harakat ijtimoiy voqelikni o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Tor ma'noda esa ijtimoiy xarakat shaxs yoki ayrim ijtimoiy guruhlarining mavjud ijtimoiy voqelikka moslashishga qaratilgan xarakat tizimini anglatadi.

Ijtimoiy xarakatning shakllari ham turli-tumandir. Ijtimoiy harakatning asosiy shakli moddiy ne'matlar ishlab chiqishiga qaratilgan xatti-xarakat hisoblanadi. Boshqa muhim ijtimoiy xarakat bu insonlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida bu faoliyat bir necha qismlarga ajralib ketishini kuzatsa bo'ladi. Bular sinfiy kurash ijtimoiy o'zgarishlar, revolyutsion xarakatlar ko'rinishida yuz beradigan xarakatlardir. Bundan tashqari kishilar faoliyatida texnik, ilmiyfaoliyat kabi xarakat ko'rinishlari ham namoyon bo'ladi.

8-mavzu. Sotsialmunosabatlar sotsiologiyasi

8.1.Sotsial munosabatlar tushunchasi

8.2.Sotsial munosabat turlari.

8.3. Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari

8.1.Ijtimoiy munosabatlar tushunchasi

Sotsiologiya fani tizimida sotsial munosabatlar juda muhimo'rin tutadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'luni bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan hamda ilmiy adabiyotlarda yetarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy holatning asosiy sabablaridan birinchisi, avvalo, sobiq ittifoq falsafiy – sotsiologik adabiyotlarida bu masalaning bir yoqlama talqin qilinganligi bo'lsa, ikkinchisi esa, ilg'or g'arb ijtimoiy adabiyotlaridagi, bu soha bo'yicha to'liq tadqiqot ma'lumotlarining bizda yo'qligidir.

Sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa, shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asoslar borligini bilsa bo'ladi.

Sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda ikki xil darajada: keng va tor ma'noda talqin qilingan. Keng ma'noda tushunish – sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir va ular orasidagi farqlarga ko'p e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.

Tor ma'noda esa sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir muhim elementi va turi deb interpretatsiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan⁷⁰.

⁷⁰Umumiy sotsiologiya. – T.: ToshDU, 1999, 79-81-b.

Sotsial munosabatlar – bu tabiat hodisalaridan farqli o'laroq, unda ijtimoiy munosabatlar butun bir tizimining mujassamlashganidir. O. Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini xuddi biologik hodisalar usuli bilan o'rganish prinsiplari kabi keng targ'ib qiladi. Pozitivistik-naturalistik yo'nalishning ashaddiy raqibi bo'lgan fenomenologik sotsiologiya sotsial hayot va sotsial munosabatlarni bunday usulda talqin etganligi uchun O. Kont va uning izdoshlarini keskin tanqid qiladi. Naturalizmning jiddiy kamchilik va xatoliklarini bartaraf etish uchun fenomenologik sotsiologiya inson ongining faolligini muammolar yechimining asosiy omili deb isbotlashga intiladi. Bu yo'nalish vakillarining fikricha, faqatgina inson va uning tafakkuri tufayli sotsial voqelikni hamda sotsial munosabatlarni konstruksiyalash (yaratish) mumkin. **Chunki sotsial reallik va sotsial munosabatlar insonning in terpretatsion faoliyati orqaligina vujudga keladi.** Fenomenologik sotsiologiyani taniqli vakillaridan biri D. Silverman yuqoridagi g'oyalarni asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy-siyosiy makonlar paydo bo'ldi. Eng muhimi, totalitar tuzum barham topib, yangi davlatlar vujudga keldi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik xukmronligi yemirildi va mustaqil suveren davlatlar barpo bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan, sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu tamoyil orqali sotsial munosabatlarning muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'ildi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabat muammolari jahon ilmiy tafakkurining har xil yo'nalish natijalari asosida tadqiq qilinayotganligini ajratib ko'rsatish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni aniq sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joizdir. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammolarni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiq qiladi.

Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik – bu ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligi ko'rinishidir. Avvalam bor shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki, **Sotsiologiya faniga bu atama sotsial jiplashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O. Kont tomonidan kiritilgan edi.** Bu muammoga ko'pgina mutafakkirlar o'zlarining keng e'tiborlarini qaratganlar. Ayniqsa, E. Dyurkgeym, G. Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib borganlar. **E. Dyurkgeymning fikricha, sotsial birdamlik bu axloqiy prinsip va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi.** O. Kont va G. Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikning asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy o'rinni egallaydi. G. Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha, kishilik jamiyati o'z rivojlanish yo'lida ikkita harbiy va sanoat davrlariga bo'linadi. Butun hayot bu yerda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa

o'soyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarim ifoda etadi. Muammoning ikkita muhim jihatga ajratib tahlil qilinishini **D.Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko'rish mumkin**. U o'z ta'limotini **mexanik va organik birdamlikka ajratadi**. Rivojlanmagan va eski jamiyatlarda hukmronlik qiladigan birdamlikni E.Dyurkgeym mexanik birdamlik, deb ataydi.

Mexanik birdamlik – bu «jamoat turidagi» birdamlik bo'lib, u bu jamoadagi individlarning o'xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi.

Jamiyatda ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi tufayli individlar maxsus vazifalarni bajaradilar va bu xislatlar sababli jamiyat jonli organizmni eslatadi. **Shu jamiyatda vujudga kelgan yangi turdagi birdamlikni Dyurkgeym organik birdamlik, deb ataydi**. Mehnatning taqsimlanishi individlarda o'zlariga xos qobiliyatlarning rivojlanishiga omil bo'ladi. Endi har bir individlarning o'zi esa birlariga bog'liq bo'ladilar va ular sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyg'ulariga erishadilar.

Ko'pgina g'arb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sarmahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha, butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalarini guruhlar mulki qilib berish kerak. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo'lsa, «ma'muriyat» xalqdan ajralib qoladi va shu sabab tufayli byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. Tabiiyki, bu jarayonlar natijasida ishchilar o'z mehnatlaridan manfaatdorlikni his qilmaydilar.

Mazkur taxminlarning aksariyati o'z isbotlarini topgan. Ayniqsa, yarim mustamlakachilik davrida bizning diyorda soxta birdamlik asosidagi kooperatsiyalashtirish ko'plab salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiya niqobi ostida hududimiz xomashyo yetishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub ma'nodagi birlashma jarayoni faoliyat ko'rsatmadi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlab ko'rsatganlaridek, "O'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga juda xos bo'lgan usuli — mahallalar tizimi so'nggi yillarda juda katta nufuzga ega bo'lib bormoqda... Eng adolatli muhit, eng adolatli ijtimoiy sharoit, vaziyat faqat mahallada bo'lishi mumkin. Hech bir korxona, hech bir davlat idorasi yoki jamoat tashkiloti buborada mahalla bilan tenglasha olmaydi»⁷¹.

1.2.Sotsial munosabat turlari.

Sotsiologiya nazariyasida barcha ijtimoiy tizimlar ikki xil munosabatda mavjud bo'ladi:

1. Sotsietal munosabatlar.

2. Ijtimoiy munosabatlar

1. **Sotsietal munosabatlar** sistemasiga jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ular bir-birlari bilan uzviy aloqador tizimga ega.

⁷¹Karimov I. A. Bizdancuzodvaobd Vatan Qolsin. T 2. – T.: «O'zbekiston». 1996, 281-bet.

Sotsietal sistemasida ierarxik qaramlik mavjud. Ya'ni, bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi onil bo'ladi. Demak, sotsietal munosabatlar sistemasi tuzilishi:

1) **iqtisodiy:** (asoschisi A.Smit: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsuli, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ham ishlashga majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda o'zi uchun ham ishlaydi);

2) **ijtimoiy:** a) ijtimoiy munosabatlar asosiy elementini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi (sinflar, millatlar, professional, demografik, hududiy, siyosiy guruhlar); b) elementi (kishilar jamoaga birikadigan insonlar); v) oila tashkil etadi.

3) **siyosiy**;

4) **mafkuraviy**.

2. **Ijtimoiy munosabatlar:** («ijtimoiy» sistema elementi –kishilar).

Ijtimoiy munosabatlar - kishilarning faoliyati jarayonida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlar. Ular turli jamoalar, ijtimoiy guruhlar, sinflar va ularni tashkil qilgan kishilar o'rtasidagi munosabatlar bo'lib, ularni bir butun sotsial organizm qilib bog'laydi. Ijtimoiy munosabatlar jamiyatda ijtimoiy ishlab chiqarish vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishning paydo bo'lishi jamiyat taraqqiyotida chorvachilik paydo bo'lishi, dehqonchilik, savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Ijtimoiy munosabatlarning turlari: hamfikrlik, kooperatsiya, konfliktlar, kurash, befarqlik, begonalashuv, krizis, kamsitish, tengsizlik. Ijtimoiy munosabatlar o'z mohiyatlari bilan jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ham salbiy tasir etadi.

Ijobiy munosabatlar ta'siri: hamfikrlik, kooperatsiya, kurash.

Salbiy ta'sirli munosabatlar: befarqlik, kamsitish, konfliktlar, begonalashuv, krizis, tengsizlik

Ijtimoiy munosabatlar sistemasida plyuralizm katta ahamiyatga ega. Plyuralizm konsepsiyasiga ko'ra borliq asosini bir necha yoki juda ko'p bir-bir bilan bog'lanmagan substansiyalar tashkil etadi. Plyuralizm nemis filosofi **Volf** tomonidan kiritilgan.

Iqtisodiy taqsimot va sotsial-sinfiy munosabatlar

Jamiyat ijtimoiy tarkibida har bir shaxs qaysi ijtimoiy guruhga va undagi hududiy, tarmoq (soha) va ijtimoiy mavqe yo'nalishiga mansubligi bilan xarakterlanadi. Bulardan tashqari, yana shaxs jinsi, yosh jihati, oilaviy ahvoli, ijtimoiy kelib chiqishi, milliy mansubligi, ma'lumoti, ilmiy darajasi kabi me'zonlar bilan ham o'rganiladi. Hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrining iqtisodiy qiyinchiliklari ijtimoiy guruh va ayrim shaxslarning qanchalik moddiy imkoniyatga egaligi, jamg'arma mablag'i miqdori qanchaligi kabi tomonlarni o'rganishni ham talab etadi.

Hozirda ijtimoiy munosabatlarda jamiyatimiz uchun mutlaqo yangi bo'lgan asoslar yaratilmoqda. Xususiy mulkchilikka asoslangan ko'p ukladli, dunyo sari ochiq yuz tutgan iqtisodiyot paydo bo'ldi. Shuning uchun ham yangi iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiyasini ishlab chiqish sotsiologiya fanining asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Hozirda mehnatning mazmunini chuqur va har jihatdan o'zgartirmay turib, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida sifat o'zgarishiga erishib bo'lmaydi. Shu boisdan ham bugungi kunda mehnatga yangicha munosabat tarkib topmoqda, yangi texnologiya

yaratilib, fan yanada taraqqiy etmoqda, munosibmalakali kadrlar tayyorlash, maorifni tubdan yangilash kabi vazifalar amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiyot sotsiologiyasi ishlab chiqarish va mehnat jarayonini, taqsimot munosabatlari, moddiy ta'minot, aholining moddiy turmush darajasi va shu kabi jamiyatning iqtisodiy rivojlanish sohasidagi qonuniyatlarini o'rganadi.

Jamiyatning ijtimoiy rivojlanishi, eng avvalo, uning iqtisodiy asoslari bilan bog'liq bo'ladi. Ijtimoiy rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy hayotdagi boshqa sohalarining rivojlanish darajasi ham shunga mos ravishda taraqqiy qilib boradi. Masalan, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va aholisi turmush darajasining yuqoriligi, madaniyat, xizmat ko'rsatish sohalarining taraqqiyotini ham belgilab bergan.

Iqtisodiy munosabatlarni o'rganishda asosiy e'tibor: mehnatning ijtimoiy muammolari, mehnat faoliyati va taqsimot munosabatlariga qaratiladi.

Jamiyat a'zolari tomonidan yaratilgan moddiy boyliklar ular o'rtasida qanday tarzda va qay miqdorda taqsimlanishidagi farq ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi farqni keltirib chiqaradi. Xususiy mulkning qonuniy deb e'lon qilinishi bilan jamiyatimiz ijtimoiy tarkibidagi tekischilik asta-sekin o'z o'mini ijtimoiy mavqei jihatidan va yetishtirilayotgan moddiy ne'matlarning taqsimoti jihatidan farq qiluvchi ijtimoiy guruh va sinfiy tabaqalarga bo'linib bormoqda.

Respublikaning asta-sekin bozor munosabatlariga o'tib borish davrida Prezident I.A. Karimov tomonidan belgilangan besh tamoyilga asoslangan tarzda siyosat yurgizilmoqda. Bularning **birinchisi** – iqtisodiyotning siyosatdan ustun bo'lishi, uni har qanday mafkuraviy tazyiqlardan ozod qilish lozimligi.

Ikkinchisi – iqtisodiyotni boshqarishda, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida, yangi tuzum barpo etilayotganda davlat boshqaruv tizimini qo'ldan chiqarmasligi, ya'ni davlat asosiy islohotchi bo'lmog'I lozimligidir.

Uchinchisi – qonunlarga barchaning barobar rioya etishini ta'minlash, ya'ni qonun ustuvorligi.

To'rtinchisi – kuchli ijtimoiy siyosat yuritish.

Beshinchisi – bozor iqtisodiyotiga shoshqaloqlikka yo'l qo'ymay, bosqichma-bosqich o'tish zarurligi. Taqsimot munosabatlari sotsiologiya predmetiga taalluqli bo'lib, uning tarkibiga ishlab chiqarish qurollari taqsimoti, jamiyat a'zolarining ishlab chiqarishning turli tarmoqlari bo'yicha joylashuvi va jamiyat tomonidan ishlab chiqarilgan moddiy ne'matlar, ishlab chiqarish qurollari va iste'mol mollari kiradi. Mohiyat e'tibori bilan taqsimot munosabatlari mavjud ishlab chiqarish munosabatlari xarakteriga mos keladi.

Alohida kishilar va ijtimoiy guruhlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faoliyati mohiyati taqsimot munosabatlarining xarakteri bilan belgilanadi. Ijtimoiy guruhlar, tabaqalar va alohida olingan kishilarning real daromadlari darajasi, bu daromadlarning o'zgarishi va rivojlanishi istiqbollari ularning ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalarini belgilaydi.

Sobiq sovet tuzumi davrida ijtimoiy guruhlarning moddiy daromadlarini tenglashtirish siyosati yurgizildi. Natijada kishilarning mehnatga munosabati susayib, ijodiylik, omilkorlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, moddiy manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim stimullari yo'qolib borayotgan edi. Demak,

taqsimot munosabatlari jamiyat hayoti, ayniqsa, uning iqtisodiy jihatdan rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish munosabati bilan O'zbekistonda mulkchilik turli shakllarining joriy qilinishi va ularning davlat himoyasiga olinishi taqsimot munosabatlarida tubdan o'zgarishlarga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston o'z milliy puliga ega bo'lish munosabati bilan iqtisodiy va taqsimot munosabatlarida sezilarli o'zgarish sodir bo'la boshladi. O'z navbatida mamlakat ichki bozorini to'ldirish — davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Ammo mustaqillikning dastlabki yillarida hamdo'stlik mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyaning vaqtincha buzilganligi oqibatida yuzaga kelgan iqtisodiy taqchillik, ayniqsa, xalq iste'moli mollari tanqisligi iqtisodiy va taqsimot munosabatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning oqibatida kishilarning turmush darajasi ancha pasaydi. Shunga qaramasdan, O'zbekiston davlatining bu sohadagi siyosati milliy boylikning ko'payishini, respublikaning mustaqilligini mustahkamlashni, odamlarga munosib turmush va ish sharoitlarini ta'minlaydigan qudratli, barqaror va jo'shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni ko'zda tutgan buyuk maqsaddan iborat bo'lmoqda.

Prezidentimiz tomonidan 2010 yil 12 noyabrda Parlamentimiz palatalarining qo'shma majlisida ilgari surilgan konseptual masalalarning 6-yo'nalishi "Demokratik bozor iqtisodiyotini va islohotlarni yanada chuqurlashtirish" ga qaratilgan bo'lib, unda "xususiy mulkning xuquq va himoyasini mustahkamlash, mulkdor qonuniy yo'l bilan qo'lga kiritgan yoki yaratgan o'z mulkining daxlsizligiga shubha qilmashini ta'minlashga qaratilgan kafolatlar tizimini yaratish zarurligi, tadbirkorlar o'z biznesiga bexavotir investitsiya kiritishi, ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirishi, mahsulot xajmi va olayotgan daromadini ko'paytirishi, o'z mulkiga o'zi egalik qilishi, foydalanishi va tasarruf etishi lozim" ⁷²ligiga keng o'xtalib o'tdi.

Xulosa qilib aytganda, iqtisodiy va taqsimot munosabatlari sotsiologiya fani doirasidagi tadqiqot ob'yekti sifatida muhim o'rin tutadi.

Jamiyatning ijtimoiy tarkibida **ijtimoiy-sinfy munosabatlar** ham alohida o'rin egallaydi. Sobiq sovet sotsiologiyasida sinfiy munosabatlar, sinfiy kurash masalalariga juda keng o'rin berilib, bu munosabatlar ijtimoiy tarkibdagi boshqa barcha elementlar, munosabatlar ichida eng muhim va belgilovchi hisoblangan. Buning sababi, unda jamiyatning iqtisodiy tarkibi boshqa ijtimoiy guruhlaridagiga nisbatan to'laroq va aniqroq aks etadi, deb ko'rsatilgan. Haqiqatan ham sotsializmdavrida mavjud ishchilar va dehqonlar sinfi jamiyatning eng kam ta'minlangan, quyi darajadagi sinflarini tashkil qildi. Intelligensiya ijtimoiy qatlami esa moddiy ta'minlanganlik jihatidan ulardan unchalik farq qilmagan. O'tgan davrda, asosan, ikki sinf — ishchilar va dehqonlar sinfi va intelligensiya qatlami mavjud deb ko'rsatilib, jamiyat ijtimoiy tarkibidagi boshqa guruhlar (masalan, yuqori tabaqa chinovniklari, mafiya guruhlari va shu kabilar)ning ahamiyati mutlaqo tilga olinmas edi.

⁷²Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konseptsiyasi.

Ishchilar sinfi ko'p qirrali ijtimoiy birlik hisoblanadi. Uning ichki tarkibi demografik (jinsi va yoshi bilan), professional tayyorgarligi bilan (mehnatning mazmuni va xarakteri bilan), hududiy (ijtimoiy-hududiy birlik bilan), etnik (milliy farqi) va madaniy-ma'lumoti bilan farq qiluvchi tarkibiy tuzilishga ega.

Hozirda O'zbekiston davlati miqyosida milliy ishchilar sinfining tarkib topishi uchun shart-sharoit yaratildi. Jahon talablariga javob bera oladigan mahsulotlar ishlab chiqarish asta-sekin yo'lga qo'yilmoqda. Chet el firmalari bilan mamlakatimiz qo'shma korxonalari faol ishlamoqda. Endilikda, yuqori texnologiyaga asoslangan sanoat ishlab chiqarishining malakali ishchi-muhandislar guruhi shakllandi.

Ishchilar sinfini rivojlanish istiqbollari ularni miqdoriy jihatdan ko'paytirish bilangina erishib bo'lmaydi. Avvalo mehnatning intellektual mazmunini boyitish, zamonaviy avtomat-texnologiya bilan jihozlangan iqtisodiy shart-sharoitlarni barpo qilish zarur. Amalga oshirilishi kerak bo'lgan bunday tadbirlar bevosita qishloq xo'jaligi dehqonlari hamda intelligentsiya qatlami uchun ham taluqlidir.

Iqtisodiyotni intensiv ravishda rivojlantirish ijtimoiy-tarkibiy aloqalarga kuchli ta'sir etadi. Shuningdek, ijtimoiy tarkibdagi iqtisodiy va taqsimot munosabatlarining ijobiy rivojlanishi mamlakat tabiiy resurslari, hududiy o'ziga xos xususiyatlar, siyosiy barqarorlik, millatlar o'rtasidagi munosabatlarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

Mamlakat qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lgan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirayotgan **dehqonlar** ham ijtimoiy tarkibda sinf sifatida o'rin tutadi. O'zbekistonda aholining 60 foizdan oshig'i qishloq joylarida yashaydi. Milliy daromadning 44 foizdan ko'prog'i qishloq xo'jaligidan olinadi. Mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakatimiz bo'yicha mehnatga yaroqli kishilarning 39,3 foizi chorvachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarida mehnat qilgan. Ba'zi tumanlarda bu ko'rsatkich 80-90 foizni tashkil etdi⁷³.

Bulardan ko'rinishidan, jamiyatimiz ijtimoiy tarkibida dehqonlar sinfining o'rni katta. Hozirda mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston hukumati dehqonlar mavqei ko'tarishga alohida e'tibor bermoqda. 2009 yil – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» deb e'lon qilinishi bejiz emas. Qishloq aholisi ularning turmush darajasini oshirishda katta ishlar olib borilayapti. Uy-joy qurish uchun bepulyer ajratilib, moddiy yordam ko'rsatilmoqda. Ekinzor yerlar ijaraga berilmoqda. Fermerlarning soni ortmoqda. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shaharga olib kelib sotish uchun imkoniyatlar yaratildi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligini lokalizatsiya (mahalliy lashtirish) masalasiga alohida e'tibor berilmoqda.

Umuman qishloq hayotini obod etishda ularning qiyofasini o'zgartirish, bugun qishloq joylarda yashayotgan odamlarining turmush sharoitini zamon talablariga moslashtirish, shahar sharoitiga yaqinlashtirishg'oyat muhim o'rin tutmoqda. Shu maqsadda 2009 yil yanvar oyida O'zbekiston Prezidentining qishloqlarimizning zamonaviy arxitektura nuqtai nazaridan rejalashtirilishi, qishloq joylarda uy-joy va ijtimoiy ob'ektlar qurilishini loyihalashtirish va bunyod etish tizimini takomillashtirish, «Qishloq qurilish loyiha» institutini tashkil etish bo'yicha qarorlar qabul qilindi. Mazkur institut tomonidan 2 xonadan 5 xonagacha bo'lgan zamonaviy uy-joylar, maishiy xizmat ko'rsatishi ob'ektlari barpo etildi. 2009 yilning o'zida

⁷³ Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T.I. – T.: «O'zbekiston», 1996. 68.b.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda 42 ta yer massivi ajratilib, qishloq hududlarida eksperiment tariqasida 840 ta yakka tartibdagi uy-joy barpo etildi. Mamlakatimizning 159 ta, ya'ni barcha qishloq tumanlarida 7 ming 630 ta yangi uy-joy barpo etildi⁷⁴. 2009 yilda mamlakatimizda 940 mingdan ziyod yangi ish o'rinlari yaratildi, ularning 500 mingga yaqini qishloq joylarida tashkil etildi.

Dehqonlarning, fermerlarning oladigan yillik daromadlari bir necha bor ortmoqda.

Dehqonlar sinfi ichida ham tabaqalanish jarayoni tez sur'atlar bilan bormoqda. Ularning tarkibida ishbilarmon, tadbirkor, fermerlar paydo bo'ldi. Ijarachilar guruhi ham borgan sari qishloq xo'jaligida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi iqtisodiy munosabatlarning tarkib topishi bilan qishloq ishchilar sinflashlanishiga moddiy zamin tayyorlandi. Boshqacha aytganda, qishloqqa sanoatkirib bormoqda. Bu esa qishloq xo'jaligida mavjud ortiqcha ishchi kuchini ish bilan ta'minlab, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirmoqda.

Prezident I.A.Karimov ta'kidlab yozadiki, «O'zbekiston iqtisodiyotining bir tomonlama – xomashyoviy yo'nalishiga qat'iy barham berish respublika ichki siyosatining eng muhim strategiyasi hisoblanadi. Faqat xomashyo yetishtiruvchi va sotuvchi o'lka surunkali nochorlikka giriftor bo'ladi»⁷⁵. Shuningdek, yana Prezidentimizning «Dastlabki hisob-kitob shuni ko'rsatadiki, agar biz respublikada bor xomashyo va chala mahsulot ishlab chiqarishni tugal jarayonga yetkazib, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'ysak, respublikamizda yalpi milliy mahsulot ishlab chiqarishni ikki barobardan ziyod, milliy daromadni esa taxminan uch barobar ko'paytirishimiz mumkin»⁷⁶, - degan fikrlari e'tiborga molikdir.

Jamiyat ijtimoiy tarkibida **ziyolilar qatlami** ham salmoqli o'rin tutadi. Intelligensiya aqliy mehnat mutaxassislari bo'lib, ijtimoiy-professional guruhlardan tarkib topmoqda. Jamiyat ijtimoiy tarkibida intelligensiya aqliy mehnatning jismoniy mehnatdan ajralibchiqishi oqibatida shakllandi. Hozirda fan, ilmiy-texnika taraqqiyotining jadal borishi bilan intelligentsiyaning professional malakasi yanada murakkablashmoqda. Uning tarkibiga ilmiy, ishlab chiqarish-texnik, madaniyat, ma'rifat, tibbiyot-harbiy va boshqaruv apparati xodimlari kirib keldi.

Ziyolilar tarkibini yana shahar va qishloq, ijtimoiy bandlik sohalari bo'yicha (ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida) mehnatning ijodiy xarakteri darajasi, malaka va boshqa jihatlari bilan farqlash mumkin.

Sobiq ittifoq davrida ziyolilar son jihatidan ortdi-yu, ammo uning sifat darajasi ancha past bo'lib qolaverdi. Chunki ziyolilar qatlami, avvalambor mehnat xarakteri bilan belgilanadi. O

O'tgan davrda oliy ma'lumot olgan qanchadan-qancha kishilar hozirda ishchi bo'lib yoki tijorat va boshqa sohalarda ishlamoqdalar. Ular ziyolilar tarkibiga kirmaydi.

⁷⁴ Karimov I. A. Jahon inqirozining oqibatlarini engish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. - 18-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2010. - b. 73-74.

⁷⁵ O'sha joyda. 74-b.

⁷⁶ Karimov I. A. O'zbekistonmilliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura. T. I. - T.: «O'zbekiston», 1996. 117-bet.

Sotsial – demografik munosabatlar

Sotsiologiyada jamiyat ijtimoiy tarkibiy tuzilishida ijtimoiy-demografik munosabatlar ham muhim o'rin tutadi. Bu munosabatlar asosan, aholining jinsiy tuzilishi, yoshi, oilaviy va genetik jihatlari o'z ichiga oladi.

Har qanday davlat ijtimoiy siyosatining tarkibiga demografik siyosat ham kiradi. Demografik munosabatlarga mamlakat aholisining barcha qatlamlari mansub. Ijtimoiy-demografik tarkibga statistik jihatdan o'rganiladigan aholi o'rtasidagi tug'ilish, o'lim, nikoh, oilaviy qo'ydi-chiqdilar, shahar va qishloq aholisining migratsiyasi, hududiy migratsiya kabilar kiradi.

O'zbekiston ijtimoiy-demografik jihatdan nihoyatda murakkab tuzilishga egadir. Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar jami 27,5 mln. aholimizning 64 foizini tashkil etmoqda (I.A.Karimov asarlari. T.16.-234-b.). Tub aholining 51 foizi xotin-qizlar, 9,6 mln. nafari 16 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlardan iborat. Farg'ona vodiysi aholisining zichligi juda katta. Andijonda har bir kvadrat kilometr maydonga 485 nafar odam to'g'ri keladi. Bunday demografik holat jamiyat hayotining boshqa barcha sohalarida ham turli muammolarni keltirib chiqarishi tabiiy.

Aholining yosh jihatdan tarkibiy tuzilishini o'rganish mamlakatning nafaqat mehnat va ishlab chiqarish potentsialini aniqlashga, balki uning rivojlanish dinamikasini ham aniqlashga xizmat qiladi. Bu jihatdan O'zbekiston ba'zi Yevropava Yaponiya mamlakatlariga nisbatan «yosh» mamlakat hisoblanadi.

Aholi tarkibining jinsiy tuzilishini o'rganish ham muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakat ishlab chiqarishini tashkil etish, ayollar uchun qulay mehnat turlarini tashkil qilish va ish bilan ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlar ijtimoiy ahvolidan o'ziga xos xususiyatlari ularning mehnat bilan bandligi, mehnat turi, oilaviy, turmush sharoiti va shu kabilarda ko'rinadi. Ularni og'ir jismoniy mehnatdan xalos etish masalasi hozirda eng muhim masalalardandir. Sobiq sho'ro davrida o'zbek xotin-qizlari qishloq xo'jaligida ayovsiz ekspluatatsiya qilindi. Natijada, ularning salomatligi keskin yomonlashdi. Kasalmand, nimjon onalardan hech qachon sog'lom farzand dunyoga kelmeydi. O'zbek yoshlarining har uchtdan bittasi, hatto harbiy xizmatga qodir bo'lmay qolgan edi. Prezident I. A. Karimov tashabbusi bilan ilgari surilayotgan «Sog'lom avlod davlat dasturi»ni hayotga tatbiq etish uchun kurashish millat kelajagini ta'minlashning eng muhim masalasidir.

Aholining oilaviy tarkibi oila soni, moddiy turmush darajasi, daromadi, oilaviy munosabatlarni va shu kabi masalalarni o'z ichiga oladi. Oilani oziq-ovqat va iste'mol mollari bilan ta'minlash muammolari davlat ijtimoiy siyosatining asosiy maqsadini ifoda etadi. Oila tarkibini Sotsiologiyaning maxsussohasi — «**Mikro sotsiologiya**»da ham chuqur tadqiq qilish maqsadga muvofiqdir. Unda uning iqtisodiy, psixologik jihatlari e'tiborda tutish zarur. Nikoh munosabatlari, yolg'iz yashovchilarni, oilaviy buzilish sabablarini o'rganish jamiyat hayoti ijtimoiy tarkibini ijobiy rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Oddiy bir misol: diniy munosabatlarda ilgari nikoh muqaddas sanalar edi. Sobiq sho'ro tuzumi davrida dinning ijtimoiy hayotdagi mavqeiga putur yetkazilishi va dahriylikning kuchayishi oqibatida nikoh munosabatlariga muqaddas deb qaralmay qo'yildi. Nikoh shunchaki rasmiy ro'yxatga olishdan iborat bo'lib qoldi. Natijada, oila muqaddasligi yo'qolib, qo'ydi-chiqdilar ko'paydi. Bu esa

jamiyatning nafaqat iqtisodiyotiga, balki ma'naviy-axloqiy, psixologik munosabatlarning barqarorligiga ham salbiy ta'sir ko'rsata boshladi, o'z navbatida, noaxloqiy tendensiyalarning kuchayishiga olib kelib, yoshavlod tarbiyasiga zarar yetkazildi. Jamiyatda tirik yetimlar soni ko'paydi. Davlat yetimxonalarining soni ortdi. Moddiy va boshqa jihatdan yetarlicha ta'minlanganligiga qaramay ularda tarbiya topgan bolalar oilada, o'z ota-onalari bag'rida voyaga yetgan bolalardan farq qila boshladi.

Sotsiologiyada aholining genetik tarkibini o'rganish brogan sari moddiy ahamiyatga ega bo'lmoqda. Unga aholining tabiiy va migratsiya harakati kiradi. O'zbek millati boshqa millatlarga nisbatan o'z tug'ilib o'sgan joyiga ko'proq bog'langan bo'ladi. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi aholisida bunday xususiyat kuchli. Shuning uchun ham vodiya aholi zichligi boshqa hududlardagiga nisbatan ancha yuqori darajada.

O'zbekistonda genetik tarkibni o'rganishga hozircha yetarli e'tibor berilmagan. Ta'kidlash joizki, bu holatning ijtimoiy-demografik munosabatlardagi ahamiyati juda kattadir.

Ijtimoiy-demografik munosabatlarni aniqlashda mamlakat miqyosida o'tkaziladigan aholini ro'yxatga olish muhim o'rin tutadi. Aholining ro'yxatga olinishi, ayniqsa, hozirgi bozor munosabatlariga o'tish davrida yuzaga kelayotgan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, maishiy turmush sohalaridagi muammolarni hal etishda juda katta rol o'ynaydi. Ayniqsa, uning shahar muammolarini hal etishdagi ahamiyati katta.

Qishloq aholisining ijtimoiy tarkibi jamiyat ijtimoiy tarkibining muayyan bo'lagi hisoblanadi. Qishloq aholisi ijtimoiy munosabatlarining muhim belgilari: yagona mehnat, yer, mulkiy boshqaruv munosabatlari va boshqa shu kabilar. Hozirda qishloq aholisining tarkibida ham tabaqalashuv jarayoni kuchaymoqda. Ayniqsa, qishloqqa sanoatning kirib kelishi, qishloq hayotining mahalliy lashuvi (lokalizatsiyalashuvi), savdo-sotiqning rivojlanishi va boshqa omillar oqibatida qishloq aholisi turli guruhlardan iborat bo'lgan ijtimoiy birlik sifatida rivojlanmoqda.

Sotsial-etnik munosabatlar

Millatlar va etnik guruhlarining sotsial-etnik tarkibi. Insoniyat xilma-xil sotsial etnik birliklardan tashkil topgan. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakatlarda 2 mingdan ortiq millat, elat va qabilalar yashamoqda. Ularning so'zlashadigan tillari esa 5 mingdan ortiqni tashkil etadi. Ammo mana shu tillardan 2 mingtasidan ko'prog'ida yozuvlar yo'q.

Jamiyatning sotsial-etnik tarkibini tadqiq qilish sotsiologiyaning maxsus sohasi bo'lib, u etnosotsiologiya deb ataladi. Sotsiologiyaning bu sohasi jamiyatning sotsial tarkibiy tuzilishidagi millatlar, xalqlar, elatlar, guruhlarining sotsial rivojlanish masalalarini o'rganadi. Ularning sotsial-iqtisodiy, sotsial-siyosiy, ma'naviy-mafkuraviy, madaniy, ta'limiy, diniy va boshqa o'ziga xos qadriyatlarini tadqiq qiladi.

Etnos tushunchasi (qadimgi yunoncha so'z bo'lib «xalq» ma'nosini anglatadi)- muayyan hududda tarixan tarkib topgan, boshqalardan farqlanuvchi o'z madaniyatiga, ruxiy uyg'unlikka va boshqa umumiy xususiyatga ega bo'lgan

kishilarning nisbatan barqaror birligini anglatadi. Demak, etnosotsiologiyaning tadqiqot ob'yekti - eng avvalo xalqlar, millatlar, etnik guruhlarning sotsial tarkibini, boshqa etnik birliklardanfarq qiluvchi o'ziga xos madaniyati, turmushi, urf-odatlar, tili va boshqa shu kabi o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi. Millat, millatlararo munosabatlar masalasi sotsiologiyadan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar, iqtisodiyot nazariyasi, politologiya, axloq va nafosatshunoslik, tarix, etnografiya kabilarning ham o'rganish ob'yekti hisoblanadi.

Etno sotsiologiyada esa millat va milliy munosabatlar, ularning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy-mafkuraviy munosabatlardagi o'zaro uzviy aloqadorligi nazarda tutilgan holda, konkret etnik muhit doirasida, ijtimoiy jamoalardagi, oiladagi, hududiy tartibdagi munosabatlarni etnik xususiyatlari doirasida olib qarab o'rganiladi. Shuningdek, millatlararo munosabatlarning jamiyat ijtimoiy hayotiga ta'siri va ularning sotsial oqibatlari tadqiq qilinadi. Shu jihatdan etnosotsiologiyaning jamiyatni o'rganishdagi ahamiyati kattadir.

Sobiq sovet tuzimi davrida etnosotsiologiya to'laqonli o'z rivojini topmadi. Turli millatlar, elatlar, xalqlar va etnik guruhlarning ijtimoiy taraqqiyotiga bir tomonlama yondashildi.

Kelajakda ular o'zaro qo'shilib, yaxlit bir sovet xalqi etnik birligi vujudga keladi, -degan xayolda soxta va noto'g'ri mafkuraviy siyosat yurgizilishi oqibatida har bir etnik birlikning o'ziga xos boy, go'zal va takrorlanmas qadriyatlar rivojiga siyosiy tazyiq o'tkazildi. Bunday siyosiy zo'raonlik oqibatida etnosotsiologiya sotsiologik nazariya sifatida yetarlicha qadrlanmadi.

Sovet davrida muayyan iqtisodiy-siyosiy va mafkuraviy rejim asosida ushlab turilgan, boshqarilgan milliy munosabatlar hozirda qaytadan, yangi sotsial munosabatlar asosida tiklanmoqda. Shu jihatdan, O'zbekistonning ko'p millatli davlat ekanligini e'tiborda tutgan holda, uning hududida istiqomat qilayotgan millat va xalqlarning ijtimoiy turmushi, o'zaro aloqasi hamda shu kabi munosabatlarni sotsiologik tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega. Zero, respublika milliy tarkibining o'ziga xosligi uning farqlantiruvchi xususiyatidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeni egallaydi. Respublikada yashab turgan aholining 70% dan ko'prog'ini o'zbeklar tashkil qiladi. Ayni vaqtda, O'zbekiston hududida o'z madaniyati va an'analariga ega bo'lgan yuzdan ziyod millat vakillari yashaydi. Yaqin o'tmishimizda sodir bo'gan Farg'ona, Andijon, O'zgan voqealari qayta takrorlanmasligi uchun, O'zbekistonda bundan keyin ham millatlararo hamdo'stlikni rivojlantirish, o'zaro ahil bir oila bo'lib yashash talab etiladi. Prezidentimiz I.A.Karimov boshchiligidagi O'zbekiston hukumatining asosiy maqsadi ham Markaziy Osiyo hududida har qanday milliy nizolarning oldini olish va millatlararo munosabatlarni yanada rivojlantirishdan iborat.

Ayniqsa, hozirgi kunda sotsial - etnik munosabatlar atroflicha sotsiologik tahlilga muhtojdir. Yangilangan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida etnik guruhlar o'rtasidagi munosabatlar ham qaytadan tarkib topmoqda. Shundan kelib chiqqan holda, etnosotsiologiyada ichki va tashqi tadqiq yo'nalishi mavjudligini aytish mumkin.

Ichki tadqiqot yo'nalishi - bu ayrim etnik guruh tarkibidagi sotsiologik tadqiqotlardan iborat bo'lib, uning ichki, o'ziga xos xususiyatlari, rivojlanish

tendensiyalari o'rganiladi. **Tashqi tadqiqot yo'nalishi** esa etnik guruhlar orasidagi o'zaro munosabatlarni, bir etnik guruhga ta'sir ko'rsatadigan tashqi omillarni va ularning sotsial oqibatlarini tadqiq qiladi. Ayniqsa, bir mamlakat hududida yashovchi etnik guruhlarining o'zaro munosabatlarini sotsiologik tadqiq qilish juda muhimdir.

Mamlakat tub aholisini tashkil etmaydigan kam sonli etnik guruhlarini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Ularning madaniyati, ma'naviy qadriyatlar, axloqiy - etnik normalari, ijtimoiy-ruxiy xususiyatlarini o'rganish bilan muhim ilmiy bilimga ega bo'lamiz. Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Jahonda katta va kichik millatlar va elatlar yo'q. Ularning har biri asriy barqaror va tengi yo'q an'analari, tarixiy merosning boyligi, milliy ruxining umumiyligi, madaniyatning o'ziga xosligi bilan ahamiyatlidir».

U yoki bu etnik guruh tabiiy tarkib topishining asosiy shart-sharoiti bu hududiy va til birligi hisoblanadi. Muayyan etnik birlik-millatning har jihatdan rivojlanishida uning o'z mustaqil siyosiy davlat tizimiga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda sotsiol-etnik munosabatlar. O'zbekiston milliy mustaqillikni qo'lga kiritgandan boshlab, o'tgan dastlabki 20 yillik muddat yuz yillar mazmuniga teng bo'ldi. O'zbek xalqi millat sifatida o'zligini, or-nomusini, milliy iftixorini, qadr-qimmatini, boy o'tmish madaniy merosini, tilini va shu kabi ko'plab boshqa qadriyatlarni qaytadan tikladi. O'tmishi va kelajagi buyuk bo'lishini bilib, millat sifatida yana jahonga yuz tutdi.

Tarixdan ma'lumki, o'zbek etnosining shakllanishida markazlashgan Amir Temur davlatining tashkil topishi katta ahamiyat kasb etgan. Shu davrdan boshlab, o'zbek etnik guruhi boshqa turkey guruhlardan farqlanuvchi o'ziga xos jihatlarni ko'proq namoyon qila boshlagan. Bularga asosan, yagona davlat fuqaroligi, yagona til, madaniy, ma'naviy qadriyatlar uyg'unligi, hududiy birlik, uyushganlik hamda yagona diniy (islom) e'tiqod birligi kabilar hisoblanadi. Nisbatan o'troq, asosan sug'orma dehqonchilik va shahar xunarmandchiligi bilan shug'ullanishi, Markaziy Osiyoning qoq o'rtasida joylashuvi va hududiy uyushganligi kabi omillar ham o'zbek millatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

O'zbek xalqining etnik jihatdan tashkil topishi tarixan murakkab, juda katta ichki va tashqi ijtimoiy zarbalar ostida bordi. Amir Temur vafotidan so'ng temurzodalarning o'zaro kurashi, Shayboniyo'xon tomonidan temurzodalarga qarshi olib borilgan kurash, keyinchalik Movarounnaxrning (Xiva xonligi) Rus imperiyasi tomonidan istilo qilinishi millatning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi oqibatida, Turkiston qat'iy yagona hududga birlashtirilgan bo'lsada, buyuk rus shovinizmi zo'ravonligi ta'sirida o'zbek xalqi boshqa turkey xalqlar bilan bir qatorda mazlum xalq sifatida tahqirlandi, kamsitildi va qaddi bukildi. Uzoq davr ma'naviy-axloqiy, siyosiy-huquqiy tushkunlikni boshdan kechirdi. Sobiq sovet tuzumi davrida ham bunday siyosat o'ta nozik, baynalmillatlik niqobi ostida o'ziga xos usullar bilan davom etdi.

Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi munosabati bilan endilikda milliy ko'tarilish, rivojlanishjadal bormoqdaki, mavjud siyosiy-iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy shart-sharoit o'zbek xalqini yaqin kelajakda jahonning ilg'or, yuksak

ma'naviyatga ega bo'lgan millat darajasiga erishtirishi muqarrardir. Zotan, tarix-xalq ma'naviyatining asosidadir⁷⁷.

Jamiyat o'zining tarkibiy tuzilishi jihatidan o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan tomonlar, jabhalar bir butun ijtimoiy tizim tarkibidagi nisbatan katta-kichik tizimlar, ijtimoiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ularning har biri o'z taraqqiyoti davomida bir-birlariga muayyan darajada salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Mustaqil O'zbekiston davlatining xalqaro maydonda nufuzli mamlakatga, barcha sohalarida rivojlangan jamiyatga ega bo'lish darajasiga ko'tarilishi, uning ana shu o'zaro funksional ta'sirida bo'luvchi tomonlari, tarkibiy bo'laklari holatining xarakteriga bog'liq.

Mustaqilq O'zbekistonda bozor munosabatlarining tarkib topib borishi, xususiy va boshqa mulk shakllarining qonuniy deb e'lon qilinishi bilan kishilar ijtimoiy guruhlarining faolligi ortmoqda. Har bir kishi o'zidagi qobiliyat, omilkorligi, tadbirkorligi va ishbilarmonligi bilan ijtimoiy taraqqiyot ko'lamiga ta'sir ko'rsatish imkoniga ega bo'ldi.

Mustaqillik sharoitida O'zbekistonda mobillik (harakatchanlik) kontsepsiyasining jadal amal qilishi uchun sharoit yaratildi. Demokratik tuzum sharoitida kishilar o'zlarining shaxsiy qiziqishlari, tirishqoqliklari bilan jamiyat ijtimoiy tarkibidagi mavqelarini yaxshilab boorish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Jamiyat taraqqiyotida uning tarkibiy tuzilishi, funksional aloqadorlik o'zining «tabiiy qonunlari», evolyutsion rivojlanishi, ijtimoiy sohalarining bir maromdagi mutanosibligi asosidagina rivojlanadi. Revolyutsiyalar davri o'tdi. Insoniyat yuqori intellektual taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda. Ijtimoiy taraqqiyotning bu bosqichi yangi, oziga xos qonuniyatlar asosida borishi turgan gap. Abu Rayhon Beruniy bobomiz ta'kidlaganidek, aslida ilm-fan kishilarning hayotiy ehtiyojlarini qondirish zaruriyatidan paydo bo'ldi. Xalq haqqoniy tarixini bilib, o'zilikni anglay boshladi.

Sotsial tabaqalashuv jarayoni. Iqtisodiy rivojning zamonaviy, eng ilg'or turiga o'tishga intilayotgan har bir mamlakat texnika, biznes sohalarida yuksak professional tayyorgarlikka ega ijtimoiy qatlamga tayanishi shart. Mazkur ijtimoiy qatlam vakillari o'z professional-malaka tayyorgarlik saviyalariga mutanosib ijtimoiy o'rin egallashga intilishlari shart.

Tarixiy taraqqiyot shunday shakllandiki, ilmiy bilimlar va ishbilarmonlik xususiyatlari asosan g'arbiy davlatlar hamda Yaponiyada mujassamlashdi. Ularda band aholi tarkibidagi oliy kategoriyali professional ijtimoiy qatlam vakillarining hajmi o'rta va past kategoriya vakillarining ulushidan sezilarli darajada yuqoridir. Bu jarayon o'z yo'nalishida yanada rivojlanib, mazkur davlatlarning eng boy va zamonaviy ishlab chiqarish hamda ilmiy-texnik taraqqiyotning oldingi qatoridagi xalqaro iqtisodiy o'mini saqlab turishga zamin yaratmoqda.

Asosan xalq iste'mol mollari ishlab chiqarishda ixtisoslashgan va iqtisodiy xom ashyo etkazib berishga qaratilgan mamlakatlarda esa ijtimoiy qatlamlashuv tarkibi, asosan, professional ijtimoiy qatlamlarning o'rta va past kategoriya vakillaridan iboratdir. Buning sababi-mazkur davlatlar o'z taraqqiy etgan

⁷⁷ Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999. – 146-b.

texnologiyasini yaratishga ko'makdosh firmalar yoki hukumat darajasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishga kumakdosh iqtisodiy rag'batlarni ta'minlash uchun manbalarga ega emas.

Mazkur o'mashib qolgan tartibni buzib va rivojlanayotgan davlatlar jamiyat sotsial tarkibidagi ijobiy o'zgarishlarga asoslanib qolmasdan, balki yuqori va o'rta kategoriyali sotsial qatlamlarni shakllantirib, ularga shart-sharoit yaratishga qaratilgan davlat siyosati hisobiga erishish mumkin. Shunga ko'ra, rivojlanayotgan davlatlar mehnat faoliyatining murakkab, ilmiy, ijodiy turlarini rivojlantirish uchun kuchli homiylik siyosatini o'tkazishlari kerak. Faqat shunday yondashuv natijasidagina jamiyat ijtimoiy tarkibida progressive o'zgarishga erishish, ishlab chiqarish imkoniyatlari hamda mahalliy iste'mol talab mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishda G'arb davlatlari bilan tenglik ta'minlashi mumkin.

Dunyoning ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda bunday sotsial qatlam mavjud. U ilgari yirik ilmiy muassasalar va boshqaruv organlarida ishlagan hamda o'sha davming sotsial pog'onalarida etarli darajada yuqori o'rin egallagan yuksak malakali mutaxassislardan tarkib topgan.

Hozirgi paytda mazkur sotsial qatlam vakillarining sezilarli qismi kichik va o'rta biznes bilan shug'ullanadi, texnologik zamini ularning professional malakasiga mutanosib bo'lmagan kichik korxonalar va kooperatorlar negizida faoliyat yuritadi.

Mazkur sotsial qatlam iqtisodda ularning sotsial maqomini qayta tiklashga qodir yangisoha yuzaga chiqishi bilan o'zi jamuljam etgan professional - malaka salohiyatini maksimal darajada ishlatishga tayyor turadi.

Sotsial tabaqalashuv turlari. Jamiyatning iqtisodiy tuzilishi va sotsial tarkibi o'zaro, yaqindan bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning o'zgarishi sotsial tartib o'zgarishsiz sodir bo'la olmaydi. Iqtisodiy mun ham uning sustligiga duch kelishi mumkin. Jamiyatning sotsial qatlamlas osabatlarni ayrim ravishda o'zgartirishga urinishlar aholi qarashligiga sabab bo'lmasa huvi ikki shaklda namoyon bo'ladi: 1. Insonlarning professional-ta'lim saviyasiga asoslangan professional malakali shakl. 2. Daromad darajasiga qarab taqsimlanishiga asoslangan iqtisodiy shakl.

Professional – malakali sotsial tabaqalashuv esa ishchi bajarayotgan shu faoliyatning murakkabligi, aqliy salohiyati, jamiyat uchun muhimligi va ahamiyatini e'tiborga olishga asoslanadi.

Sotsial-iqtisodiy tabaqalashuv inson mulk maqomini baholashga hamda jamiyatda ma'naviy qulayliklarga erishuvlarida uning real imkoniyatlarini e'tiborga olishga asoslanadi.

Har bir mamlakatda shakllangan tabaqalar va qatlamlar tomomila turlicha bo'lishi mumkin. Ularning soni tabiiy manbalar, o'lkaning iqtisodiy tarixi, mehnat taqsimoti va iqtisoslashuv jarayonida erishilgan daraja, davlat sektori bajaruvchi vazifalarning nisbiy miqyosi hamda ro'yxati. Mulkchilik, shu jumladan o'tmishdan meros mulkchilik xarakteriga ham bog'liq bo'ladi.

Professional ta'lim va iqtisodiy tabaqalashuv har doim ham mos kelavermaydi. Professional malaka va iqtisodiy-ijtimoiy tabaqalashuv orasidagi

mobillikka erishish mamlakat aholisining mehnat faoliyatini yuksaltirishda hal etuvchi omillar.

Jamiyatning sotsial tarkibiga ta'sir o'tkazuvchi eng muhim

ko'rsatkichlari: Daromadlar taqsimlanishidagi o'zgarishlar-iqtisodiy maqom va professional-ta'lim saviyasi bilan bog'liq sotsial qatlamlarning jamiyat qatlamlashuv jarayonida joylashish tarkibining o'zgarishi.

Sotsial qatlamlashuvning quyi va yuqori qatlamlarida sotsial harakatchanlik miqyoslarining o'zgarishi.

O'tish davrining dastlabki boskichida sodir bo'layotgan o'zgarishlardan yutib chiqqanlarga nisbatan mag'lub bo'lganlar ko'proq bo'lib chiqadi. Shuning uchun jamiyatning sotsial tabaqalashuvida sodir bo'luvchi moyillarni tushunish davlatning to'g'ri ijtimoiy siyosatni ishlab-chiqishining zaruriy shartidir⁷⁸.

«O'zbekistonda, – deb ta'kidlaydi Respublikamiz Prezidenti I.A Karimov, – uning yeri, tabiatiga, bu yerda yashayotgan xalqlarga muhabbat, o'lkaning tarixi, madaniyati, an'analarini teran bilib olishga intilish respublikaning qudrati va yutuqlaridan faxrlanish. Xalqimiz qismatiga tushgan qiyinchiliklar uchun qayg'urish ko'p millatli o'zbek jamiyatining muhim jipslashtiruvchi asosi hisoblanadi».

Respublikamiz jamiyatining sotsial tarkibi nazariyasi hozircha ishlab chiqilgani yo'q. Mustaqil O'zbekiston jamiyatining ertangi kun ijtimoiy-iqtisodiy tuzumiga bugun asos solindi desak adashmaymiz. Shuning uchun jamiyat ijtimoiy tarkibini o'rganish real hayotimizni, kundalik turmushni yanada to'laroq bilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jamiyat sotsial tarkibini sotsiologiya fani doirasida o'rganish uning rivojlanish istiqbollari, o'ziga xos xususiyatlarini, mavjud ijtimoiy muammolarini tadqiq etishda va zarur ilmiy-amaliy tadbirlar ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egadir.

8.3. Begonalashuv va tanazzul, uning ijtimoiy oqibatlari

Begonalashuv (alienation) -biz insoniy mavjudot faydalanayotgan imkoniyatlarimizning o'zgalar tomonidan o'zlashtirilayotganini sezish tuyg'usi. Bu tusuncha Marks tomonidan insoniy imkoniyatlarning ma'budlarga yo'naltirilganini ifodalash uchun ishlatilgan. Keyinroq esa u aynan shu atamani ishchilarning tabiat ustidan nazoratni yo'qotayotganini, o'z mehnati natijalari va mahsullariga egalik qila olmayotganini ifodalash uchun ishlatilgan⁷⁹.

Hozirgi jamiyat hayotida quyidagi begonalashuv turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Iqtisodiy. 2) Siyosiy. 3) Madaniy 4) Ijtimoiy. 5) Ruxiy.

Bu begonalashuv turlari o'zlarining ma'lum bir shakllariga egadirlar. Masalan, iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega:

1. Faoliyatdan begonalashuv. 2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashish. 3. Faoliyat natijalaridan begonalashish. Siyosiy begonalashish siyosiy

⁷⁸ Inson taraqqiyoti to'g'risida hisoboti. – T.: "O'zbekiston", 1997. – 43-b.

⁷⁹ Giddings E. Sotsiologiya. – T.: 2002. – 819-b.

hokimiyatdan begonalashishdan; **madaniy begonalashish** muloqatdan; ijtimoiy begonalashish insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv o'z-o'zidan begonalashishdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birlariga bog'liq hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib, narxlar tez sur'atlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan, deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga salbiy ta'sir qilishi, ba'zi tartiblar kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa, tanazzul ham shunchalik, chuqurlashib boraveradi. Masalan, iqtisodiy sohada ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdur. Lekin shu bilan birga ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning shunday bir turi - ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki, uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib, asta-sekinlik bilan o'z mehnati natijasidan begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q. Marksizm ta'limoti bo'yicha xususiy mulk ijtimoiylashtirilgach, ishlab chiqarish vositalariga endi bevosita ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini davlat mulkiga aylantirdi. Sotsialistik revolyutsiya mantig'iga ko'ra, bu tadbirlar begonalashuv jarayoni ildiziga bolta urushi kerak edi. Lekin 70 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk davlat mulki edi. Bu mulk esa xususiy mulkning eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Chunki davlat mulki o'zining real egasiga ega emas. U bir mavhum tushuncha edi. Mehnat kishisi esa yana mulkdan begonalashdi. Davlat mulki esa davlat apparatining xususiy mulkiga aylanib, bu nomenklaturani «yangi» sinfga aylantirdi. Bu salbiy jarayonlar natijasida ishlab chiqarish o'zining haqiqiy egasini topa olmadi.

Siyosiy jabhada ham siyosiy hokimiyatdan jamiyatning ko'pgina a'zolari begonalashtirildilar. Ya'ni, siyosiy hokimiyat xalq hokimiyati, umumxalq hokimiyati, deb e'lon qilingan bo'lsada, aslida u ma'lum bir guruhning - elitaning xususiy mulkiga aylandi. Buning asosida esa butun bir xalq davlat siyosiy hokimiyatdan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklatura orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar siyosiy tanazzulga olib keldi va bu tanazzul tufayli tashqi dushman yenga olmagan totalitar davlat o'z-o'zidan parchalanib ketdi.

Madaniy sohadagi begonalashuv ham anchagina chuqur salbiy oqibatlarga olib keladigan ma'naviy tanazzulni keltirib chiqardi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning o'rni o'zgacha. Chunki ular indvidlarning barkamol bo'lib shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari, boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarining kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining milliy urf-odatlarini, an'analari ham inkor qila boshlaydilar. Agarda yaqin o'tmishimizga, uning tarixiga murojaat etsak, ushbu satrlarimizning yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy

madaniy merosimizdan begonalashuvimiz bizlarni atiqli adib Chingiz Aytmatovning ta'biricha, manqurtlarga aylantiray deydi. Shuning natijasida biz o'z xalqimiz tarixi, milliy- ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik. Davlatimiz mustaqillikka erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan **sotsial begonalashish** insonlarni muloqotdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir. O'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida doim insonlar bir-birlari bilan munosabatlarda muloqotlarda bo'ladilar. Muloqotning ijtimoiy ma'nosi shundaki, u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin iqtisodiy tanazzul ko'pgina insonlarni qiyin iqtisodiy ahvolga solib qo'yadi. Natijada jamiyat a'zolarining aksariyatida bozor iqtisodi munosabalariga ko'nikish qiyin kechadi. Oqibatda inflyatsiya jarayonlari tufayli ehtiyojlar tizimining cheklanishi va normallashtirish holatlari insonlarda agressivlik kayfiyati, joxillashish, fuqarolarda an'ana va urf-odatlar, ma'naviy qadryatlarni yo'qotishga olib keladi. Shu kabi salbiy omillar insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlarini kuchaytiradi va hamma o'z holicha degan norasmiy qonun paydo bo'ladi.

Ruxiy begonalashuv – bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishidir. Ushbu muammoni nemis mutaffakiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqan. Uning fikricha, insonning mohiyatan o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga ma'lum bir sotsial xarakter - dunyoparastlik, ekspluatatorlik, retseptiv (andozalik, qolip), bozorga oidlik xosdir.

Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «kompyuterlashtirish» va «robotlashtirish» jarayonlari yordamidagi begonalashuv darajasining bir mahsuli deb ta'riflaydi. Bu jarayonda bozorga yo'naltirilgan sotsial harakat paydo bo'lib, unda iste'molga intilish, ikkilanishlar hissiyoti, yakkalanib qolishlik va boshqa salbiy holat, hissiyotlar markaziy ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu erda psixologik va sotsial begonalashishning bir-biri bilan juda uyg'unlashib ketishini ko'rish mumkin. Insonlar bir-birlaridan o'zaro munosabatda, muloqotda begonalashsalar, o'z-o'zlaridan begonalashish ham yuz beradi, chunki insonlarning bir-birlaridan o'zaro begonalashuvlari oqibatida ularda yakkalanish, zerikish va hayotga qiziqishlari so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida, insonning o'z kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pincha salbiy oqibatlarga olib keladi.

9- MAVZU.TA'LIM-TARBIYA VA KADRLAR TAYYORLASH SOTSILOGIYASI

9.1. Ijtimoiy amaliyot va taraqqiyot tushunchalari hamda ijtimoiy islohotlarning to'rlari.

9.2. Ijtimoiy islohatlarda halk ta'limi tizimi va ta'lim-tarbiya sotsiologiyasi.

9.3. Kadrlar tayorlash sotsiologiyasi.

Ijtimoiy amaliyot va taraqqiet tushunchalari hamda ijtimoiy islohatlarining to'rlari

Amaliyot - (kundalik tajriba, praktika) - insonlarining o'ziga xos amaliy faoliyati bo'lib, faqat uning tegishlidir. Falsafa tarixida amaliyot bilan nazariy faoliyat nisbati masalasida turtshcha. karashlar mavjud. Antiq va o'rta asrlar davrida amaliyot deyilganda inson faoliyatining biror bir aniq shaklini tasavvur qilganlar. (Dehqonchilik, hunarmandchilik, ahlokiy-siyosiy faoliyot va bosh.) Amaliyot - bu aniq shaxs, jamoa yoki butun jamiyatning muayyan ehtiyojidan. qelib chiqib, tabiiy unsur yoki hodisalarning hammaga ma'lum konuniyatlardan foydalanib, ularni maqsadga bo'ysundirish, ya'ni hayotga tadbik qilish yo'lida qilinadigan tartibli harakatdir.

Amaliyot bilan nazariya; so'z bilan ish birlig' buyuk bobokolonlarimiz (al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino va boshqa) asarlari amaliy ishlar bilan bog'langan. Bu g'oya tasavuf ta'limotida ham asosiy o'rinda turadi.

XVII – XVIII asrlarga - kelib amaliyot masalasi bilgan tugulanish kuchaydi, Inson tabiatni o'rgana boshladi. Natijada insonning tabiatni o'rganish, o'zgaritishga qaratilgan faoliyati kuchaygan bir davrda amaliyot mohiyatini tushunish, amaliyot bilan nazariya nisbatini aniklash alohida ahamiyat kasb eta boshladi. Frantsuz mutafakkirlari ilmiy bilishning amaliy ehtiyojlariga xizmat qilishini ta'kidlaganlar. Gegelda amaliyo nazariyadan ustun turgan. Marksizm-lenenizm ta'limotida esa amaliyot sub'ektiv tarzda talqin qilinadi. Kundalik -turmushdan cheklandi. Amaliyot kishilar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Demak:

Amaliyo - tashqi olamdagi ob'ektiv mavjud bo'lgan narsa o'zgarish bo'lib, bu o'zgarish umri tugagan eski ijtimoiy tuzumning hodisalarga faol ta'sir etish, ularni o'zlashtirish va qayta kurish yo'li bilan insonning uni o'rab turgan tabiiy ijtymoy muhitga kirib borish j a r a y o n i d i r. Amaliyotda 2 ta tizim. Sotsial revolyutsiyaning asosiy masalasi - siyosiy hokimiyat ob'ekt va sub'ekt bir-biri bilan dialektik bog'liqda bo'ladi.

Amaliyot ob'ekti - ob'ektiv reallikning sub'ekt tomondan kayta qurilayotgan jamiyatdir. Unga kishilardan tashqari, mehvati kurollari, vositalari, texnika ham kiradi. Demak, amg.liyot ham "ob'ekt-sub'ekt", ham "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlari jarayonida shakllanadi va rivojlanadi.

Amaliyotning asosiy shakllari quydagilardan iborat:

1) Ishlab chiqarish faoliyati shakli (tabiatni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat - bu eng muhim shakli)

2) Ijtimoiy munosabatlar shakli (jamiyatni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat ham deyiladi)

3) Ijtimoiy mexanizmnı boshqarish faoliyati.

4) O'zbekiston Respublikasida mustaqillikni ta'minlash va mustahkamlash uchun olib borilayotgan faoliyat shakli (Hozirgi davrdagi shakli).

5) Ilmiy eksperiment (tajriba) shakli.

6) Insonning texnik faoliyat shakli. Texnika so'zi lug'aviy ma'nosi "malaka", "udalay olish" degan so'zlarga tugri keladi. (texnika va texnologiyadan amaliyotda foydalanish masalasi asosiy Evalyutsion ta'limotga ko'ra (biologiyada) organik dunyo tarixiy masalalardan)

Amaliyotning roli:

a) inson faoliyatida amaliyot integrativ (birlashtiruvchi) rolga ega.

b) amaliyot ijtimoiy xarakterga ega (intilishlarni o'z ichiga oladi).

v) amaliyot bilish mahsulidir (bir-biri bilan bog'liq).

g) inson amaliyoti gumanistik qadriyatlarga suyanadi.

d) amaliyot ijtimoiy-tarixiy xarakterga ega (o'zgarib, rivojlanib bor)

Amaliyotning o'ziga xos asosiy bedgilari:

- faqat insonga xos

- u moddiy-hissiy

- u o'zgartiruvchi, qayta quruvchi

- muayan maqsadga qaratilgan faoliyatdir. (falsafa.T.:1999, 400-b:

Ijtimoiy taraqqiyotida sotsial inqiloblari:

Ijtimoiy inqilob - (lot. o'zgarish) - jamiyat hayotida tub o'zgarish bo'lib, bu o'zgarish umri tugagan eski ijtimoiy tuzumning agdarib tashlanishi va yangi progressiv ijtimoiy tuzumning o'rnatilishini bildiradi.

Sotsial revolyutsiyaning asosiy masalasi - siyosiy hokimiyat masalasidir. Inqilob sinflar kurashining oliy tipi sotsialistik revolyutsiyadir.

Sotsial islohat (reforma): (fran. qayta o'zgartirish) mavjud sotsial tuzumni saqlab qolgan holda ijtimoiy taraqqiyotning biron tomonini qayta tuzish, o'zgartirish, qayta kurishdir. Taraqqiyot yo'li dunyo mamlakatlarida:

1. Tadrijiy (evalyutsion) - (eng ishonchli yo'l, lekin o'zoq): AQSH, Angliya

2. Inqilobiy (revolyutsion) yo'l (Polsha, Rum, CHex, SSSR va boshqa sots mam.)

3. "Shoka terapiya" -yo'li (hozir: Polsha, CHexiya, Bolgar. Va boshqa sots mam.)

4. Islohot yo'li. (Germaniya, Jan.Koreya, Gonkong, Tayiland, Singapur Turkiya).

O'zbekiston ham islohat yo'lini tanladi.

(Jan.Koreyada islohotlar 4 bosqichda: amalga oshgan: 1) 1946-1961, 2) 1962-1975,

3) 1976-1981, 4) 1982-1991 yy.)

Demak;

1. Evolyutsiya - (lot. kengayib borish) - Asta-sekinlik bilan bo'ladigan mikdor va sifat o'zgarishi. Bunda har bir ob'ektning yangi holati ilgari holatiga nisbatan yuqori darajada bo'ladi. Evalyutsion ta'limotga ko'ra (biologiyada) organik dunyo tarixiy taraqqiyoti umumiy qonuniyatlari haqida bilim beradi. Uning asosini

Darvinizm evolyutsiyasi - nazariyasi tashkil etadi. Bugungi kunda Evolyutsion yo'li bilan rivojlangan mamlakat qurgan AQSH, Angliya, Frantsiya, Bo'yuk Britaniya, Kanada va boshqa.

2. Inqilobiy - (lot. inqilob, revolyutsiya) - jamiyatning butun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzulmasida kuch ishlatish yo'li bilan yuz beradigan keskin o'zgarish. Bu yo'l bilan borgan mamlakatlarning aksariyati iqtisodiy buxronga uchradi. Lekin shu yo'l bilan borgan mamlakatlarga: Polsha, Rumshiya, Chexoslovakiya, Bolgariya Xitoy, SSSR va boshqa sots.mamlakatlar, ular orasida Xitoy va Kuba rivojlanishning aralash shaklini qo'lladi.

3. Ilohat - mavjud jamiyat doirasida u yoki bu ijtimoiy institutlar faoliyatida qilinadigan o'zgartish. Islohat odatda yangi qonunchilik hujatlari yordamida amalga oshiriladi.

4. "Shoka terapiya" (fran. zarba) yo'li bilan borayotgan mamlakatlar bor. Bu yo'lda davlat mulkini birdaniga chiqarib, xususiyLashtirish ko'zda to'tiladi.

9.2. Ijtimoiy islohatlarda xalq ta'limi tizimi va ta'lim-tarbiya sotsiologiyasi

Ijtimoiy islohatlar orasida ta'lim sotsiologiyasi alohida, o'ringa ega. Zero O'zbekiston Konstitutsiyasi 41-moddasida har bilim olish xuquqiga ega deyilgan ekan, albata ta'lim-tarbiya masalasini ijtimoiy jihatdan o'rganmoq lozim.

Ta'lim sotsiologiyasi - sotsiologiyada ta'lim tizimivr, ijtimoiy institut sifatida, uning jamiyati, xususan chiqarish, ijtimoiy tuzilma, siyosat, axloq va shu kabilar o'zaro ta'siri va harakatini o'rganuvchi tarmoqdir.

Ta'lim - shaxsning yashash faoliyat va ijtimoiylashtirishning turli tabaqalari rivojlanish va shakllanishida hammadan ham boshlang'ich va shu sababdan zarur bo'lgan asosiy omiddir.

Ta'lim sotsiologiyaei ob'ekti: - ta'lim tizimi ijtimoiy institutlar sifatida oliyan bir butun jamiyatda va shu jamiyat hayotida sohalar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro harakati va aloqasi hisoblanadi. U ta'lim tizimning taraqqiyoti, faoliyati, tuzilishi, tashkil topishi va rivojlinishida ko'rib chiqadi.

Ta'lim o'zgacha bir ijtimoiy institut sifatida doimo mavjud bo'lmagan, U yangi avlod tomonidan bilim va tajribalarni egallashni maqsad kilib qo'yan. Industriallashtirilgan. jamiyat yuzaga kelishi bilan shakllanadi. Urta asr va Evropada dastlab diniy maktablar, boshlangich universitetlar paydo bo'la boshlangan, Frantsuz inqilobidan keyingina haqiqiy ta'lim ynqilobi sodir bo'ldi. XX asrga kedib ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratiddi. Rivojlangan mamlakatlar bo' kichik tizimiga katta e'tibor bilan qaranlar.

Ta'lim sotsiologiyasi - ta'lim tizimini yanada kengrok ijtimoiy tizimlarni kichik sistema sifatida va uning boshqa tizimlar bilan bogliq bo'lib jamiyat bilan nisbiy va o'ziga xos harakatini o'rganuvchi ijtimoiy sohasidir.

Ta'lim sotsiologiyasi - jamiyatning ta'lim tizimi to'grisida maxsus sotsiologik nazariya bo'lib, nisbatan mustakil ijtimoiy institut sifatida jamiyat hayotning o'ziga xos funktsional va rivojlanish qonuniyatlar, darajasi hamda uning boshka ijtimoiy tashkilotlar bilan o'zaro munosabat va aloqadorligini, bu borada davlat siyosatning o'rganadi.

Ta'lim tizimning jamiyat rivojiga ta'siri beqiyosdir. U har kanday davlatning jamiyat ma'naviy hayotini, ijtimoiy va kasbiy tarkibini boshqarishda muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim sotsiologiyasi - maktab, o'quv yurtlari va muassasalar faoliyati, ulardagi pedagogik mutaxassislarining sifati, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash vazifalari kabi masalalarni o'rganadi. Hozirgi-vaqtda ta'lim tizimi jamiyatda ijtimoiy-tsiyosat tarzda rivojlanmoqda. Ta'lim sotsiologiyasi esa bu siyosatning o'ziga xos jihatlarni, uning amaliy natijalarni o'rganishga xizmat qiladi.

Ta'lim sotsiologiyasining asosiy vazifasi - ta'lim g'izimning barcha funksiyalarni jamiyat hayotida keng imkoniyatlar darajasida amal qilishni ta'minlash va ijtimoiy hayotning turli sohalaridagi samarali ta'sirini o'rganishdan iborat. Ta'lim tizimi o'zining iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy, ma'naviy funksiyalarga ega bo'lib, u jamiyat taraqqiyotning shu sohalariga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat ilmiy-texnik rivojida, ma'naviy-madaniy qadriyatlar yuksalishda muhim omil hamdir.

Aholi savodxonligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati, eng avvalo ta'lim tizimini yaxshilashga e'tibor berishdan boshlanadi.

Garb ta'lim sotsiologiyasi E.Dyurkgeym va M.Veberlar asos solgan. Ular ta'lim tizimning ijtimoiy funksiyalarini iqtisodiy, siyosiy jarayonglar bilan aloqasi, oliy ta'lim sohasining o'ziga xos xususiyatlar kabi masalalarini tadqiq qilganlar.

AQSH oliy ta'lim tizimning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lajak mutaxassisini ilmiy-tadqiqot ishlariga, ilmiy ish olib borishlariga ko'niktirib boradi. Bizda esa oliy ta'lim bitiruvchilarning ilmiy ish olib borish darajasi, layoqati juda pastdir.

Ta'lim tizimining hozirgi sotsiologik tadqiqot yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 1) bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ta'lim tizimining ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati.
- 2) ijtimoiy rivojlanishdagi ta'siri, samaradorlik-darajasi.
- 3) o'qituvchilarning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli.
- 4) ta'lim muassasalarida ta'lim berishning sifat darajasi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning ular faoliyatiga ta'siri va h.

Pedagogika avvalo pedagogika faoliyati ta'lim jarayonlarining ichki xususiyatlari va qonuniyatlarini, uning didaktik asoslarini bevosita o'rgansa, ta'lim sotsiologiyasi ularning yanada kengroq ijtimoiy asoslarini, sotsial tizimlar va ta'lim kichik tizimlari xususiyatlari va qonuniyatlarini o'rganadi. Ta'limning ijtimoiy roli va ijtimoiy funksiyalariga bag'ishlangan sotsial tadqiqotlar juda muximdir.

Ta'limning sotsial (ijtimoiy) funksiyalari quyidagilardan iborat:

- 1) ma'naviyat tarqatish va avloddan avlodga ko'rsatish funksiyasi.
- 2) jamiyat madaniyatining saqlovchi va generator funksiyasi.
- 3) shaxsni sotsiallashtirish funksiyasi
- 4) ijtimoiy tanlov (seleksiya), jamiyat a'zolarini differentsiatsiyalash f.
- 5) ijtimoiy madaniyat o'zgarishlari funksiyasi texnologiyalarni o'z)
- 6) ijtimoiy nazorat funksiyasi va hokazo.

Ta'lim sotsiologiyasida ta'lim tizim o'z tamoyillariga ega:

- o'quv yurtlari - ijtimoiy tizim, ijtimoiy institut ijtimoiy tashkilotlar sifatida.
- o'quv faoliyati talim sohasida ijtimoiy faoliyatning asosiy ko'rinishi sifatida.

- ta'lim tizim ijtimoiy to'zilishi (o'quvchilar, pedagoglar, ta'tshn tashkilotlari va bosh.q.), o'quvchilar hayot tarzi va ijtimoiy qo'rinishi, ijtimoiy. rollari, ijtimoiy statusi va boshqalar.

Ta'limda zamonaviy inqlob sohasida sotsiologik tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Qariyb 10 yillar oldin xalq xo'jaligida band bo'lganlarning 10 dan 9 zi: o'rta, o'rta maxsus va. Oliy ma'lumotga ega edi. Ta'lim sotsiologiyasi ana shu miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi qarama-qarshilik aniqlab beriladi. Endilikda ta'lim tizimi:

- gumanizatsiya va demokratizatsiya kengaymoqda
- o'quv yurtlarning mustaqilligi, avtonomligi yuzaga kelmoqda
- davlat o'quv yurtlari xususiy lashtirilmoqda: pulli va pulsiz o'kitish, bular

ta'lim tizimiga ijobiy ta'sir, ko'rsatmoqda.

Ma'rifatning vazifasi kishilarda ijobiy ijtimoiy ehtiyojlarni shakllantirish, taraqqiy ettirish, qondirish, salbiylari o'sishiga yo'l qo'ymaslik. Chunki ehtiyojni qondirish uchun ma'lum bir tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy va bo'lgan joyda ehtiyoj talabga aylanadi. Butun jamiyatga taalluqli ehtiyoj ijtimoiy buyurtma deyiladi.

Har bir davlat o'z jamiyati ijtimoiy buyurtmasini qondirishga -qaratigan sharoitini yaratganda so'ng - u davlat buyurtmasiga aylanadi. Ta'lim-tarbiyaga bo'lgan jamiyat ehtiyojidan kelib chiqqan davlat buyurtmasini ma'rifat xodimlari bajaradilar.

Ta'limning muxim vazifalaridan biri - jamiyat a'zolariyaga o'zligini anglatib, ularda milliy g'urur degan zaruriy ijtimoiy sifatni shakllantirish lozim.

O'zbekistonning buyuk kelajagini yaratuvchi kishilar quyidagi ijtimoiy sifatlariga ega bo'lishi kerak:

- 1) aqli - mustaqil fikr yurita oladigan;
- 2) odobli - millatimiz to'plagan barcha yaxshi fazilatlariga ega bo'lishlik;
- 3) mehnatsevarlik - mehnat kishining ehtiyojiga aylangan holati;
- 4) bilimli - do'nyoviy va diniy bilimlarni chukur egallab, ularni xayot-qo'llay bilish darajasi;
- 5) soglomlik-jismoniy, ruhiy va ijtimoiy salomatlik;
- 6) milliy g'ururga ega - ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyituvchi;
- 6) vatanparvarlik - Vatan uchun fidokorona mehnat qiluvchi va zarur bo'lsa, uning uchun jonini ham beruvchi;
- 7) baynalminal - boshqa millatlarning o'zining millati qatorida xurmat qilish;
- 9) insonparvar - inson zotiga faqat yaxshiliklar qilishni o'ylovchi;
- 10) jasur - qo'rqmas;
- 11) shijoatli har bir ishga faol kirishib, uni oxirgacha etkazuvchi.

Ijtimoiy jarayonlarda boshqaruv tushunchasi: (ya'ni ta'limni boshqarish):

Boshqaruv tushunchasi - tegishli qonuniyatlar asosida (bu jarayoni optimallashtirish orqali) boshqariluvchi majmuani bir holatga keltirishlikka aytiladi.

Boshqaruvning turlari:

- 1) Ilmiy boshqarish.
- 2) Iqtisodiy boshqarish.
- 3) Ma'muriy boshqaruv bosqichlari mavjud.

Har qanday jamiyat 3 ijtimoiy eohalardan iborat bo'ladi:

1) Siyosiy hayot, Markazida davlat to'radi.

2) Iqtisodiy xayot. Moddiy va ma'naviy boylik yaratadi.

3) Ijtimoiy hayot. Inson o'z-yazini yamoyon qilishini ijtimoiy xayot sohasi deyoiladi.

Davir davlat tomonidan ta'lim sohasiga qanchalik jiddiy e'tibor berilayotganligiga tarkib topa borish jarayoni ta'lim tizimini tarkiban va mazmunan chuqur o'zgarishlar qilinishini taqozo qilayapti. Ammo viloyat maktablarida, hunar-texnika bilim (yurtlarida va maktabgacha tarbiya muassasalarida o'quv mashg'ulotlarini o'tkazishda eskicha usuldan hamon voz kechilmayapti. Bugungi kunda respublika bo'yicha taxminan 9 mingdan ko'prok, umumta'lim maktablarida 5 million 300 mingdan ko'proq o'quvchilar bilim olmoqda. Ularda 435 mingdan ortiq o'qituvchi (73 foizi oliy ma'lumotli) ishlamoqda.

Respublikada jami 197 ming kishi ta'lim olayotgan 258 o'rta kasb-hunar ta'lim o'quv yurti ishlab turibdi. Ularda qarib 16 ming o'qituvchi va muhandis-pedagog xodimlar mehnat qilmoqda.

Ammo mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, respublikamizda taxminan 5 mil. 200 maktab o'quvchilardan 9-sinfni bitirayotganlar 450 ming bola tashkil qiladi. Sotsiologik tadqiqot ma'lumotlariga qaraganda 250 ming nafarga yaqini, ya'ni 55 foizi 10-sinfda o'qishni davom ettirar ekan, taxminan 100 ming nafari hunar-texnika yoki maxsus o'quv yurtlariga kirishi mumkin. Qolgan 100 ming nafar bolalar umuman ko'chada qolmoqda. 11-sinfni bitirayotganlardan 20-25 ming nafari, ya'ni hammasi bo'lib, 10 foizi oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishi mumkin. Demak, ana shu qolgan 90 foizi esa na bir kasb-hunarni egalay olmayapti. Buning oqibatida 16-18 yashar yigit-qizlar o'z qobiliyati, havasi, intilishiga mos, hayotda o'ziga munosib o'rin topolmayapti.

Ta'limning ijtimoiy samaradorligi ta'lim muassasalarning soni, ularda ta'lim olayotgan o'quvchilarning miqdori, jamiyat a'zolarining bilim darajasi va sifati bilangina belgilanmaydi, balki uning ijtimoiy faoliyatda, amaliyotda xamda mehnat faoliyatida qanday darajada tadbiiq qilinishi bilan ham belgilanadi. Shu jaxatdan, yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi va bozor iqtisodiyoti siyosatining amalga oshirilib borishi sharoitida, respublikada ko'plab mutaxassis kadrlarning o'z mutaxassisiligi bo'yicha ishlashdan manfaatdor bo'lmay yoki ishlash imkoniyatiga ega emasliklari sababli, yaxshiroq tirikchilik o'tkazish maqsadida o'z mutaxassisliklaridan boshqa sahalarga o'tib ketish tendentsiyasi kuchaymoqda. Sotsiologiya "tili" bilan aytganda jamiyat a'zolarining sotsial mobilligi ham vertikal, ham gorizontaal tartibdagi o'zgarishi keskin ortib bormoqda.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kydlaganidek, "milliy tiklanish yo'li yuqori savodxonlik, yuksak madaniyat orqali o'tadi. Shuning uchun ham ma'lumot darajasi, professional tayyorgarlik darajasi XXI asr arafasida bizning ijtimoiy rivojlanishimizning o'lchovi bo'lib qolmog'i kerak. Shuning uchun "xalq ta'limining butun tizimini yanada qat'iyat bilan va tezroq qayta qurish zarur"

Ta'lim sotsiologiyasining hozirgi sharoitdagi asosiy vazifalaridan biri ham, yuqorida ko'rsatilgan muammolarni empirik jihatdan tadqiq qilib, ilmiy-amaliy va

nazariy xulosalar chiqarishdan iborat. Demak, o'zining mohiyat ehtibori bilan ushbu masala favqulodda davlat ahamiyatiga ega bo'lgan masaladir,

1997 yil 29 avgustda Islom Karimov Oliy Majlisning IX sessiyasida "Barqamol avlod O'zbekiston taraqqiyotning poydevori" mavzuida nutq so'zladi. "ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. U 5 bo'lim 34 moddadan iborat. Ular:

1. Umumiy qoidalar (1-8-moddalar) asoslangan).
2. Ta'lim tizimi va to'rlari (9-19-moddalar).
3. Ta'lim jarayoni qatnashchilarni ijtimoiy himoya qilish (20-24-modda)
4. Ta'lim tizimini boshqarish (25-29-moddalar).
5. Yakunlovchi qoidalar (30-34-moddalar).

Ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy printsiplari qo'yidagilardan iborat:

- 1) ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- 2) ta'limning uzluksiz va izchilligi;
- 3) umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburligi;
- 4) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini yo'nalishi: akademik litseyida yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- 5) ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- 6) davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;
- 7) ta'lim dasturlarini tanlashda yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- 8) bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- 9) ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvni uyg'unlantirish.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi qo'yidagilarni o'z ichiga oladi:

1) davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshirovchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

2) ta'lim tizimining-faoliyat qo'rsatish va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarni bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

3) ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar;

4) O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim ko'yidagi turlarda amalga oshiriladi.

1. Maktabgacha ta'lim.

2. Umumiy o'rta ta'lim.

3. O'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim.

4. Oliy ta'lim.

5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim.

6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash.

7. Maktabdan tashqari ta'lim.

Ta'lim sotsiologiyasida ta'lim-tarbiyaning nechog'lik jamiyat uchun zaruriy ehtiyojni quyidagi misralardan ham bilish mumkin:

"Ta'lim-tarbiya ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkurni o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlagan oliy maqsad - ozod va obod jamiyatni barpo etib bo'lmaydi",

Islom Karimov

"Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir".

Abdulla Avloniy.

"...bizga bitiruvchilar emas, maktab ta'limi va tarbiyasini kyargan shaxslar kerak".

Islom Karimov

"Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tayyorlanadi".

Islom Karimov.

Ta'lim-tarbiya sohasida amalga Ishirilayotgan islohatlar quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

1. Birinchi bosqich - o'tish. davri bo'lib, u 1997-2001 yillarni, ya'ni 4 yilni o'z ichiga oladi.

2. Ikkinchi bosqich - 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng, tuliq amalga oshirish zarur.

3. Uchinchi bosqich - 2005 va keyingi yillarni o'z ichiga olishi mo'ljallangan.

Ta'lim sotsiologiyasi bo'yicha mutaxassislar ta'limni qayta qurish dasturini ishlab chiqib hayotga tadbik etishda faol qatnashmoqdalar. Bu erda ta'lim tizimi to'g'risida jamoa fikrini muntazam o'rganish muxim ahamiyatga ega. Ta'limni mafkuralashtirmaslik, siyosiyashtirmaslik, ammo real hayotdan ajratish voz kechish, ajdodlarimiz tajribasiga, qadriyatlarga tayanish lozimdir

Bozor munosabatlariga o'tish jarayonida ta'lim sohasida murakkab muamolar yuzaga keldi. Ularni har tomonlama chuqur va mufassal tadqiqot qilish ta'lim sotsiologiyasining muhim va aktual masalalaridan biridir.

Biz farzandlarimizning nafaqat jismoniy va ma'naviy sog'lom o'sishi, balki ularning eng zamonaviy intellektual bilimlarga ega bo'lgan, uyg'un rivojlangan insonlar bo'lib, XXI asr talabalariga to'liq javob beradigan barkamol avlod bo'lib voyaga etishi uchun zarur barcha imkoniyat va sharoitlarni yaratishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.

Shu kunlarda xukumatimiz tomonidan ushbu masala yuzasidan qabul qilingan Davlat dasturi ana shu ezgu maqsadga erishish yo'lida, jami davlat va nodavlat manbalarini hisobga olgan holda, mavjud barcha resurs va imkoniyatlarimizni safarbar etishni ko'zda tutadi.

"Biz tanlagan taraqqiyot yo'lining tarkibiy qismiga, kelajagimizning mustahkam poydevoriga aylanib borayotgan ta'lim sohasidagi buyuk dasturlarimizni o'z vaqtida, uzoqni ko'zlab ishlab chiqqanimiz va amalga oshirganimiz naqadar to'g'ri bo'lganini bugun mamlakatimiz erishgan yuksak marra va natijalar yaqqol namoyon etmoqda".

Prezidentimiz Islom Karimov 2010 yilni "Barkamol avlod yili" deb nom berdi. "Xalqimiz va davlatimiz, - degan edi Prezidentimiz, - har qaysi inson nimaniki o'z oldimizga maqsad qilib qo'ymaylik, qanday buyuk ishlarni amalga oshirishga intilmaylik, barcha olijanob xarakatlarimizning negizida, barcha ezgu niyatlarimizning markazida farzandlarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jixatdan sog'lom qilib o'stirish, ularning baxtu saodati, farovon kelajagini ko'rish dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan avlodni tarbiyalash orzusi turadi".

“Biz yurtimizning ertangi rivoji yoʻlida qanday chuqur oʻylangan dasturlarni tuzmaylik, bu rejalarini bajarish uchun qanday moddiy baza va imkoniyatlarni yaratmaylik, buning uchun qancha koʻp sarmoya safarbar etmaylik. ularning barchasini amalga oshiradigan, roʻyobga chiqaradigan qudratli bir omil borki, u ham boʻlsa, yuqori malakali ish kuchi va yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun masʼuliyatni oʻz zimmasiga olishga qodir boʻlgan etuk mutaxassis yoshlarimiz, desak, oʻylaymanki, hech qanday xato boʻlmaydi”.

“Yangi 2010 yilda davlat byudjetining 50 foizdan koʻprogʻi mamlakatimizda faqat taʼlimʼ tarbiya va sogʻliqni saqlash sohalarini rivojlantirishga yoʻnaltiriladi”.

“Taʼlim-tarbiya tizimini sifat jihatdan butunlay yangi bosqichga koʻtarish diqqatimiz markazida boʻlishi dardor”...

“... Bugungi kunda taraqqiy topgan davlatlar ilmiy jamoatchiligining eʼtibor markazida turgan, eng ilgʻor, istiqbolli milliy ilmiy izlanish va tadqiqot ishlarini yurtimizda rivojlantirish maqsadida fanlar akademiyasi va oliy oʻquv yurtlari tarkibida yangi laboratoriyalarni tashkil qilish, ularni rivojlangan mamlakatlardagi ilmgʻ fan markazlari bilan samarali xamkorlik aloqalari oʻrnatishiga erishishimiz kerak”.

“... Xorijiy davlatlardan zamonaviy ilmi jihoz va uskunalarni olib kelish, eng iqtidorli, talantli yoshlarimizni bu ishga safarbar qilish va ragʻbatlantirish qoʻmitasi qoshida alohida fond tuzi shva uni etarli darajada valyuta mablagʻlari bilan taʼminlash ezgu orzu-niyatimiga javob beradigan bir ish boʻlur edi”.

«Oʻgʻil-qizlarimizni elgʻ yurtimizga munosib farzand, ertaga Vatanimizning hqiqiy fuqarosi boʻladigan insonlar etib tarbiyalash avvalo oila bagʻrida, oilaning sogʻlom iqlim, otagʻonaning birgʻ biriga mehri va hurmati sharoitida chuqur ildiz otishini, oʻylaymanki, hammamiz yaxshi anglaymiz».

“Bugungi kunda farzandlarimizning maʼnaviy olamini yuksaltirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalasi biz uchun eng dolzarb vazifa boʻlib qolmoqda.

Ayniqsa, hozirgi murakkab va tahlikali zamonda milliy oʻzligimiz, azaliy qadriyatlarimizga yot va begona boʻlgan turli xil xurujlar, yoshlarimizning ongi va qalbini egallashga qaratilgan gʻzli intilishlar tobora kuchayib borayotgani barchamizni yanada xushyor va ogoh boʻlishga daʼvat etishi tabiiydir”.

“Biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik xukmronlik qiladigan asr.

Kimki bu haqiqatni oʻz vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish hqaysi millat va davlat uchun kundalik hayot mazmuniga aylanmasa – bunday davlat jaxon taraqqiyoti yoʻlidan chetda qolib ketishi muqarrar”.

«...Jamiyat, birinchi navbatda, bugun unib-oʻsib kelayotgan farzandlarining har tomonlama barkamol avlod boʻlib hayotga kirib borishini oʻzi uchun eng ulugʻ, kerak boʻlsa, eng muqaddas maqsad, deb biladi».

Demokratik, fuqarolik jamiyati, zamonaviy iqtisodiyot tizimi barpo etilayotgan mamlakatimizni jahon jamoatchiligi tan olayotgan ekan, «avvalo, el-yurtimizning qanday boy tarix va madaniy-maʼnaviy merosga ega ekanida, uning intellektual salohiyati va ildizlari naqadar chuqur ekanida, halqimizning oʻz oldiga qoʻygan yuksak maqsadlarga erishish yoʻlida qanday buyuk ishlarga qodir ekanidadir».

9.3. Kadrlar tayyorlash sotsiologiyasi

Ijtimoiy sohada kadrlar tayyorlash sotsiologiyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Sho'ro davrida kadrlarda tayyorlashda nazariya bilan amaliyot o'rtasida nomutanosiblik mavjud edi. Ya'ni unda:

1) rasmiy o'qilishlarda nazariy g'oyalar, mahalliy kadrlar tadyorlash xususida aytilardi;

2) ikkinchi tomondan amalda esa teskarisi bo'lardi, mahalla kadrlarga ishonmasdi. Bu deyarli 74 yil shunday kechdi.

Xatolik shunda ediki:

1) birinchida yangi kadr kelgan paytda eskisini tanqid qilishdan boshlardi. Masalan, 1984 yil 24 iyulda O'zKP Mkning XVI Plenumida respublikaning sobiq 1-kotibi SHARof Rashidov asossiz tanqid qilindi;

2) ikkinchi xatolik kdrlar nazariy tayyorgarligi, kommunistik mafkura, maqtonchoqlik, muhoratga emas, sadoqatlilik asos qilib olinardi.

Sotsiologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kadrlar siyosatida bir-biriga zid bo'lgan 2 tendensiya mavjud edi. Ular:

1. Kadrlar korpusida turg'unlik holati yuzaga kelgan bo'lib, ayniqsa rahbar kadrlar 10-15 yil o'z yuqori lavozimda o'tirardi. Keyinchalik tez-tez almashtirish holati ham yuzaga keldi. Bunday holat hozir ham mavjud desa bo'ladi.

2. Sobiq SSSR davrida o'zga joylardan mahalliy sharoitni bilmaydigan kadrlar yuborilardi. Masalan, 1984-1987 yillarda Moskva, Leningrad, Rossiya va boshqa shaharlardan; mintaqalardan 400 dan ortiq kadrlar yuborilgan. Ular milliy, diniy kadriyatlarimizni oyoq-osti qishgacha borib etdilar.

Mustaqillik yillarda bu masalaga e'tibor qaratila boshlandi. 1994 yil 4 yanvarda Oliy Kengash 9-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining mahalliy hokimiyat idoralarni qayta tashkil etish to'g'risida"gi Qonuni kabul qilindi, SHunga ko'ra: -

1) hokimlik lavozimlari joriy qilindi;

2) hokimlik Prezident tomonidan tayinlanish belgilandi. Birgina 1992 yilda 12 viloyatda prezident tomonidan va tavsiyasi asosida viloyat hokimlarni tayinlandi, 212 shahar va tuman hokimlari ham shu asosda tayinlanib kelindi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Prezident Islom Karimov kadrlar faoliyatiga baho berib, ularni 3 toifaga bo'ldi:

1. Eski tuzumni qumsab yurgan kishilar. Yoki o'z manfaatini o'ylaydigan, xalq g'ami, tashvishdan begona kishilar.'

2. Eng xavfli - imonsiz, e'tiqodsiz kishilar. Bundaylar Vatan manfaatini begma, ular shaxsiy huzur-halovat, mansab uchun hech narsadan toymaydiganlar. Yoki befarq, loqayd odamlar bo'lib, hech kimga gapirishni, dushman orttirishni istamaydiganlar.

3. Vatan manfaatini, mustaqilik manfaatini hamma narsadan ustun qo'yadigan, qalbida o'ti va erk tuyg'usi bor, g'ayratli, kuyunchak va ishonchli. Yoki yosh tashabbuskor, kuch-g'ayratga to'la, fidoyi kadrlar.

Yurtboshimiz Islom Karimov kadrlarni tanlash va tayyorlash tamoyillarining 2 ta yo'nalish ko'rsatib bergan edi:

1. Kadrlar masalasini hal qilishga daxldor kishilar, ayniqsa xalqimizning ko'p millatli xususiyatlarni e'tiborga olish zarur.

2. Kadrlarni ishbilarmonlik fazilatlarini yuqori darajada etarlicha qadrlay -bilish kerak.

Akademik Ibrohim Mo'minov rahbar faoliyati haqida gapirib, bu ishda: 1) halollik, 2) rostgo'ylik, 3) izchil fidoylik bo'lish kerakligini aytgan edi.

Islom Karimov 2000 yil 11 fevralda 2-chaqiriq oliy Majlis 1-sessiyasining 2-yig'ilishida yangi hukumat sostavini tuzish vaqtida ayniqsa rahbar kadrlar masalasiga jiddiy e'tibor berdi. Xukumat a'zolari soni 37 nafar edi. Vazirlar Mahkamasining yangi tarkibi 34 lovozimidan iborat qilib belgilandi.

Islom Karimov: "Odamlar har qanday rahbarning, birinchi galda uning faoliyati ishining amaliy natijasiga karab bohodaydi. Quruq savlat va balaidparvoz gaplar bilan emas, fakat shu hisobdan rahbar obro' topishi, hurmat qozonishi mumkin. Vazir: vatanparvar va yurtparvar fazilatlariga ega bo'lishi, ona yurtini chin kalbdan sevishi va ardoqlashi, el-yurt uchun o'zini ayamaligi kerak, bu yo'lda jonini ham fido qilishga tayer bo'lishi lozim.

O'z kasbini o'stasi, ishning chinakam bilimdoni, boshqalarga o'mak bo'lishi kutiladi. Rahbar uzoqni ko'ra bilishi, keng fikrlashi, iymon-e'tiqodli bo'lishi kerak. Amir Temur "Ishbilarmon, mard va shijoat sohibi bo'lgan, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir-kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan afzaldir" degan edi."

1990 yildayoq Islom Karimov "Bizga milliy kadrlar tayorlashning maxsus dasturi kerak", degan edi.

SHunga binoan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" yaratiladi. Bu haqda 1997 yil 29 avgustda Oliy Majlis 9-sessiyasida "Ta'lim to'g'risida"gi qonun bilan birga "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" ham qabul qilindi.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"ning tuzilishi quyidagicha:

1. Muammolar va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish omillari.
2. Milliy dasturning maqsadi, vazifalari va uning ro'yobga chiqarish bosqichlari.
3. Kadrlar tayyorlashning milliy modeli.
4. Kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.
5. Dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy chora-tadbirlar.

1997 yil 6 oktyabrda mamlakat Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Farmonning 1-bandida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dasturni hisoblansin" deyiladi. Shundan ham ko'rinadiki, bu masala dolzarb masalalardan biridir.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini joriy etishda davlat byudjetidan qo'shimcha sarf xarajatlar o'tish davrida, ya'ni 1997-2001 yillar davomida 65 milliard so'mni tashkil etadi, 1998 yili dasturni amalga oshirish uchun 103,1 milliard so'm sarflandi. 1999 yili esa 143 milliard so'm ajratildi. Shundan 30,5 mylliard so'mi akademik litsey va kasb-hunar kejelarni barpo etishga sarflandi.

Ta'limga sarf qilinayotgan xarajatlar, yiliga yalpi mahsulotning:

O'zbekistonda 7,6 foiz sarflanmoqda (1990 yili 8,1 foizni tagikil etdi)

Daniyada 8,4 foiz

Shvetsiya 7,8 foiz

O'zbekiston oliy maktab tizimi 58 oliy o'quv yurtini, shu jumladan 16 universitet va 42 institutni o'z ichiga oladi ularda 164 ming talaba ta'lim olмокda,

16 universitetning 12 tasi O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki 2 yilda tashkil topdi. Oliy o'quv yurtlarida ishlayotgan 18,5 ming o'qituvchining 52 foizi fan doktori va fan nomzodlaridir.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar oshgan talabalarga muvofiq aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlash ishi kengaydi. Respublikada qanyb 4 mingda ko'proq aspirant bo'lib, ulardan 69 foizi oliy ta'lim tizimida va 31 foizi ilmiy ta'dqiqot institutlarida ta'lim olmoqda, Jami ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarning 8 foizi fan doktorlari va 37 foizini fan nomzodlari tashkil etadi.

Kadrlar malakasini oshirish va ularni tayyorlash tizimida 23 institut, 16 fakultet, 4 markaz va 14 malaka oshirish kurslari ishlab turibdi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida mamlakatimizda ta'lim islohati o'tkazishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning vazifalari, dasturi ro'yobga chiqarish bosqichlari, kadrlar tayyorlashning milliy modeli asoslab berildi.

Mazkur dasturni maqsadi - ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatla darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talabalarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdir.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy islohatlarga monand ravishda amalga oshirilmokda. Milliy dasturda ta'lim islohatlarini uch boskich amalga oshirish nazarda tutildi va shu asosda olib borilmoqda.

1. Birinchi bosqich (1997-2001 yillar). Bu davrda mavjud kadrlar tayyorlash tizimning ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratilmoqda. 8 ta eng muhim asosiy vazifalar ko'zda tutilgan,

2. Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar). 76 Bu davrda Milliy dastur to'lik ro'yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iktisodiy sharoitlarni hisobga olgan unga aniqliklar kiritiladi. 3 ta eng muhim vazifalar belgilab berilgan.

3. Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar). Bu bosqichda 5 ta muhim vazifalar belgilab berilgan.

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari qo'yidagilardan iborat:

1) shaxs - kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi;

2) davlat va jamiyat - ta'lim kadrlar tayyorlash tizimi faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari;

3) uzluksiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosiy bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi;

4) fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini tishla.6 chiquvchi;

5) ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek ularning tayyorgarlik sifati va saviyasiga nisbatan qo'yiladigan talabalarni belgilovchi asosiy

buyurtmachi, kadrlar tayyorlash tizimini-moliya va moddiy-texnika jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Umuman, ta'lim, kadrlar tayyorlash, ilm-fan sotsiologiyasi mavzuini o'qitishda yoshlar ongida ilm-fanga, ta'lim-tarbiyaga, kadrlar masalasiga nisbatan chuqur hurmat, qiziqish va uni e'zozlash ruhini yaratishga intilish asosiy maqsad bo'lmog'i lozim. Chunki "ilm-ma'rifatga qiziqishi sust millatning kelajagi ham bo'lmaydi. Zero ilmga intilish yo'qolsa, fan taraqqiy etmaydi, ilmu fan rivojlanmasa - jamiyatning kelajagini tasavvur etib bo'lmaydi".

Mamlakat Prezidenti o'zining "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" asarida ta'kidlanganlaridek. "Uchinchi ustuvor yo'nalish kadrlar masalasi. Biz oldimizga qanday vazifa qo'ymaylix, qanday muammoni echish zarurati tutilmasin, gap ohir-oqibat, bari bir kadrlarga va yana kadrlarga borib taqalaveradi. Mubolag'asiz aytish mumkin, biznir kelajagimiz, mamlakatimizning kelajagi - o'mimizga kim kelishiga yoki boshqacharoq aytganda, qanday kadrlar tayyorlashimizga bog'liq. Shu boisdan ham Islom Karimov 2000 yil 22 yanvarda 2 chaqiriq Oliy Majlis 1-sessiyasida yana bir bor bu mavzuga qaytib, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish, boshlagan ishimizni izchillik bilan - amalga oshirish katta-kichik rahbarlarning vazifasi, burchi" ekanligini bayon etib o'tdi.

«Bundan 12 yil oldin boshlangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004 yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy xayotimizda tub burilish yasadi».

«O'tgan davr mobaynida litsey va kollejlarni 1 million 446 mingdan ziyod farzandlarimiz, jumladan, 1 million 55 ming nafardan ortiq qishloq yoshlari bitirib, bugungi kunda ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, boshqaruv va ijtimoiy sohalarida, barcha jabhalarda mehnat qilmoqda».

Ta'lim-tarbiya sohasida keng ko'lamli isloxotlar olib borildi. 12 yil oldin boshlangan kadrlar tayyorlash milliy dasturi va 2004 yilda uning tarkibiy qismi sifatida qabul qilingan maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy davlat dasturi ijtimoiy xayotimizda tub burilish yasadi. Dastur doirasida ming-minglab litsey va kollejlarni qurish va ularni rekonstruktsiya qilish ishlari amalga oshirildi.

O'tgan yillar mobaynida ana shu litsey va kollejlarni 1 million 446 mingdan ziyod farzandlarimiz ... bitirib, bugungi kunda ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, boshqaruv va ijtimoiy sohalarida mehnat qilmoqda.

Tayanch iboralar:

Ta'lim tizimi, gorizontal va vertikal sostial mobillik, iteliktual meros, ijtimoiy xulq-atvor, ta'lim ustuvorligi, ta'limning demokratlashuvi.

Uzluksiz ta'lim tizimi va turlari

Maktabgacha ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim

Maktabgacha ta'lim

Boshlang'ich ta'lim

Umumiy o'rta ta'lim

O'rta maxsus kasb-xunar ta'limi

Akademik litsey

Kasb – xunar kolleji

Oily ta'lim

Bakalavriyat-mutaxassisliklar
yo'nalishi suniycha fundamental
va amaliy bilim beradigan,
ta'lim muddati turi yil davom
etadigan oily ta'lim

Magistratura-aniq mutaxassislik
bo'yicha fundamental va amaliy
amaliy bilim beradigan,
bakalavriyat negizida 2 yil davom
etadigan oily ta'lim

Oily o'quv yurtidan keyingi ta'lim

Aspirantura

Doktorantura

Mustaqil
tadqiqotchilik

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash-mutaxassislarning
kasb bilimlari va ko'nikmalarini hamda chuqurlashtirishga qaratilgan.
Kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalaridagi
o'quv natishalariga ko'ra davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi
guvohnoma yoki sertifikat topshiriladi.

Maktabdan tashqari ta'lim bolalar va o'smirlarning ta'limga bo'lgan yakka
tartibdagi, ortib boruvchi talab, ehtiyojlamini qondirish, dam olishni tashkil
etish uchun davlat organlari, jamoatashkilotlari, boshqa yuridik va
jismoniy shaxslar madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport va boshqa
yo'nalishlarda maktabdan tashqari davlat va nodavlat ta'lim muassasalarini
tashkil etadi.

10- mavzu. Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazish.

10.1. Empirik sotsiologik tadqiqot, uning asosiy bosqichlari.

10.2. Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari: kuzatish, so'rov, hujjatlarni o'rganish, eksperiment.

10.3. Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

10.4. Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanish.

Empirik sotsiologik tadqiqot, uning asosiy bosqichlari.

Sotsiologiya fanini empirik sotsiologik tadqiqot jarayonisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Empirik so'zi qadimgi yunoncha bo'lib, tajriba ma'nosini anglatadi. Empirik sotsiologik tadqiqot – yagona dastur va uslubiyot bilan amaliy asosda ijtimoiy hayot hodisa va jarayonlari to'g'risida olingan. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, zarur amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Empirik sotsiologik tadqiqotda ijtimoiy faktlarni izlash, tasnif qilish, to'plash muhim ahamiyatga ega.

Ijtimoiy fakt deganda, ilmiy asoslangan, muayyan vaqt davomida real ijtimoiy voqelikning alohida jihadlarini tasnif qilish orqali olingan ma'lumotlarga aytiladi.

Hozirda, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyat hayotida ro'y berayotgan muhim o'zgarishlarni, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni amaliy sotsiologik tadqiqotlarsiz ilmiy asosda o'rganib bo'lmaydi. Jamiyatni ilmiy boshqarish doimo amaliy sotsiologik tadqiqot natijalariga tayanmog'i zarur.

Mavjud ijtimoiy muammolarni hal etib borishda, jamiyatni ijtimoiy rivojlantirishda va uni rejali prognoz berish bilan ilmiy asosda boshqarishda amaliy sotsiologik tadqiqot natijalari muhim vazifalarni bajaradi.

Sotsiologik tadqiqotlarning sifat darajasini va samaradorligini oshirish uchun empirik ma'lumotlarning ishonchli ekanligini, ilmiy asoslanganligini ta'minlash uchun, uning metodologik asosiga alohida e'tibor qaratilmog'i lozim.

Amaliy sotsiologik tadqiqot jarayonini 4 asosiy bosqichga bo'lib ko'rsatish mumkin. Bu bosqichlarning har biri o'ziga xos xususiyatlarga va muhim jihatlariga egadir. Bular quyidagilardan iborat:

I Bosqich. Sotsiologik tadqiqotni tayyorlash va tashkil qilish:

Amaliy sotsiologik vazifani belgilash va tadqiqot predmetini tanlash;

Sotsiologik tadqiqot o'tkazish bo'yicha buyurtma qabul qilish va uni o'tkazish bo'yicha shartnoma tuzish;

Bajariladigan ishlar bo'yicha kalendar reja, texnik vazifalarni va byudjet /sarf qilinadigan harajatlar smetasini/ tuzish;

Dastur ishlab chiqish;

Tadqiqot uslubiyoti, texnikasi va vositalarini ishlab chiqish.

II Bosqich. Asosiy bo'lib, amaliy tadqiqot ishlari olib borish jarayonini o'z ichiga oladi:

Sotsiologik tadqiqot tanlovini o'tkazish;

Pilotaj;

Dastlabki sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish;

Empirik ma'lumotlarning sifat va aniqlik darajasini nazorat qilish;

III Bosqich. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash:

Olingan empirik ma'lumotlarni guruhlariga ajratish;

Taqsimiy jadval tuzish;

Empirik ma'lumotlarni kompyuterlarga kiritish va modellash;

IV Bosqich. YAkunlovchi bosqich bo'lib, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish, ulardan ilmiy xulosalar chiqarish va amaliy takliflar, tavsiyalar ishlab chiqishni o'z ichiga oladi:

Tadqiqot ma'lumotlarining dastlabki tasnifi va nazariy jihatdan fahmlamoq;

Ilmiy nazariy xulosalar, muayyan ilmiy-amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish;

Berilgan vazifa bo'yicha ilmiy matnlar, hisobotlar tayyorlash.

I bosqich: amaliy tadqiqotni tayyorlash va tashkil etish bosqichi.

Empirik tadqiqot maqsadini aniqlash va belgilash;

Empirik tadqiqot g'oyasini ishlab chiqish;

Empirik tadqiqot jarayonini tashkil etish;

Analitik muolaja tayyorlash;

II Bosqich. Asosiy bosqich: empirik tadqiqot va eksperiment o'tkazish;

III Bosqich. Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish. Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi:

Olingan empirik tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlash;

Nazariy jihatdan qayta ishlash;

Olingan natijalarni amaliyotda qo'llash.

Har qanday tadqiqot biron-bir muammoning qo'yilishidan boshlanadi. Bunday muammo tashqaridan, buyurtmachi tomonidan berilishi yoki jamiyat hayotida o'zining ilmiy echimini kutayotgan muammo bo'lishi mumkin. Shulardan kelib chiqib, sotsiologik tadqiqotlarni tashkil qilishning asosiy shakllari:

1. Davlat buyurtmasi; 2. Xo'jalik shartnomasi asosida; 3. Jamoatchilik; 4. Aralash tartibda bo'lishi mumkin.

Empirik sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'yicha o'tkazilgan dastlabki tahlililar asosida mavjud muammoni tadqiq qilish dasturi ishlab chiqiladi. Ilmiy dastur har qanday amaliy va nazariy sotsiologik tadqiqotning dastlabki zarur hujjati hisoblanadi. Dastur sotsiologik tadqiqot ob'ekti bo'yicha ishchi farazni tekshirishga qaratilgan, shuningdek, tadqiqot bo'yicha ilmiy faraz, bajariladigan asosiy vazifalarni va sotsiologik tadqiqot metodologik asosining bayonidan iborat. Dastur mazmuni haqida qisqacha ma'lumot berilishi annotastiva deb ataladi.

Har qanday empirik sotsiologik tadqiqot dasturining umumiy talablari mavjud. Bularga: 1. tadqiqotning asosiy maqsad va vazifalarini aniqlash; 2. ishchi farazni

ishlab chiqish; 3. dasturi ishlab chiqish jarayonida kompyuter texnikasidan foydalanish kabilar kiradi.

Sotsiologik tadqiqot dasturi ichki tuzilishi jihatidan quyidagi qismlardan iborat bo'ladi:

I. Nazariy-metodologik qism

Sotsiologik muammoni ishlab chiqish, tadqiqot maqsadi va vazifasini belgilash.

Tadqiqot ob'ekti va predmetini belgilash.

Asosiy tushunchalarni ishlab chiqish.

Tadqiqot predmetining dastlabki taxminiy tahlili.

Ishchi farazni ishlab chiqish.

II. Amaliy sotsiologik tadqiqot ish jarayoni qismi:

2.1. Tadqiqotning umumiy rejasi.

2.2. Asosiy amaliy ish jarayonlari.

2.3. Tanlov ishlari

2.4. Dastlabki olingan sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish usullarining tasnifi

2.5. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish nazarda tutilgan yo'nalishlar.

III. Xulosa qismi:

Tadqiqot natijalarini mazmungan tasnifi.

Buyurtmachiga tadqiqot natijalarini taqdim qilish shakllari /asosiy xulosalardan iborat hisobot, amaliy takliflar, tavsiyalar va tadbirlardan iborat/.

Tadqiqot maqsadi va vazifasi. Dasturning ushbu qismida sotsiologik tadqiqot buyurtmachisi va bajaruvchilar o'rtasidagi munosabat o'zaro kelishib olinadi. Tadqiqot uchun sarf qilinadigan harajatlar: moliyaviy va mehnat resurslari hisoblab chiqiladi.

Sotsiologik tadqiqot maqsadi turlicha bo'lishi mumkin. Masalan, muayyan ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini ko'tarish muammosini sotsiologik tadqiq qilish zarur bo'lsa, bunda asosiy maqsad mehnat unumdorligini pastligining birinchidan, asosiy sabablarini aniqlash, ikkinchidan, mavjud yashirin iqtisodiy imkoniyatlarni qidirib topish va uchinchidan esa mavjud shart-sharoitni o'zgartirishdan iborat bo'ladi. Tadqiqotning asosiy vazifasi esa belgilab olingan maqsadni mazmungan, uslubiy va tashkiliy jihatdan yanada oydinlashtirib olishdan iborat bo'ladi.

Tadqiqot predmeti va ob'ekti. Tadqiqot predmeti – mavjud sotsiologik muammoning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi. Bir xil muammoli holatda yagona empirik tadqiqot ob'ekti bo'yicha tadqiqot predmeti bo'ladigan bir necha yo'nalishlar bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, tadqiqot predmeti tanlanganda, mavjud muammoni echish yo'llari bo'yicha ilmiy faraz tuziladi, shu bilan birga, sotsiologik tadqiqot o'tkazish usullari va shakllariga ta'rif beriladi.

Sotsiologik tadqiqot ob'ekti deganda, sotsiologik tadqiqot yo naltirilgan ijtimoiy hodisa, jarayon va tuzilmalar tushuniladi. Har qanday sotsiologik tadqiqot ob'ekti tizimli xususiyatga, asosan, vaqt, makon, imkoniyat va miqdoriy o'lchov chegarasiga ega bo'ladi. Empirik sotsiologik tadqiqot dasturining nazariy-usulbiy darajasida ob'ektini tanlash muhim ahamiyatga ega. Hal qilinishi zarur bo'lgan muammo xarakteri, uning dolzarbligi, tadqiqot maqsadi va vazifasi, tadqiqot ob'ektining qanday bo'lishligini belgilaydi. Agar tadqiqot ob'ekti unchalik katta bo'lmasa, sotsiologik jihatdan uni to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lsa, bir butun holda tadqiqot ob'ekti qilib olish mumkin. Ba'zan esa murakkab sotsiologik tadqiqot ob'ektini to'laligicha qamrab olish imkoniyati bo'lmaydi. Shuning uchun bunday vaziyatda tadqiqot ob'ektining nisbatan aniq chegarasi belgilab olinishi shart.

Dasturda aniq ko'rsatilishi zarur:

1/ empirik tadqiqot ob'ekti; 2/ sotsiologik tadqiqot ob'ektni to'laligicha qamraydimi yoki uning ayrim jihatlarini tanlab oladimi? 3/ tanlov asosida olib boriladigan sotsiologik tadqiqot asosi /ro'yhat tuzish, kartoteka, sotsiologik xarita kabilar/.

Sotsiologik tadqiqot farazi. Mavjud muammo bo'yicha ilmiy faraz ishlab chiqish empirik sotsiologik tadqiqotni nazariy jihatdan tayyorlashning yakunlovchi qismi hisoblanadi. Tadqiqot farazi – o'rganilayotgan ijtimoiy hodisa tarkibi yoki uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik xarakteri to'g'risidagi ilmiy farazdan iborat bo'ladi. Ilmiy faraz tadqiq etilayotgan ob'ekt to'g'risidagi mavjud ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqiladi.

Faraz – bu, tadqiqot uchun boshlang'ich nuqta bo'lib, keyingi olib boriladigan amaliy sotsiologik tadqiqotlarda ilgari suriladigan farazga bog'liq bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, farazni ishlab chiqish – empirik ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishdagi mantiqiy asosni ishlab chiqish demakdir.

Agar tadqiqotchi tomonidan ilmiy faraz ishlab chiqilgan bo'lsa, empirik ma'lumotlar va tadqiqot natijalari shu ishchi farazning to'g'ri ekanligini tekshirishga, uni tasdiqlashga yoki bekor qilishga xizmat qiladi. Empirik tadqiqot farazi bo'lmasa, unda sotsiologik tadqiqotning ilmiylik darajasi past bo'ladi.

Dastur tarkibidagi amaliy qismning muhim jihati – empirik tadqiqot uslubiyoti, texnikasi, jarayoni va usullarini asoslashdan iborat.

Sotsiologik tadqiqot uslubiyoti – xususiy sotsiologik usullar majmui foydalaniladi. Metod /usul/ tushunchasi keng ma'noda bilimlar tizimini yuzaga keltirish va asoslash usuli, vositasi demakdir. Sotsiologiyada usul sifatida umumsotsiologik printsiplar ham, ijtimoiy voqelikdagi jarayonlar va hodisalarni bilishdagi xususiy printsiplar va konkret usullar – matematik-statistik usullar, sotsiologik axborotni yig'ish usullari: kuzatish, so'roqlar, eksperiment va hujjatlarni o'rganish usuli va boshqalar tushuniladi.

Sotsiologik tadqiqot texnikasi – maxsus usullarining birligini anglatib, u yoki bu usuldan unumli va o'z o'rnida foydalanishni ifoda qiladi.

Sotsiologik tadqiqot jarayoni – tadqiqotni tashkil etish usuli, vositasi, barcha bilish va tashkiliy faoliyatning tartib bilan borish jarayonini anglatadi.

Amaliy sotsiologik tadqiqot olib borish jarayonida konkret tadqiqot usullarining ahamiyati katta. Ular yordamida dastlabki empirik ma'lumotlar yig'ib boriladi. Ular kuzatish, so'rovlar, hujjatlarni o'rganish va eksperiment usullaridir.

10.2.Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari.

a) Sotsiologik tadqiqotda kuzatish usuli.

Sotsiologik tadqiqotlarda kuzatish – dastlabki empirik ma'lumotlarni yig'ish usuli bo'lib, muayyan maqsadga qaratilgan, oldindan puxta o'ylab, muntazam olib boriladigan, hissiy qabulga asoslangan bo'ladi. Bu usuldan foydalanishning o'ziga xos afzalligi shundaki, tadqiqotchi muayyan darajada tadqiqot olib borilayotgan ob'ektidan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi. Kuzatish usulidan olinadigan ilmiy ma'lumotlar ob'ektiv, xolis va hayotiy bo'lishi bilan o'zining ilmiy qimmatiga egadir. Shu bilan birga, kuzatish usulidan olingan ilmiy ma'lumotlarda sub'ektiv jihatlar ham bo'lishi mumkin. Chunki, sotsiologik tadqiqot tadqiqotchining ijtimoiy voqelikka, jarayoniga nisbatan qanday munosabatda bo'lishi va qay yo'sinda tavsiflashi asosida boradi.

Kuzatish usulining yana bir muhim jihati uning muayyan darajada chegaralanganligi bo'lib, ko'pincha tadqiq etilayotgan voqelikni qayta kuzatish imkoniyati bo'lmastir. Bu usulning yana bir zaif jihati shundan iboratki, kuzatish orqali tadqiqotchini qiziqitirgan savolga kuzatiluvchining fikr va hukmini bilish juda qiyin. Barcha hollarda kuzatish hozircha faqat so'z bilan ifodalanadi. Ammo, ba'zi xulqiy-ehtirosli munosabatlarni, holatlarni bir tarzda yozish va so'z orqali ifodalash qiyin bo'ladi.

Kuzatish jarayonining xarakteriga qarab uni quyidagi tiplarga ajratib ko'rsatish mumkin: nazoratli /ochiq/ va nazoratsiz /inkognito/, to'la qamrovli /standartlashtirilmagan/ va qamramaydigan / standartlashtirilgan/, dala sharoitida va laboratoriya sharoitida, ichkaridan va chetdan kuzatish.

Nazoratli, ya'ni ochiq kuzatishda kuzatilayotgan guruh oldindan ogohlantirib qo'yiladi, nazoratsiz, ya'ni inkognito kuzatishda esa, aksincha, guruh o'zini kuzatilayotganliklarini sezmaydi.

To'la qamrovli, standartlashtirilmagan kuzatishda u aniq bir harakat rejasiz amalga oshiriladi, standartlashtirilgan, ya'ni to'la qamramaydigan kuzatishda kuzatishda kuzatuvchi tadqiqot predmeti va jarayoniga nisbatan aniq chegaralangan programmaga asoslanadi.

Dala sharoitida kuzatish ob'ekti qilib sotsial voqelikning u yoki bu tomoni, jarayoni olinadi. Laboratoriya sharoitidagi kuzatishda esa ob'ekt qilib ob'ektiv voqelikki ma'lum bir darajada moslashtirilgan model olinadi.

Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi kuzatayotgan ob'ektda ro'y berayotgan ijtimoiy jarayonlarda bevosita ishtirok etadi va unga bo'ysunadi, chetdan kuzatishda esa tadqiqotchi ob'ektga nisbatan mustaqil bo'ladi va unga bo'ysunmaydi.

Ichkaridan kuzatishga misol qilib Amerika sotsiologi Uilyam Uaytning «Ko'cha burchaklari jamiyati» kitobida yoritilgan /1937/ tadqiqotini olish mumkin. Avtor, Italiya emigrantlari oilalaridan chiqqan yoshlar ichida reketning vujudga kelish jarayonini o'rganish niyatida, shu muhitda uch yarim yil yashagan, ular bilan bir xil hayot kechirgan.

Sotsiologik kuzatish ob'ekti insondir, shuning uchun tadqiqot jarayonida tadqiqotchining maqsadini intuitiv holda his qilib, o'z xulq-atvori yoki xarakatini o'zgartirishi mumkin. Natijada, olingan ma'lumot sotsiologning talabiga javob bermaydi.

Demak, sotsiologik tadqiqotlarda faqatgina kuzatish usulidan foydalanish bilan cheklanib qolmaslik kerak. Chunki, kuzatish usuli orqali olingan ma'lumotlar, natijalar o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida to'la ma'lumot bera olmaydi. Bu usuldan ko'pincha sotsiologik tadqiqotning dastlabki bosqichlarida, ob'ekt to'g'risida dastlabki tasavvurga ega bo'lish uchun yoki sotsiologik tadqiqotlarning boshqa usullari yordamida olingan ma'lumotlarni, statistik hujjatlarni qo'shimcha ravishda tekshirish maqsadida foydalaniladi.

b) So'rov usuli va uning turlari.

Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri so'rov usulidir. So'rov usuli yordamida boshqa hujjatli manbalarda uchramaydigan va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olish mumkin bo'lmagan ma'lumotlar, axborotlarni olish mumkin. Shuning uchun, kishilar, ijtimoiy hayot jarayonlariga bo'lgan munosabatini, fikrini sotsiologik jihatdan o'rganishda so'rov usulining ahamiyati beqiyos kattadir. Ayniqsa, hozirda, jamiyatimizning bozor munosabatlariga o'tib borish jarayonida, ijtimoiy kommunikatsiyaning roli ortib borishi bilan so'rov usulining sotsiologik tadqiqotlar olib borishdagi o'zmi va ahamiyati yanada ortmoqda.

So'rov usulidan dastlabki sotsiologik axborotlarni olish uchun foydalaniladi. So'rov o'z xarakteri bilan og'zaki yoki yozma ravishda bo'lishi mumkin. Tadqiqotchining respondent /inglizcha – so'z bo'lib, javob bermoq ma'nosini anglatadi, ya'ni anketa savollariga va intervyuga javob beruvchi tushuniladi/ bilan muloqotda bo'lish shakli va sharoitiga qarab so'rov yozma – anketa orqali va og'zaki – intervyu olish, yashash joyi va uyushgan auditoriyada /mehnat jamoasida, mahallada, o'quv yurtida/, sirtidan /ro'znoma orqali, pochta orqali anketa o'tkazish/ va vuzma-vuz, telefon orqali, guruhli yoki individual kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin.

Formallashtirish darajasi bilan oldindan rejalashtirilgan va erkin, bir marotaba va takror bo'lishi mumkin. Ekspert so'rovi ham sotsiologik tadqiqotlarda muhim o'rin tutmoqda. Olingan mavjud sotsiologik ma'lumotlarni qayta tekshirishda, ularni qanchalik mos ekanligini aniqlashda ekspert so'rovi turidan foydalaniladi.

So'rov usulidan quyidagi hollarda foydalanish mumkin: 1/ o'rganilayotgan muammo bo'yicha etarli darajada ma'lumotlar kam yoki mutlaqo bo'lmaganda; 2/ tadqiqot predmeti yoki uning ayrim jihatlarini kuzatish imkoniyati bo'lmaganda; 3/ tadqiqot ob'ekti sifatida ehtiyoj, manfaatlar, qiziqishlar, kayfiyat, qadriyatlar, e'tiqod,

ishonch, yoqlash kabi ijtimoiy yoki individual ong elementlarini o'rganish jarayonida; 4/ so'rov usulining imkoniyat darajasini oshirish maqsadida qo'shimcha tarzda va boshqa sotsiologik tadqiqot usullari yordamida olingan empirik ma'lumotlarni qayta tekshirish uchun; 5/ muayyan ijtimoiy muammo ustida olib borilayotgan sotsiologik tadqiqot jarayonini qanchalik to'g'ri ekanligini nazorat qilib borishda.

Yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, sotsiologik tadqiqotlarda so'rov usulidan yozma ravishda – anketa orqali va og'zaki – intervyu olish orqali foydalaniladi.

Anketa orqali so'rov o'tkazish eng keng tarqalgan so'rov turi hisoblanadi. Chunki, anketa savollari orqali respondentlardan olinadigan javoblarni umumlashtirib, guruhlashtirish bilan tadqiq etilayotgan ijtimoiy muammo to'g'risidagi jamoatchilik fikri oydinlashadi. Olingan ma'lumotlarning qanchalik to'g'ri, ob'ektiv va hayotiy ekanligi esa tadqiqotchilar tomonidan tuziladigan anketa savollarining qanchalik mohirona va savodli ekanligiga bog'liq bo'ladi. Anketaga kiritilgan savollar sodda, tushunarli va javob berishga qulay tuzilishi shart. Unda respondent xarakteri, yoshi, kasbi, ma'lumot darajasi va ruhiy jihatlari hisobga olinmogi lozim. Aks holda, anketa so'rovi o'rganilayotgan muammo to'g'risida ishonchli, ob'ektiv ma'lumotlar bermasligi mumkin.

Anketa so'rovi orqali empirik ma'lumotlarning aniq, hayotiy bo'lishi – anketa o'tkazish jarayonini qanchalik to'g'ri tashkil qilish bilan bog'liq. Anketa o'tkazishning asosiy komponentlari – tadqiqotchi, so'roqlov varaqasi va respondent hisoblanadi. Tadqiqotchi yoki tadqiqot o'tkazilayotgan ob'ektning rasmiy va norasmiy vakillari, rahbarlari tomonidan respondentlarga anketani tarqatish va ularni to'ldirish vaqtida nazorat qilishga yo'l qo'yilmasligi, respondent tomonidan mustaqil, o'zgalarning maslahatisiz to'ldirilishi shart. ANKETA to'ldirishda respondentning ismi-sharifi ko'rsatilmagligi kerak. Chunki, anketa varaqasiga ismi-sharifini ko'rsatish talab qilinsa, o'rganilayotgan muammo to'g'risida salbiy yoki e'tirozli fikr bildirishdan cho'chib, respondent o'z fikrini ochiq-oydin yozmasligi mumkin. Siyosiy, ma'muriy tazyiqlardan yuragini oldirib qo'yan o'zbek fuqarosi buni juda yaxshi tushunadi. Boshqa jihatdan esa, ko'pchilik kishilarga xos, yuqori rahbariyatga yaxshi ko'rinish, boshlig'iga shaxsiy sodiqligini bildirib qo'yish maqsadida ham berilgan savollarga noreal, «ota ijobiy» javob berib, kimligini bildirib qo'yish maqsadida ismi-sharifini ataylab ko'rsatib qo'yadiganlar ham uchrab turadi. Shuningdek, anketa savollariga, tadqiqot ishiga qarshi shaxslar ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun, respondentlar bilan juda ehtiyot bo'lib, chiroyli, do'stona muomalada bo'lish zarur. Anketa o'tkazish davomida tadqiqotchidan yumshoqlik, shirinsuxanlik talab qilinadi.

Anketa o'zining tarkibiy tuzilishiga ega. Anketa so'rovi: 1/ eng avvalo, anketa savollari tizimini ishlab chiqish jarayonini o'z ichiga oladi; 2/ anketa so'rovini kim tomonidan, qanday maqsadda o'tkazilishini va respondentlarga anketa to'ldirib berishni o'z ichiga oladi; 3/ anketa pasporti ham tarkibda muhim o'rin tutib, unda respondentning ijtimoiy-demografik xarakteristikasi tushuntiriladi. Bunda respondentning yoshi, jinsi, millati, ijtimoiy kelib chiqishi va holati, ma'lumot

darajasi, kasbi, partiyaviyligi, oilaviy ahvoli kabi ma'lumotlar aniqlanadi. Ko'pincha pasport anketaning oxirida beriladi. Ko'pchilik sotsiologlarning fikricha, agar pasport anketaning boshida berilsa, respondentni cho'chitib empirik ma'lumotning aniq va to'g'ri, hayotiylik darajasini pasaytirib yuboradi.

Asosiy savollar anketa tarkibida markaziy o'rin egallaydi. Chunki, asosiy savollarga beriladigan javoblar sotsiologik tadqiqotlarning asosiy ma'lumotlari hisoblanadi.

Anketa oxirida yakunlovchi savollar kiritiladi. O'z mohiyatiga ko'ra, yakunlovchi savollar asosiy savollarning mantiqiy davomi bo'lib, unda o'rganilayotgan muammo yuzasidan respondentning individual, qo'shimcha fikr va mulohazalari olinadi. Anketa so'nggida tadqiqot uchun ko'rsatilgan beminnat yordam evaziga samimiy minnatdorchilik bildirishni unutmaslik kerak.

Anketa savollarining soni ko'payib ketmasligi kerak. Qiziqarli, respondentni zeriktirmaydigan va ixcham tuzilmog'i lozim. O'z shakliga ko'ra, anketa savollari ochiq, yopiq, yarim ochiq va yarim yopiq bo'ladi.

Ochiq savollarda respondentga javoblar varianti taqdim etilmaydi, ya'ni u qanday hohlasa shunday, erkin javob berishi mumkin bo'ladi.

Yopiq savollarda esa respondent faqat «ha» yoki «yo'q» tarzida javob berishi, yoki oldindan yozib qo'yilgan javoblardan birini tanlashi lozim.

Yarim ochiq yoki yarim yopiq savollarda esa respondentga taqdim etilgan javoblar variantlaridan tashqari «boshqa» deb nomlangan variant ham beriladi, ya'ni respondent berilgan javoblardan birini tanlashi yoki o'zining javobini taqdim etishi lozim bo'ladi.

Anketa o'tkazishda uning vaqti 10-45 daqiqa davom etishi kerak. Qisqa muddatda o'tkaziladigan tezkor anketa o'tkazish muddati 10-45 daqiqadan oshmasligi lozim. Anketa o'tkazishning bunday usulida respondentning uzoq mulohaza qilishiga, ikkilanishiga yo'l qo'yilmaydi. Savollar ham sodda, qisqa va aniq qilib tuziladi. Natijada qisqa muddatda empirik sotsiologik ma'lumotlar to'plashga erishiladi.

Intervyu hozirgi kunda eng ko'p va keng tarqalgan so'rov usulidir. Intervyudan bu qadar keng ko'lamda foydalanishda radio, televidenie, kundalik matbuotning roli katta bo'lmoqda. Shuning uchun ham intervyu sotsiologiya, psixologiya, jurnalistika, statistika, etnografiya, pedagogika, boshqaruv singari fanlarda keng va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Ayniqsa, hozirda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida kundalik hayotimizda ro'y berayotgan jiddiy o'zgarishlar to'g'risidagi ommaning ijtimoiy fikrini aniqlashda intervyu olishning salmog'i ortmoqda. So'rov usulining bu turida intervyu ikki asosiy funkstiyani bajaradi: 1/ muayyan voqea-hodisa, jarayon to'g'risida ma'lumot yig'iladi; 2/ shu bilan birga, ob'ektga – respondentga intervyu orqali ta'sir ko'rsatiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda intervyu o'ziga xos xususiyatlarga ega. Eng avvalo, shuni ko'rsatib o'tish lozimki, intervyu orqali empirik ma'lumotlarni yig'ish

shaxsning individual jihatlarini bilan ro'baro kelinadi. Shu orqali respondent to'g'risida, uning tadqiq etilayotgan muammo to'g'risidagi qarashlari, fikri to'g'risida axborot olinadi. Beriladigan savollarga nisbatan respondentning ruhiy reaksiyasi kuzatiladi va hisobga olinadi.

Intervyu olishda tadqiqotchi respondent bilan yaqin, samimiy, yuksak ahloqiy muomalada bo'lishi shart. Beriladigan savollar avvaldan puxta o'ylangan, respondentning shaxsiyatiga tegmaydigan, mazmunli bo'lishi talab qilinadi. Bunday shartlar respondentning intervyu so'roviga jiddiy munosabatda bo'lib, beriladigan savollarga to'la va har tomonlama javob berishini ta'minlaydi.

Intervyu olishda o'ziga xos qiyinchiliklar ham mavjud. Bunday qiyinchiliklarga eng avvalo intervyu ko'p vaqt va moddiy sarf-harajatlar talab qilishini kiritish lozim. Har bir respondent bilan ruhiy munosabat o'rnatish zarur. Bunga esa doimo ham erishilavermaydi. O'ta injiq, alamzada, hatto tajovuzkor respondentlar ham uchrab turadi. Sotsiologik tadqiqot o'tkazish madaniyati esa intervyu yakunining doimo muvaffaqiyatli va ijobiy tugallanishini talab qiladi.

Intervyu tayyorlash, uni o'tkazish va olingan natijalarni umumlashtirishning o'zi qiyin jarayon hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan muammoning mohiyatini, kelib chiqish sabablarini, umumiy tendensiyalarini va uni bartaraf qilish yo'llarini o'rganish uchun yuzlab respondentlar bilan muloqotda bo'lishga to'g'ri keladi. 1-2 intervyu olish bilan tadqiqot ob'ekti bo'yicha ob'ektiv asosga ega bo'lgan ilmiy tasavvur hosil qilib bo'lmaydi.

Sotsiologik adabiyotlarga intervyu bir necha turlarga ajratib ko'rsatilgan, quyidagilar shular jumlasidandir:

Erkin intervyu /standartlashtirilmagan/ – bunda respondent bilan uzoq, erkin tarzda suhbat o'tkaziladi. Respondentga avvaldan belgilangan savollarga qo'shimcha ravishda savollar bilan ham murojaat qilish mumkin. Respondentga erkin va keng tarzda fikr yuritish imkoniyati yaratiladi. Intervyuning bunday turga hozirda televidenie orqali muntazam ravishda olib borilayotgan «YUzma-yuz», «Tema» kabi ko'rsatuvlarni misol qilib olishimiz mumkin.

Standartlashtirilgan intervyu – oldindan rejalashtirilgan, muayyan mavzuning qat'iy belgilangan doirasidan chiqmaydigan turga aytiladi. Intervyuning bu turi asosan davlat rahbarlari, siyosiy arboblari, siyosatchilar, mas'ul va ma'muriy shaxslar – respondentlar bilan o'tkaziladi.

Yarim standartlashtirilgan intervyu esa qat'iy belgilangan savollardan tashqari respondentning yoki tadqiqot ob'ektining norasmiy jihatlarini oydinlashtirish, ular to'g'risida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lish maqsadida o'tkaziladi. Ayrim kasb egalari bilan, masalan, artistlar, mashhur shaxslar, tarbiyasi og'ir bolalar, jinoyatchi va boshqa shu kabi respondentlar bilan o'tkaziladigan intervyuni misol qilib olish mumkin.

O'tkazish jarayoniga ko'ra intervyu: a/ ko'cha-ko'yda, b/ guruhli, v/ klinik, g/ yo'naltirilgan kabi shakllarga ega. Muloqot vositasi sifatida esa chik, yuzma-yuz, telefon orqali yoki yopiq tarzda bo'lishi mumkin.

Ayrim respondentlar bilan yopiq tarzda intervyu o'tkazishga ham to'g'ri keladi. Bunda respondentning shaxsi sir tutiladi. Chunki, respondent ochiq intervyu berishdan manfaatdor bo'lmaydi. Ko'pincha, yopiq intervyu davlat ichki ishlar maxsus bo'limlari vakillar bilan, ayrim jinoyatchilar bilan, or-nomusni yo'qotib pushaymon bo'lgan shaxslar – respondentlar bilan olib boriladi.

Intervyuning har qanday tipidan /kamida 50 dan ortiq respondentdan/ olingan empirik ma'lumotlar mazmun jihatdan guruhlariga ajratilib, umumlashtiriladi. Bu esa sotsiologik tadqiqot jarayonining keyingi bosqichida amalga oshiriladi.

Sotsiometriya – kichik guruhlarni tarkibiy tahlil qilish usuli.

Sotsiometriya /lotincha so'z: societas – jamiyat va yunoncha so'z: metron – o'lchamoq ma'nosini anglatib/ kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganadi. Unda kishilarning o'zaro bir-birlarini xush ko'rish, yoqtirish va xush ko'rmaslik mayillari o'rganiladi.

Sotsiometriya tushunchasi XIX asr oxirida matematik usulning ijtimoiy hayotga tadbiq qilishi oqibatida paydo bo'ldi. Sotsiometriyaga XX asrda frantsuz sotsiologi, faylasufi G.D.Gurvich /1894-1965/ va amerika ruhshunos olimi YA.L.Moreno /1892-1974/ lar tomonidan asos solingan. Ular kichik ijtimoiy guruhlarda shaxslararo munosabatlarni tadqiq qilish – mikrosostilogiyada sotsiometriyani qo'lladilar. Ayniqsa, ijtimoiy psixologiyada sotsiometriyaning ahamiyati katta bo'ldi.

Ya.L.Morenoning sotsiometriya tizimi 5 asosga ega edi:

1. Kishilarning o'zaro xush ko'rishlik va yoqtirmaslik asosidagi ehtiros quvvati. Ularni aniqlash sotsiometriyaning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2. Jamiyat «sostial atomi» alohida individ emas, balki individlarning birgalikdagi munosabatidan iborat. Bu aloqadorlik jarayoni ikki darajaga ega: o'z-o'zidan yuzaga keluvchi va real – bunda ehtirosli sherik shu bosqichda o'rganiladi.

3. Sostial gravitastiya qonuni.

4. Sotsiologik qonun.

5. Sotsiodinamik qonun.

Kishilar hayot faoliyat davomida o'zaro bir-birlariga nisbatan ijobiy /simpatiya/ yoki salbiy /antipatiya/ tuyg'ularga ega bo'ladilar. Har qanday kichik ijtimoiy guruh, tashkilot va muassasaning faoliyati uning a'zolari o'rtasidagi munosabatlar xarakteriga ko'p jihatdan bog'liqdir. Ularda ijtimoiy muhit qanchalik musaffo bo'lsa; ijtimoiy tizim faoliyati ham shunchalik muvaffaqiyatli boradi. Aks holda, kichik guruhlar va ulardagi kishilar hayoti shunchalik qiyin va og'ir kechadi. Sotsiometriya esa shu qiyinchiliklarni, nomuvofiqlilarni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Jamiyat rivojlanishi, undagi kishilar hayoti ham butun olam tortishish qonuniga bo'ysunadi. Xuddi tabiatdagidek, jamiyatda ham kishilar o'zaro gravitastion /o'zaro tortishishga asoslangan/ munosabatda bo'ladi. Tabiatdagidan farq qilib, jamiyat hayotida bu qonuniyat o'ziga xos xususiyatlarga egadir. Aql kuchi, bioquvvat, xarakter, temperament, mayl, ta'b, odat, tarbiya, did, e'tiqod va shu kabi ijtimoiy-ruhiy omillar kishilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning murakkab gravitastion asosini tashkil qiladi. Ular asosida kishilar o'zaro yaqin «tortiladilar», do'stona,

samimiy bo'ladilar yoki bir-biridan uzoqlashadilar. adovatda bo'ladilar. Sotsiometriya shu jarayonlarni miqdoriy jihatdan o'rganadi. O'z navbatida miqdoriy o'lchovlar sifatini ko'rsatkichlarni farqlashga xizmat qiladi.

Ming afsuski, sobiq Sovet Ittifoqi davrida sotsiometriyaga sinfiy jihatdan yondashilib, burjua ta'limoti sifatida rad etildi. Sotsiologiya fani bo'yicha nashr qilingan ilmiy adabiyotlarda, darsliklarda sotsiometriya o'rganilmadi.

Hozirda, bozor munosabatlariga o'tish jarayonida jamiyat ijtimoiy hayotining sotsiodinamik tarzda rivojlanishini sotsiometriyada o'rganish ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, tarbiyaviy muammolarni echishga xizmat qiladi. Ijtimoiy-ruhiy muhitni mo'tadillashtiradi. Shuning uchun ham, kishilar o'rtasidagi ijtimoiy-ruhiy munosabatlarni va tuyg'ularni o'rganish faqatgina nazariy emas, balki amaliy ahamiyat ham kasb etadi. Empirik sotsiometrik tadqiqotlar jamiyat hayotini, undagi kishilar o'rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishda muhim ilmiy qimmatga ega.

v) Birlamchi ma'lumotlar olishda hujjatlarni o'rganish.

Hujjatlarni o'rganish ham sotsiologik ma'lumotlar yig'ishda o'ziga xos o'ringa ega.

Hujjatlar ma'lumotlarni to'plash usuliga ko'ra /qo'lyozma, bosma, kinoplyonka, magnit lenta/, avtorlik tipiga ko'ra /shaxsiy va ijtimoiy/, ularni yig'ish usuliga ko'ra /jamiyatda amal qiluvchi, tashkilot, kollektiv, korxona faoliyati jarayoniga tashkiliy qism bo'lib kiruvchi hujjatlar/, yig'ilayotgan empirik materialga yaqinlik darajasiga ko'ra /mavjud holatni bevosita aks ettiruvchi birlamchi va mavjud hujjatlarga asoslanib ko'rilgan ikkilamchi hujjatlar/ klassifikatsiyalanadi.

Hujjatlarni o'rganish metodlarini ikki katta guruhga ajratish mumkin: an'anaviy va formallashtirilgan. O'z navbatida, an'anaviy metodlar ham ikki guruhga bo'linadi: umumiy /tushunish, intuistiya, anglab etish/ va maxsus /manbalarga asoslanish, psixologik, yuridik metodlar/. Formallashtirilgan metodlarga kontent-analizni kiritish mumkin. Kontent-analiz /tarkibiy analiz/ metodi hujjatda ma'lum bir asosiy tushunchalarning qanchalik ko'p ishlatilishiga asoslanib xulosa chiqarishdan tashkil topadi. Misol tariqasida ikkinchi jahon urushi yillarida amerika sotsiologi Lassuelning Leyts bilan birga olib borgan kontent-analizini olish mumkin. Ular fashistik orientatsiyaga asoslangan deb taxmin qilingan. Amerika gazetalaridan birini tadqiq qildilar. Shu gazetaning 1943 yil 3 dan 31 dekabrgacha bo'lgan davrdagi sonlarini kontent-analiz metodi bilan o'rgandilar va ularda Amerikaga qarshi va Germaniyani yoqlovchi fikrlar qo'llanish hollarini hisoblab, sanab chiqdilar. Natijada, tadqiqotchilar olgan xulosalar ijobiy ekanligi aniqlanib, bu gazetada AQSH Oliy Sudi tomonidan ta'qiqlangan.

g) Sotsiologik tadqiqotda eksperiment usuli.

Sotsiologik tadqiqotlarda o'rganilayotgan ob'ekt to'g'risida dastlabki empirik ma'lumotlarni to'plashda tajriba o'tkazish alohida o'rin tutadi. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida uzoq vaqt sostial fanlarda tajriba o'tkazish /eksperiment/ usulidan foydalanish munozarali masala bo'lib keldi. Shu bilan birga, jamiyat hayoti 73 yil davomida kishilar boshiga ko'z ko'rib, quloq eshitmagan qiyinchiliklar solgan sostial

eksperimentlar ketma-ketligidan iborat bo'ladi. Ularning deyarli barchasi muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi.

Ijtimoiy hayotning murakkabligi, ong va ruhiy jarayonlarni o'lchash qiyinchiligi, katta moliyaviy harajatlar, kishilar guruhlarini unga jalb etish qiyinligi va shu kabi sabablarga ko'ra sostiial eksperiment o'tkazish va undan foydalanish darajasi pastdir.

Sostiial eksperiment usulining asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: ob'ektiv reallik tizimiga ta'sir ko'rsatish; nisbatan ajratib olingan eksperimental omilni tadqiq qilinayotgan ob'ektga nisbatan rejali asosda qo'llash; uning oqibatlarini rejali nazorat qilib borish; o'zgarish samaradorligini, ijobiy va salbiy jihatlarni o'lchash.

Sotsiologik va sostiial-psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, eksperiment usulidan foydalanish ikki asosiy omilga bog'liq bo'ladi: tadqiqot ob'ektiining o'ziga xosligiga va tadqiqot qilinayotgan ijtimoiy guruh javob reaksiyasining xarakteriga. Bu usul har qanday sostiial ob'ektga ham qo'llanilavermaydi. Bu usuldan foydalanishda eng avvalo, tadqiq etilayotgan ob'ektning eksperiment o'tkazish mumkin deb topilsa, uni o'tkazish chegarasi aniq belgilanmog'i lozim. Eksperiment sostiial ob'ekt /tizim/ funktsional munosabatlarini buzmasligi, izdan chiqarmasligi kerak. Sobiq Sovet Ittifoqi davrida olib borilgan global sostiial eksperimentlar ijtimoiy tizim rivojlanish qonuniyatlarini qo'pol ravishda buzilganligi, sun'iy, hayotiy bo'lmagan, hayoliy tarzda olib borilganligi oqibatida ham muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlandi. YAqin o'tmishdagi M.Gorbachevning jamiyat hayotini «qayta qurish» kabi aniq ichki qurilishga ega bo'lmagan hayoliy sostiial eksperimental urinishni fikrimizga misol sifatida keltirishimiz mumkin.

Sostiial eksperimentlar o'z vazifasi mazmuni, yakuniy natijasi bilan o'zaro farq qilsada, barchasiga xos ichki tuzilishga ega. Uning ichki unsurlariga eksperiment o'tkazuvchi /tadqiqotchi, olimlar guruhi, ilmiy laboratoriya/, yaratiladigan shart-sharoit tizimi – eksperimental omil, eksperimental holat va eksperiment natijalari kiradi.

Sotsiologiyada eksperiment asosan 3 tipida olib boriladi:

1. Ekspost-fakto eksperiment. Bunda eksperiment o'tmishdan hozirgacha bo'gan ijtimoiy tadqiqot ob'ekti qilib olinganda o'tkaziladi.
2. Taqqoslash tamoyiliga asoslangan eksperiment. Bu tipda hozirgi davr ijtimoiy jarayonlari tadqiqot ob'ekti qilib olingan bo'ladi.
3. Proektil eksperiment. U hozirdan kelajakka yo'naltirilgan bo'ladi.

Bulardan tashqari, sostiial eksperimentlar: tadqiqot xususiyatiga qarab /fan sohasidagi, ijtimoiy jarayonlarini boshqarishdagi eksperimentlar/; sostiial eksperimentning tarkibining xarakteriga ko'ra; dala va laboratoriya sharoitidagi; mantiqiy tarkibiga ko'ra /parallel va davomiy tarzda/ tiplarga bo'linadi.

Sostiial eksperiment o'tkazish muayyan bosqichlardan iboratdir:

Birinchi bosqich – nazariy bosqich bo'lib, unda o'tkaziladigan eksperiment tipi belgilanadi va nazariy jihatdan asoslanadi. Mavjud imkoniyatlar eksperiment omillar va tadqiqot ob'ektiining o'ziga xos jihatlari hisobga olinadi.

Ikkinchi bosqich – eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar va metodikasi ishlab chiqiladi.

Uchinchi bosqich – eksperiment dasturida ko'rsatilgan asosiy vazifalar aniq vositalar orqali ob'ektga tadbiq qilinadi.

To'rtinchi bosqich – so'nggi bosqich bo'lib, unda eksperimentdan olingan natijalar ilmiy tahlil qilinadi va baholanadi.

Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat hayotining umumsotsiologik muammolari ustida olib boriladigan sotsial eksperimentlar kutilgan natijalarni bermaydi. Bunda faqat ijtimoiy munosabatlarning funktsional va rivojlanish qonuniyatlariga putur etkaziladi, xolos. Kishilar boshiga og'ir kulfatlar solib, bartaraf qilinishi qiyin oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Jamiyat hayotining maxsus sohalari doirasida, mirkosotsiologik ob'ektlar ustida sotsial eksperimentlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki, nisbatan kichik doirada, sotsial ob'ektda o'tkazilgan eksperiment natijalari aniq muddat ichida o'z natijalarini ko'rsatishi mumkin va uning oqibatlari /agar salbiy jihatlarga ega bo'lsa/ ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga yoyilib ketmaydi. Bu natijalar eksperiment o'tkazilgan tadqiqot ob'ektigagina tegishli bo'ladi. O'tkazilgan eksperimentning ijobiy natijalarini esa hayotning boshqa sohalariga yoyish, tadbiq qilish mumkin bo'ladi.

10.3. Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Empirik sotsiologik tadqiqotning yakuniy bosqichida sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, izohlash, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabi vazifalar bajariladi.

Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash sotsiologik tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va kodlashtirish. Bunda asosiy vazifa empirik ma'lumotlar, hujjatlar bir xil shaklga keltiriladi. Rasmiy tarzda ishlab chiqiladi va belgilangan shartlar asosida tartibga keltiriladi.

2. Olingan ma'lumotlarni tadqiqot vazifasiga mos holga keltirish, ya'ni olingan empirik ma'lumotlardan tadqiqot maqsadiga qanchalik erishilganligi va oldinga qo'yilgan vazifa qay darajada hal qilinganligi aniqlanadi.

3. Statistik tahlil. Sotsiologik ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonida statistik tahlil muhim ahamiyatga ega. Statistik tahlil orqali ba'zi ijtimoiy statistik qonuniyatlar va funktsional munosabatlar oydinlashadi. Bu esa, o'z navbatida, tadqiq etilayotgan muammo bo'yicha olingan bilimlarni umumlashtirish va ulardan ilmiy xulosalar chiqarishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Empirik tadqiqot usullari yordamida olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda tartiblashtirish, shkallalashtirish, munosabatdorlik kabi usullardan ham keng foydalanish mumkin. Tartiblashtirish – bu tadqiq qilinayotgan ob'ektlarning o'zaro nisbiy ahamiyatini tartibli asosda aniqlashni bildiradi. Darajalash – o'rganilayotgan ob'ektni boshqa ob'ektlarga nisbatan xususiy jihatlari qarang sifat

va miqdoriy darajasini aniqlash demakdir. Darajalash ekspert baholashning boshqa usullari bilan yanada to'ldirilishi mumkin.

Empirik ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonida asosiy e'tibor tadqiqot ob'ektining faqat ijobiy tomonlarigagina emas, ko'proq echimini kutayotgan muammolarga qaratilmog'i lozim. Bu bosqichda tadqiqot farazi olingan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida tekshiriladi. Ma'lumki, ishchi faraz – muayyan ijtimoiy ob'ekt to'g'risidagi taxminiy faraz, xolos. Sotsiologik tadqiqot natijalarining tahlili esa, shu ishchi farazning to'g'ri yoki noto'g'riligini tasdiqlaydi. Ishchi farazning qanchalik haqqoniyligini tekshirishning samarali vositasi – ijtimoiy amaliyot, kishilarning amaliy, xayotiy faoliyati hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqot empirik ma'lumotlarni nazariy jihatdan umumlashtirish, muayyan xulosalar ishlab chiqish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan yakunlanadi. Sotsiologik tadqiqot natijalarining ilmiy tahlili va ularni umumlashtirish ilmiy hisobot tarzida tuziladi. Ilmiy hisobot guruhlashtirilgan va tizimlashtirilgan holda tuzilib, kelgusida o'tkaziladigan tadqiqotlar uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Ilmiy hisobot tarkibi asosan ikki qismdan iborat bo'lib, nazariy va amaliy bo'limlarni tashkil qiladi.

Sotsiologik tadqiqotning ilmiy hisobotida quyidagi asosiy talablarga e'tibor berilmog'i lozim.

1. Ilmiy hisobotda tadqiqot predmetiga muvofiq muammoning barcha o'zaro bog'liq jihatlarini chuqur aks etishi zarur. Bunda, sotsiologik muammoning asosiy mohiyatli jihati aniq ko'rsatilmog'i kerak. Bajarilgan ishlar esa mantiqiy tartib asosida yozilib chiqiladi.

2. Ilmiy hisobotning har bir bobi ikki qismdan iborat qilib tuzilmog'i maqsadga muvofiq. Birinchi qism muammo va tadqiqot natijalarini o'z ichiga olmog'i, ikkinchi qism esa – ilmiy xulosalarni, amaliy taklif va tavsiyalarni tashkil etmog'i kerak.

3. Ilmiy hisobotda anketa savollari umumlashtirilgan holda ixcham qilib ifodalanadi. Hisobot aniq, hayotiy, hujjatli va statistik ma'lumotlar asosida tasdiqlangan bo'lishi talab etiladi.

4. Ilmiy hisobot ixcham va to'g'ri yozilishi zarur. Ko'pi bilan 30-40 betdan oshmasligi zarur, jadvallar, diagrammalar ilova tarzida ham berilishi mumkin.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanish.

Hozirgi davrda matbuot, ommaviy axborot vositalari shunday qudratli kuchga aylanmoqdaki, o'z kelajagini o'ylaydigan har qaysi xalq va millat buni sezmasligi, his etmasligi mumkin emas.

Shu sababli ham ommaviy axborot vositalarini zamon talablari asosida rivojlantirish, matbuot va so'z erkinligi printsiplarini amalda ta'minlashga erishish, matbuotda tanqid ruhini kuchaytirish biz uchun eng muhim maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda.

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, Internetning beqiyos imkoniyatlaridan

keng foydalanishga tayyor bo'lish matbuot, axborot va media tarmoqlari, jumladan, televidenie va radio sohasida xizmat qilishga o'zini bag'ishlagan, etuk mutaxassis bo'lishga ahd qilgan va bu sohada o'z kelajagini ko'rmoqchi bo'lgan ommaviy axborot vositalari xodimlarning faoliyat mezoniga aylanishi zarurligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bugungi kunda har qaysi matbuot xodimi kasb mahoratini egallash bilan birga, o'z hayotiy printsiplariga ham ega bo'lishi, haqiqat uchun kurashishga intilishi, shu yo'lda qat'iyat va shijoat ko'rsatishi, lo'nda qilib aytganda, vijdon amri bilan yashashini zamonning o'zi talab qilmoqda.

Sotsiologik tadqiqot natijalarini ilmiy va yuksak saviyada tahlil qilish, ulardan ijtimoiy boshqaruv amaliyotida unumli foydalanish imkonini beradi. Empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish jarayonidayoq o'rganilayotgan ob'ektning muhim jihatlari ko'rina boshlaydi. Bu jihatlarni nazarda tutgan holda ilmiy takliflar, tavsiyalar va tadbirlar ishlab chiqish, sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliyotda foydalanish bosqichi – ikkiyoqlama jarayon bo'lib, unda olimlar, ilmiy xodimlar ham amaliyotchilar ham faol ishtirok etadi.

Ba'zi sotsiologlar fanning asosiy vazifasi aniq ma'lumotlar yig'ib, zarur xulosalar va o'rganilayotgan ijtimoiy muammo xususida zarur takliflar va tadbirlarni ishlab chiqishdan iborat, ularni hayotga, amaliyotga tadbqiq qilish esa jamoat tashkilotlari, ma'muriyatning ishi deb hisoblaydilar. Bunday qarash ilmiy ma'lumotlar va ularni boshqaruvdagi echimi o'rtasida uzilishga olib keladi. Bizningcha, har ikki bosqich yagona ilmiy-amaliy dastur asosida bo'lmog'i maqsadga muvofiq.

Sotsiologik tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbqiq etishning turli shakllari va usullari mavjud:

1. Uning muhim shakllaridan biri, olib borilgan tadqiqot natijalarini mavjud rahbariyat pog'onasi /ma'muriyat, kasaba uyushmasi, bo'linma va boshqalar/ va tadqiqot guruhlari /masalan, ishchi brigadasi, talabalar guruhi kabilar/ oldida himoya qilish.

2. Yana bir shakli, tadqiqot natijalarini kitob shaklida, uslubiy qo'llanma, maqolalar to'plamida va matbuotda nashr etish.

3. Sotsiologik tadqiqot natijalari bo'yicha olimlarning radio va televideniada chiqishlari ham o'ziga xos amaliy ahamiyat kasb etadi.

4. Ilmiy-amaliy anjumanlar, seminarlar, simpoziumlar tashkil etish va o'tkazish kabi shakllari ham muhim ahamiyatga ega.

Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanishda sostial-

psixologik markazlar faoliyatining ahamiyati katta. Afsuski, bunday markazlar bizning respublikamizda juda kam. Har bir viloyat, shahar va tuman hokimliklari qoshida shunday markazlar tashkil qilinsa, jamiyatimiz infrastrukturasiidagi mavjud muammolarning hal qilib borilishida jiddiy o'zgarishlar yuz berishi aniq.

Hozirda amaliy sotsiologiyaning muvaffaqiyatli rivojlanishi aniq amaliy vazifalarni, mavjud ijtimoiy muammolarni echish bilan bog'liq. Ammo, shuni ko'rsatib o'tish joizki, hozirgacha bizda bunga etarlicha e'tibor berilmayapti. Sotsiologiya fanining jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy-amaliy roli juda past darajada. AQSH va Ovrupo mamlakatlarida keng rivojlangan «ijtimoiy muhandislik» konstepstiyasini birinchi bor ishlab chiqqan ingliz faylasufi va sotsiologi Karl Popler fikricha, «ijtimoiy muhandislik» inson faoliyati va jamiyat hayotini oqilona asosda ta'mirlash demakdir. Ijtimoiy hayot muammolari «muhandislik» faoliyatining natijasidagina to'g'ri hal qilinishi mumkin. «Ijtimoiy muhandislik»ning asosiy vazifasi ham shundan iboratdir.

Bozor iqtisodiyotiga avvalroq o'tgan industrial rivojlangan davlatlarda inson omiliga katta e'tibor beriladi. Davlat, tadbirkorlar va aholining keng qatlami insonga ajratiladigan investisiya kapitalining eng ko'p foyda va samara berish yo'lidir. Buni AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Yaponiya, Tayvanda o'tkazilgan ko'pgina sotsiologik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Bu tadqiqotlarda avvalo insonga ajratiladigan investitsiyalarning iqtisodiy samarasiga ko'proq e'tibor beriladi, chunki inson omili nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy, madaniy, umumbashariy ahamiyatga egadir.

Zamon talablarida inson biosferaviy jarayonlarda qatnashib, koinot qa'riga tobora chuqurroq kirib borib, koinot masshtabidagi omilga aylanadi. Inson kelajakka, nafaqat o'ziga, balki butun Erdagi hayot uchun javobgardir. Shuning uchun, inson tabiatini, ma'naviyatini, hayotiy qiymatini o'zgarishida sayyoramizning keyingi evolyustion hayotiga ta'siri bor.

Inson barcha iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, biosferik jarayonlarning boshida turadi. U moddiy va intellektual xizmatlarning bajaruvchisi va iste'molchisidir.

Inson ta'siri sifati va miqdorining o'sishi, uning talabini, hayot darajasini, ma'naviyati, ijtimoiy va huquqiy o'mi, dinamika va ijtimoiy jarayonlarni fundamental tadqiq etish inson fenomeniga diqqatning adekvat o'sishini talab qiladi.

Inson ma'naviyatining shakllanishi va rivojlanishi bazisi – bu bilish, shuning uchun jamiyat intellektual potentsialini takomillashtiruvchi bilim maskanlarini rivojlantirish zamonning dolzarb masalasi hisoblanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotda insonning bilimi va qobiliyati raqobatbardoshlikning, iqtisodiy o'sishning, mehnat unumdorligining va samarali boshqarishning asosiy omilidir. Janubi-SHarkiy Osiyo davlatlari yuqori texnologiya va inson kapitali yordamida qisqa muddat ichida iqtisodiy o'sishga erishdilar.

SHuning uchun yosh mustaqil O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarning tez ijro etilishi ta'lim tizimi rivojlanishiga va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida diqqat qilinishini talab qiladi. Bu talab yuksak intellektual potentsialga ega inson o'zgaruvchan bozor iqtisodiyotiga tezkroq moslasha olishi uchun yanada dolzarbdir.

Mutaxassisni tayyorlash va ta'lim berishning samarasini oshirish iqtisodiy, texnologik, ijtimoiy, huquqiy omillar majmuasini talab qiladi.

Ko'p yillik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, bosh omillardan biri ijtimoiy omildir. Bu omillar sotsiologiya fanining maxsus qismi tomonidan o'rganilib, «ta'lim sotsiologiyasi» deb nomlanadi. Hozirgi vaqtda ta'lim sotsiologiyasi O'zbekistonda bu sohadagi ijtimoiy masalalarning uslubiy asosining shakllanishi bosqichidir.

Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvining mukammallashuvi hozirgi sharoitlarda ta'lim tizimi axborotlarini qayta ishlab, tahlil qilib, yig'ish tizimini, ya'ni «sotsiologik monitoring» ni yaratishni talab qiladi.

Bu tizim professor-muallimlik tarkibini, talaba yoshlar, hisoblash matematikasini, zamonaviy hisoblash texnikasini va ijtimoiy masalalarni hal qila olish imkoniyatini hisobga olgan holda yaratiladi.

Monitoring ~ bu sotsiologik tadqiqotlarni o'tkazish, sotsiologik jarayonlar haqidagi axborotlardan doimiy foydalanishni ta'minlovchi tizimdir.

Sotsiologik amaliyotga tushuncha ekologiyadan kirib kelgan. Ekologik tadqiqotlarda u atrof-muhitni uzluksiz nazorat qilishni bildiradi.

Sotsiologik monitoring boshqaruv jarayonining sotsiologik ta'minotini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar uyushtirilganda odatda ijtimoiy muhit holatini aks ettiruvchi zarurroq ko'rsatkichlar aniqlanadi. So'ngra takroriy tadqiqotlar usuli bilan me'yoriy va asosiy ko'rsatkichlardan foydalanilgan holda uzluksiz ravishda dinamik axborotni yig'ib tahlil qilishni ta'minlaydigan sotsiologik o'lchovlar olib boriladi.

Tadqiq qilinayotgan tashkilotning bunga xos ko'rinishi nafaqat jamiyat va kuzatilayotgan ob'ekt hayotining turli sohalari haqida haqqoniy axborot olishni, ta'minlaydi, balki jamiyat jarayonlari munosabatlari va qonuniyatini ochib ham beradi.

Voqealarning rivojlanish munosabati doimiy nazoratda va ob'ektning zarur parametrlari o'zgartirilganda, katta axborot jadvali to'planganda katta monitoring turiga ko'ra ilmiy tadqiqotlarga talab yuzaga keladi. Bunday monitoring tizimlarga avval meteorologiya va seysmologiyada duch kelindi.

Hozirgi vaqtda bunday tizimlar statistika, bank ishi, birja, kosmonavtika, mudofaa, ishlab chiqarishda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Sotsiologiyaga monitoring tadqiqotlari usulbiyoti va amaliyoti ekologiyadan o'tdi. Dinamikaning monitoring tadqiqotlarida va ekologik holatlarda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar ustida kuzatishlar olib borildi. Bunda tizimlarni barcha komponentlari haqida ma'lumotlar jamlamasi yaratildi. Bizning respublikamizda bunday tadqiqotlar Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolar munosabati bilan 90-yillarning boshlarida katta ko'lamda olib borildi. Katta hajmdagi ma'lumotlar jamlamasi yig'ildi.

Sotsiologik Tadqiqotlar Markazi ham 1989-92 yillarda Orolbo'yi ekologik tangligi oqibatlarini o'rganishda qatnashdi.

Monitoring yaratishdagi ishlar qo'llanilmagan bo'lsada, monitoring o'lchovlar yaratish g'oyalari fundamental sotsiologik tadqiqotlar olib borilayotganda paydo bo'ldi.

Sotsiologik tadqiqotlarga monitoring turi bo'yicha jamoat fikrini dinamik o'rganish ham kirdi. Monitoring qo'llovchi bo'lib Gellap Instituti hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida ham asosan monitoring turi qo'llanilmoqda. Rossiyada sotsiologik tadqiqotlarning koordinatsion markazi akademik T.I.Zaslavskaya boshchiligidagi Rossiya Sotsiologiya Markazi sanaladi. 1994 yildan beri Moskvada turli ijtimoiy muammolar bo'yicha natijalar e'lon qiluvchi «Monitoring axborot byulleteni» nashr qilib kelinmoqda.

Ba'zi rivojlangan davlatlarda va MDHda ta'lim sohalarida monitoringni yaratish va qo'llash bo'yicha qiziq natijalar olindi.

Bizning mamlakatimizda ham mustaqil bo'lganimizdan so'ng sotsiologik monitoring yaratish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Xususan, ToshDU sotsiologik markazi va Oliy ta'lim vazirligi tomonidan Oliy ta'lim monitoringining usulbiy asosini yaratish yo'lida ishlar olib borildi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim monitoringi tizimining umumiy masalalari tizim struktura va funktsiyalari bilan mos ravishda aniqlanadi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

1. Oliy O'quv yurtlari – institutlar va universitetlar
2. Malakani oshirish institutlari va fakultetlari.
3. O'rta maxsus o'quv yurtlari.
4. Ilmiy-tadqiqot institutlari.
5. Oliy va o'rta maxsus ta'limning Respublika va mintaqaviy bo'limlari.

Oliy va o'rta maxsus ta'limi quyidagi funktsiyalarni bajaruvchi Monitoring tizimini o'z ichiga oladi:

1. Malakali xodimlar bilan ijtimoiy talabni qondirish.
2. Shaxsni tarbiyalash, insonni mustaqil faoliyatga tayyorlash.
3. Oliy ta'lim alohida sotsial qatlam hosil qilib, jamiyatda malakali mutaxassislarni yuzaga keltiradi.
4. Oliy ta'lim kasbiy bandlikdan farqli ravishda alohida qiymat aks ettiradi. Oliy ta'lim o'ziga mos ravishda o'rin tanlashda, sotsial maqsadlarga etishish shartlarini bajaradi.
5. Oliy ta'lim shaharlarda kadrlar salohiyatini kuchaytirishga yordam beradi.
6. Oliy ta'lim demografik jarayonlarga, ya'ni nikoh, tug'ilish, turg'unlik va boshqalarga o'z ta'sirini ko'rsatadi.
7. Jamiyatning intellektual potentsialini ishlab chiqarishga qo'llash funktsiyasi. Oliy ta'lim tizimi bilim darajasi va o'rganishga, ilmiy faoliyatga intilishni va ta'lim imkoniyatlarining kengayishini rag'batlantirish.
8. Iqtisodiy o'sishni va mehnat unumdorligini rag'batlantirish, tez iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan zamonaviy milliy texnologiyani yaratish.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim monitoringi tizimining umumiy masalalari monitoring funkstiyalarining samaralilik va uslubiy, ilmiy adabiyot bilan ta'minlanish darajasiga qaratish kerak.

1995-96 yillarda sotsiologik Tadqiqotlar Markazi tomonidan professor-o'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy holati tadqiq etildi. Bu tadqiqot o'qitish professor-o'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy holatiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Shuning uchun monitor tadqiqotlarning birinchi bosqichi sifatida professor-o'qituvchilar va talabalarning ijtimoiy holatining dinamikasi nazorati tanlandi. Mahsus tayyorlangan dasturlar asosida mamlakatning yirik oliy o'quv yurtlarida aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi.

Olingan ma'lumotlar EHM da qayta ishlanib, tahlil qilindi va OO'Yu Vazirligi Ilmiy Hay'atiga 1996 yil mayda taqdim qilindi. Ilmiy Hay'at tomonidan ba'zi e'tirozlari bilan ma'qullandi. Ilmiy hisobot O'zR va DFTKiga ham taqdim qilindi.⁸⁰

Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot-kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish har qachongidan ko'ra muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi.

Tayanch iboralar:

Empirik, pilotaj, ilmiy matn, analitik muolaja, annatastiya, sostiial eksperiment, gipoteza, sotsiometrlilik so'rov, panel so'rov.

Sotsiologik kuzatishlarni shartli ravishda ikki turga bo'lish mumkin

⁸⁰Umumiy sostiologiya. Toshkent, 1999 yil. 170-174 betlar

Chetdan kuzatish

Chetdan turib kuzatayotgan tadqiqotchi o'rganayotgan ob'ektga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi va uni tabiiy xolda o'rganadi

Ichkaridan kuzatish


Ichkaridan kuzatishda tadqiqotchi ikki xil usuldan foydalanishi mumkin: chetdan kuzatish, ichkaridan kuzatish

Uchqir kuzatishdan
tadqiqotchi o'zi o'rganayotgan guruh yoki jamoa a'zolariga maqsadini aytadi

Mexnat jamoasiga shogird niqobida kelgan tadqiqotchi esa jarayonlarni va munosabatlarni tabiiy xolda kuzatish imkoniga ega bo'ladi. Bunday kuzatish sotsiologiyada xufiya kuzatish usuli deb nomlanadi

So'rash usuli. So'rov – sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullaridan biri. Bu usul sotsiologik, psixologik, demografik va boshqa tadqiqotlarda qo'llaniladigan birlamchi verbal axborot yig'ish usuli deb ham yuritiladi. Bu usul XVIII asrda ishlab chiqilgan va eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biri. So'rov usuli yordamida boshqa hujjat manbalarida uchraydigan, tadqiqot usuli yordamida olish qiyin bo'lmagan ma'lumot, axborotlarni olish mumkin.

Tadqiqotchining respondent bilan muloqotda bo'lish shakli va sharoitiga qarab so'rov ko'rinishi.



So'rov metodi (usulining) quyidagi turlari mavjud



“Sotsiologiya” fanidan

Test savollari

1. “Sotsiologiya otasi” nomi bilan mashxur, unga asos solgan faylasuf kim?

- A) Gerbert Spenser
- B) Emil Dyurkgeym
- V) Karl Markc
- G) Ogyust Kont

2. Sotsiologiya nechanchi yillardan boshlab fanlar qatoriga kiritilgan?

- A) XVII asr 90-yillardan
- B) XIX asr 50-yillardan
- V) IX asr 40-yillardan
- G) XIX asr 30-yillardan

3. Uch stadiya qonuni asari qaysi sotsiologga tegishli?

- A) Georg Zimmel
- B) Karl Marks
- V) Maks Veber
- G) Ogyust Kont

4. Madaniyat sotsiologiyasi tegishli bo`lgan yo`nalishni toping?

- A) din sotsiologiyasi.
- B) Madaniy qadriyatlar sotsiologiyasi.
- V) iqtisod sotsiologiyasi.
- G) meqnat sotsiologiyasi

5. Kontning sotsiologiyaga asos solishda etakchi o`rin tutgan asari:

- A) Uch stadiya qonuni.
- B) Pozitiv falsafa kursi.
- V) Sotsial fizika
- G) Sotsial statika.

6. Emil Dyurkgeym yaratgan nazariy-metodologik kontseptsiya qanday nomlanadi.

- A) Sotsiolatriya
- B) Etnometodologiya
- V) Pozitivizm
- G) Naturalizm va sotsiologizm.

7. Kontning “Pozitiv falsafa kursi” asari necha tomдан iborat?

- A) 3 tom
- B) 4 tom
- V) 6 tom
- G) 5 tom

8. O.Kont sotsiologiyani qanday qismlarga ajratgan

- A) Sotsiol qarakat
- B) Sotsial statika va sotsial dinamika
- V) Sotsial norma
- G) Sotsial qadriyat

9. Sotsiologiyaning klassik rivojlanish bosqich vakillari kimlar?

- A) E.Dyurkgeym, O.Kont

- B) Maks Veber, Emil Dyurkgeym
- V) G.Zimmel, M. Veber, G.Spenser.
- G) O.Kont, G.Spenser, E.Dyurkgeym.

10. Emil Dyurkgeym "Sotsiologiya metod qoidalari" asarini qachon yozgan?

- A) 1897 yil.
- B) 1893 yil
- V) 1895 yil
- G) 1894 yil

11. Sotsiologiyada "Organik maktabi" asoschisi kim?

- A) Ogyust Kont
- B) Gerbert Spenser
- V) Emil Dyurkgeym
- G) Georg Zimmel

12. Emil Dyurkgeym sotsiologiyasi predmeti nimadan iborat?

- A) Ijtimoiy xatti - qarakat,
- B) Ijtimoiy birdamlik
- V) Sotsial faoliyat
- G) Ijtimoiy faktlardan iborat

13. Tushunuvchi sotsiologiyaga kim asos slogan?

- A) Gerbert Markuze
- B) Tiodor Adomo
- V) Maks Veber
- G) Zigmund Freyd

14. Sotsiologiyaning noklassik tipi vakillari kimlar?

- A) Maks Veber, G Zimmel
- B) Robert Park, Maks Veber
- V) O.Kont, Aristotel
- G) Karl Marks, Fridrix Engels

15. "Sotsiologiya" termini etimologiyasi qanday?

- A) Lotincha-jamiyat, arabcha-tushuncha
- B) Yunoncha-ijtimoiy, lotincha-fan
- V) Yunoncha-shaxs, lotincha-shar
- G) Lotincha-jamiyat, yunoncha-tushuncha

16. Ideal tip goyasini ilgari surgan sotsiolog kim?

- A) Zigmund Freyd
- B) Gerbert Spenser
- V) Maks Veber
- G) Robert Park

17. Nemis sotsiologik jamiyatiga qachon asos solingan?

- A) 1909 yil
- B) 1906 yil
- V) 1929 yil
- G) 1916 yil

18. O'zbekistonda birinchi bo'lib sotsiologiya bo'limi nechanchi yilda ochilgan.

- A) 1988 yil

- B) 1989 yil
- V) 1990 yil
- G) 1991 yil

19. Sotsiologik tadqiqotning asosiy xujjati nima?

- A) Test
- B) Anketa
- V) Blanka
- G) Dastur

20. Empirik sotsiologik tadqiqot usullarini ko'rsating?

- A) Kuzatish, so'rov, xujjatlarni o'rganish, eksperiment
- B) Savol-javob, anketa, eksperiment
- V) So'rov, xujjatlarni o'rganish, sotsiometriya
- G) Kuzatish, eksperiment, so'rov, ekspert so'rovi

21. Strukturaviy funksionalizmning asosiy vakillari kimlar?

- A) Robert Merton va Robert Park
- B) F.Engels
- V) Uilyam Tomas va Talkot Parsons
- G) T.Parsons, R.Merton

22. Kuzatish usuli tiplari qanday?

- A) Nazoratli, nazoratsiz, dona va laboratoriya, sodda va murakkab
- B) Ichkaridan, chetdan, to'la qamrovli, qamramaydigan
- V) Dona va laboratoriya sharoitida, ichkaridan, chetdan
- G) Nazoratli, nazoratsiz, ichkaridan, chetdan, to'la qamrovli, qamramaydigan

23. Sotsimetriya nima?

- A) Jamiyatning ijtimoiy tuzilishini o'rganish
- B) Jamiyatdagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganish
- V) Kichik ijtimoiy guruhlarining ijtimoiy o'sishini o'rganish
- G) Kichik ijtimoiy guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni miqdoriy o'lchovlar asosida o'rganish

24. Sotsimetriya asoschilari kim?

- A) O.Kont, E.Dyurkgeym.
- B) G.D.Gurvich, R.Merton
- V) Ya.L.Moreno, G.D.Gurvich
- G) G.Merton, Ya.L.Moreno

25. Sotsiometriya qaysi sotsiologik tadqiqot usuliga kiradi?

- A) Xujjatlarni o'rganish
- B) Kontent-analiz
- V) So'rov usuli
- G) Kuzatish usuli

26. Eksperiment so'rovi nima?

- A) Test orqali savol-javob o'tkazish
- B) Tor auditoriyada intervyu olish
- V) Mutaxassislar tomonidan olingan sotsiologik ma'lumotlarni qayta tekshirish
- G) Kichik guruhlarda qayta-qayta so'rov olib borish

27. Ta'lim sotsiologiyasi nima?

A. Sotsiologiyada ta'lim tizimini ijtimoiy institut sifatida, uning jamiyat bilan xususan ishlab chiqarish, ijtimoiy tuzilma, siyosat, aqloq va shu kabilar bilan o'zaro ta'siri va qarakati o'rganuvchi tarmoqdir.

B. Bu sotsiologiyani ishlab chiqarishdir

V. Siyosat va aqloq, ijtimoiy tuzilma va qarakatni o'rganuvchi tarmoqdir.

G. Ijtimoiy munosabatlar shakli, ijtimoiy munosabatlarni o'rganish.

28. Ta'lim sotsiologiyasiga ilk bor kim asos slogan?

A. M. Veber va T. Parsons

B. O. Kont va Dyurkgeym.

V. E. Dyurkgeym va M. Veber

G. O. Kont va T. Parsons

29. Kontent-analiz qaysi sotsiologik tadqiqot usuliga kiradi:

A) Kuzatish

B) So'rov

V) Sotsiometriya

G) Xujjatlarni o'rganish

30. Sotsiologik monitoring nima?

A) Bir soqada qayta-qayta sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishni ta'minlovchi tizim.

B) Sotsiologik jarayonlar qaqidagi axborotlaridan doimiy foydalanishni ta'minlovchi kuzatuvchi tizim.

V) Kichik ijtimoiy guruqlarni tekshiruvchi tizim.

G) Oliy va o'rta maxsus ta'limni kuzatuvchi tizim.

31. Emil Dyurkgeym sotsiologiyasida sotsial faktlar turlari:

A) Organik faktlar va morfologik faktlar

B) Morfologik va kollektiv ong faktlar

V) Kollektiv tasavvurlar va kollektiv ong faktlar

G) Biologik va sotsial faktlar

32. Veber sotsiologiyada sotsial xatti-qarakatlar tiplari:

A) Maqsadli ratsional, regulativ, affektiv, diniy

B) Maqsadli ratsional, qadriyatli ratsional, effektiv an'anaviy

V) qadriyatli morfologik, affektiv, ratsional

G) Maqsadli, qadriyatli, an'anaviy ratsional

33. Frantsiyada kim birinchi bo'lib sotsiologik professor unvonini olgan?

A) Ogyust Kont

B) Karl Marks

V) Teodor Adorno

G) Talkott Parsons

34. "Sotsiologik yilnoma" asoschisi kim?

A) Pitrim Sorokin

B) Emil Dyurkgeym

V) Ogyust Kont

G) Karl Marks

35. Ogyust Kontning “Uch stadiya qonuni” degan asaridagi stadiyalar qanday nomlanadi?

- A) Metofizik, pozitiv, kulturologik
- B) Tiologik, monetizm, pozitiv
- V) Tiologik, metofizik, sotsial
- G) Tiologik, metofizik, pozitiv

36. Emil Dyurkgeym sotsiologiyasida birdamlik turlari:

- A) Mexanik va sotsial
- B) Biologik va sotsial
- V) Psixologik va mexanik
- G) Mexanik va organik

37. “Sotsiologiya” termini birinchi bo`lib nechanchi yilda ishlatilgan?

- A) 1829 yil
- B) 1839 yil
- V) 1838 yil
- G) 1836 yil

38. Sotsiologik tadqiqot dasturi necha qismdan iborat?

- A) 7
- B) 4
- V) 5
- G) 3

39. Nechanchi o`quv yilidan boshlab sotsiologiya fani O`zbekistonda barcha o`quv yurtlarida o`qitila boshlagan?

- A) 1991-92
- B) 1993-94
- V) 1995-96
- G) 1992-93

40. Anketa o`tkazish vakti qancha?

- A) 10-20 min
- B) 10-25 min
- V) 10-30 min
- G) 10-45 min

41. Sotsiologiya so`zini ma'nosi.

- A) Jamiyat qaqidagi ta'limot
- B) Borliqni bilish muammolari
- V) Inson tafakkuri qonunlari qaqidagi qarash
- G) qadriyat qaqidagi qarash

42. Sotsiologiya nechanchi asrgacha falsafaning tarkibiy qismi bo`lib kelgan.

- A) XIX asrgacha
- B) XV asming 20-yillarigacha
- V) XVII asrgacha
- G) XIV asming 50-yillarigacha

43. Jamiyat qaqidagi “Pozitiv fan” yaratishga urinishi qaysi asrda vujudga keldi.

- A) XIX asr o`rtalarida

B) XIX asr boshlarida

V) XIX asr oxirida

G) XVIII asrda

44. Sotsiologiya falsafadan qanday yo'l bilan va qaysi asrda ajralib chiqdi.

A) XIX asr boshlarida, o'ziga xos ilmiy metodlarga ega bo'lib

B) XVIII asrda, kishilik jamiyati, uning qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib

V) XIX asr boshlarida, qadriyatlarini o'zida aks ettiruvchi fan bo'lib

G) XIV asr boshlarida, Gnoseologiya-borliqni bilish va o'rganuvchi fan bo'lib

45. Sotsiologiya faniga kim asos slogan?

A) Ogyust Kont (1798-1857)

B) Dyurkgeym Emil (1858-1917)

V) Georg Zimmel (1858-1913)

G) Sorokin Pitrim Aleksandrovich (1889-1968)

46. "Pozitiv fan" qanday ma'noni bildiradi?

A) qaqiqiy fan

B) qaqiqiy bo'lmagan fan

V) Fanlarning bo'linishi

G) Jamiyat

47. "Pozitiv falsafa ruqi" kim tomonidan yozilgan va u qachon chop etildi?

A) O.Kont tomonidan XIX asrning 30-yillarida

B) Spenser tomonidan XX asrning 20 yillarida

V) Sorokin tomonidan 30-yillarida

G) Veber tomonidan XVIII asrning oxirida

48. Sotsiologiyaning jamiyatdagi aloqida o'rni nimadan iborat?

A) Milliy mafkurani shakllantirish, yaratish

B) Milliylikni targib etish

V) Millat qayotini o'rganish

G) Jamiyat qaqqidagi tasavvurni shakllantirish

49. Jaqonda birinchi marotaba qacda va qachon sotsiologiya kafedrası va fakulteti ochildi.

A) 1892 yilda Chikago universitetida

B) 1918-1919 yillarda Petrograd va Yaroslavl universitetlarida

V) 1960 yilda Leningrad universitetida

G) 1988 yilda Moskva, Severdlovek, Kiev uni versitetlarida

50. Sotsiologiya fani jamiyatning qaysi soxasi bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi

A) Jamiyatning turli soqalari bo'yicha

B) Jamiyatning iqtisodiy soqasi bo'yicha

V) Jamiyatning ijtimoiy soqasi bo'yicha

G) Jamiyatning siyosiy soqasi bo'yicha

51. O'zbekiston sharoitiga moslab... sotsiologiyani o'rganish ob'ektlarini ajrating.

A) Ijtimoiy bosqich... milliy bosqich... tarmoqlar bosqichi, xududiy bosqich.

B) Xududiy bosqich... umum mintaqaviy bosqich.

V) Ijtimoiy bosqich... jaqon davlatlari rivojlanish bosqichi.

G) Tarmoqlar bosqichi... millatlararo rivojlanish bosqichi.

52. Sotsiologiya tadqiqot predmeti bo'yicha nechaga bo'linadi va ular qaysilar

- A) 2 ga... Umumiy sotsiologiya va Maxsus sotsiologiya.
- B) 3 ga... Umumiy sotsiologiya... Maxsus sotsiologiya... Xududiy sotsiologiya.
- V) 1 ga... Maxsus sotsiologiyaga.

53. Sotsiologiya fanining murakkab vazifalarini nazariy xal etishga xizmat qiladigan o'ziga xos metodlarini ajrating.

- A) qiyoslash va taqqoslash, Izoqlash, Prognozlash qamda Nazariy metodlar
- B) induktiv va deduktiv, Eksperiment metodlar.
- V) Izoqlash, Integratsiya, umumlashtirish, Xujjatlarni o'rganish metodlari
- G) Prognozlash, Matematik metodlar

54. Ijtimoiy institutlarning nechta ko'rinishi mavjud?

- A. 2ta
- B. 3 ta
- V. 4 ta
- G. 5 ta

55. Sotsiologiyaning ob'ektni turlicha tushunish natijasida metodologiyaning 3 asosiy turi shakllanadi bular qaysilar.

- A) Tushuntiruvchi, Ta'riflovchi, Tushunuvchi
- B) Funktsional, Fenomenologik, Tasniflash
- V) Tushuntiruvchi, Ta'riflovchi, Fenomenologik
- G) Tushuntiruvchi, Tushunuvchi, Funktsional

56. Sotsiologiyadagi oqimlarni ko'rsating.

- A) Pozitivistik, nepozitivizm, Emperik sotsiologik oqim, strukturaviy funktsionalizm oqimi, Industrial jamiyatdan so'ng jamiyat kontseptsiyasi, Axborotga asoslangan jamiyat nazariyasi.
- B) Pozitivistik, Empirik sotsiologik, bixeviorizm oqim
- V) Empirik sotsiologik, nepozitivizm, Psixologik
- G) Neopozitivizm, Psixologik, bixeviorizm

57. Antik davr sotsiologiyasining birinchi namunalari kimlar tomonidan qacda vujudga keltirildi.

- A) Ioniya o'lkasi shaxarlarida yashovchi greklar tomonidan
- B) Aristotel tomonidan
- V) Gretsiyada yashovchi Geraklit tomonidan
- G) Gretsiyada yashovchi Porminid va Zenon tomonidan

58. Antik dunyo olamining "Oltin davri" mutafakkirlarini aniqlang.

- A) Sokrat, Levkip, Demokrit, Platon, Aristotel
- B) Suxrob, Abu Rayxon Beruniy, A.Navoiy
- V) Aristotel, Farobiy, Ibn Sino

59. Sotsiologiya fanining rivojlanishiga o'z fikrlari bilan xissa qo'shgan Sharq Mutafakkirlarini aniqlang.

- A) Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Al-Matrudiy, Al-Xorazmiy, Ibn Xoldun, Bobur
- B) Ibn Sino, Beruniy, Farobiy, Al-Matrudiy, Suxrob
- V) Ibn Sino, Farobiy, Beruniy, Suxrob, Aristotel
- G) Farobiy, Ibn Sino, O.Kont, Spenser, Veber

60. Sotsiologiyaning fan sifatida shakllanishining asosiy rivojlanish bosqichlari nechta?

A) 4 ta

B) 2 ta

V) 3 ta

G) 6 ta

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati

Raxbariy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2011.
2. Karimov I.A. Asarlar. 1-18 jild. – Toshkent: O'zbekiston, 1996-2010.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
4. Karimov I.A. Jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – Toshkent: O'zbekiston, 2009.
5. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontsepsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
6. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza (2010 yil 27 yanvar) Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.

Darslik va o'quv qo'llanmalar

1. Aliev B., Rafiqov G., Sultonov T., Mullajonova M., Rahmonov B. va boshqalar. Sotsiologiya. (O'quv qo'llanma). – Toshkent: TDYuI nashriyoti. 2006.
2. Sotsiologiya O'quv qo'llanma. Ubaydullaeva R.A., Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2002.
3. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. Aliqoriev N.S, Bekmurodov M.B., Ota-Mirzaev O.B., va boshq. – Toshkent, 2001
4. Umumiy sotsiologiya. (Aliqoriev N.S va Ubaydullaeva R.T tahriri ostida) – Toshkent: 1999.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Abu Nosir Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi nashriyot, 1993.
2. Veber M. Izbranno'e proizvedeniya. – M.: Progress, 1990.
3. Ganieva M.X. Etnosotsiologiya. Uchebnoe posobie dlya stud. vo'sshix uchebn. o'x zavedeniy. – Tashkent: Universitet, 2006.
4. Ganieva M.X. Vvedenie v sotsialnuyu rabotu. – Tashkent., 2011. 98 s.
5. Garadja. V.I. Sotsiologiya religii. – M., 2005.
6. Giddings E. Sotsiologiya. – Toshkent, 2002
7. Kravchenko A.I. Sotsiologiya. – M., 2006.
8. Latipova N.M. Politicheskaya sotsiologiya. Metodicheskoe posobie. – Tashkent., 2010. 14
9. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya. Slovar. – M.: Progress, 1990.
10. Sotsiologiya religii. V.I.Garadja. – M., 2005.
11. Sotsiologiya G'G'Uchebnoe posobie. Pod redak. d.f.n. Muxamedovoy Z.M., – Tashkent: Sanat, 2010
12. Qodirov A.Q. Sotsiologiya. – Toshkent, 2006.
13. Saitxodjayiv H.B. Sotsiologiya. Ma'ruzalar kursi. – Toshkent: Akademiya, 2008.

14. Holbekov A.J., Idivov U.Yu. Sotsiologiya: izohli lug'at-ma'lumotnoma. – Toshkent: Ibn-Sino nomidagi nashriyot, 1999.
15. Xolbekov. A.J. Boshqaruv sotsiologiyasi (o'quv qo'llanma). –Toshkent: Akademiya, 2007.
16. Ubaydullaeva R.A., Ota-Mirzaev O.B. va boshq. Sotsiologik tadqiqotlar amaliyoti (O'quv-uslubiy qo'llanma). –Toshkent: «Ijtimoiy fikr», 2001.
17. Farfiyev B.A., Nurullaeva U.N. Sotsiologiya tarixi. (Uslubiy qo'llanma). Toshkent: Universitet, 2009.
18. Bekmuradov M.B. Rol obshchestvennogo mneniya v sotsialno-kulturnom razviti obshchestva: Dis....dok.sotsiol.nauk. – Tashkent, 1997.
19. Farfiyev B.A. O'zbekistonda jamiyatni demokratishtirish jarayonida tafakkur tarzini takomillashtirishning ijtimoiy ma'daniy xususiyatlari: Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent, 1999.
20. Kalonov K.K. O'zbekiston o'zini o'zi boshqaruv tizimi dinamikasi tahlil qilishda avtoritetning tutgan o'imi: Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent, 2000.
21. Yunusov A.B. O'smir yoshlarda ijtimoiy deviantlik holatlarining sotsiologik xususiyatlari: Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent: O'zMU, 2004.
22. Norbekov A.Sh. O'zbekistonda ijtimoiy kafolat tizimini yaratish muammolari: siyosiy-sotsiologik tahlil. Dis....sotsiol.fan.nom. – Toshkent, 2004.
23. Latipova N.M. Rol molodo'x spetsialistov v transformatsii sotsialnoy strukturo'uzbekistanskogo obshchestva: Dis....kand.sotsiol.nauk. Tashkent, 2009.
24. Ganieva M.X. Obshchestvennoe mnenie kak faktor razvitiya mejnatsionalno'x otosheni: Dis....dok.sotsiol.nauk. – Tashkent. – Tashkent. 2009

Elektron ta'lim resurslari

1. <http://www.lib.socio.msu.ru>
2. <http://www.socioline.ru>
3. <http://www.socio.rin.ru>
4. <http://www.sociologos.narod.ru>
5. <http://www.socionet.narod.ru>
6. <http://www.sociograd.ru>

MUNDARIJA

- 1 **KIRISH.**
- 2 **I-Mavzu. Sotsiologiya fan sifatida**
- 3 Sotsiologiya fanining vujudga kelishida ijtimoiy-iqtisodiy, g'oyaviy-nazariy shart-sharoitlar. Antik davrning qomusiy olimlari va Sharq mutafakkirlarining ijtimoiy-falsafiy ta'limotlari (Platon, Aristotel, Farobiy, Ibn Xoldun va boshqalar)
- 4 Sotsiologiya fanining fan sifatida vujudga kelish tarixi
- 5 Sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti qonun, kategoriyalari, metod va metodologiyalari, fanining funksiyalari.
- 6 Sotsiologiyaning fanlar tizimidagi tutgan o'ziga xos o'rni va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi.
- 7 **II – mavzu. Sotsiologiya strukturasi.**
- 8 Sotsiologiyada struktura tushunchasi va uning ahamiyati.
- 9 Sotsiologiyaning strukturasi va uning asosiy tarkibiy qismlari
- 10 Fundamental sotsiologiya. Makrosotsiologiya va mikrosotsiologiya
- 11 **III – mavzu. Jamiyat va ijtimoiy tizim tushunchalari**
- 12 Jamiyat va ijtimoiylik tushunchasi hamda sharq mutafakkirlarining jamiyat to'g'risidagi qarashlari
- 13 Jamiyatning (yo'nalishlari) mexanistik, organistik va boshqa tarzlarda ta'riflanishini.
- 14 Hozirgi kun jamiyatining ko'rinishlari va jamiyatning tuzilishi
- 15 **IV-Mavzu: Sotsial guruhlar va sotsial institutlar**
- 16 Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari sotsial guruh turlari.
- 17 Sotsial institut tushunchasi va uning turlari
- 18 Sotsiologiyada oila ijtimoiy institut sifatida, uning struktura va funksiyalari. Oilaning turlari
- 19 **V-mavzu. Shaxs sotsiologiyasi va deviant xulq-atvor**
- 20 "Odam", "indivud", "shaxs" tushunchasi. Shaxs va uning xususiyatlari.
- 21 Shaxs to'g'risidagi asosiy sotsiologik nazariyalar, shaxs ijtimoiylashuvining fazalari, shaxs manfaat turlari.
- 22 Deviant xulq-atvor (og'ma xulq-atvor) tushunchasi va uning turlari.
- 23 Sotsial sanksiya turlarini tushuntirish
- 24 **VI – mavzu. Jamoatchilik fikri va mahalla sotsiologiyasi..**
- 25 Jamoatchilik fikri sotsiologiyasining ob'ekti va sub'ekti.
- 26 Jamoatchilik fikrining dolzarb yo'nalishlari va ularning ijtimoiy hayotda namoyon bo'lishi
- 27 Mahalla o'ziga xos sotsiologik ob'ekt sifatida O'zbekistondagi mahalliy boshqaruv tizimi shakli
- 28 **VII – mavzu. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi. Ijtimoiy stratifikatsiya.**
- 29 Jamiyat va ijtimoiy tizim tushunchalari.
- 30 Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, sotsial stratifikatsiya va sotsial mobillik.
- 31 Hozirgi kun jamiyatining ko'rinishlari.
- 32 **VIII-mavzu. Sotsial munosabatlar sotsiologiyasi**
- 33 Sotsial munosabatlar tushunchasi
- 34 Sotsial munosabat turlari.
- 35 Begonalashuv turlari va ularning ijtimoiy oqibatlari
- 36 **XIX-mavzu. Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash sotsiologiyasi.**
- 37 Ijtimoiy amaliyot va taraqqiyot tushunchalari hamda ijtimoiy islohotlarning to'liqlari.

- 37 Ijtimoiy islohatlarda halk ta'limi tizimi va ta'lim-tarbiya sotsiologiyasi
- 38 Kadrlar tayorlash sotsiologiyasi.
- 39 **XX- mavzu.** Sotsiologik tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazish.
- 40 Empirik sotsiologik tadqiqot uning asosiy bosqichlari
- 41 Sotsiologik ma'lumotlarni yig'ish usullari: kuzatish, so'rov, hujjatlarni o'rganish, eksperiment.
- 42 Sotsiologik ma'lumotlarni qayta ishlash, tahlil qilish, umumlashtirish, xulosa yasash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.
- 43 Sotsiologik tadqiqot natijalaridan amaliy foydalanish.
- 44 "Sotsiologiya" fanidan test savollari.
- 45 Adabiyotlar.